

FITOTERAPIYA




TOSHKENT – 2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

FITOTERAPIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT – 2013

UO‘K: 58(075)
KBK 28.5
F-15

F-15 Fitoterapiya. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 336 bet.

ISBN 978–9943–10–972–8

Mazkur darslik qabul qilingan o‘quv dasturi bo‘yicha yozilgan bo‘lib, Toshkent farmotsevtika instituti talabalari uchun mo‘ljallangan. Darslik Toshkent Farmatsevtika institutining farmokologiya va klinik farmatsiya kafedrası xodimlari tomonidan yaratilgan. U ikki–umumiy va xususiy qismdan iborat. Fitoterapiyaning umumiy masalalari fan tarixi, dorivor o‘simliklar tasnifi, fitopreparatlarni yaratilishi, dozalanishi va boshqalar o‘rin olgan. Xususiy masalalar qismida esa dorivor o‘simliklar va ulardan olingan farmokologik faol moddalar saqlagan fitopreparatlarning kimyoviy tarkibi, farmodinamikasi va turli kasalliklarda ishlatilishi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Fitoyig‘malarga misollar keltirilgan. Darslikda sobiq ittifoqda, shu jumladan. asosan, Markaziy Osiyo va ayniqsa, O‘zbekistonda o‘sadigan va o‘stiriladigan shifobaxsh o‘simliklar va ularning ko‘pchiligini rasmlari, dorivor o‘simliklarning o‘zbekcha, ruscha-lotınca nomlarining ko‘rsatgichlari ham berilgan.

UO‘K: 58(075)
KBK 28.5ya721

***Mualliflar:* M.Maxsumov, X.Aliyev, S.Saidov, Sh. Maxsumov**

***Taqrizchilar:* X.M. Komilov – f.f.d., professor;
I.R. Mavlyanov – t.f.d., professor;
O‘.P. Pratov – b.f.d., professor.**

ISBN 978–9943–10–972–8

© M.Maxsumov va boshq., 2013.
© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, o'simlik dunyosi inson sog'ligini saqlashda asosiy vositalardan biri sifatida unga xizmat qilib kelmoqda. Odamlar o'simlik mevasi, o'ti, ildizi, po'stlog'i va boshqa qismlarini yig'ib turli xastaliklarda ishlatib kelganlar. Xalq tabobatida shifobaxsh o'simliklardan foydalanish o'zining boy tarixiga ega. Hozirgi paytda bemorlarni davolashning bir turi sifatida fitoterapiya o'z o'rnini topdi, tan olindi va rasmiy ravishda qabul qilingan.

Ayniqsa, XXI asrning boshlanishi va hozirgacha bemorlarni shifobaxsh o'simliklar bilan davolashga qiziqish ancha yuqori. Statistika bo'yicha turli davlatlarda shifokorlar tomonidan tavsiya etilayotgan dori vositalarining 20 – 60% ni dorivor o'simliklarning preparatlari tashkil etadi.

Shifobaxsh o'simliklar va ularni ishlatish to'g'risida juda ko'p turli risolalar, ma'lumotnomalar, kitoblar nashr etilgan. Lekin bulardan to'liq foydalanish shifokorlar va provizorlar uchun ancha murakkablik tug'diradi. Shuning bilan birga, fitoterapiya alohida fan sifatida malaka oshirish institutlari va fakultetlari, shu jumladan, Toshkent farmatsevtika instituti klinik farmatsiya yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasiga kiritilishi ushbu o'quv adabiyotini yaratish zaruriyatini tug'dirdi.

Darslik qabul qilingan dastur asosida tuzilgan bo'lib, ikki qismdan – fitoterapiyaning umumiy va xususiy masalalaridan iborat.

Umumiy qismida dorivor o'simliklardan tayyorlangan va ajratib olingan biologik faol moddalar preparatlarini ishlatish bilan bog'liq bo'lgan umumiy masalalar (dozalanishi, ishlatish yo'llari, ta'sir turlari, dori shakllari va boshqalar). Xususiy bo'limda turli kasalliklarda ishlatiladigan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Shu jumladan, dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibi, farmakologik xossalari, ulardan tayyorlangan va olingan fitopreparatlarning ishlatilishi bo'yicha ma'lumot keltirilgan. Bundan tashqari, fitopreparatlar qo'llanadigan kasalliklar to'g'risida ham qisqacha

soʻz yuritilgan. Turli kasalliklarda ishlatiladigan fitoyigʻmalar ham oʻrin olgan.

Darslikning yaratilishida bir qator adabiyotlardan (X.X.Xolmatov, S.Ya.Sokolov, B.A.Samura va b.) foydalanildi.

Oʻquv adabiyoti Toshkent farmatsevtika instituti klinik farmatsiya yoʻnalishining talabalari, malaka oshirish fakulteti tinglovchilari uchun ham foydali boʻlishi mumkin.

Darslik kamchiliklardan xoli emas. Bu toʻgʻrida fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

Mualliflar.

FITOTERAPIYA FANI, VAZIFALARI

Fitoterapiya soʻzi bemorlarni dorivor oʻsimliklar bilan davolashni anglatadi.

Fitoterapiya bemorlarni davolashda va kasallikning oldini olishda alohida yoki qoʻshimcha davo turi sifatida keng qoʻllanib kelinayapti. Chunki uning boy tarixi va xalq tabobatida keng ishlatilishi buni taqozo etadi.

Davo koʻrsatishning turi sifatida fitoterapiyaning asosiy vazifalari quyidagicha:

1. Biologik faol oʻsimliklarni topish va oʻrganish.
2. Oʻsimliklarni fitokimyoviy oʻrganish va biologik faol moddalarni ajratish.
3. Oʻsimliklarni va ularning tarkibidagi biologik faol moddalarni farmakologik taʼsirini va xavfsizligini tekshirish.
4. Dorivor oʻsimliklardan ajratib olingan va ularning oʻzidan tayorlangan preparatlarning farmakodinamikasini va farmakokinetikasini oʻrganish.
5. Eksperimental tekshiruvdan oʻtgan shifobaxsh fitopreparatlarni tibbiyot amaliyotiga tadbiiq etish.

Bulardan tashqari fitoterapiya fitopreparatlarning dozalanishi, ishlatish tartibi, yuborish yoʻli va boshqa masalalar bilan ham shugʻullanadi. Shu jumladan, fitopreparatlarni qanday kasalliklarda berilishi yoki man etilishi, tarkibida bir necha oʻsimliklar saqlangan (ulardan ajratib olingan biologik faol moddalarni saqlagan preparatlarni ham) preparatlarni tayyorlashda, ularning bir-biriga nisbatan kimyoviy va farmakologik mosligi, fitopreparatlarning nojoʻya taʼsiri va boshqalarni oʻrganish fitoterapiyaga tegishlidir.

Koʻpincha fitoyigmalar quyidagi 4 guruh dorivor oʻsimliklardan tashkil topadi:

1. Asosiy taʼsir etuvchi oʻsimlik.
2. Qoʻshimcha taʼsir etuvchi oʻsimlik.
3. Preparatga taʼm va yoqimli hid beruvchi oʻsimlik.
4. Nojoʻya taʼsirni bartaraf etuvchilar.

Ayrim hollarda yigʻmadagi bir oʻsimlikning oʻzi asosiy hisoblanishi bilan birga taʼm va xid berishi mumkin. Masalan, yalpizning barglari, tinchlantiruvchi va spazmolitik taʼsir etishi bilan birga hid va taʼm beruvchi oʻsimlik sifatida ishlatilishi mumkin.

Dorivor oʻsimliklarning shifobaxsh taʼsiri ularning tarkibidagi biologik faol moddalarga bogʻliq. Bu moddalarning kimyoviy tuzilishi turlicha boʻlib, har xil farmakologik taʼsirga ega boʻlishi mumkin. Shuning uchun dorivor oʻsimliklardan tayorlangan preparatlarning taʼsiri tarkibidagi faol moddalar yigʻindisidan kelib chiqadi. Bunday taʼsir etuvchi faol moddalarning miqdori har xil va oʻzgaruvchan boʻladi. Lekin oʻsimlikning qaerda oʻsganligidan qatʼiy nazar umuman olganda ularning sifat tomonidan tarkibi kam oʻzgaruvchan boʻladi (oʻsimlik oʻsish davri, sezon, yigʻib olish vaqti, saqlash va boshqalarga ham katta ahamiyatli). Oʻsimlik tarkibidagi biologik faol moddalar birinchi va ikkinchi jarayonda hosil boʻladi. Birinchi jarayonda sintez boʻladiganlarga oqsillar, lipidlar, karbon suvlar, fermentlar va vitaminlar, ikkinchisiga esa alkaloidlar, glikozidlar, fenol birikmalari, efir moylari, oshlovchi moddalar, pektinlar, kumarinlar, fitonsidlar va boshqalar kiradi. Bulardan tashqari, oʻsimliklarda erkin holda (70-90%) suv ham boʻladi. Fitoyigʻmalarda, koʻproq hollarda alkaloidlar, glikozidlar, efir moylari va boshqa asosiy taʼsir etuvchilar roʻlini bajaradi. Flavonoidlar, vitaminlar, oshlovchilar va boshqalar esa qoʻshimcha taʼsir hisoblanadi. Oʻsimliklar tarkibida bulardan tashqari biologik faol – farmakologik indifferent moddalar boʻlishi mumkin.

Shunday qilib, fitoyigʻma preparatlarning shifobaxsh taʼsiri tarkibidagi biologik faol moddalardan kelib chiqadi. Ulardagi asosiy taʼsir etuvchi moddalarni (alkaloidlar, glikozidlar, kumarinlar va boshqalar) taʼsiri esa kompleks ravishda boʻla olmay, spetsifin hisoblanadi. Masalan, yurak glikozidlaridan digoksin, digitoksin, rauvolfiya oʻsimligidan rezerpin, aymalin, bellodonnadan olingan atropin preparati va boshqalar.

Fitoterapiyada dorivor oʻsimliklardan tayyorlangan va ulardan ajratib olingan biologik faol moddali preparatlar turli dori shaklida tayyorlanadi va tayyor holda chiqariladi: damlama, qaynatma, nastoyka, quruq va suyuq ekstrakt. Oʻsimlikdan ajratib olingan

biologik faol moddalarni saqlagan preparatlar esa tabletka, eritma, in`eksiya uchun ampulida va boshqa dori shaklida chiqariladi.

Fitopreparatlarning shifobaxsh ta`siri ko`p tomondan ularning dori shakliga ham bog`likdir. Shuning uchun fitopreparatlarni tayyorlashda davlat farmakopeyasi bo`yicha dori shakllari tayyorlanadi va boshqa preparatlar singari har tomonlama farmakologik va toksikologik tomonidan o`rganiladi. Keyin esa tegishli davlat muassasasi ruxsati bilan klinik tekshiruvdan o`tadi.

Fitoterapiyaning qisqacha tarixi

Turli o`simliklardan davo sifatida foydalanish juda qadim zamonlardan ma`lum. Ibtidoiy davrda odamlar atrof-muhitdagi o`simliklardan faqat oziq-ovqat uchun emas, balki ularning bezararligidan davo etish maqsadida turli shikastlanishlarda, xastalanishlarda qo`llaganlar. O`simliklarning bunday xususiyatlari og`izdan-og`izga o`tib, keyinchalik yozuv paydo bo`lishi bilan ular to`g`risidagi ta`lumotlar yozib qoldirilgan. Bunga misol qilib eramizdan ancha oldin qoldirilgan Ebers papirusi, sopolga yozilgan ma`lumotlarni keltirish mumkin. Tarix shuni ko`rsatadiki, Osiyoning markazida va janubida joylashgan qator davlatlarda (Misr, Xindiston, Xitoy, Tibet va boshqalar) qadim zamondan bemorlarni shifobaxsh o`simliklar bilan keng miqyosida samarali davo qilib kelingan. Buni tasdiqi sifatida «Jashur-veda» («Hayot haqidagi Fan»), «Djudshi» («Shifobaxsh dori darmonlar mohiyati») kabi qo`lyozmalarni keltirish mumkin. Fitoterapiya tarixida ayniqsa, Abu Bakr Muhammad ibn Zakiriya ar-Roziy, abu Rayhon Beruniy, Ismoil al Jurjoniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning xissasi salmoqlikdir. Bularidan Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari olamshumul ahamiyatga sazovordir.

Ibn Sino 980-yilning 16-avgustida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog`ida tavallud topgan va 1037-yili Xamodonda vafot etgan. Uning maqbarasi ustida 12 ustundan iborat gumbaz qad ko`tarib turadi. Bu ibn Sino tomonidan o`sha davrdagi 12 fan yo`nalishini mukammal egallagani to`g`risida xabar beradi.

Ibn Sino tibbiyotga bag`ishlangan 55 ta asar yozgan. Shu jumladan, «Tib qonunlari» 5 qismdan iborat. Kitobning ikkinchi

qismida dorivor moddalarni – 811 ta o'sha davrdagi o'simliklarni shifobaxsh xususiyatlari keltirilgan. Bu o'simliklarni 105 tasi hozirgi zamon tabobatining amaliyotida qo'llanadi.

Ibn Sinoning «Tib qonunlari»da qayd etilgan dorivor o'simliklar, ularning ishlatilishi va qo'llash usullari alohida ahamiyatga ega. Chunki ibn Sino o'zigacha o'tgan tabiblarning tajribalarini sinchiklab o'rganib, ularni yanada mukammallashtirgan, ularga yangi muolajalar qo'shib, o'sha davrdagi xalq tabobatida ishlatib kelingan dorivor o'simliklar va mevalarning tibbiyotdagi ahamiyatini har tomonlama ochib bergan. Shuning uchun ham ibn Sino merosini o'rganish, u ishlatgan dori vositalarini ilmiy va nazariy tomondan asoslab berish va hozirgi zamon tibbiyot amaliyotiga tadbiq etish farmakologlar, fitoterapevtlar va provizorlarning davr talabidan kelib chiqqan muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Yuqorida keltirilgan mulohaza va fikrlarni inobatga olib va ularni amalga oshirishda Respublikamiz Prezidenti tomonidan 1999-yil 6-yanvarda qabul qilingan «Ibn Sino xalqaro jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni katta rol o'ynaydi.

Ushbu farmonda jumladan, «Ibn Sinoning ijobiy merosini» chuqur o'rganish ishlarini tashkil etish, buyuk olim asarlarini tartibga solish va ularni nashr etishga ko'maklashish va ibn Sinoning tibbiy va ilmiy-ma'naviy merosiga oid tadqiqotlar olib borish, olimlarning bu boradagi ilmiy faoliyatini rag'batlantirish hamda tibbiyot va dorishunoslik sohasidagi eng yaxshi ishlar uchun ibn Sino nomidagi mukofot ta'sis etish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'tarilgan. Ushbu farmon o'zining ijobiy natijalarini berayapti.

XVII-XIX asrlarga kelib, kimyo fanining rivojlanishi natijasida sintez yo'li bilan olinadigan dori preparatlari yaratishga imkon ochib berdi. Shu sababdan dorivor o'simliklarga qiziqish kamaydi. Sun'iy yo'l bilan olingan dori preparatlarini davo effekti samarali bo'lsada, ular organizm uchun yod bo'lgani uchun turli asoratlarni, nojo'ya holatlarni keltirib chiqarish ayon bo'lib qoldi. Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, bemorlarning 2,5-5% ni shunday dori moddalari keltirib chiqargan turli asoratlar tashkil etadi.

Bu borada shifobaxsh o'simliklarning xujayra tuzilishi va tarkibidagi kimyoviy moddalar odam tanasi metabolitlariga yaqin turadi. Shu sababli fitopreparatlarning ko'pchiligi bemor uchun zaharsiz yoki salbiy ta'siri juda kam.

XXI-asrni boshlanishida dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish ancha oshdi.

Respublikamizda shifobaxsh o'simliklarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etishda yoki fitoterapiyani rivoj topishida farmakologlardan I.I.Markelov, N.N.Kompasev, I.K.Komilov va boshqalarning xissasi kattadir.

O'zbekiston shifobaxsh giyohlarga boy diyor. Respublikamizda 4000 dan ortiq yovvoyi o'simliklar o'sadi. Shulardan faqatgina 100 dan ko'prog'i tibbiyot amaliyotida ishlatiladi. Xalq tabobatida esa hududimiz o'simliklaridan 600 ga yaqini dorivor hisoblanadi va ishlatiladi. Bu degan so'z respublikamizda o'sadigan va o'stiriladigan shifobaxsh o'simliklar soni juda ko'p va ular yangi dori-darmonlar fitopreparatlar yaratishda bitmas-tuganmas manba hisoblanadi.

Bu borada bir qator respublikamiz olimlari samarali, ilmiy va amaliy ishlar olib borishyapti. Ayniqsa, Respublikamizda dorivor giyohlarni har tomonlama o'rganish va ulardan biologik faol moddalarni olish va tibbiyot amaliyotida tatbiq etishda akademik S.Yu.Yunusov nomidagi u boshqargan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi O'simlik moddalari kimyosi ilmiy tekshirish instituti olimlarining bu sohada ilmiy, nazariy, amaliy ishlari kimyo va tibbiyot olamida mashhurdir. Bular qatoriga farmakologlardan I.K.Komilov, M.B.Sultonov va ularning bir qator shogirdlarini (U.B.Zakirov, S.S.Azizova, X.U.Aliyev va boshqalarni) keltirish mumkin. Ushbu institutda parpi (akonit) o'simligidan olingan alkaloid sanaluvchi aritmiya kasalligida samarali bo'lgan allapinin preparati ko'p xorijiy mamlakat olimlari (vrachlar, kimyogarlar, dorishunoslar) tomonidan tan olindi va tibbiyot amaliyotida keng miqyosida ishlatib kelinyapti. Shuni qayd etish lozimki, ushbu dori preparatini yaratishda (kimyogarlar, farmakologlar, ishlab chiqarish xodimlari) va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda o'z xissasini qo'shgan institut xodimlaridan bir guruhi 2007-yili fan va texnika

bo'yicha Birinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar (Bu olimlar orasida farmakolog F.N.Joxongirov ham bor).

Shuning bilan birga fitoterapiyani Respublikamizda rivoj topishida Toshkent farmatsevtika instituti bir qator olimlarining (X.X.Xolmatov, T.P.Pulatova, X.U.Aliev va boshqalar) olib borayotgan ilmiy va amaliy ishlari salmoqlidir. Institut xodimlari tomonidan 10 dan ortiq o'simlikdan tayyorlangan dori preparatlari tibbiyot amaliyotiga tatbiq etilgan va ular bemorlar dardiga davo qilayapti.

Ma'lumki, fitoterapiya hamma mavjud kasallikga davo ko'rsata olmaydi. Uning shifobaxsh ta'siri boshqa davo turlari va usullari bilan birga qo'llanganda yaxshi yuzaga chiqadi. Boshqacha aytilganda bemorga davo ko'rsatishda faqat fitoterapiyadan cheklanib qolmasdan, boshqa mavjud dori vositalari va usullaridan, shu jumladan, sintetik va yarim sintetik dorilardan, fizioterapiya, dietoterapiya va boshqalardan foydalanilganda davo samarasi yuqori bo'ladi. Bularga misol qilib tibbiyot amaliyotida keng miqyosida ishlatib kelinayotgan kordiovalen, marelin, kafiol, urolesan, vikanr va boshqalarni keltirish mumkin. Asosan fitoterapiya surunkali kechadigan kasalliklarda ancha foydali hisoblanib, davo ko'rsatishning bir turi sifatida qaraladi. Fitoterapiyani uzoq muddat qo'llanishi, asoratlarni kam ko'rsatishi, ularni ayrimlarini uy sharoitida tayyorlash mumkinligi, bunda katta xarajat bo'lmasligi hamda shifobaxsh ta'siri ko'p qirrali bo'lishi uni boshqa turlariga nisbatan ustunligidir. Shunga qaramay ayrim hollarda fitoterapiya bemorlarga davo kursatishda uni qo'shimcha turi sifatida qaraladi.

Fitopreparatlarni tayyorlash yoki ulardagi o'simlikdan yakka holdagi biologik faol moddasini saqlagan preparatlarni olish uchun qo'llanadigan o'simliklarning ma'lum qismlari yoki shu o'simlikdan birlamchi ishlash yo'li bilan olingan moddalar (efir moyi, daraxt yelimi, moy va boshqalar) dorivor o'simliklar mahsuloti deb yuritiladi. Odatda, ushbu mahsulotlar biologik faol moddalarni ko'p miqdorda saqlaydi. Dorivor mahsulot sifatida o'simliklarning yer ustki qismi (bargi, guli, mevasi, urug'i, po'stlog'i, kurtagi, o't o'simliklarning butun yer ustki qismi (o'ti) yoki yer ostki qismi (ildizi, piyozi, tuganogi)) bo'lishi mumkin.

Ushbu o'simlik mahsulotlaridagi biologik faol moddalar giyohning o'sish-rivojlanish davriga, yilning fasliga qarab ko'p miqdorda to'planadi, ayni shu vaqtda ular yuqori sifatli hisoblanadi. Shunga qarab, masalan, o'simlikning yer ustki qismi o'simlik gullaganda, barglari gullashdan oldin yoki gullaganda, kurtaklar va pustloqlar o'simlik tanasida suyuqlik yura boshlaganda (erta bahorda), yer ostki qismi esa odatda, o'simlik uyquga kirganda (kech kuzda) yig'iladi.

Dorivor o'simliklarni yig'ishda quyidagilar talab qilinadi:

1. Dorivor o'simlik mahsulotlari oldindan mo'ljallangan, ruxsat etilgan yerda va miqdorda yig'iladi.

2. Ushbu mahsulotlar qabul qilingan qoida bo'yicha quritilishi lozim.

3. Ko'p yillik o'simliklarni yer ustki qismi tayyorlanishida ularning ildizi qoldirilishi lozim.

4. Ildiz va ildiz poyani kovlab olishda ildizning bir qismi qoldiriladi.


5. O'simlik mahsulotlarini tayyorlashda yaxshi taraqqiy etgan, yetilgan, gullab turgan o'simlikni (uning mevasi yetilib, urug'lari sochilib ko'payishi uchun) qoldirilishi zarur.

Ushbu qoidalar inobatga olingandagina dorivor o'simliklarning manbai sira kamaymaydi va ular abadiy saqlanib, ko'p bemorlarga davo ko'rsatishda o'z xizmatini ko'rsatadi.

Yangi dori vositalarning yaratilishi va tibbiyot amaliyotiga joriy etilishi

Yuqorida qayd etilganidek dori moddalarining yaratish manbalaridan biri o'simliklar, qisman jonivorlar va mineral moddalar hisoblanadi. Dorivor o'simliklarni davo sifatida qo'llanishi xalq tabobatida keng miqyosida uzoq davr davomida olib boriladi. Lekin dorivor o'simliklarning tarkibidagi kimyoviy moddalarni shu jumladan, biologik faol moddalarni aniqlash va ularning shifobaxsh ta'sirini ilmiy-nazariy asoslash XVIII-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Bu borada hozirgacha ilmiy ishlar kimyogarlar, farmakognostlar tomonidan olib borilyapti. Bularni hammasi yangi dori vositalarini jumladan, fitopreparatlarni

Yangi dori moddasining klinikagacha tekshiruvdan o'tish yo'li



yaratishga qaratilgan. Har bir modda qaysi manba'dan olingan yoki tayyorlangan bo'lmasin (o'simliklardanmi, kimyoviy sintez yo'li bilanmi, mikroorganizmlardanmi, hayvon va odamlar organizmidanmi, minerallardanmi) dori vositasi bo'lishi uchun butun dunyo davlatlarida qabul qilingan qoida bo'yicha tekshiruvdan o'tishi shart hisoblanadi. Bu qoidalarga binoan ushbu modda oldin klinikagacha bo'lgan eksperimental tekshiruvdan o'tkaziladi. Bu tekshiruv farmakologlar tomonidan laboratoriya hayvonlarida o'tkaziladi. Bundan asosiy maqsad moddaning biologik faolligini o'rganish, uning dori moddasi sifatida ishlatish mumkinligini va odam organizmi uchun bezararligini aniqlashdir. Eksperimental tekshiruvda turli zamonaviy usullardan (farmakologik, fiziologik, patofiziologik, biokimyoviy, gisto-morfologik va boshqalar) foydalanishadi. Bu jarayon ancha murakkab bo'lib, turli sohadagi mutaxassislar (kimyogorlar, texnologlar, farmakognostlar va boshqalar) qatnashishida bajariladi. Chunki olib borilayotgan tekshiruv Respublika Sog'liqni Saqlash qoshidagi «Dori vositalar va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi»ga qarashli farmakologik qo'mitasini bo'lajak yangi dori vositalariga qo'yiladigan talablar bajarilishi talab qilinadi. Umuman olganda klinikagacha bo'lgan bu eksperimental ishlar ancha mablag'ni va vaqtni talab etadi. Ayniqsa, sintetik ravishda olingan bo'lajak dori moddalariga qo'yilgan talab juda yuqori darajada. Agar ushbu talablar bajarilgan bo'lsa, tekshirilgan modda dori sifatida ishlatishga asos bo'lib, qo'mita klinikasida cheklangan tekshiruv o'tkaziladi. Yangi dori moddasining amaliyotga joriy etilish yo'li sxemada ko'rsatilgan.

FITOTERAPIYANING UMUMIY MASALALARI

Darslikning ushbu bo'limida dorivor o'simliklardan tayyorlangan va ulardan ajratib olingan yakka holdagi biologik faol moddani saqlagan preparatlarning tibbiyot amaliyotida ishlatish bilan bog'liq umumiy masalalar o'rin olgan.

Bu quyidagi masalalar fitopreparatlardan samarali va zararsiz foydalanishda katta ahamiyatlidir.

Dozalar.

O'lov birliklari

Ma'lumki, har bir dori preparat, uni qaysi manba'dan olingan yoki tayyorlangan (o'simliklardan, sintez yo'li, turli mahsulotlardan) va qanday dori shaklida (damlama, qaynatma, tomchilar, tabletka, in'eksiya uchun va boshqalar) bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir miqdorda-dozada ishlatiladi va o'rganiladi. Dori vositasining farmakologik va farmakoterapevtik ta'siri ko'p tomondan uning ishlatiladigan dozasiga bog'liqdir.

Umuman olganda modda dozasiga qarab uning turlari quyidagicha bo'lishi mumkin: o'lim chaqiradigan doza, zaharli doza va davo (terapevtik) doza.

Dori vositasining o'lim chaqiruvchi dozasi laboratoriya hayvonlarida (sichqon, kalamush va boshqalar) aniqlanadi. Bunda dorining o'lim (letal) dozalari (LD_{50} , LD_{100}) topiladi. Bular ushbu dori preparatining biologik faolligini ko'rsatgichlaridan hisoblanadi. Ushbu ko'rsatgichga qarab dori moddasining zaharli va terapevtik dozalari aniqlanadi. Fitopreparatlarning ko'pchiligi kam zaharli yoki zaharsiz bo'lgani sababli ularning bu ko'rsatgichlarini ko'pincha aniqlab bo'lmaydi.

Dori vositalarining zaharli dozasi o'lim chaqiruvchi dozadan kichik bo'lib, organizmga zararli-zaharli holatlarni keltirib chiqaradi. Afsuski bunday holatlar tibbiyot amaliyotida va hayotda uchrab turadi. Ayniqsa, shifokorning tavsiyasiz bemorlarni o'zicha dori vositalarini qabul qilishda kuzatalishi mumkin. Bunday holat fitopreparatlarni tavsiyasiz o'zicha yoki mutaxassis bo'lmagan o'zgalarning tavsiyasi bilan tayyorlashda va ishlatishda kuzatilishi ham mumkin.

Dori vositalarining terapevtik dozasi ishlatilganda bemorlarga davo ko'rsatadi. Kasallikka naf qiladi, foydali ta'sir etadi. Bu dozaning uch hil turi mavjud: 1) maksimal (eng yuqori) terapevtik doza; 2) o'rtacha terapevtik doza; 3) minimal (eng kichik) terapevtik doza.

Terapevtik dozaning bu turlari bo'lishi mumkin: bir martalik va bir sutkalik (kecha-kunduzlik).

Dori preparatlarining maksimal bir martalik yoki bir sutkalik dozasi tibbiyot amaliyotida ayrim hollarda (zarbdor doza) ishlatiladi (antibiotiklar, sulfanilamidlar va ayrim fitopreparatlar).

Ko'pincha dori vositalarining o'rtacha terapevtik bir martalik dozasi ularning bir martalik maksimal terapevtik dozasining yarmi yoki uchdan bir qismini tashkil etadi. Masalan, belladona o'simligidan olinadigan belladona quruq ekstraktining farmakopeya bo'yicha terapevtik maksimal bir martalik dozasi 0,05g-ga teng. Bu ekstrakt tabletka shaklida 0,015g-dan chiqariladi va ishlatiladi. Belladonna nastoykasining bir martalik maksimal terapevtik dozasi 23 tomchi bo'lsa, o'rtacha terapevtik dozasi esa 5-10 tomchi, bir sutkalik maksimal terapevtik dozasi 70 tomchi (1,5ml). Amaliyotdagi deyarlik ko'pchilik dori preparatlari (fitopreparatlar ham) bir martalik o'rtacha terapevtik dozada chiqariladi, tayyorlanadi va davo ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Dori vositalari minimal terapevtik dozada kam ishlatiladi. Asosan kasallikni yengil o'tishida, davo natijasida kasallikni bartaraf etish davrida va boshqa holatlarda qo'llanadi.

Dori vositasining bir martalik minimal terapevtik dozasi dan to maksimal davolovchi dozasi gacha bo'lgan oraliq uning terapevtik spetsifik ta'sir doirasi deyiladi. Maksimal terapevtik dozaning minimal terapevtik dozaga nisbati dorining terapevtik spetsifik indeksi deb yuritiladi. Ushbu ko'rsatgichlar qancha katta bo'lsa dori vositasi shuncha organizm uchun xavfsiz hisoblanadi. Ayniqsa, bu fitopreparatlarga xosdir.

Dori vositalarining terapevtik ta'sir doirasi – bu minimal terapevtik doza bilan o'lim chaqiruvchi dozasi dagi oraliqdir. Bu ham qancha keng bo'lsa dori vositasi shuncha bezarar hisoblanadi. Bunga ko'pchilik fitopreparatlar misol bo'laoladi.

Ayollarga dozani aniqlashda erkaklar dozasi ning 4:5 qismi olinadi. 60 yoshdan oshgan bemorlarga esa dozaning yarmi va ayrim dorilarni 1:3 qismi tayinlanadi.

Bolalar uchun dozani belgilash ancha murakkab bo'lib, aniq tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Umuman olganda, bolalarga dori dozasi ni aniqlashda quyidagi formulani qo'llash qulay hisoblanadi:

Bolaning yoshi, katta yoshdagi odam dozasi, bola tana vazni

70 – o‘zgarmas son bo‘lib, 70 katta yoshdagi odamning o‘rtacha vazni (og‘irligi) olingan.

Fitopreparatlarning o‘lchov birliklari boshqa dori vositalari singari gramm (g), milligramm (mg), mikrogramm (mkg), millilitr (ml), ta‘sir birligi (TB) bilan ifodalanadi. Dorivor o‘simlikdan tayyorlangan fitopreparatlar (damlama, qaynatma, yig‘ma va choylar) asosan qoshiqlarda (osh, choy qoshiq), ryumka, stakanlarda bemorning o‘zi tomonidan dozalanib, qabul qilinadi. O‘simlikdan tayyorlangan spirtli ajratmalar (nastoyka, suyuq ekstrakt) tomchilar holida dozalanadi (valeriana, arslonquyruq, jag‘-jag‘ va b.). Antiseptik ta‘sirli dorivor o‘simliklarni sirtga qo‘llash (chaiish, yuvish, vanna va b.) uchun suvli ajratmalari ishlatilishi mumkin.

Dorivor o‘simliklardan olingan quruq ekstraktlar va yakka holdagi biologik faol moddalar (alkaloidlar, gulikozidlar va b.) saqlaganlari poroshok va tabletkalar shaklida, ayrimlari esa suyuq holda va ampulalarda tayyor dori shakllarida chiqariladi (yurak glikozidlari, rezerpin, belladonna ekstrakti va b.).

Shunday dori vositalari borki, ularni standartlashda biologik - farmakologik yo‘ldan foydalaniladi yoki asosiy farmakologik ta‘sirini standart preparat bilan solishtirish laboratoriya hayvonlarida aniqlanib, ta‘sir birligi (TB) bilan ifodalanadi. Bunday dorilar qatoriga antibiotiklar, garmonal preparatlardan tashqari ayrim shifobaxsh o‘simliklar (angishvonagul va b.) ham kiradi. Biologik standartlashdan asosan tarkibi murakkab bo‘lgan, faol moddalarni fizik-kimyoviy yo‘l bilan aniqlash usullari bo‘lmagan va boshqa holatlarda foydalaniladi. Masalan, angishvonagul o‘simligini standartlashda, uning qurbaqa yoki mushuk yuragiga bo‘lgan ta‘siridan (yurakni sistolik holda to‘xtashi) foydalaniladi. Angishvonagulning 1 g bargi 50-60 qurbaqa (lyagushka) ta‘sir birligi (LED) yoki 10,3 - 12,6 KED (mushuk ta‘sir birligi) yoki strofantin K poroshogining 1 g 43 ming - 58 ming LED yoki 5800 – 7100 KED saqlaydi. Ko‘pchilik fitopreparatlarni (damlama, qaynatma, yig‘malar va b.) bu yo‘l bilan standartlashga ehtiyoj bo‘lmaydi, chunki ularning farmakologik ta‘siri bir me‘yorda deyarli zaharsiz bo‘lgani sababli bunday o‘lchov birligi kamroq ishlatiladi.

Dori vositalarini tanaga kiritish yullari

Har bir dori vositasining (fitopreparatlarning ham) davo etish ta'siri uni organizmga yuborish yo'liga ham ko'p tomonlama bog'liqdir:

Fitopreparatlarning ko'pchiligi og'iz orqali yuboriladi. Lekin dorivor o'simlikning ajratib olingan yakka holdagi faol moddasinni yoki moddalarini saqlagan dori preparatlari esa boshqa mavjud yo'llar bilan yuborishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda dorilarni tanaga kiritish yullari ikki xil: *enteral* va *parenteral*.

Enteral yoki *oshqozon-ichakka yuborish yo'liga dorilarni til ostiga qo'yish, ichga yutish va to'g'ri ichakka yuborish kiradi.*

Ayrim dori vositalari til ostiga qo'yilganda yaxshi so'rilgani sababli ta'siri tezlikda yuzaga chiqadi. Bu yo'ldan ko'prok yurak kasalliklarida, xurujida foydalaniladi (validol, nitratlar va b.).

Og'iz orqali ichki qabul qilingan dori vositalari ko'pchilikni tashkil etadi. Shu jumladan, suyuq va quruq (damlamalar, qaynatma, nastoyka, quruq va suyuq ekstraktlar, yig'malar, o'simlikdan ajratib olingan biologik faol moddalar saqlangan poroshok, tabletkalar va b.) dori preparatlarini qayd etish mumkin. Bu yuborish yuli qulaytabiiy bo'lishiga qaramasdan bir qator kamchiliklarga (dori ta'sirining sekin ro'yobga chiqishi yoki uni etarli darajada yoki butunlay bo'lmasligi va b.) ega. Chunki qabul etilgan dorining ta'siri uning ichakda turli omillar (ichakning holati, kasalligi, ovqat massasini ichakda bo'lishi va b.) ta'sirida o'zgaruvchan so'rilishiga bog'liqdir. Boshqacha aytganda, qabul qilingan dorining qondagi konsentratsiyasi (miqdori) har xil, asosan kamayishi mumkin. Bu degan so'z dorining effekti ham etarli darajada yoki butunlay bo'lmasligi mumkin.

To'g'ri ichakka yuborish yo'li (shamchalar, davo klizma) amaliyotda ayrim holatlarda, ko'proq bolalarning kasallanishida ishlatiladi. Fitopreparat sifatida chesnok soki, suv bilan birga gijja kasalligida bolalarga klizma qilinadi.

Dori vositalarining tanaga *parenteral* yo'l bilan yuborishga in'eksiya, ingalyatsiya va sirtga qo'llashlari kiradi.

In'eksiya (ukol) qilish bilan asosan suvda va yog'da eruvchi dori vositalari qo'llanadi. Bu yo'lning o'ziga xosligi – ta'sirning tez yuzaga chiqishi, ishlatilgan dori dozasi qonda aniq bo'lishi – inobatga olinib, ko'pchilik bemorga tez tibbiy yordam ko'rsatishda qo'l keladi. Bu yo'lga dorilarni teri ostiga, mushaklar orasiga va bevosita qonga (venaga) yuborish kiradi. Asosan tayyor holdagi ampulalardan foydalaniladi. Dorivor o'simliklar tarkibidan ajratib olingan yakka yoki bir necha biologik faol moddalarni (alkaloidlar, gulikozidlar va b.) saqlangan preparatlar ham (atropin sulfat, strofantin K, korglkon, papaverin gidroxlorid va b.) in'eksiya uchun muljallangan shaklda (ampulalarda) chiqariladi va keng miqyosda foydalaniladi.

Ingalyatsion (nafas yo'li) yo'l orqali yuboriladigan dorilarga asosan yengil uchuvchan suyuklik va gazsimon narkoz moddalari hamda ingalyator yordamida aerezollar bronxial astma kasalligida qo'llaniladigan preparatlar kiradi. Bular qatoriga dorivor o'simliklardan (efedra, atropa belladonna) ajratib olingan efedrin va atropin saqlovchi «Efatin» aerezol preparatini keltirish mumkin. Ushbu preparat bronxial astma xurujini bartaraf etish uchun nafas yo'lga yuboriladi.

Parenteral yo'lga dori vositalarini sirtga qo'llash kiradi. Bunga yaralarni yuvish, bo'shliqlarni chayish, hullab qo'yish, surtma, pasta, gel holiday preparatlar, teriga surtish, ko'z va burun tomchilari va b. kiradi. Umuman olganda sirtki qo'llash asosan dermatologiya amaliyotida qo'llanib, ko'proq antiseptik ta'sirli dori vositalari, shu jumladan, fitopreparatlar ham keng ishlatiladi. Dermatologiyada asosan yallig'lanishga qarshi, antiseptik ta'sirli, qichinishni kamaytiradigan o'simliklardan (o'rmalovchi bug'doyiq, uch rangli gunafsha, qorabosh, igir, bo'tako'z) tayyorlangan yig'malar qo'llaniladi.

Stomatologik kasalliklarda (stomatit) og'izni chayish uchun arnika marmarak, g'ozpanja, eman, va boshqa o'simliklardan tayyorlangan suyuq (damlama va qaynatma) fitopreparatlar (yig'malar ham) ishlatiladi.

Dori vositalarini sirtga qo'llashda asosan ularni mahalliy ta'siridan foydalaniladi (mikroblarga va parazitlarga qarshi, yara bitishi, regeniratsiyani tezlashtiruvchi va boshqa ta'sirlar). Bularga misol tariqasida dorivor o'simliklar vanna shaklida ham ishlatiladi (xvoykali vanna va b.).

Dori vositalarining ta'sir turlari

Dori vositalari, shu jumladan, fitopreparatlar ham tarkibidagi faol moddalarga, kimyoviy tuzilishi, yuborish yo'liga, dozasi, ishlatilishi va boshqalarga qarab turlicha ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda dori preparatlari ta'sirining ikki turi ma'lum: mahalliy (prezorbktiv) va umumiy (rezorbktiv) ta'sir.

Mahalliy ta'sir dorining qonga so'rilmadan oldingi ta'siri bo'lib, uni sirtga qo'llashda ko'proq namoyon bo'ladi. Bu borada antiseptik ta'sirli dori preparatlari shu jumladan, fitopreparatlar quruq, suyuq, surtma, gel, krem shaklida chayish, yuvish, surtish, vanna qilish uchun qo'llaniladi. Dermatologiyada, stomatologiyada, oftalmologiyada, otolaringologiyada qo'llaniladigan dori vositalarini davo ko'rsatishi ularning mahalliy ta'siriga asoslangan. Misol tariqasida teri kasalliklarida (ekzema, neyrodermit, terini qichishi va b.) xvoy vannasi, evkalipt bargi, qoraqiz bargi, eman po'stlog'i va boshqalarni vanna shaklida ishlatilishini keltirish mumkin. Bularning ta'siri mahalliy bo'lib, umumiy ta'siri deyarli yuzaga chiqmaydi. Etilxlorid preparati teriga sepilsa u tez bug'lanib uchib ketgani sababli terini muzlatadi va og'rikni qoldiradi va boshqalar. Gazanda o'simlik bargini teriga qo'yilsa mahalliy ta'sir – terining qizarishi, hattoki allergik dermatit (eshakemi) vujudga kelishi mumkin.

Dori vositalarining, shu jumladan, kupchilik fitopreparatlarning ham davo ko'rsatishi ularning *rezorbktiv* (umumiy) ta'siridan kelib chiqadi. Dorilarning bunday ta'siri ularning organizmga yuborilgan yo'lidan (enteral, parenteral) qonga so'rilib, organizm bo'yicha tarqalishi natijasida kuzatiladi.

Dori vositalarining rezorbktiv ta'sirini bir necha turlari ma'lum: dorilarning tanlab ta'sir etishi, asosiy va qo'shimcha ta'sir, birlamchi va ikkilamchi ta'sir, salbiy ta'sir va boshqalar. Bu ta'sir turlari fitopreparatlarga ham tegishli bo'lib, ko'p tomondan ularni dori tarkibiga, shakliga, yuborish yo'liga va boshqalarga bogliq. Masalan, tarkibida bir necha dorivor o'simliklarni saqlagan (yig'malar) fitopreparatlarning ta'siri ko'p tomonlama bo'lishi bilan birga asosiy faol bo'lgan moddasining (flavonoidlar, efir moyi va b.) ta'siri asosiy hisoblanadi. Angvishonagul bargidan tayyorlangan

fitopreparatlar (damlama) tarkibida bir qator turli moddalar (flavonoidlar va saponinlar va b.) bor. Lekin tarkibidagi yurak glikozidlari (purpureagikozid A, B, lanateazidlar) yurakka tonlab ta'sir etgani uchun ularning yurak glikozidlari – asosiy va tanlab ta'sir etuvchi moddalar deb yuritiladi. O'simlik bargi tarkibidan ajratib olingan bir yoki bir necha glikozidlarni saqlovchi preparatlari (digitoksin, digoksin) va galen preparatlari yurakning turli xastaliklarida samarali dorilar hisoblanadi. Atropa belladonna dorivor o'simligidan tayyorlangan va olingan fitopreparatlar (belladonna ekstrakti va nastoykasi, atropin alkaloidi) ham tanlab M – xolinoreseptorlarni bloklab, turli o'zgarishlarni (asosiy va qo'shimcha) keltirib chiqaradi. Agar atropin ko'z qorachig'ini kengaytirish uchun (oftalmologiya) ishlatilsa, shu bilan birga yurak urishining tezlashishi, terini qurishi, bronxlarni kengayishi, oshqozon sekretsiyasi va motorikasining tormozlanishi qo'shimcha ta'sir deb qaraladi. Dorilarning birlamchi (bevosita) va ikkilamchi (bilvosita) rezorbtiv ta'siriga misol qilib, yurak glikozidlarini yurak faoliyatining surunkali yetishmovchiligida (oyoqda shishlar, qo'l-oyoqlarning oqarishi va uvishishi, xarsillash, qon aylanishining sekinlashishi, siydik ajralishining kamayishi va b.), bevosita (birlamchi) kordiotonik ta'siri natijasida yurak faoliyatini tiklanishi va gemodinamikasining yaxshilanishi hisobiga buyrak faoliyatini oshishi yoki peshob ajrashining ko'payishi (bilvosita yoki ikkilamchi ta'sir) va boshqalarni keltirish mumkin.

Dori vositalarining salbiy ta'siriga nojuya ta'sir, zaharlanish, allergik va konserogen, embriotoksik va boshqalar kiradi. Bunday ta'sirlar ko'pchilik fitopreparatlar uchun xos bo'lmasdan, asosan sintez yo'li bilan olingan dori vositalariga tegishlidir.

Shuning bilan birga dorilarning boshqa ta'siri (qaytmas, reflektor ta'sir va b.) ham dorivor o'simlik preparatlari uchun deyarlik xos emas. Shu sababli ular haqida ma'lumot berishning xojati bo'lmasa kerak deb qaraladi.

Dori vositalarini takror qo'llashda bo'ladigan o'zgarishlar

Bemorlarga davo ko'rsatishda dori vositalarining shuningdek, dorivor o'simliklarning (fitopreparatlarining) ko'pchiligi (ayrim dori

vositalaridan tashqari – gijja haydaydigan, narkoz moddalari va b.) qayta-qayta beriladi (davo kursi haftalab, oylab davom etadi).

Ayrim dori vositalarini takror qo'llash natijasida ularning farmakologik ta'siri yoki foydali davvo ta'siri turli o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bunday o'zgarishlar asosan quyidagicha 3 holatda namoyon bo'ladi: dori ta'sirini kamayib borishi yoki kuchayib borishi yoki shu doriga qaramlikni paydo bo'lishi.

Dori vositalarining ta'sirini susayib borishi ikki ko'rinishda kuzatiladi – taxifilaksiya va tolerantlik.

Taxifilaksiya holati – bu dorining qisqa vaqt ichida tez-tez qayta-qayta berilganida, uning ta'sirining susayib borishi va oxirida butunlay yo'qolishi. Masalan: qizilcha o'simligidan tayyorlagan fitopreparat efedrin (tarkibida alkaloidlar efedrin va b. bor) o'zining farmakologik ta'siri bo'yicha qon tomirlarini toraytirib, qon bosimini ko'taradi, nafas yo'llarini (bronxlarni) kengaytiradi, yurak urishini tezlashtiradi, shuning bilan birga markaziy nerv tizimini qismini rag'batlantiradi va boshqalar.

Efedrinni tez-tez qayta berib turilsa, uning farmakologik ta'siri, shu jumladan, qon bosimini ko'tarilishi sekin-asta kamayib boradi, uning boshqa effektlari ham shunday o'zgarishga uchraydi. Shunday o'xshash xususiyat boshqa dorilarga (gipotenziv dorilar – papaverin, dibazol va b.) ham xosdir.

Tolerantik holati ko'pchilik preparatlarga (fitopreparatlarga ham) xos bo'lib, bunda dorining uzoq vaqt (haftalab, oylab) davomida bemorga berilishi natijasida uning farmakologik ta'siri – davvo etishi sekin-asta kamayib boradi. Tolerantlik dorilarga ko'nikish yoki organizmni moslashishi deb ham yuritiladi.

Masalan, uyqu chaqiradigan, tinchlantiradigan, qon bosimini tushiradigan (trankvilizatorlar, valeriana, arislonquyruq, antibiotiklar, o'simlik surgilar va b.) dori vositalariga tolerantik bir, ikki, ayrim holda uch hafta ichida paydo bo'lib, ularning davvo ko'rsatishi susayib boradi va ulardan kuzatiladigan natija bo'lmaydi.

Taxifilaksiya va tolerantlik holatlarning kelib chiqishini dorilarni organizmda parchalanishi (metabolizmga uchrashi) yoki ularni ta'sir etadigan to'qimalarini (reseptorlarning) sezuvchanligini kamayishi yoki shu qayta berilayotgan dorilarga qarshi organizmda turli moddalar (fermentlar) ishlab chiqarilishi (masalan, penisilinga

qarshi mikroorganizmlar tomonidan penisillinaza fermenti ishlab chiqariladi) yoki boshqa farmakokinetik faktorlar (dorilarni soʻrilishining kamayishi, organizmdan tezlikda chiqib ketishi, metabolizmi, qon oqsillari bilan bogʻlanishi va b.) bilan tushuntirish mumkin.

Ishlatilayotgan dori preparatlarining (fitopreparatlarning ham) davolash effektini saqlash yoki ularni taxifiloksiya va tolerantlik holatini oldini olish maqsadida, ularni terapevtik dozasini oshirish yoki taʼsiri – effekti bir xil, lekin taʼsir etish mexanizmi turlicha (pilokarpin, ezerin) boshqa preparatlar bilan almashtirib turish tavsiya etiladi. Masalan, antibiotiklarni (penisillin, streptomisin va b.) har 10 kunda taʼsir etish spektri yaqin boʻlgan, antimikrob taʼsiri bir xil boʻlgan antibiotiklar bilan almashtirib turiladi (pensillin, ampisillin, streptomisin, gentomisin va b.).

Dorilarni takror qoʻllashda, ularning taʼsirini susayishidan tashqari, farmakologik effektini (taʼsirini) aksincha, *kuchayishi – ortishi* ayrim holatlarda zaharlanish holatlariga olib kelishi mumkin. Bunday holat koʻpincha berilayotgan dori dozasini oʻzicha yoki tasodifan oshirib yuborish yoki ayrim dorilarning metabolizmga uchramasligini inobatga olmaslik yoki bemorni yoshi, vaznini hisobga olmaslik yoki dorilar farmakokinetikasining (masalan, buyrak orqali chiqib ketishini) bilmaslik yoki dorini organizmda egʻilib qolishini keltirib chiqarishi yoki organizmni sezuvchan boʻlishligi natijasida roʻyobga chiqishi va kutilmagan nojoʻya, zaharlanish holatlariga sababchi boʻlishi mumkin. Masalan, angishvonagul preparatlari (digitoksin, ligoksin) yurak faoliyatining etishmovchiligida tavsiya etiladi. Ushbu preparatlar shifokor (kardiolog) tomonidan kasallikni kechishi, bemorning ahvoli, simptomlari va boshqalarga qarab, ushbu fitopreparatlarni maʼlum qabul qilingan sxema boʻyicha bemorga beriladi (sekin digitalizatsiya) yoki digitalis preparatlarini berish sxemasini tezlashtirib, yurak faoliyatining yaxshilanishi, tiklanishi (shishlarni kamayishi, peshobni koʻp ajralishi va b.) bilan dorini qabul qilish sxemasini oʻzgartiradi, dorini berish davomati yoki dozasi kamaytiriladi va b. Agar ushbu digitalis preparatlari aytilgan sxemalar, qoidalar boʻyicha bemorga berilmasa, sxema buzilsa yoki

bemor o'zicha bu dorilarni qabul qilsa, unda zaharlanish holati vujudga kelishi mumkin. Bunday zaharlanish *kumulyatsiya* deyiladi. Kumulyatsiya kelib chiqishida digitalis preparatlarini yurak mushaklarida (miokard) eg'ilib qolishi natijali bo'lib, zaharlanishning asosiy simptomi – belgisi yurak urishini (ritmini) borgan sari sekinlashib, 1 daqiqada 60 tadan kamayishi hisoblanadi. Shu sababdan digitalis preparatlarni olayotgan bemor shifokor nazoratida bo'lishi talab qilinadi. Kumulyatsiya – zaharlanishda yurak glikozidlanini berish to'xtatiladi va zarur bo'lgan choralar (kaliy preparatlari va b.) ko'riladi.

Dorilarni takror qo'llashda, ayrim holatlarda, organizmning sezuvchanligini oshishi natijasida *sensibilizatsiya* va *idiosinkraziya* holatlari bo'lishi mumkin.

Bunday holatlar sintetik yo'l bilan olingan ayrim preparatlarga (salisilatlar, ayrim antibiotiklar va b.) xos bo'lib, dorivor o'simliklar saqlagan fitopreparatlarga taaluqli emasdir. Shu sababdan ularga izoh berilmaydi.

Ayrim dori vositalarini qayta berish oqibatida shu doriga *qaramlik* holati yuz beradi.

Qaramlik holati ayrim dori preparatlariga xos bo'lib, dorivor o'simliklardan tayyorlangan va olingan dori vositalariga hamda shu dorivor o'simliklarni o'ziga ham xosdir. Bu guruhga narkotik, psixotimulyator va og'riq qoldiruvchi ta'sirli ayrim preparatlar kiradi.

Dorivor o'simliklardan, masalan, ko'knoridan olingan (shirasi), qora dori (opiy) va uni tarkibidagi alkaloidlar morfin, heroin, metil-mirfin (kodein), etilmirfin fitopreparatlari narkotik hisoblanib, qayta berilganda qaramlikni (narkomanlik holati) keltirib chiqariladi. Bunday holat ruxiy va jismoniy o'zgarishni keltirib chiqaradi, normal odamga xos bo'lmagan turli jamiyat uchun salbiy holatlar tug'diradi va odam sog'lig'ini izdan chiqaradi. Shu sababdan bunday o'simliklar va narkotik moddalar, preparatlar davlat tomonidan qat'iy nazoratga olingan.

Bunday o'simliklar qatoriga ko'knordan tashqari kokoin va boshqalar kiradi.

Dori vositalarini (fitopreparatlarini ham) qo'shib ishlatish

Ma'lumki, hozirda bemorlarni bitta dori preparati bilan davolash (monoterapiya) juda kam uchraydi. Ko'pchilik kasalliklarga qarshi ishlatiladigan dorilar kompleks holatda, bir necha preparatlarni bir vaqtda yoki ketma-ket bemorlarga qabul qilish tavsiya etiladi. Chunki davo ko'rsatishda kasallikni kelib chiqishiga (etiotrop ta'sir), rivojlanishiga (patogenitik ta'sir), simptomlariga (simptomatik) qaratilgan dori vositalari beriladi.

Qo'shib berilayotgan dorilarning bir-biriga munosabati esa turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa shu dorilarning kimyoviy tuzilishiga, farmakokinetikasiga, farmakodinamikasiga ko'p tomondan bog'liq.

Umuman olganda dori vositalarini (fitopreparatlarini ham) qo'shib ishlatishda ularning ta'sirining o'zgarishi quyidagicha bo'lishi mumkin.

Sinergizm. Qo'shib ishlatilayotgan bir-xil farmakologik ta'sirini (effektini) bir-biri bilan qo'shilishi natijasida umumiy effektlarni ortishi, kuchliroq bo'lishi dorilarning sinergizmi deyiladi. Bunda qo'shib berilgan dorilarni umumiy effekti ularning ta'sirini yig'indisiga barobar bo'ladi. Masalan, ikkita uxlatuvchi dorilar bir xil dozada qo'shib yoki ketma-ket berilsa, kelib chiqqan uyquning davom etishi, berilgan har bir dorini effektining (uyquning) davom etish vaqtini jamlanishiga teng bo'ladi. Bunday sinergizm qo'shib berilayotgani dorilarning nojo'ya ta'sirini oldini olish maqsadida ular kichik dozada ishlatiladi.

Potensiallanish – bir xil yo'nalishdagi va bir xil farmakologik ta'sirli dorilarni qo'shib berilishi natijasida ularning har biriga xos bo'lgan effektini bir necha bor ortishi, kuchayishi.

Masalan, ko'knor o'simlik tarkibidagi (qora dori) morfin alkaloidini saqlovchi preparat neyroleptik guruhiga kiruvchi fentanil preparati bilan birga yoki ketma-ket organizmga yuborilsa, buning natijasida kuzatiladigan effekt (og'riqni qoldirish) morfinga xos bo'lgan og'riqni qolirish ta'siri bir necha bor (10-15 marta) kuchayadi.

Qo'shib ishlatishning bunday turi asosan anesteziologiyada, xirurgiyada (narkoz moddalari) ko'p qo'llanadi. Dorivor

o'simliklardan valeriana va arislonquyriq fitopreparatlari ham potentsialnash xossasiga qismin egalar.

Antagonizm. Qo'shib ishlatiladigan yoki ishlatilgan dori preparatlari bir-birining ta'sirini yo'qotadi. Bular bir-biriga aksincha, zid, qarama-qarshi ta'sirli bo'ladi. Qo'shib beriladigan dori vositalari (fitopreparatlar, fitoyig'malar ham) o'zini kimyoviy tuzilishi fizikoviy, farmakokinetik va farmakodinamik xossalari bo'yicha turlicha bo'lib, bir-biridan tubdan farq qilishi mumkin (organik, noorganik va b.)

Dorilarning antagonizmi bir necha ko'rinishda bo'ladi.

Fizikaviy antagonizm – qo'shib berilayotgan bir dorining ikkinchi dori yuzasiga so'rib olinishi natijasida birinchi dorining ichakdan so'rilishiga yo'l qo'ymasligi. Masalan, adsorbentlar, faollashtirilgan ko'mir, karbolen-adsorbentlik xossaga ega.

Kimyoviy antagonizm – qo'shib shilatiladigan dori vositalari bir-biri bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, zararsiz, nofaol birikmalarning hosil bo'lishi. Masalan, og'ir metalli tuzlardan zaharlanishda unitiol beriladi. Bariy xlorid natriy sulfat bir-biri bilan reaksiyaga kirishishi va zararsiz bariy sulfat hosil bo'lishi (antacidlar va barbiturantlar va b.).

Farmakokinetik antagonizm – bunda qo'shib yoki ketma-ket berilgan ikki dori vositalarining bir-biriga zidligi, ularning farmakokinetikasida (so'rilishi, organizmda tarqalishi, qon oqsillari bilan bog'lanishi, metabolizmi, buyrak orqali chiqib ketishi) ro'y berishi mumkin. Masalan, ayrim dori preparatlari (enalopiril, lozartan) organizmga nofaol holda yuboriladi. Ular, jigardan o'tayotganida mikrosomal fermentlari (R-450) va izofermentlar ta'sirida yangi farmakologik faol birikma (metabolit) hosil bo'lib, preparat effektini (qon bosimini tushirish) keltirib chiqaradi. Agar ushbu nofaol preparatlarni mikrosomal fermentlar faolligini pasaytirgan (ingibitorlar) preparatlar (simetidin, indometasin, tetrasiklin va b.) bilan qo'shib ishlatilsa, nofaol bo'lgan preparatlar (enalopril, lozartan, lozap) metabolizmiga uchramagani sababli faol holga (metabolitga) o'taolmaydi va natijada gipotenziv ta'siri (effekti) yuzaga chiqmaydi.

Mikrosomal jigar fermentlari faolligini oshiradigan preparatlar – difenin, kofein, kordiamin (induktorlar) qo'shib berilgan

metabolizmga uchraydigan ko'pchilik boshqa preparatlarini (fitopreparatlarni ham) metabolizmni kuchaytirib va tezlashtirib, berilgan boshqa preparatlar ta'sirini kamaytiradi.

(Dori vositalarining metabolizmi (biotransformatsiyasi) to'g'risida to'liq ma'lumot «Farmakokinetika» fanida va darsligida berilgan).

Farmakologik antagonizm – bunda qo'shib yoki ketma-ket berilayotgan dori vositalari (fitopreparatlar ham) farmakologik ta'siri bo'yicha bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'lgani sababli ularning ta'siri yuzaga chiqmaydi.

Farmakologik antagonizmning bir necha quyidagi turlari ma'lum:

– Bevosita antagonizm – bunda qo'shib berilgan dorilarning zid ta'sir sistemada to'qimida yoki xujayralar a'zolarida sodir bo'ladi. Masalan, valeriana, arslonquyruq fitopreparatlari markaziy nerv sistemasiga ta'sir etib tinchlantirsa, kofein, efidrin esa uni qo'zg'atadi, uyquni qochiradi. Yoki pilokarpus o'simligining fitopreparati pilokarpin M-xolinoreseptorlarni qo'zg'atib, boshqa o'zgarishlar bilan birga ko'z qorachig'ini toraytirsa, belladonna preparati (atropin) M-xolinoreseptorlarni bloklab ko'z qorachig'ini kengaytiradi.

Ushbu fitopreparatlarning bevosita antagonizmi bir tomonlama bo'lishi mumkin. Keltirilgan misolda pilokarpin preparati atropin ta'sirida kengaygan ko'z qorachig'i bartaraf etolmaydi, antagonizm bo'lmaydi. Aksincha, atropin pilokarpin ta'sirida ko'z qorachig'ini torayishini bartaraf etadi, ko'z qorachig'i kengayadi.

– Bilvosita antagonizm – qo'shib berilayotgan bir nechta dori preparatlarini bir-biriga qarama-qarshi ta'siri, ta'sir etish mexanizmi turlicha bo'lgan dorilarga xos. Masalan, pilokarpin M-xolinoreseptorlarni qo'zg'otib, ko'z qorachig'ini toraytirsa, adrenalini yoki efedrin adrenoreseptorlarni qo'g'otib, ko'z qorachig'ini kengaytiradi yoki adrenalini ko'z qorachig'ini kengaytirsa pilokarpin esa toraytiradi (ikki tomonlama antagonizm), lekin ularni ta'sir etish mexanizmi turlicha.

Yuqorida bayon qilingan dorilarning (fitopreparatlarning ham) antagonizm tibbiyot amaliyotida ayniqsa, dorilar bilan zaharlanishda nojo'ya ta'sirni bartaraf etishda keng ishlatiladi.

Dori vositalarining (fitopreparatlarning ham) nomosligi

Dorilarning nomosligi ularning antagonizmining bir turi hisoblanib, ushbu qo'shma dorilarni va ularga dori shakli berishda yoki ularni organizmga yubroishdan oldin sodir bo'ladi. Ko'pincha dorilarning bunday bir-biriga mos bo'lmasligi ularning kimyoviy va fizikaviy munosabatidan kelib chiqadi va uni farmatsevtik nomoslik deyiladi.

Ayrim hollarda qo'shma dorilarni tayyorlashda ularning nomosligi natijasida cho'kma hosil bo'lishi, rangini o'zgarishi, eritmada pufakchalar hosil bo'lishi, uchuvchan moddalar paydo bo'lishi kuzatiladi. Bunday o'zgarishlarga uchragan dori preparatlarini (fitopreparatlarni ham) qo'llashga ruxsat berilmaydi.

Dorivor o'simliklardan tayyorlangan yoki ajratib olingan ishqoriy va kislotalik xususiyatga ega bo'lgan birikma fitopreparatlarini bir-biriga qo'shilganda neytral moddalar, cho'kmalar hosil bo'ladi. Shuning uchun ularni qo'shib tayyorlab bo'lmaydi. Masalan, papaverin gidrokslorid va eufillin preparatlari bir-biriga mos kelmaydi. V₁₂ vitamini, tiamin xlorid va pirodoksinlarni qo'shib qo'llash man etiladi. Chunki V₁₂ vitamini tarkibidagi kobalt V₁ vitamini (tiamin brolidi) parchalab, allergik holatni keltirib chiqarishi mumkin.

Yurak glikozidlariga kislotalar, ishqorlar, yod, og'ir metall tuzlari va burishtiruvchi (tanin va b.) moddalarni qo'shib bo'lmaydi. Yurak glikozidlari (strofantin, korglikon va b.) natriy xloridning izotonik (0,9%) eritmasi yoki 10% glyukoza eritmasida eritib qon tomirlarga yuborish maqsadga muvofiq hisoblansa, glyukozaning bu eritmasida morfin, adrenalin, noradrenalin va yurak glikozidlarini uzoq muddat saqlash tavsiya etilmaydi.

Damlama va qaynatma shaklidagi fitopreparatlarni og'ir metall tuzlari bilan aralastirib bo'lmaydi. Chunki buning natijasida cho'kma hosil bo'ladi.

Efir moyi saqlagan dorivor o'simliklarning (valeriana, tog'rayhoni va b.) fitopreparatlari yod, xlor, azot kislotasi bilan qo'shilganda exfir moyi parchalanib ketadi va o'z ta'sirini yo'qotadi. Ayrim dori vositalari aralashma tarkibidagi moddalar o'zaro ta'sirida oksidlanadi va o'z biologik faoliyatini yo'qotadi. Masalan, natriy nitrat bilan papaverin gidrokslorid qo'shib eritma

tayyorlansa, azot oksidi hosil bo'lib, papaverin cho'kmaga tushadi. Papaverin gidroxlordni bir shprisda eufillin, magniy sulfat, dibazol eritmasi bilan aralashtirish oqibatida ishqoriy muhit paydo bo'ladi va organizm uchun zaharli bo'lgan papaverin asosi hosil bo'ladi.

Ishlatish uchun tayyorlangan bunday aralashma eritmalarini qo'llash man etiladi. Aks holda ular bemorga davo ko'rsatish o'rniga zaharlab turli asoratlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, turli dorilarni (fitopreparatlarni ham) qo'shib tayyorlanishida va ishlatishda ularning fizik-kimyoviy xossalarini, farmakokinetikasini va farmakodinamikasini bilish talab qilinadi va shundagina dorilar ta'sirini turlicha (kuchayishi, pasayishi, yo'qolishi) o'zgarishini va u bilan bog'liq asoratlarni oldini olish mumkin.

Zaharli dorivor o'simliklar, fito va boshqa preparatlar bilan zaharlanishda ko'rsatiladigan yordam prinsiplari

Ma'lumki, hayotda turli moddalar shu jumladan, dorivor o'simliklardan, uni saqlagan tayyor fitopreparatlardan va boshqa dori vositalaridan zaharlanish xodisasi bo'lib turadi. Zaharlanish ko'pincha tasodifan, o'ziga va o'zga joniga qasd qilish, dori vositalarining dozasi o'zicha yoki mutaxassis bo'lmagan o'zga kishilarni maslahati bilan oshirib yuborish, zaharli o'simliklardan fitopreparatlar (nastoyka, qaynatma, damlama va b.) noto'g'ri tayyorlashda ayniqsa, yosh bolalarni noo'rin saqlagan turli dorilarni va zararli dorilar o'simliklarga qiziqib qabul etish natijasida yuz beradi. Bundan tashqari tibbiyot xodimlarini dorilarni noto'g'ri dozalash, zaharli bo'lgan dorivor o'simliklardan foydalanish uchun noto'g'ri tavsiya etish ham zaharlanishga sababchi bo'lishi mumkin.

Zaharlanish asosan zaharli moddani og'iz orqali qabul qilishdan kelib chiqadi.

Respublikamiz shifobaxsh giyohlarga boy dior hisoblanadi. O'zbekistonda 4000 dan ortiq yovvoyi o'simliklar o'sadi. Shulardan 100 dan ortig'i tibbiyot amaliyotida dori vositasi hisoblanadi. Xalq tabobatida esa hududimiz o'simliklaridan 600 ga yaqini dorivor hisoblanadi. Tibbiyotda va xalq tabobatida ishlatiladigan shifobaxsh o'simliklar orasida tarkibida kuchli ta'sir etadigan zaharli kimyoviy

birikmalar (alkaloidlar, glikozidlar va b.) saqlagan giyohlar mavjud. Ular qatoriga tibbiyot amaliyotida keng miqyosda ishlatib kelinayotgan fitopreparatlar manbai bo'lgan angishvonagulning hamma turlari, adonis, marvaridgul, bangidevana, mingdevona, kuchala, parpi (akoni), belladonna va boshqalarni keltirish mumkin. Ushbu o'simliklardan kuchli ta'sir etuvchi fitopreparatlar tayyorlanadi va olinadi (digitoksin, digoksin, adanizid, atropin, belladonna nastoykasi, allapinin, strixnin va b.)

Ushbu o'simliklarning hamma qismi zaharli ekanligini bilmaslik, o'simliklarni tashqi ko'rinishi bo'yicha aniqlay olmaslik va ulardan fitopreparatlar (yig'ma, nastoyka, damlama, qaynatma va b.) uy sharoitida tayyorlash va iste'mol qilish zaharlanishni olib kelishi mumkin. Ushbu dorivor o'simliklardan ajratib olingan alkaloid, glikozid saqlovchi fitopreparatlarining (digitalis preparatlari – digitoksin, digoksin, atropin, strixnin) terapevtik ta'sir doirasi tor bo'lgani uchun ularni dozasini qisman oshirib yuborilsa zaharli holatni, kamaytirilsa esa effektini pasayishi yoki bo'lmasligi kuzatilishi mumkin. Bu to'g'rida ma'lumotsizlik zaharlanishga olib kelishi mumkin.

Umuman turli moddalar bilan zaharlanishda quyidagi yordam tadbirlari ko'rilishi zarur.

Birinchidan, nimadan, qanday moddadan, doridan, o'simlikdan zaharlanganligini aniqlash (qabul qilingan moddaning qoldiqlari, etiketkasi, o'rami, zaharlanganning yaqinlari yordami va b.).

Ikkinchidan, zaharli modda og'iz orqali qabul qilingan bo'lsa (ko'pincha shu yo'l bilan zaharlaniladi) shu zaharli moddani oshqozon-ichakdan chiqarib yuborish va shu bilan uni ichakdan so'rilib qonga o'tishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'riladi. Bunga qayt qilish (tomoqni qitiqlash, oshqozonni yuvish, qustiruvchi dorilar (1% apomorfın) yuborish, adsorbentlar (karbolen) berish, klizma qilish, tuzli surgı dorilar (magniy sulfat) berish kiradi.

Agar zaharli modda so'rilib qonga o'tgan bo'lsa, zaharlanishni simptomlariga qarab shu moddaning antagonistlari, antidotlari ishlatiladi. Masalan, yurak glikozidlari (digitalis) bilan zaharlanganda (yurak urishining haddan tashqari sekinlashishi va boshqa simptomlar) kaliy saqlagan preparatlar (kaliy xlorid), unitiol va boshqalar beriladi. Prozerin, ezerin (fizostigmin), zaharli fizostigma o'simligi bilan zaharlanishda atropin (belladonna,

mingdevana, bangidevona o'simliklari), strixnin (kuchala o'simligi) bilan zaharlanishda esa ingalasion yoki noingalasion narkoz moddalari (geksonal, tiopental va b.) yuboriladi.

Keyingi yordam tadbiri bu zaharli moddani qondan chiqarib yuborish kiradi. Shu maqsadda peshob haydaydigan dorilar (1% furasemid 2ml muskullar orasiga yoki venaga), dezintoksikon suyuqliklar (reopoliglyukin, fiziologik eritma va b.) yuboriladi.

Zaharli moddaning organizmga ta'siri natijasida vujudga keladigan o'zgarishlarni bartaraf etish choralari ko'riladi. Masalan, nafas markazini susayishi natijasida nafas susaygan bo'lsa nafas analeptiklari (kordimin, kofein), suniy nafas oldirish (O_2 bilan), qon bosimi tushib ketgan bo'lsa 1% noradrenalin (venaga fiziologik eritma bilan tomchilab), umumiy jismoniy va ruxiy qo'zg'olish bo'lsa narkoz moddalari (tiopental, uyqu dorilar – tranivilizatorlar – diazepam, fenozopam, tazepam va b.) beriladi. Aksincha, umumiy tushkunlik, chuqur uyqu davom etsa markaziy nerv sistemasini qo'zg'otadigan (kofein, fenamin va b.) yuboriladi. Umuman olganda zaharlanishda yordam ko'rsatish uni kechishiga qarab boshqa tadbirlar ham ko'riladi.

Yuqorida keltirilgan zaharlanishda ko'rsatiladigan yordam statsianarda, yordam markazida ayrim og'ir holatlarda reanimatsiya bo'limida olib boriladi.

Fitoprerapatlar tasnifi

Oldingi mavzuda aytilganidek, tibbiyot amaliyotida 100 dan ortiq, xalq tabobatida esa 600 ga yaqin shifobaxsh o'simliklar va ularning turli shakldagi (damlama, qaynatma, nastoyka, quruq va suyuq ekstrakti, kukuni, tabletkasi, ineksiya uchun eritmasi va b.) fitopreparatlari qo'llanadi. Ular farmakologik ta'siri bo'yicha, ta'sir etadigan joyi va mexanizmi hamda ishlatilishi bo'yicha turlichadir. Ushbu shifobaxsh o'simliklar va ularning fitopreparatlaridan davo ko'rsatish uchun, to'g'ri va ratsional foydalanish – ishlatish uchun hamda ular to'g'risida farmakologik ma'lumot olish maqsadida ular turli guruhlariga bo'linadi yoki qisqacha aytganda tasnif (klassifikatsiya) qilinadi.

Fitoterapiyada dorivor o'simliklarni va fitopreparatlarini tasnif qilishda ularning quyidagi ko'rsatgichlari, xususiyatlari inobatga olinadi.

1. Asosiy farmakologik ta'siri (effekti) bo'yicha: tinchlantiruvchi, qon bosimini tushuruvchi, surgi, yallig'lanishga qarshi dorivor o'simliklar va boshqalar.

2. Asosiy ta'sirini yo'nalish joyi bo'yicha: markaziy nerv sistemasiga ta'sir etuvchi, yurak glikozidlari, qon oqishini to'xtatuvchi va boshqalar.

3. Kasallikda ishlatilishi bo'yicha: yurak-qon tomir kasalligida ishlatiladigan dorivor o'simliklar va fitopreparatlar, nafas a'zolari kasalligida ishlatiladigan fitopreparatlar, teri kasalliklari fitoterapiyasi va boshqalar.

Sizning qo'lingizdagi ushbu fitoterapiya darsligida shifobaxsh o'simliklar va ularning fitopreparatlari klassifikatsiyasida yuqoridagi 3 ta ko'rsatgichdan foydalanilgan.

Nazorat savollari

1. Fitoterapiya fanining asosiy vazifalari.
2. Fitoterapiyaning farmakoterapiyada tutgan o'rni.
3. Fitoterapiyada xalq tabobatining ahamiyati.
4. Fitopreparatlarga qanday dori shakillari kiradi?
5. Fitopreparatlarning tanaga yuborish yo'llarini ko'rsating.
6. Fitopreparatlarning dozalanishi va o'lchov birikmalari, nimadan iborat?
7. Qanday dorivor o'simliklar biologik yo'l bilan standartlanadi?
8. Dorivor o'simliklarning ta'sir birligi nima?
9. Fitopreparatlarning ta'sir turlari nimadan iborat?
10. Fitopreparatlarning rezorbtiv va mahalliy ta'siriga misollar keltiring.
11. Fitopreparatlarni qo'shib ishlatishda ularning farmakologik ta'sirini o'zgarishi.
12. Dori vositalarini qo'shib ishlatishda bo'ladigan antagonizm va sinergizm nima?
13. Dori vositalarining taxifilaksiyasi nimadan iborat?

14. Dorilarga tolerantlik holati nimadan iborat? Misollar keltiring.

15. Dori vositalar kumulyatsiyasi nima?

16. Qanday ta'sirli fitopreparatlarga organizm qaram bo'lib qoladi?

17. Zaharli o'simliklar bilan zaharlanishda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam.

18. Fitopreparatlar tasnifi nimaga asoslangan?

FITOTERAPIYANING XUSUSIY MASALALARI

Fitoterapiyaning ushbu qismida asosan Markaziy Osiyo va sobiq ittifoq hududlarida o'sadigan va o'stiriladigan, tibbiyot amaliyotida ishlatiladigan dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibi va ular saqlaydigan biologik faol moddalar (alkaloidlar, glikozidlar, efir moy, flavonoidlar va b.) dan tayyorlangan fitopreparatlarning farmakologik xossalari (farmakodinamikasi), ishlatilishi va boshqa ma'lumotlar bayon etilgan. Bularni izohlashda yuqorida qayd etilganidek mavjud klassifikatsiyadan foydalanildi.

Dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari Markaziy nerv sistemasiga (MNS) ikki xil ta'sir ko'rsatishi mumkin: qo'zg'atuvchi va susaytiruvchi (tormozlovchi).

I BOB. MARKAZIY NERV SISTEMASINI (M.N.S) QO'ZG'ATADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

1. Xitoy choyi (*Thea chinensis* L) – Чай китайский

Choy o'simligining bargi. Uning tarkibida 2 – 5% alkaloidlar yig'indisi, flavonoidlar, 156 – 233 mg% C, B₁, B₂ va K vitaminlari, nikotin, pantotin va boshqa kislotalar, 20 -28 % oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Alkaloidlar yig'indisi kofein, teofillin, teobromin va boshqa alkaloidlardan, choy oshlovchi moddalari esa 75 – 78% katexinlar va ularning gallas efirilaridan tashkil topgan.

Choy bargining asosiy farmakologik ta'sir ko'rsatuvchi faol moddalari alkaloidlar va katexinlar yig'indisi hisoblanadi.

Farmakologik xossalari. Kofein – psixostimulyatorlar guruhiga kiradi. U M.N.S ga (oliy nerv faoliyatiga va boshqa markazlarga) jonlantiruvchi ta'sir etadi, aqliy va jismoniy faoliyatni oshiradi. Natijada bardamlik, tetiklik, ruhiy qobiliyat, qisman kayfiyat ham yaxshilanadi. Charchoqlik, hafsalasizlik va uyquni qochiradi. Bundan tashqari, eksperimental sharoitda kofeinning peshob haydovchi, oshqozon sekretsiasini oshirib, ishtahani ochuvchi, isitmani tushiruvchi, yurak faoliyatini oshiruvchi, qisman qon tomirlarini bo'shashtiruvchi, nafas yo'llarining (bronxlar) silliq muskullar tonusini pasaytiruvchi ta'sirlari aniqlangan.

Teofillin va teobromin alkaloidlarining M.N.S ga ta'siri unchalik namoyon bo'lmaydi. Lekin ularning buyrak, bronxlar va qisman qon-tomirlar devori silliq muskullariga bo'lgan ta'siri yaqqol ko'rinadi. Ularning bunday ta'sirlarining mexanizmida fosfodietiraza fermentining faolligini susayishi, silliq muskul hujayralarida AMF ni oshishi, buning natijasida glikogenoliz, metabolik jarayonlarning tezlashishi yotadi.

Kofein va unga yaqin alkaloidning oshqozon sekretsiasining oshirish mexanizmi ham shu tarzda tushuntiriladi.

Kofeinning M.N.S ga ta'sir mexanizmida esa miyani «purin» yoki «adenozin» retseptorlari bilan bog'lanishi yotadi. Adenazin qo'zg'alish jarayonini kamaytiruvchi xususiyatga ega. Adenazinning o'rnini kofein egallashi natijasida qo'zg'alish jarayoni oshadi.

Kofeinning organizmga turlicha va keng miqyosda ta'sir etishi uning kimyoviy tuzilishi bo'yicha tanadagi metabolitlarga purin unumlari (trioksipurin, peshob urat kislotasi) ga yaqinligi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Choy bargidagi bunday alkaloidlarning foydali ta'siri, uni qadim zamonlardan beri va hozirgacha, ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlari va ayrim Yevropa (Angliya) davlatlarida eng sevimli zarur va foydali ichimlik sifatida qabul qilingan va juda keng miqyosda damlama holda iste'mol qilinadi.

Kofein alkaloidi faqat choy bargida emas, balki kofe urug'ida (1-2%), kola yong'og'ida ham bor.

Qo'llanishi. Tibbiyotda choyni aqliy va jismoniy charchoqda, umimiy quvvatsizlikda, buyrak va yurak shishlarida, yurak faoliyati zaiflashganda (kollapsda va b.), nafas qisish kasalligida, bosh og'rig'ida, qon bosimi pasayishida qo'llaniladi.

Preparatlar ta'rifi

Kofein. (Caffeinum).

Yuqorida keltirilgan ta'sirlarga asoslangan xolda gipotoniya, nevrалgiya, narkologiya, ruhiy va jismoniy zaiflikda, kollapsda va boshqalarda tavsiya etiladi. Gipertoniya, psixomotor qo'zg'alishda, miokard infarktida, yurak porogida, glaukomada tavsiya etilmaydi.

Tabletka holida 0,01 – 0,1 dan chiqariladi.

Kofein natriy benzoat (Coffeinum natrii benzoas).

Suvda yaxshi erigani uchun ampulalarda 1ml da 10% eritma holida chiqariladi. Ta'siri tezlikda namoyon bo'lgani uchun nafas zaiflashganda (uxlatuvchi, narkoz moddalar bilan zaharlanishda), bronxial astma xurujida, kollaps, shok holatlarida, yurak – qon tomir faolligining o'tkir etishmovchiligida ineksiya qilinadi.

Teofillin (Theophillinum).

Kofeinga nisbatan periferik ta'siri bronxodilyatator, diuretik, gipotenziv va yurakka ta'siri kuchliroq. Shu sababdan bronxial astmada, yurak va buyrak shishlarida diuretik sifatida ishlatiladi.

Teofillin poroshok va shamcha holda (0,2) chiqariladi.

Uning kompleks preparatlari (teofidrin, teopek, teobiolek va b) mavjud.

Eufillin preparati tarkibida 80% teofillin va 20% etilendiamin (erituvchi modda) saqlaydi.

Bronxial astma xurujida, kichik qon aylanish doira gipertenziyasida, miya qon - tomirlar spazmida (ishemik insultda), yurak va buyrak shishlarida tavsiya etiladi. 2,4% li eritma 10 ml dan ampulada chiqariladi. Venaga izotonik eritmaga qo'shib sekin-sekin yuboriladi.

2. Kamfora daraxti (Cinnamomum camphora L.) –

Камфорное дерево

Daraxtning bargi tarkibida 0.8-1.8%, shoxlarida 0.8-2%, poya qismida 4.2%, ildizida esa 8% efir moyi saqlaydi. Kamfora efir moyining tarkibiy qismi bo'lib, uning 75-85% ini tashkil qiladi.

Kamfora efir moyi boshqa o'simliklardan (yalpiz, bargli rayhon (Oleum menthae folium), sibir oqqarag'ayidan (Abies cibica) ham olinadi.

Kamfora analeptik hisoblanib, uni yog'li eritmasi in'eksiya qilinadi. Uzunchoq miyadagi nafas markazini rag'batlantiradi, tonusini oshiradi, qon-tomir harakati markazini qo'zg'atadi. Bunday ta'sir ushbu markazlarning faoliyati zaiflashganda (nafas susayishda, qon bosimi pasayganda) yaxshi namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, kamfora miokardga bevosita ta'sir etib, undagi modda almashinuvini tezlashtiradi, simpatik nervga bo'lgan sezuvchanligini oshiradi, yurak faoliyatini yaxshilaydi. Kamfora ta'sirida periferik qon tomirlar tonusining oshishi va qon bosimini ko'tarilishi kuzatiladi. U nafas yo'llari orqali chiqarilgani sababli balg'am ajrashini kupaytiriladi. Trombotsitlarning agregatsiyasini sekinlashtiradi. O'pka ventilyatsiyasini (havo almashinishi) oshiradi. Bundan tashqari, preparatda mahalliy qitiqlovchi ta'sir bo'lgani sababli uning spirtli eritmasini sirtga qo'llash turli sabablar bo'yicha nafas zaiflanishida (zaharlanish, shok va b.), qon bosimini

pasayishida, yurak faoliyatining susayishida, *digitalis* preparatlari kumulyatsiyasida (zaharlanishda) tavsiya etiladi. Kamfora organizm uchun bezarar, nojo'ya ta'siri deyarlik bo'lmaydi.

Preparatlari:

Kamfora in'eksiya uchun 20% yog'li eritmasi 1-2 mldan ampulada chiqariladi. In'eksiya qilishdan oldin ampula isitilishi ($36^0 - 37^0$) tavsiya etiladi.

Sirtga qo'llash uchun kamfora moyi revmatizm, artritlarda surtiladi. Kamfora surtmasi miozit, artrit, teri ezilib qolishini oldini olish uchun surtiladi.

Kamforali spirt – sirtga surtish uchun ishlatiladi.

Sitizin (Cytisinum)

Sitizin alkaloidi bo'lib, *Cytisus L.* turkumiga kiradigan *Cytisus austriacus L.* tarkibida 0.5% alkaloidlar yig'indisining 40% ini tashkil etadi. Sitizin shunga o'xshash afsonak (*Thermopsis lanceolata, R.Br*) o'simligining er ustki qismi, urug'i tarkibidagi alkaloidlar orasida asosiy hisoblanadi, ularning 40% ini tashkil etadi. Demak, sitizin alkaloidi ikkita o'simlik tarkibida bo'lib, uni saqlagan preparat «Sititon» nomi bilan 0.1% suvli eritma holda ampulalarda 1 mldan chiqariladi.

Sitizin farmakologik ta'siri bo'yicha analeptik hisoblanadi. Uning ta'sirida nafas markazining faoliyati tiklanadi, uni refleks yo'l bilan qo'zg'aluvchanligini oshiradi. N – xolinoreseptorga bevosita qo'zg'atuvchi ta'sir etishi natijasida nafas markaziga kelayotgan impulslar ko'proq bo'lgani uchun nafas qo'zg'atiladi. Preparatning bunday ta'siri nafas markazining faoliyati pasayganda yaxshi namoyon bo'ladi. Uning bunday ta'siri qisqa muddatli va bir me'yorda bo'lmasa ham, ayniqsa, nafasning reflektor ravishda to'xtab qolishida (narkoz moddasini berishda, karaxtlik holatida va b.) nafasni uzoq vaqtgacha tiklaydi. Bunday ta'sir sititonni (sitizinning suvdagi eritmasi) venaga yuborilganda yaxshi namoyon bo'ladi.

Sitizinning qon bosimini ko'tarishi (labelindan farqi) kollaps, shok (karaxtlik) holatida qo'llash o'rindir. Uxlatuvchi, narkoz moddalardan zaharlanishda va yuqumli kasalliklarda nafasni susayib qolishida sititon preparati asosan venaga yoki ayrim holatlarda mushaklar orasiga yuboriladi.

Lobelin (Lobelinum) alkaloid bo'lib, *Lobella inflata* o'simligida uchraydi. Uning preparati sintetik yo'l bilan olingan va lobelin gidroxloridi shaklida chiqariladi. Lobelin nafas analeptiga hisoblanib, sitizin kabi nafas markazini reflektor ravishda qo'zg'atadi. Qo'llanishi sitizinniki kabi deyarli bir xil. Lobelin gidroxlorid 1% eritma shaklida ampulada 1 ml dan chiqariladi.

3. Kuchala (Strychnos nux vomica)–Чилибуха, Рвотный орех

Kimyoviy tarkibi. Kuchalaning urug'i bir xil miqdorda strixnin va brusindan iborat. 2-3% alkaloidlar yig'indisini saqlaydi. Bundan tashqari, bir qator turli moddalar (α va β kolubrin, psevdostrixnin, struksin, vanisin, siklofenol, stigmasterin, loganin va b.) borligi aniqlangan. Bulardan asosiy faol bo'lgan strixnin alkaloididir.

Farmakologik xossalari. Strixnin va uning galen preparatlari M.N.S ga ancha kuchli bo'lgan qo'zg'atuvchi ta'sir etadi. Ayniqsa, orqa miyaga ta'siri yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Strixnin terapevtik dozada eksperimental nevrozda M.N.S ning oliy nerv faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bunday ta'sir natijasida miya po'stlog'idagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatini normal holatga keltiradi.

Strixnin uzunchoq miyada joylashgan nafas, qon-tomir harakat va adashgan nerv markazlariga ham ta'sir etishi natijasida nafas tezlashadi, qon bosimi qisman ko'tariladi, yurak urishi sekinlashadi (bradikardiya).

Bundan tashqari, strixnin ta'sirida analizatorlar faoliyati oshadi. Ko'rish, rang ajratish yaxshilanadi, ko'rish doirasi kengayadi, eshitish, ta'mni va hidni sezish kuchayadi. Alkaloidning bunday ta'siri M.N.S ning oliy nerv faoliyatiga, bosh miyaning po'stloq va po'stloqosti qismlariga qo'zg'atuvchi ta'siri bilan tushuntiriladi.

Strixninning (preparat strixnin nitrat) orqa miyaga qo'zg'atuvchi ta'siri ancha kuchli bo'lib, terapevtik dozalarda orqa miya segmentlarida nerv impulslari o'tishini tezlashtiradi, engillashtiradi. Natijada orqa miya refleklari tezlashadi, tana muskullarining qo'zg'aluvchanlik tonusi oshadi. Orqa miya segmentlariga kelayotgan impulslarni irradnatsiyasi (qo'shni

segmentlarga tarqalishi) oshadi. Bular qo'zg'atuvchi impulslarning sinapsdagi neyronlararo o'tishini osonlashishi bilan bog'liq. Strixnin ta'sirida markaziy sinapslarga boruvchi qo'zg'alishni tormozlovchi mexanizmlarni bloklaydi.

Qo'llanilishi. Strixninning terapevtik ta'sir doirasi kichik bo'lgani uchun tibbiyot amaliyotida ko'p ishlatilmaydi. Asosan turli sabablar bo'yicha (polimielit, travma va b.) yarim falajlikda, falajlikda, modda almashinuvining pasayishida, quvvatsizlikda, charchoqda, impotensiyada, gipotoniya, oftalmologiyada ishlatiladi.

Gipertoniya kasalligida, uyqusizlikda, bronxial astmada, aterosklerozda, homiladorlikda, gipertireozda tavsiya etilmaydi.

Terapevtik doirasi kichik bo'lgani sababli zaharlanish vujudga kelishi mumkin. Bunda yuz, orqa, bo'yin va boshqa tana muskullarning tortilishi, tonusini oshishi, katta dozalarda esa tetanik tirishib, tortilib qolishi (butun tana muskullari qisqara borishi) kuzatiladi. Nafas olish qiyinlashadi. Bunday holatni opistotonus deb yuritiladi.

Sekurenega yarim butasimon o'tida olingan sekurin (Securininum) alkaloidi o'zini farmakologik ta'siri bo'yicha strixninga o'xshaydi. Lekin ta'siri nisbatan kuchsiz va strixninga qaraganda kam zaharli. Ishlatilishi va ishlatish man etilishi strixninga o'xshash.

Strixnin va sekurninning preparatlari strixnin nitrat 0.1% li eritma holida 1 ml ampulada chiqariladi. Sekurin nitrat tabletkada (2 mg) va ampulada 0.2% li 1 ml.dan chiqariladi.

Kuchalaning fitopreparatlari.

Kuchalaning quruq ekstrakti (Extractum Strychni siccum) 1:10 bo'lgan suvli eritmasi achchiq ta'mli bo'lgani uchun ishtahani ochish uchun ishlatiladi. Ekstrakt tarkibida 10% ga yaqin alkaloidlar (strixnin va brusil) bor. Poroshok holida 0,005 – 0,012 dan beriladi.

Kuchala nastoykasi (Tinctura Strychni) 0.25% ga yaqin alkaloidlarni saqlaydi. Achchiq mazali, umumiy tonusni oshiruvchi va ishtahani ochuvchi sifatida 10 tomchidan ichiladi.

II BOB. M.N.S FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRADIGAN, UMUMIY TONUSNI OSHIRADIGAN DORIVOR O‘SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

Bu guruhga xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinayotgan umumiy tonusni oshiradigan shifobaxsh dorivor o‘simliklardan tayyorlangan va hayvonlardan olingan dori vositalari kiradi. Ularning shifobaxsh ta‘siri ilmiy tibbiyotda ham o‘rganilgan va tasdiqlangan. Lekin, ularning ta‘sir mexanizmi oxirigacha yaxshi o‘rganilmagan. Ushbu preparatlar organizmga kuchli ravishda ta‘sir etmasa ham, ularning umumiy quvvatsizlikda ham, ish qobiliyati pasayganda va boshqa shunga o‘xshash holatlarda ishlatilishida yaxshi natijalar berishi ma‘lum.

Ushbu dori vositalari organizm uchun kam zaharli bo‘lib, ma‘lum sharoitda bemorlar, shu jumladan, qariyalar ham ularni yaxshi va engil ko‘taradilar. Shunga qaramasdan bu dori vositalari stimullovchi boshqa dori preparatlari singari vrachlar tavsiyasi bilan reseptlar bilan beriladi.

1. Jenshen ildizi (*Radix Ginseng*) – *Корень Женшенья*

Kimyoviy tarkibi. Jenshen ildizining tarkibida efir va yog‘ moylari, qandlar, azotli va azotsiz ekstraktiv moddalar, fermentlar. V vitaminlar guruhi, temir, fosfor, oltingugurt, marganes va boshqa mikroelementlar hamda fitoestrogenlar va daukisterinlar bor.

O‘simlik uchun ko‘proq xos bo‘lgan triterpen glikozidlarni (panakeozitlar) – A, B, C, D, E, F larni bo‘lishidir.

Qo‘llanishi. Jenshenning ta‘sir doirasi keng va ko‘p tomonlama bo‘lgani uchun ko‘pchilik kasalliklarda va holatlarda ishlatiladi. Chunonchi, u umumiy tonusni oshiruvchi va sog‘liqni mustahkamlovchi dori-darmon sifatida markaziy nerv sistemasining turli kasalliklarida, ish qobilatini ko‘taruvchi, organizmni turli noboplik holatlariga bo‘lgan qarshiligini, chidamliligini oshiruvchi va sog‘liqni mustahkamlaydigan vosita. Jenshen turli sababli astenik va

astenikka o'xshash holatlarda, psixoastionik va isterik reaksiyalarda va boshqa nevroz kasalligi bilan kechuvchi holatlarda impotensiyada tavsiya etiladi. Jenshen preparatlarini muntazam qabul qilgan bemorlarda charchash, toliqish, bo'shshish holatlari yo'qolgan, sog'ligi yaxshi tomonga siljigan (ishtaha yaxshilagan, bosh og'rig'i va tinka qurishi bartaraf bo'lgan).

Jenshen sog' odamlarga berilganda ham aqliy va jismoniy qobiliyati oshishi kuzatilgan. Uzoq muddat qabul qilinganda sog'liqni yanada mustahkamlashishi sezilarli darajada bo'lgan. Jenshen preparatlari miodistrofiyada, qon bosimi pasayganda, gastritda, immunostimulyator sifatida virusli gepatitdan tuzalish davrida, qandli diabetda va aterosklerozda ijobiy ta'sir to'g'risida ilmiy maqolalarda keltirilgan. Bundan tashqari, Jenshen miya qon-tomirlarini kengaytirishi, gemopoezni qisman yaxshilanishi, yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir etishi qayd etilgan.

Jenshenning bu xilma-xil foydali ta'sirida endokrin sistemasining faoliyatini oshishi alohida o'rin tutadi. Nuklein kislotalarni (RNK, DNK) sintezini kuchaytirishi, siklik AMFning oshirishi, kortikosteroidlarning qonda ortishi aniqlangan. Organizmni turli nobop sharoitga moslashishi (adaptatsiya) kuzatilgan.

Jenshen, umuman olganda, terapevtik dozada nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin uni gipertoniya kasalligida va balog'atga etmaganlarga umumiy qo'zg'alish holatda, uyqusizlikda tavsiya etilmaydi.

Fitopreparatlari.

Jenshen nastoykasi (Tincturae Ginseng) 50 ml flakonda chiqariladi. Ovqatdan 30 – 40 daqiqa oldin 15-25 tomchidan kuniga 2-3 marta ichiladi. Kurs davomiyligi 30-40 kun.

«Biojenshen» nastoykasi. Biotexnologiya bo'yicha jenshen ildiz to'qimasidan «in vitro» sharoitda biomassa olingan. Ta'siri bo'yicha tabiiy jenshenga o'xshash.

50 ml dan flakonda chiqaradi. 30-50 tomchidan kuniga 2 – 3 marta ovqatdan 30-40 daqiqa oldin ichiladi.

2. Baland qitir (Echinopanax elatus nasaí) – Заманиха ехинопанакс высокий

O'simlik buta ildizida efir moyi, triterpen, gikozidlar, fenol birikmalari va minerallar saqlaydi.

O'simlikning ildizidan tayyorlangan nastoykasi eksperimental sharoitda laboratoriya hayvonlarida harakat qo'zg'alishi, reflektor qo'zg'aluvchanligini oshishi va uxlatuvchi dorilar chaqirgan ta'sirni qochirishi kuzatilgan. Jenshenga qaraganda uyquni qochirishi kuchliroq. O'simlik tarkibidagi glikozidlari va efir moylarini alohida alohida ajratib olib hayvonlarda tekshirilganda ular ham umumiy qo'zg'alishni oshirib, uyquni qochirishi aniqlangan.

O'simlikning yuqorida qayd etilgan farmakologik ta'siri uning tarkibidagi moddalarning kompleksidan kelib chiqadi.

Qo'llanilishi. Baland qitir nastoykasi asteniyaning turli shakllarida, depressiya holatida va gipotoniya qo'llanuchi preparat singari ishlatiladi. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar bilan bog'liq asteniya holatida nastoykaning farmakologik ta'siri natijasida preparatning davo ta'siri bemorlarda yaqqol ko'ringan. Ularning ahvoli tezikda yaxshilangan. Qandli diabetni engil formasida baland qitir nastoykasi boshqa gipoglikemik preparatlar bilan berilganda, kasallikning kechishi engillashgan, adinamiya holati kamaygan. Shunday qilib, baland qitir M.N.S engil rag'batlantiruvchi ta'sirni dorivor o'simlik hisoblanadi.

Fitopreparati.

Baland qitir nastoykasi (Tincturae Echinopanax) 50 ml dan flakonlarda chiqariladi.

3. Maxsarsimon Levzey (Rh. Cartiomoides DC) – Левзея сафлоровидная

Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda levzeyaning ildizpoyasi bilan ildizidan foydalaniladi. Ularning tarkibida saponinlar – raportikozidlar, efir moyi, flavonoidlar, aromatik va boshqa kislotalar, ligninlar, fitoekdzonlar, 5% gacha oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

Levzeyaning asosiy farmakologik ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari uning ildizpoyasi va ildizidagi ligninlar, raportikozidlar va fitoekdzonlar hisoblanadi.

Farmakologik xossalari. Levzeyaning suyuq ekstrakti va nastoykasi M.N.Sga rag'batlantiruvchi ta'sir etadi. Chunonchi, laboratoriya hayvonlarining harakat faolligi oshadi, reflektor qo'zg'aluvchanligi yaxshilanadi, uyquni qochiradi, charchoqni, quvvatsizlikni, bo'shshishni bartaraf etadi. Umumiy tonusni, aqliy va jismoniy qobiliyatni jonlantiradi. Bunday o'zgarishlar laboratoriya hayvonlarida ATF glikogenni va keratin fosfatni oshishiga asoslangan deb qaraladi. Olib borilgan klinik tekshirishlar levzeyaning galen preparatlari M.N.S ning funksional buzilishi bilan kechuvchi bemorlarda sezilarli davo ta'sirini ko'rsatgan. Bemorlarda ish qobiliyati, kayfiyati yaxshilangan. Erkaklik qobiliyati ham sezilarli yaxshilangan.

Qo'llanilishi. Umumiy kuch-quvvatning pasayishi, bo'shshish, havsalasizlik bilan kechadigan holatlarda, uyquni buzilishida, asab sistemasi faoliyatini pasayishi bilan davom etadigan funksional holatlarda tavsiya etiladi.

Fitopreparatlar.

Ekdisten (Ecdistenum) fitopreparati levzeyaning ildizpoyasi va ildizidan olingan bo'lib, levzeyaning suyuq ekstrakti singari umumiy tonusni oshiradi, jismoniy ish qobiliyatini yaxshilaydi. Organizmda oqsil biosintezini tezlashtiradi. Astenik va asteno-depressiv holatlarda berilmaydi.

Levzeyaning suyuq ekstrakti (Extractum Levzme ffuidum) flakonda 40 ml dan chiqariladi. 20 – 30 tomchidan ichiladi.

4. Pushti radiola (Radiolae Rosae L) – Родиола розовая

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning ildizpoyasi va ildizi oshlovchi moddalar, antroglukozidlar, efir moyi, organik kislotalar (shavel, limon, olma, yantar va b.), ko'proq qandlar, oqsillar, sterinlar, uchlamchi spirtlar, fenolsimon moddalar, glikozidlar, flavonoidlar va ko'p miqdorda marganes saqlaydi.

Farmakologik xossalari. O'simlikning galen preparatlari kam zaharli. Lekin, kichik dozada laboratoriya havonlari venasiga yuborilganda qon bosimini tushirgan va yurakni to'xtatgan. Novogalen preparati Radizim radiola eksraktiga qaraganda kam zaharli.

Ko'pchilik eksperimental tekshiruvlarda radiola preparatlari ta'sirida kuch-quvvat oshgan, dinamik va statik ish harakat ko'tarilgan. Preparatlarning bunday qo'zg'atuvchi ta'siri ish qobiliyati pasayganda, charchoqlik holatida yaxshi namoyon bo'ladi. Modda almashinuvi, tana muskullarning energetik jarayonlari oshadi.

Radiola preparatlari odamning aqliy qobiliyatini, eslab qolish va e'tiborni yaxshilaydi. Radiolaning bunday miya po'stlog'iga ta'siri retikulyar formatsiya orqali va bevosita ta'siridan kelib chiqadi.

Radiola fitopreparatlari Jenshen kabi adaptogen hisoblanadi. Chunki ular turli nobop holatlarda chidamlilikni, moslashishni oshiradi. Bundan tashqari, radiola preparatlari uxlatuvchi preparatlar keltirib chiqargan uyquni qisqartiradi. Strixnin, xlorofos, natriy nitrat, anilinlarning zaharli ta'sirida radiola preparatlari qisman organizmning chidamliligini oshiradi.

Qo'llanishi. Radiolaning suyuq ekstrakti rag'batlantiruvchi dori-dormon sifatida asteniyada, tez charchoqlikda, quvvatsizlikda, bardoshsizlikda, nevrostenik holatlarda, vegetativ tomir distoniyalarda tavsiya etiladi. Preparat somatik infeksiyon kasallik bilan og'rikan bemorlarga va sog' odamlarga astenik va charchash holatlarda berilishi mumkin.

Psixiatriya amaliyotida ham ishlatiladi (astenik va akinetiko-gipotonik sindrom).

Radiola ekstraktini berish umumiy qo'zg'alish holatlarida, gipertonik krizda, isitmada taqiqlanadi. Radiolaning suyuq ekstrakti 5-10 tomchidan kuniga 2-3 marta ovqatdan 15-30 daqiqa oldin ichiladi.

5. Manjuriya araliyasi (*Aralia Mandshurica* Ruphr. et maximum) – *Аралия манджурская*

Kimyoviy tarkibi. Araliya ildizi oqsillar, kraxmal, uglevodlar, efir moyi, mineral birikmalar, kam miqdorda alkaloidlar saqlaydi. Ildizda triterpen saponinlar – aralozidlar, vitamin A, V va C bor. Ular olein kislotaning glikozidi (triazid) va oleonal kislotaning 2 ta bir xil fizik kimyoviy xossalarga ega bo'lgan tetraoziddir.

Farmakologik xossalari. Araliyaning ildizidan tayyorlangan galen fitopreparatlari laboratoriya hayvonlarida bajarilgan tajribalarda M.N.Sni qo'zg'atuvchi ta'siri bo'yicha Jenshen va eleutrokokkdan kuchliroqligi aniqlangan. Hayvonlarda gonatotrop ta'siri ham kuzatilgan.

Farmakologik tekshiruvlarda araliyaning ildizidan tayyorlangan nastoykasining qo'zg'atuvchi ta'sarida harakat qo'zg'alishi va yurish turish reaksiyasining tezlashishi kuzatilgan. Bundan tashqari hayvonlarda barbituratlar chaqirgan uyquning davom etishi qisqargan. Araliyaning eksperimental nur kasalligida va alloksan diabetida profilaktik va davo ta'siri kuzatilgan.

Araliya ildizidan olingan olein kislotaning triterpen glikozidlari yig'indisini saqlagan saperal fitopreparati kam zaharli, gemolitik indeksi yuqori emasligi, hayvonlarga uzoq muddat davomida yuborilganda nojo'ya ta'sir kuzatilmagan.

Tajribada olingan natijalarga ko'ra, saperal fitopreparatining M.N.Sni desinxronizatsiya etuvchi stimulyatorlar qatoriga qo'yiladi va uning bunday farmakologik ta'siri retikulyar formatsiyaga qaratilgani aniqlangan.

Eksperimental o'rganishda saperal preparati yurakka salbiy xronotrop va ijobiy inotrop ta'siri kuzatilgan. Yurak faoliyati miokarddagi metabolik jarayonlarni yaxshilash natijasida oshishi aniqlangan.

Qo'llanishi. Manjuriya araliyasining ildizidan tayyorlangan nastoykasi astenonevrotik holatda, jarohatdan keyingi asteniyalarda astenik sindromida beriladi. Nastoyka bosh miya qon tomirlarining ateroskleroz kasalligining boshlang'ich davrida tavsiya etiladi. Preparat ta'sirida bemorlar ahvoli yaxshilanadi, ishtaha ochiladi, jismoniy ish qobiliyati ortadi, markaziy nerv sistemasi va yurak qon tomirlar faoliyati rag'batlanadi. Nastoyka bemorlarga og'ir surunkali kasallikdan tuzalish davrida, jismoniy, aqliy charchaganda va gipotoniya tavsiya etiladi. Nastoyka gipertoniya kasalligida, asab qo'zg'alishida, uyqusizlikda tavsiya etilmaydi.

Saperal fitopreparati ham nastoykasi singari ta'sir etib, bemorlarni xastalikdan holi etadi. Umumiy holatni yaxshilaydi. Ish qobiliyatini va aql-idrokni, tetiklikni keltirib chiqaradi. Saperal triterpen glikozidlarni ammoniyli tuzi, tabletkada 0,05 g chiqariladi.

6. Xitoy sxizandriyasi (*Schizandra chinensis* Bal. L.) –

Лимонник китайский

Kimyoviy tarkibi. O'simlik mevasida qandlar, oshlovchi va rangli birikmalar, yog'li (linon, lanolin, olein va boshqa kislotalarning glikozidlari) va organik (olma, limon, vino) kislotalari mavjud. Bundan tashqari, efir moyi, seskviterpen moddalar, askorbin kislota, vitamin E, hamda o'simlik asosiy biologik faol moddasi hisoblangan Sxizandrin va sxizandrol birikmalari borligi aniqlangan.

Farmakologik xossalari. Eksperimental sharoitda mevasidan tayyorlangan nastoykasi va damlamasi laboratoriya hayvonlarida qon bosimini ko'targan, yurak urishini sekinlashtirgan, yurak urishining amplitudasini ko'targan, nafasni qo'zg'atgan, ajratib olingan qon tomirlarini qisman kengaytirgan. Bundan tashqari laboratoriya hayvonlarini dorilar bilan uxlatilganda ham ularni qo'zg'atgan va uyquni qochirgan. Fitopreparatlar ta'sirida orqa miya reflekslari tezlashgan, nerv-muskul o'tkazuvchanligi oshgan.

Qo'llanishi. Preparatlari charchash, ish qobiliyatini pasayishi, bo'shashish, toliqish, uyquchanlik va gipotoniya bilan boruvchi astenik va astenodepressiv holatlarda tavsiya etiladi. Sxizandriyaning galen preparatlari ko'rish qobiliyatini, qorong'uda ko'rishni ham yaxshilaydi.

Nojo'ya ta'sirining bo'lmasligi Xitoy sxizandriyasini tonusini samarali stimulyatorlar qatoriga qo'yildi. Bunga qaramasdan ushbu fitopreparatlarni shifokor tavsiyasi bo'yicha ma'lum dozada ishlatilishi kerak.

Sxizandriya preparatlarini asab qo'zg'alishida, uyqusizlikda, gipertoniya kasalligida, yurak xastaliklarida tavsiya etish taqiqlanadi.

Fitopreparatlari. Sxizandriya mevasi nastoykasi (*Tinctura fructuma Schizandrae*) (1:5 96⁰ spirtida), 50 ml dan flakonda chiqariladi. 20 – 30 tomchidan kuniga 2-3 marta ichiladi.

7. Tikonli eleuterokokk (*Eleutherococcus senticosus* Rupr. maxim) – Элеутерококк колючий

Kimyoviy tarkibi. Butaning ildizi glyukoza, qandlar, kraxmal, polisaxaridlar, mo'm, qatron, petin moddalari, kumarin unumlari,

efir va yog'moylar, mikroelementlar hamda A,V,S,D,E vitaminlari eleuterozidlarini saqlaydi.

Farmakologik xossalari. Laboratoriya hayvonlarida o'tqazilgan tajribada eleuterokokk ekstraktining M.N.Sni stimullovchi va umumiy tonusni oshiruvchi ta'siri aniqlangan. Tana muskullarining qisqarish kuchini oshirishi. uglevodlarning kam darajada sarflanishi, lipidlarning sezgirli mobilizatsiyasi, muskullarda ATF balansining ko'proq saqlab qolinishi kuzatilgan. Eleutrakokkning bir marta yoki qayta-qayta yuborilganida bosh miyaning po'stloq qismini qo'zg'aluvchanligini oshirgan, tormozlanish jarayoni esa o'zgar olmay qolgan. Bundan tashqari eleuterokokk fitopreparatlari ta'sirida bosh miyaning bio elektrik faoliyati oshadi, barbiturotlar, xloral gidratning M.N.S ga tormozlovchi-uxlatuvchi ta'siri kamayadi, etanol bilan zaharlanishda antitoksik ta'sir etadi, zaharlanishni kechishini engillashtiradi.

Qo'llanishi. Eleuterokokkning ekstrakti odamlarda aqliy va jismoniy ish qobiliyatini yaxshilaydi, charchash va toliqishni kamaytiradi, ko'rish va eshitishni kuchaytiradi. Bemorlarning umumiy holatini yaxshilaydi, ular o'zlarini yengil xis qiladilar. Ateroskleroz bilan og'rigan bemorlar qonidagi xolesterin va β -lipoproteidlar miqdorini o'simlik ekstrakti kamaytiradi. Bemorlarni umumiy ahvolini fitopreparat ta'sirida yaxshilanishi preparatni boshqa xastaliklarda ham shu maqsadda berilishiga asos bo'ladi.

Fitopreparatlari. Eleuterokokkning suyuq ekstrakti (Extr. Eleutrococcum fluidum). O'simlik ildizpoyasi va ildizidan olingan fitopreparat. Umumiy tonusini oshiruvchi dori-darmon sifatida tavsiya etiladi. Flakonda chiqariladi. 20-30tomchidan ichiladi.

8. Tog' qizilcha (Ephedra equisetina Bunge) – Эфедра хвошевая (o'simlik to'g'risidagi to'liq ma'lumot IV bo'limning 12-bandida berilgan)

Kimyoviy tarkibi. efedraning er ustki qismida 0,6-3,2% gacha alkaloidlar, fenol kislotalar, S vitamini, 7-14,4% oshlovchi va boshqa moddalar bor. Asosiy faol alkaloidi efedrin.

Farmakologik xossasi. efedrin alkaloidi kimyoviy tuzilishi va farmakologik ta'siri bo'yicha adrenalina o'xshaydi. O'simlik adrenomimetik hisoblanadi. Adrenalin singari periferik adrenami-

metik ta'sir etadi. M.N.S ni qo'zg'atadi. Shu bilan adrenalindan farqlanadi. Efedrinni bunday ta'siri fenamindan kuchsiz, lekin kofeindan qolishmaydi.

Qo'llanishi. Efedrin ko'pchilik kasalliklarda (bronxial astma, gipotoniya va b.) berilishi bilan birga narkoplepsiyada, uxlatuvchi dorilar bilan zaharlanishda, enurezda (kechasi siyib qo'yish kasalligi, bemorni tez uyg'otishi) uchun tavsiya etiladi.

Efedrin poroshok va tabletkada 0,025g dan va ampulada (1ml) 5% eritmasi chiqariladi.

III BOB. M.N.S NI TORMOZLOVCHI, TINHLANTIRUVCHI DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

1. Ko'knori (*Papaver somniferum* L.) – Мак снотворный

Kimyoviy tarkibi: Bir yillik o'simlik bo'lgan ko'knorining yetilmagan ko'saklari kesilganida oqib chiqadigan suyuqlik oftob nuri ta'sirida havoda qurib, qora rangga o'tadi (qora dori). Ushbu qurigan shira tarkibida 20 dan ortiq alkaloid birikmalari bo'lib, ular kimyoviy tuzilishi bo'yicha asosan ikki guruhga bo'linadi – piperidin-fenontren (morfin, kodein va b.) va benzilzoxinil (papaverin va b.) unumlari. Ko'knor o'simligining farmakologik faolligi ushbu alkaloidlarga bog'liqdir.

Morfin alkaloidi M.N.S ga ancha murakkab ta'sir etib, ko'pchilik markazlar faoliyatini tormozlaydi, susaytiradi, ayrimlarining (adashgan nerv va ko'z harakat nerv markazlari) qo'zg'otadi. Morfinning asosiy farmakologik ta'siri kuchli og'riqlarni qoldiradi. Bunday ta'sir og'riq sezish markaziga yo'naltirilgan impulslarni kamaytirishga, to'sishga bog'liq deb qaraladi (talamusda, retkulyar formatsiyada va b.). Ulardan tashqari yana bir necha ta'sir mexanizmi qayd etiladi.

Bundan tashqari, morfin aniq tinchlantiruvchi va uyqu keltirib chiqaruvchi ta'sir ko'rsatadi. Uyqu uncha chuqur bo'lmaydi, chunki morfin ta'sirida ayrim markazlar qo'zg'olgan holatda bo'ladi. Morfin nafas markazining qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi, kichik dozada nafas olishni sekinlashtiradi, nafas olish chuqur bo'ladi. Katta dozalarda esa nafas yanada sekinlashadi, vaqti-vaqti bilan nafas olish kuzatiladi va zaharlanishda nafas olish to'xtaydi. Morfin ta'sirida yo'tal va qusish markazlari ham tormozlanadi. Shu bilan birga adashgan va ko'z xarakat nervining markazlari qo'zg'olishi natijasida ko'z qorachig'i torayadi, yurak urishi sekinlashadi, bronxlar torayadi, sfintr (silliq muskullar)larni tonusini oshiradi. Morfinning M.N.S uning oliy nerv faoliyatiga ta'siri natijasida eyfariya–kayf qilish holati yuz beradi. Ushbu holat narkoma-

niyaning-qaramlikni keltirib chiqaradi. Shu sababdan ko'knorini ekish va morfinni ishlatish cheklangan va qattiq nazorat ostiga olingan.

Morfinning og'riqni qoldirish ta'siri ayrim holatlarda saraton kasalligini oxirgi bosqichlarida va shunga o'xshash qattiq og'riq bilan kechuvchi hayoti umidsiz kasalliklarda va holatlarda ruxsat berilgandagina ishlatiladi (miokard infarkti va b.).

Kodesin fenantren unumlaridan farqli o'laroq, u yo'tal markazini kuchliroq tormozlaydi, yo'talni qoldiradi. Nafas markaziga ta'siri kuchsiz, eyforiya holati kam, periferik ta'siri ham uncha bilinmaydi. Shu sababdan kodein yo'tal qoldiruvchi kuchli dori hisoblanadi.

Kodein poroshok, tabletkada 0,02g dan chiqariladi. Uni ishlatish narkotik analgetiklar singari cheklangan.

Papaverin. Ushbu alkaloid izoxinolin qatoriga kiradi. Fenantren unumlaridan farqli o'laroq M.N.S ga ta'sir etmaydi. Spazmolitik va qon tomirlarini kengaytiruvchi ta'sir etadi. Shuning uchun uni preparati papaverin gidroxlorid asosan gipertoniya, bronxil astma, oshqozon va o'n ikki barmoq yara kasalligida va boshqa spazm bilan boradigan holatlarda tavsiya etiladi.

Preparatlari. Morfin gidroxlorid (Morfini hydrochloridum) 1% eritma 1ml.dan ampulada chiqariladi. Yosh bolalarga (2 yoshgacha) v qarilarga (60 yoshdan oshgan) berilmaydi.

Omnopon (Omnoponum) tarkibida 43-50% morfin va 32-35% boshqa alkaloidlar yig'indisi, shu jumladan, papavirin bor. 1-2% eritma 1ml.dan ampulada chiqariladi.

Kodein (Codeinum) – poroshok va tabletkada 0,01-0,02g.dan beriladi. Uning kompleks preparatlari «Kodterpen» yo'talga qarshi tabletkasi pentalgin, sedalgin mavjud. Ular asosan yo'talga qarshi dori sifatida (surunkali bronxit va b.) beriladi.

Kodsini fosfat (Codeinum phosphas) tarkibida 80% gacha kodein saqlaydi. Asosan 6 yoshdan oshgan bolalarga beriladi.

Etilmorfin (Aethylmorphini hydrochloridum) yo'talga qarshi (surunkali bronxit, sil kasalligi va b.) va og'riq qoldiruvchi sifatida beriladi. Poroshok va tabletkada 0,01-0,015g.dan chiqariladi.

2. *Dorivor valeriana (Valeriana officinalis) – Валериана лекарственная*

Kimyoviy tarkibi. Ildizpoyasi va ildizlari tarkibida 0,5-2% efir moyi, saponinlar, alkaloidlar, kislotalar, valepotriatlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyining asosiy qismi borneal spirtining izovolerian kislota bilan hosil qilgan murakkab efir-bronilizovalerianat, borneol, izovolerian kislota va boshqalardan iborat.

Ildizpoya va ildizining asosiy ta'sir etuvchi birikmalari – efir moyi (bornilizovalerianat) va valepotriatlardir.

Qo'llanishi: valeriana qadimdan ishonchli dori vositasi bo'lib, alohida va ko'p komponentli dorilar (quruq ekstrakt, damlama, nastoyka, tomchilar) tarkibida tinchlantiruvchi yurak-qon tomir sistemasini yaxshilovchi fitopreparat sifatida ishlatilib kelinyapti.

Valeriananing fitopreparatlari asabni qo'zg'alishi, uyqusizlik, migrenga o'xshash bosh og'rig'ida, isteriyada tavsiya etiladi. Bundan tashqari nevroastenianing engil shakillarida, psixoasteniyada, klimatrik o'zgarishlarda, vegetonevrozda, yurak-qon tomir nevrozida, stenokordiya va gipertoniyaning boshlang'ich davrida ham, jigarning va o't yo'llarining ayrim kasalliklarida, sanchiq bilan boradigan oshqozon-ichak xastalıklarida valeriana ko'pincha turli tinchlantiruvchi, spazmalitiklar, yurak kasalligida ishlatiladigan dori vositalari va dorivor o'simliklar bilan birga qo'shib beriladi.

Valeriana ta'sirida M.N.S ning qo'zg'aluvchanligi pasayadi, tinchlantiruvchi ta'siri asta-sekin boshlanib, turg'un holda davom etadi. Bemorlarda asab buzilishi yo'qoladi, uyqu yaxshilanadi.

Fitopreparatlari. Valeriananing maydalangan ildizpoyasi va ildizi 100gr.dan qog'oz qopchalarda, briket shaklida ham chiqariladi. Damlama tayyorlash uchun briketning 1-2 bo'lakchasi 1 stakan suvga solib, 5 daqiqa qaynatiladi, dokadan o'tkaziladi 1 osh qoshiqdan kuniga 2-3 marta ovqatdan oldin ichiladi.

Valeriana nastoykasi (Tinctura Valerianae) flakonda 50ml.dan chiqariladi 20-30 tomchidan kuniga 3-4 marta qabul qilinadi.

Valeriananing quruq ekstrakti (Extractum Valeriane spissum) tabletka holda 0,02g dan chiqariladi.

Valeriana damlamasi (Jufusum Valerianae) 6-10-20g 180-200ml suvda tayyorlanadi 1-2 qoshiqdan ichiladi.

Tinchlantiruvchi yig'ma (Species sedative) tarkibi: valeriana ildizpoyasi va ildizi – 1 qism; yalpiz barglari – 2 qism; uchbargli menniantis – 2 qism; qumloq quddasi – 1 qism.

2 osh qoshiq (8-10g) yig'mani emallangan idishga solib, issiq qaynab turgan 200 ml suv quyiladi va suv hammomida 15 daqiqa ushlab turiladi, keyin 45 daqiqa sovitiladi, suziladi va qaynagan suv bilan 200 ml.gacha qo'shiladi.

¼ va 1/3 stakandan kuniga 1-2 marta ovqatdan so'ng ichiladi. Yig'ma qo'zg'olish bilan boradigan holatlarda, asabiylashishda, uyqusizlikda va b. beriladi.

Valeriana yana bir qator dorivor o'simliklar bilan birga qo'shib beriladi.

Yig'ma:

Valeriana ildizi 30,0

Bo'ymadaron (o'ti) 20,0

Arpabodiyon (bargi) 20,0

Damlama tayyorlab 1/3, ¼ stakandan 2-3 marta ichiladi.

Bulardan tashqari valeriana saqlagan bir qator kompleks preparatlar (Validol, korvalol, valokarmid, valokardin) bor. Ular tibbiyot amaliyotida tinchlantiruvchi, uyqu keltiruchi va glyutenziv dorilar sifatida ishlatadi.

3. Arslonquyruq (Leonurus L-) – Пустырник

Kimyoviy tarkibi. Arslonquyruq o'tining tarkibida qandlar, glikozidlar, alkaloidlar, efir moylar, flavonoidlar (kversetin, rutin, kvinkvelozid va boshqalar), vitamin A, askorbin kislota, ishlovchi va achchiq moddalar va boshqalar bor.

Arslonquyruq turlarning asosiy ta'sir etuvchi birikmalari flavonoidlar, iridonlar va boshqa moddalar hisoblanadi.

Farmakologik ta'siri. Arslonquyruq o'tidan tayyorlangan damlama, nastoyka va spirtli ekstrakt aniq sedativ ta'sir etadi. Laboratoriya hayvonlarining xarakat faolligini pasaytiradi, uxlatuvchi va narkotiklarning effektini oshiradi, analeptiklar ta'sirini kamaytiradi. Arslonquyruq nastoykasi M.N.S ning ayrim

funksiyasiga valerianaga qaraganda 2-3 marta kuchliro ta'sir etadi. Arslonquyruq fitoprepartlari gipotenziv va kardiotonik ta'sir etadi.

Qo'llanilishi. Arslonquyruq preparatlari avval tibbiyotda kardiotonik va gipatenziv dori vositalari sifatida ishlatilgan. Keyinchalik uni sedativ dori fitopreparat sifatida ham ishlatib kelinayapti.

Arslonquyruq preparatlari gipertoniya, stenokardiyada, miokarditda, kardiosklerozda terapevtik effekti yuqori darajada. Asabiy qo'zg'alishda, psixasteniyada va nevroastenyada, vegetoqontomir distoniyada ham keng tavsiya etiladi.

Preparatlari. Arslonquyruqning maydalangan o'ti qog'oz xaltachalarda va briket shaklida chiqarildi:

Arslonquyruq nastoykasi (Tinctura Leonuri).

Arslonquyruq damlamasi (Jnfusum Leonuri).

Arslonquyruqning suyuq ekstrakti (Extractum Leonuri fluidum).

Bulardan tashqari arslonquyruq bir qator kompleks fitopreparatlar, yig'malar tarkibiga kiradi:

Ko'kamaran (ildizi) – 2 qism

Arslonquyruq (o'ti) – 2,5 qism

Qalampir yalpiz (bargi) – 1 qism

Botqoq gnafalium (o'ti) – 1,5 qism

Na'matak (mevasi) – 1,5 qism

Buyrak choyi (o'ti) – 1,5 qism

Moychechak (guli) – 1 qism

Damlama tayyorlanib, gipertoniyani 1 va 11 bosqichida 1/3, 1/4 stakandan kuniga 3 marta ichiladi.

4. Butasimon amorfa (*Amorpha fruticosa* L.) –

Аморфа поликустарниковая

Kimyoviy tarkibi. Amorfaning urug'ida romenoid glikozidlar, ulardan biri amorfin bor. Bu glikozid gidrolizga uchrab aglikon amorfigenin, glyukozaga va arabinozaga parchalanadi.

Farmakologik xossalari. Amorfaning biologik faolligi tarkibidagi amorfin glikozidiga bog'liq. Amorfin neyrotrop ta'sirga ega bo'lib, laboratoriya hayvonlarida tinchlantiruvchi-sedativ ta'siri aniqlangan. Glikozid analeptiklar (kamfora, korazol, strixnin)

keltirovchi ta'sirini kamaytiradi, uxlatuvchi preparatlarning ta'sirini esa kuchaytiradi.

Amorfin bosh miya po'stlog'ining bioelektrik faoliyatini pasaytiradi. Bundan tashqari, amorfin karditonik ta'sirga ham ega.

Qo'llanishi. Glikozid amorfin asosida frutasin fitopreparati turli sababdan kelib chiqqan nevroitik holatlarda, yurak-qon tomir nevrozida, vegeto qon-tomir distoniyasida, paroksizmal neyrogen taxikardiyada tinchlantiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Nojo'ya ta'siri va qo'llashga monelik kuzatilmagan.

5. To'q qizil passiflora (*Passiflora incarnata*) –

Пассифлора инкарнатная

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning yer ustki qismida 0,05% alkaloidlar, sianofor glikozidi, flavonoidlar (saponin, shaftozid, izoshaftozid hamda izoveteksin va izooreintin glikozidlari va b.), kumarinlar va xinonlar bor. O'simlikning asosiy alkaloidi indol unumiga tegishli garmindir. Garmindan tashqari garmol va garminlar mavjud.

Farmakologik xossalari. O'simlikning er ustki qismining ekstrakti M.N.Sga ta'sir etib, tinchlantiradigan sedativ ta'sir ko'rsatadi. Laboratoriya hayvonlarida o'tkazilgan tajribada passiflora o'tidan olingan suyuq ekstrakt (fitopreparat) strixninning titroq holatiga qarshi ta'sir etishligi aniqlangan. Kamfora va kordiamin keltirib chiqaradigan giperkineziyani kamaytirgan. Ekstrakt deyarlik zaharsiz. Boshqa organ va sistemalarga (qon bosimiga, nafasga, yurak faoliyatiga va xolino, adrenoceptorlarga) ta'sir etmaydi.

Qo'llanishi. Passifloraning spirtli suyuq ekstrakti qo'zg'olish, uyqusizlik, bosh og'rig'i bilan davom etuvchi asab sistemasining funksional izdan chiqishida sedativ va yengil uxlatuvchi dori sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari M.N.S.ning boshqa kasalliklarida ham (giperkinoz, grippdan keyingi araxnoidit, klimatrik o'zgarishlar va b.) tavsiya etiladi.

Preparati.

Passifloraning suyuq ekstrakti (*Extractum Passiflore fluidum*) – flakonda chiqariladi, tomchilab ichiladi.

6. Qulmoq oddiy (*Humulus lupulus* L.) – Хмель обыкновенный

Kimyoviy tarkibi. Qulmoqning yetilgan quddasi achchiq modda lupilin, efir moyi (mirsen, gumulen, farnezen) alkaloid (xumulon), gormonlar, xlorogen, valerian va xmel oshlovchi kislotalar, flavonoid glikozidi, kumarinlar, rangli moddalar hamda vitaminlar (V_1 V_2 V_6 RR) va boshqa moddalarni saqlaydi.

Farmakologik xossalari. Qulmoqning galen preparatlarini M.N.S. ga tinchlantiruvchi ta'siri uning tarkibidagi alkaloid lupulinga bog'liq. Ushbu alkaloid yallig'lanishga qarshi, kapillyarlar devorini mustahkamlash va boshqa ta'sirga ega. O'simlikning sedativ ta'siri asab qo'zg'alishida, uyqu buzilishida, vegetoqon tomir distoniyasida, klimatrik o'zgarishda ishlatiladi va shu sababdan u yig'malar va kompleks preparatlar («Valokordin») tarkibiga kiritilgan.

Qo'llanishi. Quddasidan tayyorlangan damlama asab qo'zg'alishi bilan nevroitik hollarda, uyqusizliklarda tavsiya etiladi. Tinchlantiruvchi yig'malar tarkibiga kiritilgan.

Tinchlantiruvchi yig'ma (*Species sedativae*) (*Valeriana* preparatlarida keltirilgan).

Yig'ma: 1. *Valeriana* (ildizi), livanda (guli), limon o't, qulmoq quddasi – 1 choy qoshiqdan olib 200 ml suvga solib qaynatiladi. Damlama 100ml.dan kuniga 200 ml ichiladi.

Yig'ma: 2. Qulmoq quddasi – 10g, valeriana ildizi – 20g, limon o't – 20g, archa mevasi – 5g, qirqbo'g'in o'ti – 30g. Yig'madan 1 osh qoshiqni 200ml qaynab turgan suvga solinadi, sovutiladi. Uyqudan 30-40 daqiqa oldin ichilsin.

Yuqorida keltirilgan M.N.S. ga tinchlantiruvchi ta'sir etadigan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlaridan tashqari bir qator shifobaxsh o'simliklar borki, ular turli farmakologik xossalarga (yallig'lanishga qarshi, oshlovchi, og'riq qoldiruvchi, allergiyaga qarshi, modda almashinishini yaxshilovchi, immun sistemaga ta'sir etuvchi va b.) ega bo'lishi bilan birga sedativ ta'sir ko'rsatadi va turli xastaliklarda yakka holda va ko'pincha yig'malar tarkibida ishlatiladi. Ularning qatoriga quyidagi dorivor o'simliklarni qo'yish mumkin: igir, arnika, meniantes, tog' rayhoni, qashqarbeda, limono't, yalpiz, sallagul, qorazra, gunafsha va boshqalar.

Bular qatoriga meksika bangidevonasi (*Datura innoxia*) ham kirishini alohida qayd etish zarur. Chunki uning tarkibidagi skopolamin alkaloidi periferik xolinoblokatorlik (atropinga o'xshash) ta'siridan tashqari M.N.S. ga ta'sir etib tinchlantiradi (hattoki ayrim hollarda uyquga chaqirishi mumkin). O'simlik va uning fitopreparati to'g'risida to'liq ma'lumot IV bobning 2-bandida berilgan.

IV BOB. PERIFERIK NERV SISTEMASIGA TA'SIR ETUVCHI DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

Ushbu bo'limda asosan vegetativ va harakat nervlarga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklar ulardan tayyorlangan va ajratib olingan biologik faol moddalarning, fitopreparatlarining kimyoviy tarkibi, farmakodinamikasi, tibbiyot amaliyotida qo'llanishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Keltirilgan dorivor o'simliklarning ko'pchiligi Markaziy Osiyoda, ayrimlari esa MDH mamlakatlari hududida o'sadi va o'stiriladi.

1. Belladonna (Atropa Belladonna L) – Красовка

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning hamma qismida (ildizida – 0,40-1,30%, bargida 0,18-1,20%, poyasida 0,20-0,65%, gulida 0,2-0,60%, etilgan mevasida 0,70% gacha) alkaloidlar bor. Mahsulot tarkibida yana oz miqdorda uchuvchan asoslar: N – metil pirollon, N– metil pirolodin va piridin, ildizida kustirgin mavjud. O'simlik tarkibidagi alkaloidlardan atropin, giossiamin, skopolamin (giossin), apoatropin (atropamin) va bellodin biologik faol bo'lgan asosiy alkaloidlar hisoblanadi.

Belladonnannig er ustki qismida alkaloidlardan tashqari biologik faol bo'lmagan bir qancha birikmalar (metilgeskulin glikozidi, metileskulitin va b) bor. O'simlik bargidagi alkaloidlarning miqdori 0,3% dan kam bo'lmasligi kerak. Atropinning miqdori bu talabga yuqorida keltirilganidek javob beradi va u o'simlikning asosiy biologik faol moddasi–alkaloidi hisoblanadi. Shuning uchun o'simlikning farmakologik ta'siri va ishlatilishi atropinning farmakologik ta'siridan kelib chiqadi.

Farmakologik xossalari. Atropinning (I – α va d-giossiaminnig aralashmasi) asosiy farmakologik ta'siri M-xolinoreseptorlarga qaratilgan bo'lgani uchun organizmda turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va shunga qarab tibbiyotda turli kasalliklarda keng miqyosda ishlatilib kelinayapti. Atropin ta'sirida M-xolinoreseptorlar bloklanadi. Boshqacha aytganda, parasimpatik nervlar-

ning (adashgan nerv, ko'z harakat nervi, chanoq nervi) postgansionar tolasining oxiridan markazdan kelayotgan impulslarni to'qimalarga (a'zolariga) o'tishi to'xtatiladi. Chunki impuls ta'sirida nerv oxiridan (mediator deposidan) ajralayotgan mediator asetilxolinnig ta'siri namoyon bo'ladigan to'qima satxida joylashgan postsinoptik parda xolinoreseptor atrogin ta'sirida bloklangan bo'ladi. Buning natijasida parasimpatik nervlarning a'zolariga bo'lgan fiziologik boshqaruvi ta'siri bo'lmaydi. Shunnig uchun ham atropin va unga yaqin fitopreparatlar sintetik yo'l bilan olingan dori vositalari M-xolinoblokatorlar yoki M-xolinolitiklar deb yuritiladi. Ularning bunday ta'siri natijasida quyidagi effektlar (o'zgarishlar) kuzatiladi:

A) Ko'zga ta'siri. Rangdor pardasida joylashgan aylanma silliq muskullar tolalari bo'shshishi va radial (quyosh nuri kabi joylashgan) mushaklar tolalarining simpatik nerv faoliyati hisobiga qisqarishi natijasida ko'z qorachig'i kengayadi. Chunki rangdor pardaning aylanma mushaklari parasimpatik (ko'z harakat nervi bilan qisqartirilishi faoliyati atropin ta'sirida ro'yobga chiqmaydi. Shu sababli ko'zning ichki bosimi qisman yoki rosmana ko'tarilish mumkin. Chunki ko'z qorachig'i kengayib, rangdor pardasi qalinlashishi natijasida rangdor pardannig ko'z skleraga birlashgan burchagidagi Fontanov bo'shlig'i va Shlemov kanali tez torayishi hisobiga ko'zning oldingi kamasida joylashgan ichki suyuqlikni qon tomirlarga qaytadan o'tib ketishi qiyinlashadi. Bu ko'zning ichki suyuqligini eg'ila borishi esa turli ko'zgilisiz oqibatlariga olib keladi. Atropin ta'sirida ko'zning akkomadatsiyasi (yaqin uzoqni ko'rish qobiliyati) ham o'zgarishga uchrab, falajlanadi. Chunki ko'zning gavhari bilan bog'langan Sinn bog'lamlari ikkinchi tomonga birikkan kipriksimon tanasining bo'shshishi natijasida bu bog'lamlar tortiladi va ko'z gavhari yupqalashadi. Natijada ko'zni yaqindagilarni ko'rish yomonlashadi, uzoqni ko'rish esa o'zgarmay qoladi. Sinn bog'lamlari birikkan kipriksimon tana silliq muskuldin iborat bo'lib, parasimpatik nerv bilan innervatsiya qilinadi. Atropin ta'sirida ushbu tana mushaklarida M-xolinoreseptorlar bloklanib, bo'shshadi. Sinn bog'lamlari tortilib, gavhar yupqalashadi va akkomadatsiya falajlanadi.

B) So‘lak bezlarining faoliyati susayadi, so‘lak ajralishi kamayadi. Og‘iz quriydi, suvga talab ortadi. Buning sababi, so‘lak bezidagi M-xolinoreseptorlarning bloklanishi natijasida parasimpatik sekretor nervning ta‘sirini yo‘qolishidir.

V) Bronx va bronxiallarga ta‘siri. Nafas yo‘llarining devorida joylashgan silliq mushaklar adashgan nerv bilan innervatsiya qilinib, ularni qisqartiradi, bronxlar torayadi. M-xolinoblokatorlar ta‘sirida esa ushbu nervning bunday ta‘siri bloklanib, bartaraf etilgani sababli bronxlar va bronxiollardagi silliq mushaklar bo‘shashgani uchun kengayadi va nafas olish engillashadi, spazmalar yo‘qoladi. Ovoz ham o‘zgarib xirillaydigan bo‘lib qoladi.

G) Yurak faoliyatiga ta‘siri. Ma‘lumki, adashgan nerv yurak urishini sekinlashtiruvchi-tormozlovchi nerv hisoblanadi. Ushbu nervga tegishli bo‘lgan M-xolinoreseptorlarni atropin ta‘sirida bloklanishi oqibatida yurak urishi tezlashadi. Taxikardiya kuzatiladi. Chunki adashgan nervning ta‘siri yo‘qolgani sababli simpatik nervning yurakka bo‘lgan stimullovchi (qo‘zg‘atuvchi) ta‘siri ro‘y-rost yuzaga chiqadi.

D) Qon tomirlarga bo‘lgan ta‘siri uncha bo‘lmaydi. Chunki adashgan nervning qon tomirlarni kengaytirib, qon bosimini pasayishi barareseptorlar qatnashishida yuzaga chiqmaydi.

E) Me‘da-ichak sekretor va harakat faoliyati susayadi. Chunki adashgan nerv sekretsiyasini va harakatni oshiruvchi nerv hisoblangani uchun uning faoliyati M-xolinoblokatorlar ta‘sirida bartaraf etilishi (bloklanishi) oshqozon va ichak sekresiyasini va harakatini (peristaltikasini) susaytiradi.

J) M-xolinoblokatorlar ta‘sirida chanoq nervining (n Pelvicus) faoliyati yo‘qoladi. Natijada chanoq bo‘shlig‘ida joylashgan organlarga siydik qopi, bachadon, to‘g‘ri ichak silliq muskullari, sfintorlari ham bo‘shashadi (peshob va najas ajrashi kuzatilish mumkin).

Z) Ter bezlarining faoliyati to‘xtagani sababli ter ajrash izdan chiqadi, teri quriydi va uning harorati oshadi. Chunki ter bezlarida ham M-xolinoreseptorlar joylashgani va ularning bloklanishi yuz beradi.

Yuqorida keltirilgan M-xolinoblokatorlarning chunonchi, atropinning periferik vegetativ nervlariga ta‘siridan tashqari, u

kattaroq dozalarda (atropin yoki uni saqlagan zaharli o'simliklar ta'siri) M.N.S.ga qo'zg'atuvchi ta'sir etishi natijasida ruhiy va harakat qo'zg'alishi kuzatiladi.

Qo'llanishi va qo'llashga man etilishi. M-xolinoblokatorlar shu jumladan atropin tibbiyot amaliyotida keng ishlatiladi. Oftalmologiyada ko'zni ichki qismlarini ko'rish maqsadida ko'z qorachig'ini kengaytirish uchun hamda ko'z kasalligida ko'zoynak yozishda diaptoriyani aniqlash uchun va boshqa hollarda ishlatiladi.

Bronxial astma xurujida bronxodilyator sifatida bronxlarni kengaytirish uchun va boshqa preparatlar bilan kompleks shaklda beriladi (efatin va b).

Bradikardiya bilan kechadigan yurak kasalligida (sinus bradikardiyasi, sinus tugunchasini zaifligida va boshqa bradikardiyada) ishlatiladi.

Oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligida, giperacid holatlarda, spazm bilan kechadigan buyrak va o't qopi tosh kasalliklarida, qorin sanchiqlarida, xirurgik operatsiyalardan oldin bronxlar sekretsiasini kamaytirish maqsadida va oshqozon ichak kasalligini rentgenskopiya yordamida aniqlashda va M-xolinomimetiklar (pilocarpin, ezerin, prozerin, karboxolin va b) bilan zaharlanishda ishlatiladi.

Glaukoma (ko'zning ichki bosimi ko'tarilish) va og'ir yurak kasalliklarida ishlatilmaydi.

O'simlik va uning fitopreparatlari bilan zaharlanishda og'iz qurishi, taxikardiya, ovozni o'zgarishi, ko'z qorachig'ining kengayishi. tana haroratining ko'tarilishi kuzatiladi. Shuning bilan birga M.N.S qo'zg'alishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda birinchi tibbiy yordam choralari ko'riladi. Antixolinesteraz preparatlaridan fizostigmin salisilost 0.001g dan (5 ml osh tuzinnig izotonik eritmasida) har 5 daqiqada yuborib turiladi (umumiy dozasi 0.006g).

Prozerin va galantamin ham berilishi mumkin. Psixomotor qo'zg'alishida esa mushaklar orasiga geksonal yoki sibozon preparatlari yuboriladi. Zaharlanish og'iz orqali yuz bergan bo'lsa me'da faollashtirilgan ko'mir aralshagan suv bilan yuviladi, tuzli surgilar beriladi. Og'iz chayib turiladi, sovuq suvli dush yoki yuvinish va artinish tavsiya etiladi.

Belladonna o'simligidan ajratib olingan va undan tayyorlangan fitopreparatlari:

Atropin sulfat (Atropin sulfas). Preparat kukun, tabletka, eritma hoida ichish uchun, in'eksiya va ko'zga tomizish uchun beriladi. Kukun va tabletka shaklida 0,0005-0,0025g dan kuniga 1-2 marta, in'eksiya uchun 0.1% eritmaning 1 mldan (ampulada) teri ostiga, ko'zga tomizish uchun 0,1-0,25-0,5-1% li eritma 1 yoki 2 tomchidan ishlatiladi.

Belladonna bargi (Folia Atropa Velladonnas). Belladonnannig farmakologik ta'siri atropinning asosiy farmakolgik xossalari bilan ifodalanadi. Belladonnannig fitopreparatlari (nastoyka, ekstraktlar) atropin singari spazmalitik va og'riqni qoldiruvchi dori vositasi sifatida oshqozon yara kasalligida, qorin bo'shlig'i organlarining spazm bo'lishi bilan kechadigan kasalliklarida (buyrak va o't qopi tosh kasalligi, ichakning spastik holati va b), bradiaritmiyada va adashgan nervning qo'zg'alishi bilan bog'liq boshqa xastaliklarda beriladi. Glaukoma kasalligida berilmaydi.

O'simlikning hamma qismi shu jumladan, bargi ham zaharli.

Belladonna nastoykasi (Tinstura Belladonnae). Belladonna-naning bargidan (1:10) 40% spirtdda tayyorlangan. Tarkibida 0,027-0,033% alkaloidlar bor. Ichish uchun 5-10 tomchidan beriladi. Flakonda 10 ml dan chiqariladi.

Belladonnaning quyuq ekstrakti (Extractum Belladonnae spissum) tarkibida 1,4-1,6% gacha alkaloidlarni saqlaydi. Ayrim kompleks preparatlar tarkibiga kiritilgan. Bir martalik dozasi 0,01-0,015g

Belladonnaning quruq ekstrakti (Extractum Belladonnae siccum) tarkibidi 0,7-0,8% alkaloidlar saqlaydi. Ularning miqdori kam bo'lgani sababli ekstraktning dozasi quyuq ekstraktiga nisbatan ikki marta ko'p olinadi (0,02-0,03g).

Tarkibida belladonna ekstraktini saqlagan quyidagi turli dori shakldagi preparatlar chiqariladi va ishlatiladi.

«Bekarbon» tabletkasi (*Tabulette Becarbonum*) tarkibida 0,01g belladonna ekstrakti va 0,3g gidrokarbonat natriy bor. Kuniga 1 tabletkadan 2-3 marta ichak sanchig'iga va me'da shirasining (kislotali) oshishida (giperacid holatda, zarda qilganda) beriladi.

«Besalol» tabletkasi (*Tabulettae Besalolum*) tarkibida belladonna ekstrakti (0,01), fenilsalisilat (0,3g) bor. Me'da-ichak kasalliklarida 1 tabletkadagi 2-3 marta ichiladi.

«Bepasol» tabletkasi (*Tabulettae Bepasolum*) tarkibida belladonna ekstrakti 0,012g, fenilsalisilat (salol) 0,3g, papoverin gidrokslorid 0,03g bor. Tabletkka spazmalitik xolinolitik va antiseptik ta'siriga ega. Me'da-ichak kasalliklarida sanchiqlarda 1 tabletkadan kuniga 2-3 marta qabul qilinadi.

Bellalgin tabletkasi (*Tabulettal Bellalginum*) tarkibida 0,25 dan analgin va anestezin, 0,015g belladonna ekstrakti, 0,1g gidrokarbonat natriy saqlaydi. Tabletkalar spazmalitik; antasid, og'riq qoldiruvchi ta'sirga ega. Ular asosan me'dada kislotalikni ko'tarilishi, silliq muskullarni spazm bilan kechadigan me'da-ichak kasalliklarida ovqatdan keyin iste'mol qilinadi.

Belladonna ekstraktli me'da tabletkalari (*Tabulettal stomatchical cum extractum Belladonnae*) tarkibida belladonna ekstrakti (0,01g), shuvoq ekstrakti (0,012g), valeriana ekstrakti (0,015g) bor. Me'da kasalligida ishtaxani ochib, ovqat xazm bo'lishini yaxshilaydi. Tabletkadan kuniga 2-3 marta qabul etiladi.

Bellatominal tabletkasi (*Tabulettal Bellatominalum*) tarkibida (parda bilan qoplangan tabletkalar) fenobarbital (0,02g), ergotomin tartrat (0,003g), belladonna alkaloidlar yig'indisi (0,0001g) bor. Tarkibi, ta'siri va ishlatilishi bo'yicha «Bellaspon»ga o'xshash. Ular markaziy va periferik adrenergik va xolinergik sistemalarning qo'zg'aluvchanligini kamaytirib, M.N.S.tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun asab buzilishida, uyqisizlikda va klimatrik nevrozda, neyrodermitda, vegetativ distoniyada ishlatiladi. 1 tabletkadan kuniga 2-3 marta ichiladi (ovqatdan keyin).

Bellatominal tabletkalari tarkibida ergatomin bo'lgani uchun ular bachadon va qon tomirlarni chisqarishini keltirib chiqarishi mumkinligi sababli homilalikda, tug'ruq jarayonida va stenokardiya kasalligida, boshqa qon tomirlarni spazmida (endoartrdiit va b) aterosklerozni og'ir kechishida va glaukomada tavsiya etilmaydi.

Bellond drojasi (*Belloid*). Tarkibida ergotoksin (0,3mg) belladonna alkaloidlar yig'indisi (0,1mg), barbituar kislotaning butil etili (0,03g) bor.

Asab buzilishida, uyqusizlikda, vegetativ distoniyada. Maner sindromida, menstrual siklni buzilishi bilan kechadigan nevrogen holatda, giperteriozda (Adisson kasalligida) 1-2 drojedan kuniga 3 marta beriladi.

Solutan (Solutan). 1 ml da 0,1mg radobelin (belladonna alkaloidlari), 0,1mg saponin (Saponinum gipsophillae), 1mgukrop moyi, (0,4mg), novakain (4 mg), efedrin gidrokslorid (17,5mg), natriy yodid (0,1g), tolutan balzam ekstrakti (25 mg), achchiq bodom suvi (30 mg) spirt va suv 1 ml gacha bor.

Preparat bronxolitik (xolino-spazmalitik) va balg'am ko'chiruvchi ta'sir etadi. Bronxial astma kasalligida va bronxitda beriladi. 10-30 tomchidan kuniga 3 marta ovqatdan keyin ichiladi. Astmatik xurujda 60 tomchigacha berish mumkin. Ingalyatsiya uchun ham qo'llanadi.

Katta dozalarda belladonnaga xos bo'lgan nojo'ya holatlar (og'iz qurishi, ko'z qorachig'ini kengayishi, taxikardiya va boshqalar) yuz berishi mumkin, flakonda 50 ml dan chiqariladi.

Yuqorida keltirilgan tarkibida belladonna ekstrakti saqlangan kompleks tabletkalaridan tashqari praktologiya amaliyotida keng ishlatiladigan shamchalar shaklidagi preparatlarni (Betiol, Anuzol) ham keltirish mumkin. Ular asosan gemoroyda, to'g'ri ichak shilliq pardasining jarohatlanishida ishlatiladi.

2. Meksika bangidevanasi (*Datura innoxioe*) – Дурман мексиканский (индийский)

O'simlik markaziy va janubiy Amerikada o'sadi. Rossiyaning janubiy viloyatlarida va Chimgent viloyatida o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning hamma qismida (bargida 0,25-0,39%, poyasida 0,15-0,24%, ildizida 0,21-0,46%, mevasida 0,76-0,83%, urug'ida 0,83% alkaloidlar bor. Asosiy alkaloidi skopolamin hisoblanadi. Mevasi tarkibida 0,38-0,55% va urug'ida 0,3-0,77% skopolamin bor. Skopolamindan tashqari giossiamin, norgiassimin va boshqa moddalar (oshlovchi moddalar, efir moyi, karotin) mavjud. O'simlikning hamma qismi zaharli. Bangidevonaning asosiy faol alkaloidi skopolamin bo'lgani sababli unnig farmokologik ta'siri quyidagicha:

Skopolaminning farmakologik xossalari. Skopolamin kimyoviy tuzilishi bo'yicha atropinga yaqin turadi. U trupovoy kislotaning va skopinning murakkab efiridir. O'z farmakologik periferik ta'siri bo'yicha ham atropinga o'xshash. So'lak ajralishini kamaytiradi, ko'z qorachig'ini kengaytiradi, yurak urushini tezlashtiradi, bronxlarni kengaytiradi, oshqozon ichak sekretor va harakat faoliyatini susaytiradi. Shuning bilan birga skopolamin M.N.S.ga ta'siri bo'yicha atropindan farq qiladi. Jumladan, yuqorida ko'rsatilganidek atropin kattaroq dozada M.N.S ni ruhiy va harakat qo'zg'alishini namoyon etsa, skopolamin esa M.N.S ga sedativ ta'sir etib organizmning tinchlantiradi. Harakat va ruhiy qo'zg'alishni kamaytiradi, umumiy xotirjamlik va kattaroq dozada esa uyqu keltirib chiqaradi.

Skopolaminning bunday xossasi M.N.Sning oliy faoliyat tizimidagi xolinoreaktiv tuzilishiga bo'lgan ta'siri bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari, skopolamin harakat impulslarini orqa miya neyronlariga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Uxlatadigan dori preparatlar narkotiklar ta'sirini kuchaytiradi. Nafasni susaytiradi. Amneziya (xotiraning buzilishi) bo'lishi mumkin.

Qo'llanishi. Amaliyotda skopolamin gidrobromid shaklida ishlatiladi. Ayrim ruhiy kasalliklarda tinchlantiruvchi dori sifatida amaliyotda esa (anesteziologiyada) analgetiklar (promedol, morfin) bilan birga bemorni operatsiyaga tayyorlashda qo'llanadi. Bundan tashqari, oftalmologiyada atropinning o'rnida ko'z qorachig'ini kengaytirish (irit, iridosiklit va b) uchun qo'llanadi. Skopolamin alkaloidi, giossiamin ham kamfora bilan birga Aeron preparatini tashkil etadi. Transportda (samolyot, paroxod) chayqalib ko'ngil behuzur bo'lganida, ko'ngil aynishi va qayt qilishda transportga chiqishdan oldin 1-2 tabletka ichiladi. Zaruriyat tug'ilsa yana 6 soatdan keyin 1 tabletka qayta berilishi mumkin. Agar, aeron tabletkasi transportga chiqishdan oldin profilaktika maqsadida qabul etilmagan bo'lsa, chayqalishini birinchi belgilarida (ko'ngil aynash, bosh aylanishi, bosh og'rig'i) 1-2 tabletka beriladi, keyin esa 1 tabletkadan kuniga 2 marta qabul qilinadi.

Ayrim holatlarda qayt qilish to'xtamasa va og'irlashsa aeron tabletkasidagi faol moddalarni saqlagan shamcha to'g'ri ichakka yuboriladi. Manvera sindromda 1 tabletkadan 2-3 marta beriladi.

Yuzda bajariladigan applastika operatsiyadan oldin va keyin esa 1 tabletka yosh va soʻlak oqishini kamaytirish maqsadida beriladi.

Aeron tabletkasining ishlatilganda ogʻiz va tomoq qurishi kuzatilishi muimkin. Bunda suv va kofein tavsiya etiladi.

Aeron glaukoma kasalligida berilmaydi. Aeron tabletkasi 0.0005 g dan chiqariladi.

Skopolamin gidrobromid bilan zaharlanish atropinga oʻxshash. Faqat M.N.S. faoliyati skopolimin taʼsirida susayganda uni antogonistlaridan (kofein, korazol, kamfora) beriladi.

Skopolamin ichish (asosan suyuq shaklda) va inʼeksiya (teri ostiga) uchun moʻljallangan. Bir martalik dozasi 0,00025 g – 0,0005 g yoki 0,05% li eritmaning 1 ml dan, oftalmolgiyada koʻz qorachigʻini kengaytirish uchun 0,25% eritmadan 1-2 tomchidan har bir koʻzga kuniga 2 marta tomiziladi.

3. Oddiy bangidevona (*Datura stramonium L*) – Дурман обыкновенный

Chet ellarda, Oʻzbekiston hududida ham keng tarqalgan begona oʻsimlik. U asosan aholi joylashgan yaqin yerlarda oʻsadi.

Asosiy ishlatiladigan qismi bargidir.

Kimyoviy tarkibi. Oddiy bangidevonaning bargida tropin alkaloidlari giossiamin, atropin va skopolamin bor. Ularning miqdori 0,23-0,37% ga etadi. Alkaloidlardan tashqari efir moyi, karotin, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Giossiamin atropin va skopolamin alkaloidlari mahsulotining asosiy taʼsir etuvchi biologik faol moddalari hisoblanadi.

Farmakologik xossalari. Oddiy bangidevonaning formakologik taʼsiri uning tarkibidagi alkaloidlardan kelib chiqadi. Asosiy taʼsiri atropinsimon boʻlib, periferik M-xolinoreaktiv sistemaga qaratilgan. Unnig fitopreparatlari M-xolinoblokatorlik xossaga ega (Belladonnaga qaralsin).

Giossiaminning xolinoblokatorlik taʼsiri atropinga nisbatan kuchliroq boʻlgani sababli bronxlarni yaxshigina roʻyi-rost kengaytiradi, nafas markazining qoʻzgʻaluvchanligini oshiradi va qoʻzgʻatadi. Giossiamin belladonnaga oʻxshash silliq muskullik organlarning tonusini pasaytiradi. Soʻlak, ter va oshqozon hujayralar sekretsiasini kamaytiradi. Adashgan nervning taʼsiri bartaraf etiladi.

Qo'llanishi. Oddiy bangidevonannig barglari bronxial astmada, astmaga o'xshash bronxitlarda, titroq bilan kechadigan yo'talda fitopreparatlar ishlatiladi va boshqa M-blokatorlik ta'sirli dori vositalari qo'llanadigan turli xastaliklarda va sindromlarda beriladi.

Bangidevona bargi (Folium Stromanii) bronxodilyator hisoblanadi. Da'vo etuvchi o'simlik sifatida turli poroshoklar tarkibida astmaga qarshi ishlatiladi. Bir martalik maksimal dozasi 0,2g.

Bangidevona bargi hozirda deyarlik ishlatilmaydigan astmaga qarshi yig'ma tarkibiga kiritilgan.

4. Karniol skopoliyasi (Scopolia carniolisa) – Скополия

Карниолийская

Ildiz poyasi asosiy mahsuloti hisoblanadi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik hamma qismida (ildiz poyasida 0,5-0,9%, yer ustki qismida 0,2-0,25% gacha) alkaloidlar bor. Asosiy alkaloidlari giossiamin (0,3-0,4%) va skopolamin (0,02-0,04%) hisoblanadi.

Qo'llanishi. Sanoatda o'simlik mahsulotlaridan atropin, giossiamin va skopolamin alkaloidlarining preparatlarini (tuzlari) olinadi.

O'simlikni o'zi tibbiyotda deyarli ishlatilmaydi.

5. Qora mingdevona (Hyuscymua niger) – Белена черная

Qora mingdevona Markaziy Osiyo hududida va boshqa joylarda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning hamma qismida (ildizida 0,15-0,17%, bargida (0,045-0,1%), poyasida (0,02% atrofida), urug'ida 0,06-0,1% alkaloidlar aniqlangan.

O'simlikning asosiy alkaloidlari – giossinamin, atropin, skopolamin glossin, skimmianin, apoatropin hisoblanadi. Bundan tashqari, mahsulot tarkibida giossipikrin, giosserin, giosserizin hamda urug'ida 34% gacha yog' bor.

Farmakologik xossalari. Qora mingdevonaning fitopreparatlari M-xolinoblokatorlik ta'siriga ega. Bu ta'sir uning tarkibidagi asosiy alkaloidlaridan tropin alkaloidlaridan kelib chiqadi. Preparatlari silliq muskulli organlarni bo'shashtiradi. Ayniqsa, oshqozon-ichak,

siydik chiqarish yo'llari va jigar-o't yo'llari spazmida mingdevonaning bo'shatiruvchi ta'siri yaqqol qo'rinadi. Bronxlarga bo'lgan ta'siri uncha emas. Bundan tashqari, yosh oqishi, so'lak ajrashi, shilimshiq chiqishi va me'da-ichak sekretsiyasini kamaytiradi. Terapevtik dozada mingdevona M.N.Sga deyarli ta'sir etmaydi. Lekin uni tarkibidagi skopolaminning miqdori oshgan bo'lsa, sedativ ta'sir yuzaga chiqib, skopolaminga xos bo'lgan o'zgarishlar kuzatiladi.

Qo'llanishi. Mingdevona fitopreparatlari tibbiyotda qo'llanishi cheklangan. Asosan ekstrakt shaklida belladonna ning o'rnida spazmgga qarshi og'riq qoldiruvchi dori sifatida me'da-ichak xastaliklarida ishlatiladi.

Poroshok, pilyula va miksturada 0,02-0,05 g beriladi.

Preparatlari

Mingdevona bargi (Folia Hyos cyammi) Tarkibida 0,05% dan kam bo'lmagan atropin guruh alkaloidlarni saqlaydi. Bir martalik yuqori dozasi 0,4g.

Mingdevona moyi (Uleum Hyos cyammi) Mingdevonaning bargidan olinadi. Sirtga qo'llash (ishqalash) uchun nevrologiyada, revmatoid artritda ishlatiladi.

«Kapsin», «soliniment», «metilsalisilatning murakkab linimenti» tarkibiga kiradi.

6. Yassi bargli senesio (*Senecio platyphylloides* Sem et Lev) –

Сенесио широколистный

Senesio turlari asosan Shimoliy Kavkazda, Azarbayjon va Armanistonda o'sadi. Boshqa erlarda plantatsiyasi bor.

Kimyoviy tarkibi. Ildizpoya tarkibida 2,2-4%, er ustki qismida poyasida 0,2-1,2%, bargida 0,39-3,5%, urug'ida 5% gacha alkaloidlar bor. Senesio turlarining er ustki qismidan flavonoidlar (kversitin, rutin va boshqalar) ajratib olingan.

O'simlikdan platifillin, senesifillin, sarrasin alkaloidlari ajratib olingan. Bularni hammasi murakkab efir bo'lib, ishqorning spirtidagi eritmasi bilan qizdirilganda aminospirtga va kislotalarga ajraladi.

Platifillin alkaloidi asosan yassi bargli senesio o'simligidan, sarrasin alkaloidi esa asosan romba bargli senesio o'simligidan (alkaloidlar summasining 90% ni tashkil etadi) olinadi.

Farmakologik xossalari. Platifillin alkaloidi va unnig fitopreparati periferik ta'siri bo'yicha atropinga o'xshash. Bundan tashqari, vegetativ nervlar sangliyalarni (tugunchalarni) bloklashi (gangioblokator ta'sir) va M.N.S.ga ta'siri bo'yicha atropindan o'ziga xos ta'siri bilan farqlanadi. Platifillin M.N.S tinchlantiradi, qon tomir markazini tormozlaydi. Silliqliq muskullarni bo'shashtirib, spazmalitik ta'sir ko'rsatadi. Platifillin atropinga nisbatan kam zaharli. Ko'z qorachig'ini kengaytiradi, akkomadatsiyani deyarli o'zgartirmaydi. Bu borada atropinga nisbatan kuchsiz.

Qo'llanishi. Yassi bargli senesioning preparati platifillin gidrotartrat preparati shaklida ishlatiladi. U M-N xolinoblokator va spazmolitik dori sifatida ichak sanchig'ida, oshqozon-o'n ikki barmoq yara kasalligida, spastik holatda, xoletsistitlarda, o't yo'lining diskeniziyasida, buyrak va o't qopi tosh kasalligining og'riq xurujida va boshqalarda beriladi. Bundan tashqari, arterial gipertoniyaning boshlang'ich davrida, stenokardiyada, bosh miya qon tomirlarining spazmida (ishemik insultda) va bronxial astma xurujida qo'llanadi.

Oftalmologiya amaliyotida ko'z qorachig'ini kengaytirish uchun (irit, iridosiklit va b) ishlatiladi. Ta'sir muddati uncha uzoq bo'lmagan (5-6 soat) uchun preparat kamroq qo'llanadi.

Platifillin gidrotartrat preparatining dozasi oshirilganda og'izni qurishi, ko'z qorachig'ini kengayishi, taxikardiya, qon bosimini pasayishi kuzatiladi.

Preparatni glaukoma kasalligida, yurak qon tomirni organik xastaliklarida, jigar va buyrakning og'ir kasalliklarida berish man qilinadi.

Preparatlari

Platifillin gidrotartrat tabletkada, ampulada va eritma holida chiqariladi. Preparat shamcha (0,01g) shaklida ham ishlatiladi.

Tepafillin tabletkalari. Tarkibida platifillin gidrotartrat (0,003g), papaverin gidroxlorid (0,03g), fenobarbital (0,03g), teobromin (0,25g) bor. Spazmalitik, xolinoblokator, qon tomirni kengaytiruvchi ta'sirli. Gipertoniyaning 1 va 2 bosqichida 1 tabletkadan kuniga 2-3 marta ichiladi.

«Palyufin» tabletkalari. *Tarkibi*: platifillin gidrotrarat 0,005g, fenobarbital va papaverin gidroxlorid 0,02g dan. Spazmalitik va xolinoblokator ta'sirli. 1 tabletkadan kuniga 2-3 marta beriladi

7. Patsimonbargli pilokarpus (*Pilocarpus pinnatifolius* L) –

Пилокарпус пернистолистный

Sobiq Ittifoqning ayrim respublikalarida, Kavkazda o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning bargi tarkibida alkaloidlar (pilokarpin, pilokarpidin) efir moyi, organik kislotalar, xlorofill va boshqa moddalar bor.

Farmakologik xossalari. Pilokarpin alkaloidi pilokarpin gidroxlorid preparati shaklida tibbiyot amaliyotida keng ishlatiladi. Preparatining asosiy farmakologik xossasi atropinga qarama-qarshi o'laroq M-xolinoreseptorlarni qo'zg'atadi. Boshqacha aytganda, pilokarpin M-xolinomimetik (xolinopozitiv) ta'sirga ega. Shu sababdan preparat ta'sirida quyidagi effektlar namoyon bo'ladi.

Ko'z qorachig'i torayadi. Chunki ko'zning rangdor pardasidagi aylanma muskullarni tolalarida joylashgan M-xolinoreseptorlar qo'zg'atilgani sababli ular qisqaradi va ko'z qorachig'i torayadi. Bunnig natijasida ko'zning ichki bosimi pasayadi. Bunga sabab, rangdor parda aylanma muskullarining tortilishi, qisqarishi hisobiga unnig asosida joylashgan Fantanov bo'shlig'i va Shlemov kanali kengroq ochiladi va ko'zning kamasidagi ichki suyuqlikning chiqib ketishi ortadi. Bu o'z navbatida ichki bosimni pasayishiga va ko'z trafikasini yaxshilashga olib keladi. Ko'zning akkomadatsiyasi (masofaga moslashishi) spazmga uchrab, yaqinni ko'rishga moslashadi, uzoqni ko'rish xiralashadi. Bunga sabab kipriksimon tana silliq muskullarni ham qisqarishi natijasida sinn bog'lamlari bo'shashadi va ko'z gavhari qalinlashib yumaloq shaklga o'tadi. Akkomadatsiya spazmga uchraydi.

So'lak bezinnig so'lak ajratish faoliyati kuchayadi. So'lak suyuq va ko'p miqdorda ajraladi. Chunki so'lak bezidagi M-xolinoreseptorlar qo'zg'atilgan bo'ladi.

Bronx va bronxiollar torayadi. Nafas olish va chiqarish qiyinlashadi. Buning sababida bronxlar devoridagi silliq muskullari M-xolinoreseptorlar qo'zg'atilishi hisobiga qisqaradi va shuning

uchun bronxlar torayadi. Bronxial astmaga o'xshash holat yuz beradi.

Yurak urushi sekinlashadi (bradikardiya). Chunki adashgan nervga tegishli yurakda joylashgan M-xolinoreseptor qo'zg'aladi, nervning yurakga tormozlovchi ta'siri yuzaga chiqadi. Qon bosimi qisman pasayadi.

Me'da-ichak sekretor va harakat faoliyati kuchayadi. Chunki me'da va ichak sekretiya bezlari va silliq muskullarining M-xolinoreseptorlarini qo'zg'alishi, ularning faoliyatini kuchaytiradi. Chanoq bo'shlig'idagi organik silliq muskullari ham qisqaradi.

Qo'llanishi. Pilokarpin gidrokslorid preparati tibbiyot amaliyotida asosan oftalmologiyada glaukoma kasalligida ko'zning ichki bosimini tushirish uchun samarali ishlatiladi. Ochiq burchakli glaukomada (ko'ksuv) ko'zning ichki bosimini ro'yi rost tushirib, ko'zning to'r pardasi markaziy venasining trombozida, uning arteriyasidan qon o'tmasligida, ko'rish nervining atrofiyada va ko'zning shishasimon tanasiga qon quyilishida tavsiya etiladi. Ko'zga tomizilganda qonga kam so'rilgani sababli organizmga umumiy ta'siri sezilmaydi.

Pilokarpin gidroksloridning ta'sirini uzaytirish maqsadida, uning suvli eritmasiga polimer birikmalari (metilsellyuloza va b) qo'shiladi. Bundan tashqari, pilokarpin saqlovchi surtma (maz) va pilokarpin saqlagan materialidan tayyorlangan maxsus parda (plenka) ham chiqariladi va ishlatiladi.

Pilokarpin glaukomada boshqa preparatlar bilan birga ham qo'llanadi. Ko'pincha ko'z ichki suyuqligini ishlab chiqarilishini kamaytiruvchi β -adrenoblokatorlar (Timolol) bilan birga beriladi. Pilokarpin surtmasi 1-2% kechqurun uyquga yotishdan oldin yuqori qovoqning tagiga qo'yiladi. Pilokarpinli plenkanani esa pastki qovoqning tagiga kuniga 1-2 marta qo'yiladi.

Pilokarpin 1-2% eritma hamda flakonda 5-10 ml dan, eritmasi tomizgichli tyubiklarda, 1% metilsellyuzali eritmasi flakonda 5 va 10 ml dan, 1-2% ligi surtma shaklida, ko'z plenkasi flakonda (30 ta) har bir flakonda 2,7 mg pilokarpin gidrokslorid saqlaydi.

Pilokarpinning preparatlari bronxial astmada, oshqozon-ichak yara kasalliklarida, bradikardiya berilmaydi. Zaharlanishda xolinoblokatorlar (atropin sulfat) yuboriladi.

8. Zaharli fizostigma (*Physostigma venenosum*) – Физостигма ядовитая

Kimyoviy tarkibi. Zaharli fizostigmining urug'ida bir necha alkaloidlar boriligi aniqlangan – ezarin, eziramin, ezeradin, genezerin, izofizostigmin va fizovin. Bulardan tashqari yog' va efir moylari, fitosterin va stigmasterin bor.

Farmakologik xossalari. O'simlikning asosiy alkaloidi ezerin hisoblanadi. U kimyoviy tuzilishi bo'yicha uretan guruhini saqlagan indol unumidir.

Laboratoriya hayvonlarida o'tkaziladigan tekshiruvlar natijasida ezerin ta'sirida M-xolinomimetik preparatlarga (asetilxolin, pilokaprin va b) xos o'zgarishlar kuzatilgan. Chunonchi, ko'z qorachig'ini torayishi, so'lakni oqishi, bronxlarni torayishida bo'ladigan nafasning qiyinlashishi, bradikardiya, oshqozon-ichak sekretor va harakat faoliyatining oshishi va boshqa o'zgarishlar kuzatilgan. Olib borilgan farmakologik tekshirishlar natijasida ezerinning antixolinesterazlik ta'siri aniqlangan. Uning ta'sirida nerv sinapsdagi xolinesteraza fermentining faolligi pasayishi natijasida parasimpatik nervning postganglionar tolasini oxiridan (depodan) chiqariladigan mediator asetilxolinning parchalanishi bo'lmagani sababli mediator sinaptik bo'shliqda yog'ilib boradi va xolinoreseptorga ta'sir etib, yuqorida keltirilgan o'zgarishlar namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, ezerinning farmakologik ta'siri boshqa M-xolinomimetiklarga o'xshaydi. Lekin bularning (pilokarpin, asetilxolin, karboxolin va b) M-xolinoreseptorlarga ta'siri bevosita bo'lsa, ezerinning ta'siri esa bilvosita bajariladi. Shuning uchun, ezerinni bilvosita ta'sir etuvchi M-xolinomimetik deyiladi. Ezerin bundan tashqari, vegetativ nervlar tugunchasida (gangliyisida) joylashgan N-xolinoreseptorlarga ham bilvosita ta'sir etib, ularni qo'zg'atadi, gangliylardan impuls o'tishini tezlashtiradi. Shunga o'xshash harakat nervining oxiridan tana mushakida joylashgan N-xolinoreseptorga impulsni o'tishini va buyrak usti bezining miya qismidagi simpatik nervga tegishli N-xolinoreseptorga impulsni o'tishini tezlashtiradi. Shuni qayd etish kerakki, ezerinning N-xolinoreseptorlarga ko'rsatadigan ta'siri M-xolinoreseptorlarga qaraganda ancha sust.

Tibbiyotda qo'llanishi. Ezerin antixolinesteraz ta'sirli preparat sifatida oftalmologiyada – glaukomaning davolashida keng miqyosda ishlatiladi. Preparatning ko'z qorachig'ini toraytirishi ayrim hollarda (pilokarpin ta'siri uncha bo'lmaganda) kuchliroq bo'lgani uchun ko'zni ichki bosimi ro'y rost pasayadi. Akkomadatsiya esa kuchliroq spazm bo'ladi.

Ezerinning ko'z qorachig'iga umumiy rezorbativ orqali ta'sir etishi kuchsiz bo'lgani sababli preparat to'g'ridan-to'g'ri konyunktivaga tomchilab yuboriladi. Uni bunday effekti (ko'z qorachig'ini kuchli torayishi) pilokarpining ta'siri turli sabablarga bo'yicha yaqqol ko'rinmasa, ezerinning ta'siri ancha samarali bo'ladi. Pilokarpinni ezerin bilan birga ishlatilganda ularning ta'siri qo'shilgani uchun (sinergizm) olingan davoning natijasi yuqori darajaga bo'ladi. Chunki ushbu preparatlarning farmakologik effekti (ko'z qorachig'ini qisqarishi) bir xil bo'lsa ham ta'sir etish mexanizmi esa turlichadir.

Ezerin giperkinezda, epilepsiyada, bronxial astmada, gipertoniya kasalligida, aterosklerozda, bradiparitmiyada tavsiya etilmaydi.

Ezerin va boshqa antixolinesteraz preparatlari bilan zaharlanishda ularning antaginiti bo'lgan M-xolinoblokatorlardan (atropin, metasin va b.) foydalaniladi.

Preparatlari.

Ezerin (fizostigmin) ko'z tomchi uchun 2% li bor kislotaning eritmasida tayyorlanadi.

Fizostigmin solisilat (Physostigmina salicylas). Bir martalik dozasi 0.0005 g. Ampula shaklida va ko'z tomchisi uchun eritma xolida chiqariladi.

9. Voronov galantusi (Galantus Woronowii A.Los) –

Подснежник Воронова

G'arbiy Kavkazning ayrim rayonlarida o'sadigan ko'p yillik o't o'simlik. Uning piyozidan galantamin alkaloidi olingan.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning piyozida va yer ustki qismida alkaloidlar galantamin, galantin, galantamid, sikorin bor. Boshqa

kimyoviy moddalar ham saqlaydi. Ular amaliy tomondan ahamiyatsizdir.

Farmakologik xossalari. O'simlikning asosiy, alkaloidi bo'lgan galantamin o'zining farmakologik xossalari bo'yicha ezeringa o'xshash antixolinesteraz ta'sirga ega. Galantaminning fizostigmindan (ezerindan) farqi shundan iboratki, u gematoensefalik barerdan o'ta oladi va shuning uchun M.N.S idagi sinapslardan impuls o'tishini engillashtiradi. Qo'zg'alish jarayonining kuchaytiradi. Galantamin boshqa antixolinesteraza ta'sirli vositalariga qarshi o'laroq, uning ta'siri sekinroq. Lekin umumiy rezorbtiv ta'siri uzoqroq davom etadi. Galantamin xolinestereza ferment faolligining ancha kuchli ingibitori hisoblanadi. Harakat nervi muskullar tizimi reseptorlarining mediator asetilxolinga bo'lgan sezuvchanligini yaxshigina oshiradi.

Laboratoriya hayvonlarida u harakat nervidan impulslarning xolinoreseptorlarda o'tishini tezlashtiradi. Nerv-muskul apparatini kuraresimon preparatlar (diplasin, raqobatli ta'sirli preparatlar) ta'sirini bartaraf etadi. Boshqacha aytganda, galantamin raqobatli miorelaksatlarning antagonisti hisoblanadi. Galantamin shu bilan birga N-xolinoreseptorlarni bilvosita qo'zg'atadi (M-N. xolinometik ta'siri). Lekin galantaminning nerv-muskul reseptorlariga bilvosita ta'siri yaxshiroq namoyon bo'ladi. Galantamin ta'sirida ko'z qorachig'ini torayishi, bradikardiya va boshqa o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Galantamin mahalliy qitiqlovchi ta'sirga ko'rsatgani sababli ko'zga tomizilganda kon'yuntiva shishishi namoyon bo'ladi. Silliq muskullik organlarni (ichak va b) tonusini oshirishi va qisqartirishi mumkin.

Qo'llanishi. Galantamin ko'proq nevrologiya amaliyotida keng ishlatiladi. Ayniqsa, polimielit kasalligini oqibatlarini (yarim falajlik va b), markaziy falajlikda galantaminng effekti yuqori darajada qayd etiladi. Preparat ta'sirida (boshqa preparatlar bilan birga berilganda) bemorlarni ahvoli ancha yaxshilanadi. Qisman yoki butunlay boshqa nerv kasalliklarida ham (radikulit, polinevrit, sezish va harakatni zaiflashishi) ishlatiladi. Bemorlar galantamin preparatini yengil o'tkazishadi. Preparatning ta'siri ko'p tomondan uning ishlatilgan dozasiga, bemorning sezuvchanligiga, kasallikni og'ir-yengilligiga bog'liqdir.

Preparat dozasi oshib ketganda xolinomimetiklarga xos o'zgarishlar (ko'z qorachig'i torayishi, so'lak oqishi, bradikardiya va b) kuzatiladi. Bunday holatlarda atropin yoki metasin preparatlari yuboriladi.

Galantamin giperkinezda, epilepsiyada, bradiaritmiyada, bronxial astmada tavsiya etilmaydi.

Preparati.

Galantamin gidrobromid (Galantamini hydrobromidi) 0,1%, 0,25%, 0,5%, 1% eritmasi 1 ml dan ampulada chiqariladi.

10. Qalin mevali achchiqmiya (Sophora pachicarpa C.A. Mey)– Софора толстоплодная

O'simlik Markaziy Osiy hududlarida o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning er ustki qismi tarkibida 2-3% (urug'ida 4% gacha, er ostki qismida 1.5-3%) alkaloidlar bo'ladi. Mahsulotdan o'simlikning asosiy biologik faol alkaloidi paxikarpindan tashqari paxikarpidin, soforamin, sofokarpin, matrin va boshqalar bor. Urug'idan sifokarpin va matrin ajratib olingan.

Farmakologik xossalari. Paxikarpin ta'sirida vegetativ nervlar tugunchalarining (gangliylarining) qo'zg'aluvchanligi pasayadi, ulardan markazdan kelayotgan impulslarning o'tishi tormozlanadi. Boshqacha aytganda, paxikarpin ganglioblokatorlik ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu borada u boshqa ganglioblokator preparatlaridan (benzozeksoniy, dikolin, gangleron) kuchsiz. Paxikarpinning bachadonga ta'siri natijasida uning mushaklarining qisqarishi kuchayadi, bonusi oshadi, miopatiyada muskullar qisqarish faoliyatini yaxshilaydi.

Paxikarpinning M.N.S.ga ta'siri kuchsiz. Uning yuqori bo'limidagi jarayonlarni qisman tormozlaydi. Bunday ta'sirni amaliy ahamiyati kam bo'lgani uchun tibbiyotda ishlatilmaydi. Paxikarpin ichakdan tez so'riladi va farmakologik ta'siri uzoq davom etmaydi.

Tibbiyotda qo'llanishi. Paxikarpinning tibbiyotda qo'llanishi uning ganlioblokatorlik ta'siriga asoslangan. Paxikarpin preparati gipertonik krizda qon bosimini pasaytirish maqsadida periferik qon tomirlarni torayishi spazmi bilan kechadigan xastaliklarda

(endoartriit va b) beriladi. Akusherlik va ginekologik amaliyotda bachadonni qisqarishi kuchsiz, dard tutishi unchalik bo'lmaganda tug'ish jarayonini tezlashtirish maqsadida paxikarpin qo'llanadi. Bundan tashqari, paxikarpin tug'ilishdan keyingi davrda qon ketishini (atonik qon ketishi) to'xtatish uchun ham ishlatiladi.

Paxikarpinni berish man etiladi: homilalik davrida, buyrak va yurak qon tomir sistemasini og'ir kechadigan kasalliklarida

Preparatlari

Paxikarpin gidroyodid (Pachicarpini hydroiodidum) ichish uchun, teri ostiga va muskullar orasiga yuboriladi. Endoartriit kasalligida tabletkada (0,05-0,1g) kuniga 2-3 marta beriladi. Miopatiyada esa 1 tabletkadan (0,1g) kuniga 2 marta 40-50 kun davomida ichiladi. Tug'ruqni kuchaytirish maqsadida 3% eritmasi 2-4 ml teri ostiga yoki muskullar orasiga yuboriladi. 1-2 soat o'tgach in'eksiyani qaytarish mumkin.

Paxikarpin to'g'ri ichakka yuborish uchun shamcha (0,3) holidi chiqariladi.

11. Sho'r bo'yan (Shildirbosh) Sphaerophysa salsula (Pall) –

Сферофиза солонсовая

Sho'r bo'yan Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot yer ustki qismi tarkibida 0,4% gacha alkaloidlar borligi aniqlangan. O'simlikning asosiy alkaloidi sferofizin. Bundan tashqari, tarkibida β -sitosberin, kumarinlar hamda sferozin va sferozinnig izomerlari va boshqa birikmalari bor.

Farmakologik xossalari. Eksperimental sharoitda olib borilgan tekshirishlarda sho'r bo'yanning N-xolinoreseptorlarni tormozlovchi bloklovchi ta'siri aniqlangan. Alkaloid intakt laboratoriya hayvonlarida va aterosklerozni eksperimental modeli chaqirilgan hayvonlarda ham qon bosimini ko'proq tushirishi qayd etilgan. Sferofizin turli hayvonlarda bachadon qisqarishini kuchaytirishi kuzatilgan.

Tibbiyotda qo'llanishi. Sferofizin akusherlik ginekologiya amaliyotida tug'ruq jarayoni sust bo'lib, dard tutishi kuchsiz bo'lganda tug'ilishni tezlashtirish maqsadida hamda tug'ruq jarayonidan keyingi davrda bachadondan qon ketishini to'xtatish uchun ishlatiladi. Tug'ruqdan keyin bachadonni oldingi holatiga

(invalyutsiya) bo'lishini tezlashtiradi. Homilalik ayollarda gipertoniya va ateroskleroz kasalligi bo'lsa tug'ruq jarayonida sferofizin preparatini ishlatish mumkin. Shu bilan pitiutrinid preparatidan faqr qiladi.

Sferofizin gipertoniya kasalligining 1 va 2 bosqichida gipotenziv dori sifatida ham ishlatiladi.

Preparati.

Sferofizin (Sphaerophysinum) ichish uchun (tabletk), teri ostiga yoki muskullar orasiga 1% eritmani 1 ml dan kuniga 2-3 marta yuboriladi. Tabletkasi 0,03g dan kuniga 2-3 marta qabul qilinadi. Tug'ruqni tezlashtirish uchun 1% eritmasini bir soat oralig'i bilan qayta qayta (hammasi 6 marta) in'eksiya qilinadi.

12. Qizilcha (Ephedral) – Эфедра

O'zbekistonda qizilchani 6 turi bo'lib, ularning ikki turidan alkaloid efedrin olinadi.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot yer ustki qismi tarkibida 0,6-3,2% alkaloidlar bor. Ushbu alkaloidlar yig'indisini taxminan 90% ini efedrin alkaloidi tashkil etadi. Qolgan qismini pseudaefedrin va metilefedrin tashkil etadi.

Bundan tashqari, o'simlik tarkibida fenol kislotalar (benzoat, dolchin, p-kumar, protokabek va b) 660 mg% vitamin S, 7-14,04% oshlovchi va bo'yoq moddalar uchraydi.

O'simlikning asosiy farmakologik ta'siri efedringa bog'liqdir.

Farmakologik xossalari. Efedrin va uning preparati efedrin gidroxlorid farmakologik ta'siri bo'yicha adrenomimetik guruhiga kiradi. Uning farmakologik ta'siri qisman adrenalina o'xshaydi. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha qisman farqlanadi. Efedrinning adrenalindan farqi quyidagilar: efedrinning λ - β adrenoceptorlarga qo'zg'atuvchi ta'sir nisbatan kuchsiz. Lekin ta'sirning davom etishi 8-10 marta uzoq. Bu esa efedrin MAO fermenti ta'sirida parchalanmasligi bilan tushuntiriladi. Efedrin turg'un bo'lgan uchun uni tabletk shaklida chiqaradi va beriladi.

β – adrenoceptorlarni qo'zg'atishi bevosita bo'lmasdan, uning ta'siri simpatik nerv oxiridagi depodan mediatorlarni sinaps bo'shlig'iga chiqishini tezlashtiradi. Mediatorning qayta depoga kirishini kamaytiradi degan fikr bor. Shuning uchun ham efedrin-

ning bilvosita ta'sir etuvchi adreomimetik yoki simpatomimetik deb yuritiladi. Efedrinning adrenalindan yana farqi shuki, alkaloid gematoensefalik to'siqdan o'tgani sababli M.N.S.ga qo'zg'atuvchi ta'sir etadi. Efedrinning bunday psixomimetik ta'siri fenaminga nisbatan kuchsiz, lekin kofeynga yaqinlashadi. Qisman bardamlikni, kuch quvvatni oshiradi. uyquni qochiradi va b. Shu sababdan efedrin «dopinglar» (sport musobaqalarida ishlatish ta'qiqlangan moddalar ro'yxati) ro'yxatiga kiritilgan.

Efedrining periferik ta'siri adrenalning o'xshash yurak urishini tezlashtiradi, ko'pchilik qon tomirlarni toraytirib qon bosimini ko'taradi. Bronxlarni va ko'z qorachig'ini kengaytiradi, qondagi glyukoza miqdorini oshiradi. Shuni aytib o'tish zarurki efedrin ko'ndalang targ'il tana mushaklar qisqarishiga ijobiy ta'sir etgani sababli yarim falajlikda miasteniyada ham ishlatiladi.

Tibbiyotda qo'llanishi. Efedrinning preparati, efedrin gidroxlorid bronxial astmada, allergiyaning har xil turlarida (eshak yemi, rinit va b), gipertoniya (karaxtlik holatida, orqa miya operatsiyasida va b), uxlatadigan dorilar bilan zaharlanishda, oftalmologiyada ko'z qorachig'ini kengaytirish uchun ishlatiladi. Efedrinning ko'z tomchisi shaklida ishlatilishi bo'yicha atropindan yaxshi tomonlari bor: ta'siri qisqa muddatli, pilokarpin ta'sirida efedrinning ko'z qorachig'ining kengaytirishi bartaraf qilinidir.

Nojo'ya ta'siri. Efedrinning dozasi oshirib yuborilganda yoki o'simlikni o'zini qabul qilinganda ko'ngil aynishi, qusish, yengil titroqlik, bosh aylanishi, yurakni tez urishi, yurak sathida og'riq, uyqusizlik, asabiy qo'zg'alish, peshobni ajralmasligi, terlash, toshma toshishi mumkin.

Bunday holatlarda me'dani chayish (agar preparat ichilgan bo'lsa), surgi dorilar xolinomimetiklar (pilokarpin, karboxolin) beriladi.

Efedrin gipertoniya kasalida, aterosklerozda, gipertireozda, qandli diabetda tavsiya etilmaydi.

Fitopreparatlari.

Efedrin gidroxlorid (Ephedrimi hydrochloridum) poroshok va tabletkalarda 0,025 g, 5% eritmasi ampulalarda 1 ml dan chiqariladi. Aerozol shaklida ingalyasiya uchun 5% efedrinning 0,5-1 mlni 1:3 yoki 1:5 nisbatida osh tuzining izotonik eritmasida eritiladi.

Bronxial astma hurujida ishlatiladi. Effekti 10-15 daqiqada yuzaga chiqadi.

Efedrin boshqa turli dori preparatlari bilan birga kompleks shaklida keng ishlatiladi. Bularning qatoriga teofedrin (teofillin, teobromin, kofein, amidopirin, fenositin, efedrin gidroxlorid, fenobarbital, belladonna ekstrakti, sitizin), «aerozol efatin» (efedrin gidroxlorid, atropin sulfat), «sulutan», «bronxolitin» va boshqalar kiradi. Ular asosan bronxial astma xastaligida tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Markaziy nerv sistemasiga (M.N.S.) qo'zg'atuvchi ta'sir etadigan dorivor o'simliklarni ko'rsating.

2. Xitoy choyining farmakologik ta'siri nimadan iborat?

3. Kamfora fitopreparatining ishlatilishi.

4. Umumiy tonusni oshiruvchi fitopreparatlari va ularning ishlatilishi.

5. M.N.S.ni tinchlantiruvchi ta'sirli dorivor o'simliklarni ko'rsating.

6. Valeriana va arslonquyruq fitopreparatlarining ishlatilishi nimadan iborat?

7. Ko'knor o'simlik tarkibidagi qanday alkaloidlar mavjud?

8. Periferik nerv sistemasiga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklarni ko'rsating.

9. Belladonna dorivor o'simligining fitopreparatlarini ko'rsating.

10. Atropin alkaloidi saqlagan fitopreparatlarning farmakologik ta'siri va ishlatilishi.

11. Papaverin fitopreparati qaysi kasallikda tavsiya etiladi?

12. Skopolamin alkaloidi saqlagan preparatni ko'rsating.

13. Qora bangidevana o'simlik fitopreparati ishlatilishi.

14. Patsimon bargli pilokarus zo'simligi va fitopreparatining ishlatilishi.

15. Pilokarpin nima uchun glaukoma kasalligida qo'llanadi?

16. Zaharli fizostigma o'simligining farmakologik ta'siri nimadan iborat?

17. Qalin mevali achchiq miya o'simligining fitoterapiyada qo'llanishi.

18. Qizilcha o'simligining asosiy ta'siri nimadan iborat?

19. Efedrin alkaloidi saqlagan preparatning fitoterapiyada qo'llanishi.

20. Nima uchun efedrin «doping»lar ro'yxatiga kiritilgan?

V BOB. AYRIM YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA ISHLATILADIGAN DORIVOR O‘SIMLIKLER VA ULARNING FITOPREPARATLARI

Ushbu bo‘limda yurak faoliyatiga va qon tomirlarga bevosita yoki bilvosita ta‘sir etib, ularning turli kasalliklariga davo ko‘rsatadigan va tibbiyot amaliyotida keng miqyosda qo‘llanadigan dorivor o‘simliklardan tayyorlangan shifobaxsh ishonchli preparatlar hamda ulardan toza holda ajratib olingan farmakologik faol moddalar saqlagan preparatlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Ma‘lumki, har bir dori vositasining shu jumladan, shifobaxsh o‘simliklarning fitopreparatlarini ham davo ko‘rsatishi ularning farmakologik xossalariga, ta‘siriga asoslangan. Farmakologik ta‘siri esa dori preparatining tarkibidagi biologik faol moddalarga bog‘liq.

Shu sababdan, o‘quv adabiyotining ushbu bo‘limida ham dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, farmakologik xossalari, qo‘llanishi va fitopreparatlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Yurak-qon tomir kasalliklari ko‘p uchraydigan xastalik hisoblanib, ularning ayrimlarni yer yuzi bo‘yicha keng tarqalgan va asoratlari hayot uchun ancha havfli holatlarni beradi. Bular qatorida yurakning ishemik kasalligi (YuIK, yurak porogi (revmokardit), gipertoniya kasalligi, ateroskleroz va boshqalar kiradi. Ko‘pchilik hollarda ushbu va boshqa kasalliklar yurak faoliyatining yetishmovchiligiga olib kelib, og‘ir holatlarni keltirib chiqaradi.

Yurak faoliyati yetishmovchiligida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar va ularning fitopreparatlari

Yurak faoliyatining yetishmasligi yuqorida aytilgandek, uning turli kasalliklarining asorati bo‘lib, yurakning qisqarish kuchi pasayib, organizmni qon bilan ta‘minlanishi yomonlashadi (shishlar, havo yetishmasligi, holdan toyish, peshob ajrashni kamayishi va b). bemorning ahvoli sekin-asta og‘irlashib boradi.

Yurak faoliyatining yetishmasligi ikki turda bo‘ladi:
Surunkali va o‘tkir yetishmovchilik.

Bunday og'ir holatlarda kordotonik ta'sirli (yurak faoliyatini tiklaydigan) dorivor o'simliklardan tayyorlangan va ajratib olingan fitopreparatlar qo'llanadi.

Bularga qadimdan ishlatib kelinayotgan ishonchli va samarali bo'lgan yurak glikozidlari saqlagan dorivor o'simliklar kiradi. Chunonchi, angishvonagul va uning turlari, bahorgi adonis, marvaridgul, strofant, jut, kandir va boshqalarni keltirish mumkin. Ular to'g'risida ma'lumot quyida keltiriladi:

1. Angishvonagul (Digitalis) – Напрямая

Uning quyidagi turlaridan tibbiyotda foydalaniladi:

A) Qizil angishvonagul (Digitalis purpureae L).

MDH mamlakatlarining ayrim hududlarida o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning bargida purpureaglikozidlar A va V 0,25-0,3% digitoksin, gitoksin, 0,11% glitaloksin, glyukogitolaksin, gitorin va boshqa yurak glikozidlari bor. O'simlik urug'ida digitalinum verum (0,3%), glyukoverodoksin, gitoksin, digitoksin va boshqalar bo'ladi. Barg va urug'ida yurak glyukozidlaridan tashqari, steroid saponinlar, digitonin, gitonin, tigonin va ularning aglikonlari, flavonoidlar va organik kislotalar mavjud.

B) Yirik gulli angishvonagul (Digitalis grandiflora Mill).

MDH mamlakatlarining turli hududlarida yovvoyi holda o'sadi. O'simlik bargida yurak glikozidlar bor. Qizil angishvonagul tarkibiga yaqin.

V) Kiprikli angishvonagul (Digitalis ciliate Traut).

Kimyoviy tarkibi. Barg tarkibida yurak glikozidlari (purpureaglikozid A ajratib olingan) bor. Bulardan tashqari, bargidan anigenin, lyuteolin va drakosefолоzid flavonoidlari ham ajratib olingan. Urug'i tarkibida 0,67% digitonin steroid saponini mavjud.

G) Sertukli angishvonagul (Digitalis Lanata Ehrh).

O'simlikning bargi tarkibida 0,5-1% gacha yurak glikozidlari saqlaydi. Glikozidlarning yig'indisidan lanatozid A, lanatozid V, lanotozid S, lanotozid D, lanotozid E, digitalinum verum, strotezid gitorin, odorozid N va boshqa yurak glikozidlari ajratib olingan. Barg va urug' tarkibida yurak glikozidlaridan tashqari steroid

saponinlar 4,38% (digitonin va tigonin) , 0,1% xolin va asetilxolin, flovanidlar bor.

D) Malla angishvonagul (*Digitalis perruginae* L).

Kimyoviy tarkibi. O'simlik bargida 1% gacha yurak glikozidlari mavjud. Ularning yig'indisidan digilanid A,V, α – asetildigitoksin, β – asetildigitoksin va gitozid glikozidlari ajratib olingan. Bulardan tashqari barg tarkibida steroid saponin – tigonin, urug'ida – 4,89% digitonin bo'ladi.

2. Sug'uro't Adonis (*Adonis L*) – Горисвет

Adonisning bir necha turlari ma'lum:

Turkiston adonisi (*Adonis turkestonica* Adol),

Amir adonisi (*Adonis amurensis* Rg.),

Sibir adonisi (*Adonis sibiricus* Patr.),

Tyanshan adonisi (*Adonis tianschanicu* Adoef),

Bahorji adonis (*Adonis vernalis*).

Bulardan Turkiston adonisi respublikamizda va qo'shni davlatlarda tarqalgan.

Kimyoviy tarkibi: O'simlikning er ustki qismida yurak glikozidlari (simarin, K-strafantin – β , adonidin va b), flavonoidlar, saponinlar bor. Adonisning bu turining farmakologik xossalari Toshkent tibbiyot akademiyasi farmakologiya kafedrasining xodimlari tomonidan o'rganilgan.

Tyanshan adonisi. O'simlikning yer utski qismida ko'proq (10 tadan ortiq) yurak glikozidlari (strafantidin, simarin, K-strafantin- β va boshqalar) hamda flavonoidlar (oreintin, adonivernit va boshqalar) adonit spirti, kumarinlar (skopoletin, umbelliferon) va saponinlar bor.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga qarashli O'simlik moddalar kimyo institutining xodimlari tomonidan O'zbekistonda o'sadigan tillarang adonis o'simligi har tomonlama (tarkibi, farmakologiyasi) o'rganilgan va yangi glikozidlari ajratib olingan. Ular tibbiyot amaliyotida ishlatish uchun tavsiya etilgan.

3. May marvaridguli (Convaflaria majalis L) – Ландыш майский

Yevropa, Osiyo, Amerika mamlakatarida keng tarqalgan. O'zbekistonda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi: O'simlikning hamma qismida yurak glikozidlari bor. Gulidan konvallyatoksin ajratib olingan. Bargning tarkibida 0,1% yurak glikozidlarining yig'indisi bor. Bu yig'indidan konvallyatoksin, konvallyatoksol 0,05-0,057%, glyukokonvallyazid-0,005% ajratib olingan. Bargida yurak glikozidlaridan tashqari 15 tagacha flavonoidlar bor. O'simlikning asosiy glikozidi konvallyatoksin hisoblanadi.

4. Kombe strofanti (Strophanthus Kombe) – Строфант Комбе

Sharqiy Afrikada o'sadi va o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning urug'idan K-strofantozid, α – strofantin – β , simarin, gelavitikozid, periplosimarin va boshqa yurak glikozidlari ajratib olingan.

Strofant urug'i tarkibidagi glikozidlar yig'indisining miqdori 8-10%, K-strofantozid 2-3% gacha bo'ladi. Bulardan tashqari 30% yog', saponinlar, alkaloidlar va boshqa moddalar aniqlangan.

Kombe strofantning quyidagi turlari ma'lum:

A) Dag'al tukli strafant – *Strophanthus hispidus* D.C.

B) Chiroyli strofant – *Strophanthus gratus* Franch.

Ushbu turlari kimyoviy tarkibi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha Kombe strofantiga yaqin. Ularning urug'i tarkibida ham strofantin glikozidlarining yig'indisi aniqlangan. Lekin ushbu turlari tibbiyot amaliyotida ishlatilmaydi.

5. Yoyiq erizimum (chitrangi) (Erysimum dillisum Ehrh) – Желтушник раскидистый

O'simlik MDH mamlakatlarida, shu jumladan, O'rta Osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda erizimumning 13 turi mavjud bo'lib, yovvoyi holda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi: O'simlikning hamma qismida (guli va urug'ida 2-6% bargida 1-1,5%, poyasida 0,5-0,7% va ildizida - 0,2%) yurak glikozidlari bor. O'simlikning er ustki qismidan hamda urug'idan 0,2-1% erizimin (gelvitikozid), erizimozid, sinopoil

erizimozidlar va boshqa yurak glikozidlar ajratib olingan. Erizimum o'simligining urug'i tarkibida 30-40% yog' bor.

Erizimumning turlaridan: marshall erizumumi (*Erisimum marachallanum* Andr), oltoy erizumumi (*Erysimum altaricum* C.A.Meg). Bular Markaziy Osiyoda uchraydi. Qalqonsimon erizimum (*Erysimum cuspidatum* Biel) esa Kavkazda, Qrimda va boshqa yerlarda o'sadi.

O'zbekistonda o'sadigan erizimumning 13 tasidan 5 tasining farmakologiyasi va kimyoviy tarkibi o'rganilgan. Ular tarkibida yurak glikozidlari borligi aniqlangan.

Yuqorida keltirilgan yurak glikozidlarini saqlagan dorivor o'simliklardan tashqari Toshkent viloyatida o'stiriladigan o'simliklar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar beriladi.

6. Nashasimon kendir (*Apocynum cannabinum* L) – Кендыр коноплевый

O'simlik yovvoyi holda Shimoliy Amerikada, Moskva viloyatida o'stiriladi. Toshkent botanika bog'ining katta ilmiy xodimi K.U.Jadjiyev tomonidan o'simlik Toshkent viloyatida o'stirilgan.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning ildizpoyasi va ildizida 0,8% gacha yurak glikozidlari, tanin, kauchuk, oz miqdorda alkaloidlar, organik kislotalar, triterpen (oleanol kisloti, amirin, lupeol va b) hamda boshqa moddalar bor.

Ildizpoyasidan 0,50% gacha simarin, apokaniozid, sinnokanozid, 0,33% gacha K-strafantin- β va boshqa yurak glikozidlari olingan. Urug'ida 0.35% bargida esa kam miqdorda yurak glikozidlari bor.

7. Uzun mevali jut (*Corchorus olitorius* L) – Джут длинноплодный

O'simlik Hindistonning tropik va subtropik tumanlarida, O'rta Osiyoning ayrim tumanlarida. O'zbekistonda esa Toshkent viloyatida ekiladi.

Kimyoviy tarkibi. Jut urug'idan olitorizid, korxorozid va korolozid glikozidlari ajratib olingan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'simlik moddalar kimyosi institutining glikozidlar laboratoriyasi xodimlari tomonidan jut urug'idan olitorizid, korolozid va boshqa glikozidlar ajratib olingan va kimyoviy tarkibi o'rganilgan.

Jut urug‘idan strafntidin asetatni (0,14%) olish texnologiyasi yaratilgan.

8. Gretsiya periplokasi (*Periploca graeca* L) – Обвойник греческий

O‘simlik Kavkazda uchraydi. Moldaviya, Ukraina va Markaziy Osiyoda o‘stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O‘simlik po‘stlog‘i 0,38% periplosin, periplosimarini va boshqa yurak glikozidlarini saqlaydi. Po‘stloqning biologik faolligi 60 KED dan kam bo‘lmasligi kerak.

Yuqorida qayd etilgan yurak glikozidlarini saqlagan 8 ta dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ma‘lumot berildi. Hozirda ushbu yurak glikozidlari saqlagan o‘simliklardan faqat 5 tasi (angishvonagul, strofant, adonis, marvaridgul, erizimum) tibbiyot amaliyotida damlama, qaynatma, nastoyka, suyuq ekstrakt yoki quruq ekstrakt, yig‘ma holida hamda ajratib olingan yurak glikozidlari saqlagan turli shakldagi (tabletkalar, shamcha, eritma, in‘eksiya uchun ampula va b) preparatlari (fitopreparatlar) keng miqyosda ishlatiladi.

Qolgan yurak glikozidlarini saqlagan dorivor o‘simliklar (jut, gresiya periplokasi, kendir) turli sabablar bo‘yicha (xomashyo zaxirasi kamligi, davo effektini etarli bo‘lmaganligi, texnologiya bo‘yicha va b) tibbiyot amaliyotida ishlatilmaydi.

Kimyoviy tuzilishi bo‘yicha yurak glikozidlari, ma‘lumki, murakkab birikmalar bo‘lib, ikki qismdan – qandli (glikon) va qandsiz (aglikon) dan iborat. Qandli qismi to‘yinmagan lakton halqasi bilan bog‘liq steroid tuzilishlidir. Yurak glikozidlarining farmakologik ta‘hiri mana shu qismiga (aglikon) bog‘liqdir. Qandli qismi esa yurak glikozidlarining so‘rilishi, xujayra pardalardan o‘tishi, to‘qimalarda ushlanishiga va boshqa farmakokinetik ta‘hirlarini ta‘minlaydi.

Keltirilgan o‘simliklar saqlagan yurak glikozidlari kimyoviy tuzilishi bo‘yicha bir-biriga yaqin, lekin aglikon va glikon tibbiyoti bo‘yicha farqlanadi.

Har bir o‘simlikda bir necha yurak glikozidlari bo‘lsa ham ularning farmakodinamikasi deyarlik bir xil, lekin ularni farmako-

netikasi (so'rilishi, plazma oqsillari bilan bog'lashi, metabolizmi va organizmdan chiqib ketishi) turlicha bo'lishi mumkin.

Yurak glikozidlarining bunday nomlanishi ularning tanlab yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir etishi bilan tushuntiriladi. Turli yurak glikozidlari kasallik tufayli (yurak porogi, miokardioskleroz, yurak ishemik kasalliklari va b) yurak faoliyatini susayib qolishida uning qisqarishini oshirib tiklab, kasallikni yengillashtiradi, davo ko'rsatadi. Yurak glikozidlari ancha zaharli bo'lishiga qaramasdan ularning zaharli dozasining 1:2, 1:3 qismi shifo ko'rsatadi.

Shuning uchun ham yurak glikozidlari qadimdan ishlatib kelinayotgan noyob bebaho va keng miqyosda tibbiyot amaliyotida qo'llanib kelinayotgan ishonchli va samarali dori preparatlari fitopreparatlar hisoblanadi. Yurak glikozidlarining bunday shifobaxsh ta'siri ularning farmakologik va farmakokinetik xossalardan kelib chiqadi.

Yurak glikozidlarining farmakologik xossalari

Yurak glikozidlarining asosiy farmakologik ta'siri yurak faoliyatiga qaratilgan bo'lib, kardiotonik effektdan iborat. Ushbu effekt quyidagi farmakologik ta'sirlardan kelib chiqadi:

1. Yurak glikozidlarining sistolik ta'siri. Bunday ta'sir natijasida kasallik tufayli charchagan va miokardning zaiflashgan qisqarish kuchi sekin-asta oshadi, sistola kuchliroq sodir bo'ladi. Bundan tashqari, sistolaning davom etishiga ketgan vaqt kamayadi. Shunday qilib, yurak glikozidlari ta'sirida miokardning qisqarishi kuchliroq va tezroq bajariladi (musbat inotrop ta'sir). Bu esa o'z navbatida yurakning sistolik hajmi (bir sistolada yurakning chap qorinchasidan aortaga otilib chiqayotgan qonning miqdori), bir daqiqalik hajmi (bir daqiqada aortaga otilib chiqqan qonning miqdori) bir muncha ortadi, aortada qon bosimi ko'tariladi va qon tomirlarda qon harakati sekin-asta tiklanadi, tezlashadi.

2. Yurak glikozidlarining diastalik (manfiy xronotrop) ta'siri.

Yurak glikozidlari ta'sirida yurakning diastala (dam olish vaqti) vaqti uzoqroq davom etadi. Bu o'z navbatida miokardning to'liqroq bo'shashiga olib keladi va shu sababli qonning yurak chap bo'lmasidan chap qorinchasiga o'tishi ham ko'proq miqdorda bo'ladi.

3. Yurak glikozidlarining tonotrop ta'siri. Glikozidlar yurak (miokard) tonusini sezilarli darajada oshiradi. Diastola davrida yurakning umumiy hajmi kichikroq holda bo'ladi.

4. Yurakning o'tkazuvchi sistemasiga (manfiy dromotop) ta'siri. Yurak glikozidlari atrio-ventrikulyar (bo'lmacha-qorincha) tugunchaga ta'sir etib, undan va Gis nerv bog'lamlaridan qorinchalar mushagiga impulslar o'tishini sekinlashtiradi. Katta dozalarda esa butunlay to'xtatib qo'yadi. Impulslarni o'tishini bunday sekinlashishi natijasida bo'lmachalar bilan qorinchalar tufayli bo'lmachalarda yig'ilib qolgan qonning qorinchalarga o'tishi ko'proq miqdorda bo'ladi. Natijada kichik qon aylanish doirasidagi qonning miqdori kamayadi, organizmni kislorod bilan ta'minlanishi sekin asta yaxshilanadi.

5. Adashgan nervga ta'siri. Yurak glikozidlari ta'sirida yurakga tegishli adashgan nervning (vagus nervi) qo'zg'alishi natijasida yurak urushi-ritmi sekinlashadi (bradikardiya)

6. Yurak glikozidlari ta'sirida yurak avtometizmi qisman sekinlashadi, miokardning qo'zg'aluvchanligi oshadi.

Shunday qilib, yurak glikozidlarining ta'siri natijasida kasallik tufayli zaiflashgan susaygan yurak faoliyati sekin-asta tiklanadi. Yurakning urushi ritmi sekinlashadi va diostalaning uzoqroq davom etishi va miokardning to'laroq bo'shishishi hisobiga yurak uzoqroq dam oladi va uning qisqarish kuchi oshadi. Natijada aortaga chiqayotgan qon miqdori ko'payadi, aortada qon bosimi ko'tarila boradi, qon tomirlarda qon aylanishi tezligi oshadi, o'z xoliga keladi. Gemidinamika yaxshilanadi. A'zolar to'qimalarning qon bilan ta'minlanishi ko'proq bo'ladi. Shu sababli kasallik tufayli bemorda hosil bo'lgan shishlar kamayadi. Peshob ajralishi ortadi, nafas olish o'z me'yoriga keladi. Xansirash yo'qoladi.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, yurak glikozidlarining bunday shifobaxsh kardiotonik ta'siri yurak faoliyatining etishmasligida, zaiflashishida yaqqol namoyon bo'ladi. Aksincha, yurak faoliyati normal holatda o'zgarmagan bo'lsa yurak glikozidlarining bunday farmakologik ta'siri uncha yuzaga chiqmaydi. Boshqacha aytganda, yurak glikozidlarining shifobaxsh ta'siri yurak faoliyatining surunkali etishmovchiligini II va III (dekompensatsiya) davrida yaxshi namoyon bo'ladi. Yurak faoliyati etishmovchiligining I

(kompensatsiya) davrida esa ularning yuqorida qayd etilgan farmakologik effektlari yaqqol ravishda ko'rinmaydi. Yaxshi yuzaga chiqmaydi. Bu davrda ko'proq o'rtacha kordiotonik ta'sirga ega bo'lgan fitopreparatlari tavsiya etiladi.

Yurak glikozidlarining ta'sir mexanizmi

Yuqorida keltirilgan yurak glikozidlarining bunday shifobaxsh farmakologik ta'sir mexanizmi sabablari ancha murakkab bo'lib, oxirigacha to'liq aniqlanmagan. Lekin hozirgi zamon tushunchalariga qaraganda ularning kardiotonik ta'siri miokardda sodir bo'ladigan elektrolitlar modda olishinuviga qaratilgan. Chunonchi, yurak glikozidlari ta'sirida miokard hujayralariga (miofibrillarga) Sa^{++} ionining kirishi bir necha bor ko'payadi. Shu bilan birga hujayra pardaning repolyarizatsiya (qaytadan qutblanishi) fazasida Sa^{++} ionlarini hujayradan chiqishi o'zgarmaydi. Glikozidlarning bunday ta'siri Sa^{++} ionlarinig qo'shimcha miqdorini sarkoplazmatik retikulimidan ajratadi. Natijada Sa^{++} ionlari miofibrilda kamayib ketadi. Bu esa miokardning tez va kuchliroq qisqarishiga olib keladi.

Shunday qilib, yurak glikozidlari terapevtik dozada yurak faoliyati davrida Sa^{++} ionlarining almashinuvi oshirsa ham ularnig umumiy miqdori o'zgarmay qiladi.

Yurak glikozidlarining ta'sir mexanizmi shuningdek, pardaning (sarkoplazmatik pardaning ham) transport ATF-fazasi faoliyatining o'zgarishi bilan ham tushuntiriladi. Bu faza elektrolitlarning faol harakatlanishiga olib keladi. Ular pardaning tashqi tomonidan ta'sir etib, o'tkazuvchi sistemani K^+ ionlarga mosligini kamaytiradi. Natijada K^+ ionlarning kirishi Na^+ ionlarining chiqishi kamayadi. Sa^{++} ionlarini kirishi esa ortadi.

Yurak glikozidlarining bunday ta'sir mexanizmi natijasida yurak faoliyati ancha maromiga keladi, miokarddagi glikogen zaxirasi sut kislotasidan hosil bo'lishi hisobiga ortadi, kislorod bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Sarflanishi esa tejaladi.

Yurak glikozidlarining bunday kardiotonik ta'siri boshqa yurak stimulyatorlari masalan, adrenalindan farq qiladi. Adrenalin ta'sirida yurak glikozidlariga qarama-qarshi o'laroq kislorodga bo'lgan talabi oshadi, yurak foydali ta'sir koeffitsiyenti kamayadi, miokardda kreatinfosfat va glikogen miqdori kamayadi.

Yurak glikozidlarining qo'llanishi va ularga moneliklar

Yurak glikozidlari asosan turli sabablar bo'yicha yurak faoliyatining surunkali va o'tkir yetishmovchiligida yurak faoliyatining dekompensatsiyada va turli aritmiyaning taxikardiya bilan kechadigan turida ishlatiladi.

Sinus tugunining zaiflanishi sindromida, bradiaritmia bilan kechadigan aritmiyaning turlarida, ayrim ventrikulyar blokada (II-III bosqichida), kardiosklerozda, stenokardiya, o'tkir miokard infarktida, o'tkir miokarditda, endokarditda tavsiya etilmaydi.

Zaharlanish

Zaharlanish asosan digitalis preparatlarini noto'g'ri ishlatish, yurak glikozidlarini saqlagan o'simliklarni iste'mol qilish ulardan yig'ma tayyorlashda yuz berishi mumkin. Chunki yuqorida aytilganidek, yurak glikozidlarining ko'pchiligi va ularning hamma qismi zaharli hisoblanadi. Tibbiyotda bemorlarni digitalis preparatlari bilan davolash davrida, ularning dozasiga va berish rejimiga (tartibiga) shifokor nazoratisiz bo'lsa, kumulyatsiya holati yuz berishi mumkin. Zaharlanishning birinchi simptomi bradikardiyaning rivojlanib borishi va pulsni bir daqiqada 55-60 martaga tushishi, ko'ngil aynash, yurak sathida uni to'xtab qolish xissini bo'lishi va b. Keyinchalik yurak urishi buzilib, elektrosistola bigeminiya, trigeminiya (qo'shaloq pulslar), taxikardiya va og'ir zaharlanishda esa yurak qorinchalarini fibrilatsiyasi (titrash, lipillash) bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, shuncha o'xshash o'zgarishlar organizmda kaliy yetishmasligida, organizmning sezuvchanligi oshganda ham kuzatilishi mumkin. Zaharlanish natijasida yurak faoliyatida kuzatiladigan bunday o'zgarishlar elektrokardiogrammada o'z aksini topadi.

Zaharlanishda ko'rsatiladigan yordam quyidagicha:

Birinchi galdagi bemorga har qanday yurak glikozidini berish to'xtatiladi. Tezlikda yurak glikozidlarining antagonisti bo'lgan preparatlar kaliy xlorid beriladi yoki yuboriladi. Bemor bu preparatni 5% eritma shaklida bir marta 4-5 grammadan ichishi kerak, keyinchalik esa har 4 soatda 2 grammadan aritmia yo'qolguncha ichiladi. Kaliy xlorid bemorni ahvoliga qarab eritma holida (3%) 100 ml venaga sekin yuboriladi. Shu maqsadda boshqa

preparatlar—panangin, asparkam berilishi mumkin. Teri ostiga 20% kamfora moyidan ilitilgan holda kuniga 2-3 marta 1-2 mldan yuboriladi. Bundan tashqari, unitiol, trilon B va sitratlar beriladi.

Yurak glikozidlarini saqlagan o'simliklarning biologik faolligini aniqlash uchun biologik farmakologik yo'l bilan standartizatsiya qilinadi. Fitopreparat yoki o'simliklarning o'zi baqa yoki mushuk yuragining sistola fazasida to'xtatishini keltirib chiqargan eng kichik miqdori-dozasi standart preparat bilan solishtirilib va BTB (baqa ta'sir birligi) yoki MTB (mushuk ta'sir birligi) bilan belgilanadi. Masalan, 1 gramm angishvona bargida 50-66 QTB yoki 10.6-12.6 MTB bo'lishi kerak. 1 gramm digitoksin fitopreparati 8000-10000 QTB yoki 1911-2271 MTB saqlashi kerak va b.

Yurak glikozidlarining tasnifi

Yurak glikozidlari saqlagan o'simliklar va ularning farmakologik, farmakokinetik va farmakoterapevtik xossalari bo'yicha tasnif qilinadi. Masalan, o'simliklar bo'yicha: digitalis preparatlari, marvaridgul preparatlari, adonis preparatlari, strafant preparatlari va boshqalar.

Angishvonagul, strofant, adonis, marvaridgul, erizimum, yurak glikozidlari farmakologik, farmakokinetik xossalari bo'yicha 3 ta guruhga bo'linadi.

1. Sekin, kuchli va uzoq ta'sirli yurak glikozidlari.
2. Tez, kuchli va qisqa muddatli ta'sir etuvchilar.
3. O'rtacha kuchli va muddatli ta'sir etuvchilar.

Birinchi guruhga digitalis fitopreparatlari kiradi. Ular asosan tabletka xolida (digitoksin, digoksin) shaklida qabul qilinadi.

Shuning uchun ularni ichakdan so'rilishi sekin (bir necha soatlab) davom etadi. Qonga o'tgandan so'ng tanlab miokardga kuchli ta'sir etadi va shu bilan birga u erda yig'ila boradi. Ushbu preparatlar qonda oqsillar (albumin) bilan yuqori darajada bog'langani uchun metabolizmga deyarlik uchramaydi va organizmdan peshob bilan chiqib ketish sekin kechadi. Shu sababli preparatlarning yurakga bo'lgan kardiotonik ta'siri uzoq davom etadi. Shuning uchun digitalis fitopreparatlari kumulyativ xossaga ega.

Ikkinchi guruhga – tez, kuchli va qisqa muddatli ta'sir etadigan glikozidlarga strofantin K va korglikon kiradi. Bu preparatlar suvda eriydigan va ichakdan yomon so'riladigan bo'lgani sababli eritma holida ampulalarda asosan venaga yuborish uchun mo'ljallangan. Shu sababdan ularning ta'siri tez ro'yobga chiqadi va ta'sir kuchi yuqori darajada bo'ladi. Ular organizmda (miokardda yig'ilmaydi, oqsillar bilan kam bog'lanadi, metabolizmga uchrab, peshob bilan chiqariladi. Shuning uchun ularni ta'siri bir necha soat davom etadi xolos.

Uchinchi o'rta ta'sirli va muddatli glikozidlarga adonis va marvaridgul fitopreparatlari kiradi. Ular asosan oshqozon ichakdan so'riladi, ta'sir kuchi bo'yicha digitalis va strofantdan kuchsiz kumulyatsiya bermaydi, qon oqsillari bilan bog'lanishi kam, metabolizmga uchrab peshob bilan chiqariladi. Bularni digitalis va strofant o'simliklaridan farqi shuki, adonis va marvaridgul fitopreparatlari M.N.S.ga tinchlantiruvchi sedativ ta'sir etadi. Erizimum preparatlari (kardiovalen) esa ta'sir kuchi o'rtacha, uzoq davom etmaydi va kumulyatsiya bermaydi.

Yurak glikozidlarining fitopreparatlar ta'rifi

Qizil angishvonagul fitopreparatlari

A) Qizil angishvonagul bargining poroshoki (Pulvis foliorum Digitalis) faol kuchi 50-66 QTB yoki 10,3-12,6 MTV (1 gramm bargda) 0,05-0,1g dan kuniga 3-4 marta beriladi. Shamcha holida ham ishlatilishi mumkin. Samarasi yuzaga chiqqandan so'ng (pulsni sekinlashishi – bir daqiqada 60-70, peshobni ajrashini ortishi, xarsillashni kamayishi) dozasi kamaytirish (0,005-0,06 g) talab qilinadi. Yuqori dozasi 0.1 g kecha kunduzligi 0,5 g poroshok va tabletkalarda (0,05 g) chiqariladi.

B) Angishvonagul bargining damlamasi (Inf.folium Digitalis) 0,6-180 ml (1:300) nisbatida tayyorlanadi. 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichiladi. Damlamani klizma qilish mumkin.

V) Kordigit (Cordigitum)

Qizil angishvonagulning tozalangan quruq bargidan tayyorlangan preparati tarkibida yurak glikozidlari yig'indisi (digitoksin, gitoksin va b) bor. 1 g da 6000-8000 QTB yoki 800-1200 MTB bor.

Berilishi: birinchi kun 2-3 tabletkalar, ikkinchi kundan boshlab 1-1/2 tabletkalar tavsiya etiladi. Shamcha shaklida 1-2 marta to'g'ri ichakka qo'yiladi. Tabletkalar shaklida 0.8 mg dan chiqariladi.

G) Digitoksin (Digitoxinum)

Yuqori darajada faol bo'lib, qizil angishvonagul, tukli angishvonagul va boshqa glikozidlarini saqlaydi. 1 g da 8000-10000 QTB yoki 1911-2271 MTB bo'ladi. Ichakdan to'liq so'riladi. Ta'siri 2-4 soatda boshlanib, 8-12 soat davom etadi. Kuchli kumulyativ ta'sirga ega. Tabletkada 0,1mg – 0,15 mg- dan chiqariladi. Shamcha shaklida (0,15 mg) ham ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan qizil angishvonagul fitopreparatlari yurak faoliyatining surunkali etishmovchiligini hamma shaklida va bosqichida mersatel aritmiyada, bo'lmacha va atrio-ventrikulyar qorincha taxikardiyasida va boshqa aritmiya turlarida qo'llanadi. Bulardan digitoksin preparati yurak faoliyatining surunkali yetishmovchiligini uzoq muddat davomida davolashda va yurak faoliyatini yetishmovchiligining taxikardiya bilan kechishida qo'llaniladi.

Davolash davrida bemor shifokor (kardiolog) nazorati ostida bo'lishi kerak.

Digitoksin O'zbekiston davlat reestriga kiritilgan.

Sertuk angishvonagul fitopreparatlari

Sertuk angishvonagulning barglaridagi birinchi glikozidlari qizil angishvonagul glikozidlariga yaqin. Saqlash va quritish jarayonida gidrolizga uchrab, qizil angishvonagul tarkibidagi glikozidlarga digitoksin, gitoksin va digoksinga o'tadi.

A) Digoksin (Digoxinum)

Digoksin kardiotonik ta'siri bo'yicha boshqa yurak glikozidlariga o'xshaydi. Kardiotonik ta'siri yuqori darajada Sistolik ta'siri ancha kuchli yurak urishini ancha sekinlantiradi. Nisbatan yaqqol darajada peshobni haydaydi. Digitoksinga qaraganda digoksin kamroq kumulyatsiya beradi va organizmdan chiqib ketishi tezroq namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, digoksin boshqa yurak glikozidlariga nisbatan qon oqsillari bilan kamroq bog'lanadi va bu borada strofantinga yaqinlashadi.

Digoksin ichakdan soʻrilib, taʼsiri 1-2 soat ichida boshlanib, 8 soatgacha davom etadi. Venaga yuborilganda effekti 20-30 daqiqada boshlanib, yuqori effekti 3 soatda namoyon boʻladi. Digoksin yurak faoliyatining surunkali yetishmovchiligini I – II A - III B bosqichida hamda boʻlmacha mersaniyasining taxiaritmiya shaklida, boʻlmacha titrashida, paroksizmal mersaniya turida, paroksizmal supraventri-kulyar taxikardiyada tavsiya etiladi.

Preparat maʼlum sxema boʻyicha berilishi va bemor shifokor nazorati ostida boʻlishi talab etiladi.

Digoksin tabletkada 0,25 mg dan, bolalar uchun 0,1 mg dan chiqariladi. 0,025% eritmasi ampulada 1 ml dan chiqariladi.

Digoksin Oʻzbekiston davlat reestriga kiritilgan.

B) Selanid (Celanidum)

Sertuk angishvonagul bargidan olingan kristall holdagi glikozid. Boshqa angishvonagul glikozidlaridan terapevtik taʼsir doirasining kengligi bilan ajraladi. Venaga yuborilganda taʼsirining yuzaga chiqish tezligi boʻyicha strafantiga yaqin, kumulyatsiya chaqirishi digitoksinga qaraganda kamroq. Strafantiga nisbatan bradikardiyaning koʻproq keltirib chiqaradi. Ichga qabul qilinganda ham faolligi saqlanadi.

Yurak faoliyati oʻtkir va surunkali etishmovchiligini II va III bosqichida, boʻlmachaning mersaniyasini taxisistolik shaklida, paroksizmal taxikardiyaning suproventrikulyar turida qoʻllanadi.

Selanid tabletka shaklida (0,25 mg) yoki tomchilab (0,05% eritmasi) hamda venaga (0,02%) yuborish uchun beriladi.

Selanid tabletkada 0,25 mg, 0,05% eritmasi flakonda 10 ml dan ichish uchun va 0,02% eritmasi ampulada 1 ml venaga glyukoza (10%-20 ml) bilan birga yuborish uchun chiqariladi.

V) Lantozid (Lantosidum)

Sertukli angishvonagul barglaridan tayyorlangan novogolen 70% spirtli fitopreparat. Qizil angishvonagul glikozidlaridan kuchsiz. Glikozidlar yigʻindisi qizil angishvonagul glikozidlari singari taʼsir etadi, lekin soʻrilishi tezroq va kumulyativ taʼsiri kamroq.

Preparat asosan ambulatoriya sharoitida yurak faoliyatining surunkali yetishmasligini I-II-III bosqichlarida qoʻshimcha yordamchi fitopreparatlar sifatida qoʻllanadi.

Lantozid 15-20 tomchidan kuniga 2-3 marta ichiladi. Mikroklizma shaklida ham (20-30 tomchi 20 ml izotonik eritmasi bilan birga) ishlatilishi mumkin.

Lantozid jigar rang shisha idishlarda 15 ml da chiqariladi.

Sertuk angishvonagulning bargidan tayyorlangan fitopreparatlar (lantazid, dilanizid, asetoksin, abisin) hozirda ular deyarlik ishlatilmaydi.

Lantazid O'zbekiston davlat reestriga kiritilgan.

Malla angishvonagul fitopreparati

Digolen-neo (Digalen-neo) malla angishvonagul bargidan keraksiz moddalardan tozalangan standartlangan. Tarkibida yurak glikozidlari yig'indisini saqlagan suyuqlik.

Preparat ichish uchun 15-20 tomchidan kuniga 2-3 martaga beriladi. Bundan tashqari ichish uchun mumkin bo'lmagan turli hollarda mikroklizma qilish mumkin.

Preparat yurak faoliyatining surunkali yetishmovchiligida (I-II-III bosqich) bo'lmacha mersaniyasining taxikaritmia shaklida, yurak faoliyatining engil dekompensatsiya 10-15 tomchidan kuniga 2-3 marta ichiladi. Teri ostiga 0,5-1 ml dan ampulada 1 ml dan ineksiya uchun, flakonda 15 ml ichish uchun chiqariladi.

Bahorgi adonis o'ti (Herba Adonis vernalis)

O'simlikning yer ustki qismida yurak glikozidlari bo'lgani uchun undan damlama tayyorlanadi, quruq ekstrakt, kompleks fitopreparatlar olinadi.

Bahorgi adonis damlamasi (Jnf.her. Adonis vernalis) 1:3 nisbatida tayyorlanadi (6,0-180 ml). Osh qoshiq bilan ichiladi. Asosan yurak faoliyatining surunkali yetishmoqchiligini yengil kechishida (1 bosqich) beriladi. Kumulyatsiya bermaydi.

Bahorgi adonisnig damlamasi Bexterev aralashmasi tarkibiga boshqa qo'shimcha preparatlar (natriy brom, kodein fosfati) bilan birga kiritilgan. Yurakning bezovta bo'lishida (kardionevrozda) tavsiya etiladi.

Adonizid (Adonisidum) – Adonis o'tidan tayyorlangan novogolen fitopreparati bo'lib, yurak faoliyatining surunkali

yetishmasligini yengil kechishida (I,II bosqichda) va vegetonevroz holatida tomchilab iste'mol qilinadigan suyuqlik. Ovqatdan 30 daqiqa oldin qabul qilinadi. Agar dispeptik holatlar (ishtaxani yomonlashishi, ko'ngil aynashi, qayt qilish, ich ketish) yuz bersa preparat ovqatdan keyin ichiladi. Adonizid kompleks «Kardiovalen» preparati tarkibiga kiradi. Adonizid shisha idishlarda 15 ml dan chiqariladi.

Quruq adonizid (*Adonizidum siccum*). Poroshokidan tabletkalar tayyorlanadi. Har bir tabletkada tarkibida 0,75 g quruq adonizid bo'ladi. Yurak faoliyatining surunkali yetishmovchiligidagi yengil shaklida (I-II bosqich) 1 tabletkadan kuniga 2-4 marta qabul qilinadi. Me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligida, surunkali gastritlarda, enterokolit kasalliklarida berilmaydi.

Adonisning quruq ekstrakti (*Extractum Adonis Vernalis siccum*) ekstrakt damlama va tabletkalar tayyorlash uchun ishlatiladi «Adonis-brom» tabletkalari (*Tablettae «Adonis-brom»*) Parda bilan qoplangan tabletkalar tarkibida adonisning quruq ekstrakti 0,25 g, kaliy bromid 0,25 g bo'ladi. Asab buzilishi (nevroz) va yurak faoliyatini surunkali yetishmovchiligining yengil kechishida 1 tabletkadan kuniga 3 marta qabul qilinadi. Shisha idishlarda 25 tabletkadan chiqariladi.

Marvaridgul fitopreparatlari

O'simlikning hama qismi kimyoviy tuzilishi bo'yicha angishvonagulga yaqin bo'lgan yurak glikozidlarini saqlaydi. Marvaridgulning asosiy glikozidlari konvallyatoksin va konvallyazid. Ular uncha turg'un emas. Kumulyatsiya deyarlik bermaydi. Ichga qabul qilinganda farmakologik ta'siri yuqori darajada emas. Asosan kardionevrozda boshqa preparatlar (*valeriana*, do'lana nastoykalari) bilan birga ishlatiladi. Bevosita venaga yuborilganda marvaridgulning yurakga ta'siri ancha yuqori va tez bo'lib, strofantik K-preparatiga yaqinlashadi. Tibbiyot amaliyotida quyidagi fitopreparatlari ishlatiladi:

Marvaridgul nastoykasi (*T-ra Convallariae*).

Yurak faoliyatining surunkali etishmovchiligining engil formasida, vegetonevrozlarda (boshqa sedativ ta'sirli fitopreparatlar

bilan birga) keng qo'llaniladi. 15-20 tomchidan kuniga 2-3 marta qabul qilinadi. Flakonlarda 25 ml dan chiqariladi.

Marvaridgul nastoykasi quyudagi bir qator dorivor o'simliklar nastoykalari bilan birga aralashma holida ham chiqarilgan. Bularga marvaridgul-valeriana tomchilari, marvaridgul-valeriana tomchilari adonizid bilan, marvaridgul -valeriana tomchilari, adinozid va natriy brom bilan, marvaridgul-valeriana tomchilari natiriy brom bilan, marvaridgul-arslonquyruq tomchilari misol bo'ladi.

Korglikon (Corglyconum) Marvaridgul bargidan olingan alkaloidlar yig'indisini saqlaydi.

Yurak faoliyatiga ta'siri bo'yicha strafantiga yaqin turadi. Lekin ta'sir etish tezligi strafantiga qaraganda sekinroq namoyon bo'ladi. Organizmga yuborilganidan keyin esa korglikonning metabolizmga uchrashi strafantiga nisbatan sekinroq davom etadi. Shu sababdan korglikonning farmakologik karditonik ta'siri uzoqroq cho'ziladi. Korglikonning adashgan (n.Vagus) nervga qo'zg'atuvchi ta'siri strofantiga nisbatan kuchliroq bo'lgani sababli yurak urushini (ritmi) sezilarli darajada sekinlashadi.

Preparat turli sabablar bo'yicha yurak faoliyatining va qon aylanishining o'tkir va surunkali yetishmovchiligida (II va III daraja) yurak bo'lmachasining taxisistolik shaklda kechishida, paroksizmal taxikardiya xurujini bartaraf etish maqsadida qo'llanadi.

Korglikonning suvdagi eritmasi (Sol.Corglyconi 0,06%) 1 ml dan ampulada chiqariladi.

Preparat 0,5-1 ml dan 20-40 % glyukoza bilan 10-20 ml bilan birga sekin asta (5-6 daqiqa davomida) venaga yuboriladi. Ayrim holatlarda in'eksiya 8-10 soat o'tgach qaytarilishi mumkin.

Eng yuqori bir martalik venaga yuborish dozasi 1 ml, bir kecha- kunduzlik dozasi 2 ml.

Korglikon strofantin tavsiya etilishi man qilingan holatlarda berilmaydi.

Yuqorida keltirilgan fitopreparatlardan tashqari, yurak glikozidlarini saqlagan dorivor o'simliklardan adonic va marvaridgul turli yig'malar tarkibiga ham kiritiladi. Bular ham yurak faoliyatining surunkali etishmovchiligining engil formasida kechishida kompensatsiya fazasida tavsiya etilishi mumkin.

Quyidagi yig'malar misol tariqasida kiritildi. Ular asosan kardiotonik, antigipoksant, qon tomirlarni kengaytiruvchi, peshob haydovchi va tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

1. Adonis o'ti, meniantes bargi, tirnoqqul guli, seberga guli, limon o'ti, arslonquyruq o'ti, viskum, qayin barglari, qirq bo'g'in o'ti – 30 grammdan. 6 gramm maydalangan yig'masini 300 ml qaynab turgan suvga solinadi, suv hammomda 15 daqiqa ushlanadi, termosda 2 soat saqlanadi. Keyin dokadan o'tkazib 60-70 ml dan kuniga 4 marta ovqatdan 1 soat keyin ichiladi.

2. O'rmon qulupnayining barglari, marvaridgul barglari, limon o'ti, ukrop o'ti, oq viskum novdasi, qariqiz ildizi, bo'znoch guli, olma po'sti, botqoq ledumi, erika o'ti – 50 grammdan olinadi. 8 gramm maydalangan yig'ma 350 ml qaynab turgan suvga solinadi. Suv hammomda 10 daqiqa qizdiriladi. Termosda 4 soat ushlanadi. Dokadan o'tkaziladi. Iliq holda 50 ml dan kuniga 5-6 marta ichiladi.

3. Qashqarbeda o'ti, tirnoqqul guli, marvaridgul guli, yalpiz o'ti, ukrop urug'i, na'matak mevasi, maymunjon novdasi, qayin bargi va po'stlog'i, onona ildizi – 40 grammdan olinib yuqoridagi 2 yig'maga o'xshash tayyorlanadi va ichiladi.

Angishvonagul turlari zaharli bo'lgani uchun yig'malarga qo'shilmaydi.

Strofant fitopreparati

O'simlik turidan olingan strofantning ikki turi – strofantin K va strofantin G mavjud. Strofantin K tibbiyot amaliyotida keng ishlatiladigan yurak glikozididir.

Strofantin K (Strophantinum K)

Komba strofant o'simligining urug'idan olingan yurak glikozidlarining aralashmasi bo'lib, asosan Kstrofantin – β va Kstrofontozid saqlaydi.

Strofantin yuqori samarali yurakga tez va qisqa muddatli ta'sir etadi. Venaga yuborganda uning kardiotonik ta'siri 10-15 daqiqada boshlanib, yuqori effekti 15-30 daqiqada namoyon bo'ladi. Uning bunday ta'siri yurak sistolasiga qaratilgan bo'lib, yurak qisqarish tezligiga (ritmiga) va Gis bog'lami bo'yicha impulslarni o'tishiga ta'siri uncha emas. Strofantin ichga qabul etilganda turg'un bo'lmagani uchun davo ta'siri deyarlik bilinmaydi. Preparatning

o'zi kumulyatsiya bermaydi. Lekin boshqa yurak glikozidlar (angishvonagul preparatlari) kumulyativ ta'sirini kuchaytiradi. Shu sababli, bemor yurak glikozidlari (digoksin, digitoksin) olgan, olayotgan bo'lsa, strofantin 10-14 kun o'tgach yuborilishi mumkin.

Strofantin K yurak faoliyatining o'tkir yetishmovchiligida (miokard infarktida ham) yurak faoliyatining surunkali yetishmovchiligining og'ir kechishida (II-III bosqichlarda dekompensatsiya fazasida) ayniqsa, angishvonagul preparatlarining samarasi yaxshi yuzaga chiqmagan holatlarda qo'llanadi. Strofantin 0,025% eritma holida (1 ml-0,25 mg) osh tuzining izotonik eritmasi yoki glyukozani (10%) eritmasida aralashtirib venaga sekin-asta yuboriladi. Ayrim holatlarda izotonik eritmaning yoki 5% glyukozaning 100 ml eritmasi bilan tomchilab (infuziya) venaga yuboriladi. Venaga yuborishning iloji bo'lmagan taqdirda muskullar oralig'iga 2% novokainda 5 ml yuborgandan keyin shu igna orqali 2% novokainda erigan strofantin yuboriladi. Bunday holatlarda strofantinning bir martali dozasi (1 ml da 0,25 mg) bir yarim marta oshiriladi.

Strofantin K-yurak va qon tomirlarni og'ir organik kasalliklarida, o'tkir miokarditda, endokarditda, og'ir kardiosklerozda tavsiya etilmaydi. Tireotoksikozda va bo'lmachalar ekstrasistoliyasida ixtiyotlik talab qilinadi.

Strofantin K 0,025% eritma holida 1 ml dan ampulada chiqariladi.

Erizimum fitopreparati

O'simlik turlaridan olingan yurak glikozidlari erizimum, erizimozid glikozidlari boshqa yurak glikozidlaridan kardiotonik ta'siri bo'yicha ustun bo'lmagani uchun ular tibbiyot amaliyotida ishlatilmaydi. Faqat kompleks preparat kardiovalen tarkibiga erizimumni suyuq ekstrakti kiritilgan.

Kardiovalen (Cardiovalenum). Kompleks suyuq preparat bo'lib, tarkibida erizimum ekstrakti (17,2 ml), konsentrlangan adonizid (30,3 ml), valeriananing ildizpoyasi va ildizining nastoykasi (48.6 ml), dolananing suyuq ekstrakti (2,2 ml), kamfora (0,4 g), natriy bromid (2 g), spirt (0,5%-1,5 ml), xlorobutanolgidrat (0,25 g) bor.

Yurak faoliyatining surunkali etishmovchiligi va qon aylanishining buzilishida (I va II A daraja) hamda stenokardiyada (koronar qon tomirlarining organik o'zgarishsiz), vegetativ nevrozlarda 15-20 tomchidan kuniga 1-2 marta ichiladi.

Flakonda 15, 20 va 25 ml dan chiqariladi.

Aritmiyada ishlatiladigan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari

Bu guruhga yurakning bir maromda, bir tekis ritmik urushini izdan chiqishida, buzilishida davo ko'rsatadigan turli dori preparatlari, shu jumladan, shifobaxsh o'simliklar va ulardan olingan (tayyorlangan) fitopreparatlar kiradi.

Aritmiya hozirda kasalliklarning smptom, asorati va chin kasallik ko'rinishida ancha ko'p uchrab turadi. U yurakning bir qator kasalliklarida (yurakning ishemik kasalliklari – stenokardiya, mikard infarktida, revmoendomiokardit, miokardiodistrofiya, kardioskleroz, yurak porogi va organizmning boshqa patologik holatlarda tireotoksikoz, anemiya, asabni buzilishi, isitmani ko'tarilishi, intoksikasiya va b.) kuzatilishi mumkin. Shuning bilan birga, elektrolitlar almashinuvini buzilishi (gipokaliemiya, giperkalsemiya) ham katta ahamiyatga egadir.

Aritmiyaning kelib chiqishi, kechishi va ko'rinishi bo'yicha turlicha bo'lib, ularning ikki guruhga – taxiaritmiya va bradiaritmiyaga ajratish mumkin.

Yurak kasalliklari bilan bog'liq taxiaritmiyaga asosan paroksizmal taxikardiya, bo'lmacha mersaniyasi va boshqalar kiradi.

Bradiaritmiya esa sinus tugunchasining zaiflashish sindromi, atrioventerikulyar blokadas (I, II, III) va boshqalar kirib, bunda yurakning urishi bir daqiqada 55-60 martadan kam bo'ladi. Bu degan so'z, organizmni qon bilan ta'minlanishi yetarli darajada bo'lmaydi. Bu holat ayniqsa, yurakning urushi 50 tadan kamayganda sodir bo'ladi.

Aritmiyada xastaligiga duchor bo'lgan bemorlarni davolashda turlicha ta'sirga va ta'sir mexanizmiga ega bo'lgan bir qator preparatlar, shu jumladan, dorivor o'simliklar va ulardan ajratib olingan biologik faol moddalar saqlagan fitopreparatlar ishlatiladi.

Umuman olganda, ushbu antiaritmik preparatlarning farmakologik ta'siri natijasida taxikardiya bilan kechuvchi yurak ritmini izdan chiqishida miokard qo'zg'aluvchanligini pasayishi, yurak avtomatizmining va uning o'tkazuvchi sistemalarini tormazlanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, miokardning kasallik tufayli o'zgarishiga uchragan joydan patologik qo'shimcha impuls-larni (ektopik) paydo bo'lishi ham kamayishi hisobiga aritmiya holati ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, taxiaritmiyada ishlatiladigan preparatlarning ta'sir mexanizmidagi elektrolitlarni miokard xujayrasi (miofibril) pardasidan o'tishi, ularni muozanati natijasida elektr qutbini doimiylashtirish va boshqa jarayonlar kuzatiladi.

Aritmiyada yurak urishini haddan tashqari sekinlashishida (50 martadan kam) M-xolinoblokatorlar va adrinomimetiklar ishlatiladi. M-xolinoblokatorlarga belladonna o'simlik fitopreparatlari kiradi. Atropin va belladonna nastoykasi M-xolinoreseptorlarni bloklab, adashgan nervning yurak urishini tormozlovchi (sekinlashtiruvchi) ta'siri yo'qoladi va buning natijasida yurak urishi simtomik nerv hisobiga tezlashadi, bradikardiya bartaraf etiladi.

Shuning bilan birga, beta adrenomimetiklar ham qo'llanishi mumkin. Adrenalin, izadrin, shunga o'xshash qizilcha (efedra) o'simligidan tayyorlangan efedrin fitopreparati ham yurakda joylashgan beta adrenoceptorlarni qo'zg'atib, yurak urishini tezlashtirishi mumkin. Lekin adrenomimetiklarning effekti yetarli darajada bo'lmagani uchun ular bradiaritmiyada kamroq ishlatiladi. Bular asosan turli sabablar bo'yicha (yurakni birdan to'xtatib qo'yishi – gipertonik krizda, sinus tugunining bo'shishi sindromida va b.) ayniqsa, adrenalin gidroxlorid yurak urishini qo'zg'atish uchun bevosita yurakga (miokardga) yuboriladi.

Afsuski, ayrim holatlarda yuqorida qayd etilgan dori preparatlari (M-xolinoblokatorlar, adrenomimetiklar) kutilgan natijani beravermaydi. Bunday holatlarda elektrokardios-timulyatorlarni (EKS) qo'llashga to'g'ri keladi. Ko'pincha EKSni organizmga xirurgik yo'l bilan o'tkaziladi. Bu stimulyator yurakni qo'zg'atadi va qisqarishni ta'minlaydi.

Dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari.

Aritmiyaning har xil turlarini davolashda asosan quyidagi shifobaxsh o'simliklar va ulardan ajratib olingan va tayyorlangan fitopreparatlar ko'pincha qo'shimcha dori sifatida ishlatilishi mumkin.

9. Qizil shirali sinxona (*Cinchona succirubra* Pav) – Синхона красносочковая

Bu o'simlik doim yashil, bo'yi 15-20 m ga yetadigan daraxt. Vatani janubiy Amerika davlatlari (Boliviya, Peru, Kolumbiya, Venesuela) hozirda Gruziyada plantatsiyalarda o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Plantatsiyada o'stiriladigan daraxtning po'stlog'i tarkibida 10% gacha, yovvoyi holda o'sadigan sinxona po'stlog'ida esa 2,5% gacha turli alkaloidlar (1-7,5% xinin, 0,65% xinidin, 4,85% sinxonin, 3,5% gacha sinxonidin) yig'indisi bor. Gruziyaning nam subtropigida bir yillik o'simlik sifatida o'stiriladigan qizil shirali sinxonil ildizida 1,03-2,14% alkaloidlar yig'indisi (12,5% gacha xinin, 3,8% xinidin, 42,1% gacha sinxonin va 32,1% gacha sinxonidin), poyasida 1,41-1,57% (6,6% gacha xinin, 2,1% xinidin, 37,7% gacha sinxinin va 44,3% gacha sinxinidin) va bargida 1,18-1,49% alkaloidlar yig'indisi bor.

Farmakologik xossalari. Xinidin alkaloidi xininning o'ng tomonga aylanadigan szomeri bo'lib, tibbiyot amaliyotida xinidin sulfat preparati ishlatiladi. Xinidin miokard xujayralar (miofibril) pardasidan natriy va kalsiy ionlarini o'tish tezligini kamaytiradi, miokard qo'zg'aluvchanligini pasaytiradi, yurak o'tkazuvchi sistemasidan (Giss bog'lami va b.) impuls o'tishini sekinlashtiradi. Katta dozalarda miokardning qisqarish faoliyatini susaytirishi hattoki, impuls o'tishini to'xtatishi (blokada) mumkin. Xinidinning bunday farmakologik ta'siri miokardda oksidlanish jarayonining tormozlanishi – susayishi bilan tushuntirish mumkin. Xinidin mahalliy og'riq qoldiradi, periferik qon tomirlarni qisman kengaytiradi, adashgan nerv oxiriga ta'sir etib, uni qo'zg'atishi natijasida yurak urishini sekinlashtirishi (bradikardiya) mumkin.

Ishlatilishi. Xinidin sulfat aritmiyaning turlarida ishlatiladigan ancha faol antiaritmik ta'sir ko'rsatadigan preparat hisoblanadi. U

mersatel aritmiya xurujida va ko'proq shu xurujni oldini olish uchun beriladi. Bundan tashqari paroksizmal supraventrikulyar taxikardiya, tez bo'ladigan ekstrasistolada va qorincha taxikardiyasida keng ishlatiladi. Kasallikni turiga va kechishiga qarab xinidin bilan davolash sxemasi taqdim etilgan.

Preparatga sezuvchanlikni oshishida (idiosinkraziya), atrio – ventrikulyar blokadada, xomilalikda tavsiya etilmaydi.

Xinidin sulfat tabletkada 0,1-0,2g dan chiqariladi. Xinidinning uzoq muddatli ta'sir etuvchi preparatlaridan («xinnugen-durules», «xinipek») mavjud.

10. Пон раувольфия (Rauwolfia serpentine Benth) – Раувольфия змеиная

Doim yashil buta. Vatani janubiy Osiyo. Hindistonda plantatsiyalari bor. Gruziyada o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Ildiz tarkibida 0,5-1,3%, ildiz va ildizpoyasida 1-2% alkaloidlar bor. O'simlik ildizida 25 tadan ortiq alkaloidlar (rezerpin, sezerpidin, ioximban, ioximbin, aymalin, serpentin va b.) bo'ladi.

O'simlikning tibbiyot amaliyotida ishlatiladigan asosiy alkaloidlari rezerpin va aymalin hisoblanadi. Rezerpin neyro-lentiklar guruhiga mansub bo'lib, asosan antigipertenziv ta'sirli. Aymalin esa aritmiyaga qarshi ta'sirli alkaloiddir.

Aymalin alkaloidi rezerpindan farqli o'laroq, neyroleptik guruhga kirmaydi, qisman qon bosimini tushiradi, korinar qon aylanishini birmuncha kuchaytiradi, manfiy inotrop va kuchsiz adrenolitik ta'sirga ega.

Aymalinning asosiy farmakologik ta'siri aritmiyaga qarshi bo'lgan samarali effekti hisoblanadi. Alkaloid miokard qo'zg'aluvchanligini pasaytiradi, refraktor davrini uzaytiradi, atrio-ventrikulyar va korinchalar ichki o'tkazuvchanligini kamaytiradi, sinus tuguncha avtomatizmini qisman sekinlashtiradi. Yurak avtomatizmining ektopik patologik joylaridan impuls hosil bo'lishini yo'qotadi. Bunday ta'siri bo'yicha aymalin xinidin guruhiga kiradi.

Aymalin mersatel aritmiya va paroksizmal taxikardiya xurujlarini bartaraf etadi. Bundan tashqari, angishvonagul (digitalis)

preparatlari bilan zaharlanishda ham samarali ta'sir etadi. Preparat venaga, mushaklar orasiga va ichish uchun turli dori shakllarida ishlatiladi.

Tabletka 0,05g, ampulada 2,5% eritmaning 2ml dan chiqariladi.

Tarkibida aymalin saqlagan kompleks preparatlar bor. Bularga raunatin (rezerpin, aymalin va b.) puls narma (aymalin, spartein sulfat, antazolin gidroxlorid va feno barbital) misol bo'laoldi. Ushbu kompleks preparatlar ham aritmiyani har xil turlarida keng ishlatiladi.

11. Parpi. (Aconitum L.) – Аконит

O'simlikning bir necha turlari mavjud: jung'or parpisi (Aconitum soongaticum Stapk), qorako'l parpisi (Aconitum karacolicum Raps.), oqnegizli parpi (Aconitum leucostomum Worosh). Bu turlar ko'p tomondan bir-biriga yaqin bo'lgani uchun ularni bitta o'simlik jung'ori parpisi (Aconitum soongaticum Stapk) deb qaraladi. O'simlikning turlari Tyanshan tog'laridagi suv bo'ylarida, qorako'l parpisi Issiq ko'lga yaqin joylarda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning ildiz tuganagi tarkibida 2,35% gacha alkaloidlar (0,60% akonitin, 0,24% zongorin va 0,01% monoasetil zongorin) bor. O'simlikning yer ustki qismi zaharli bo'lib, 0,5% turli alkaloidlarni saqlaydi.

O'simlikning uchinchi turining o'tidan (yer uski qismi) olingan – lappakinitinning bromgidrat tuzi – allapinin preparati O'zbekiston FA O'simliklar kimyosi instituti xodimlari tomonidan olingan va har tomonlama o'rganilgan.

Allapininning farmakologik o'rganishda uning aritmiyaga qarshi ta'siri aniqlangan (F.N.Johongirov). Preparat yurak bo'lmachalari, Giss bog'lami, Purkine tolalari bo'yicha qo'zg'alish impulslarining o'tishini sekinlashtiradi. Allapinin aritmiyaga qarshi bunday ta'siri bo'yicha shu qatorga kiruvchi preparatlardan (xinidin, aymalin va b.) ta'sir etish spektori va effekti bo'yicha ustun turadi.

Allapinin qorincha ustki va qorincha ekstrasistolasida, poraksizmlarda, bo'lmacha mersaniyasida va xilpirashida, qorincha va qorincha usti paroksizmal taxikardiyada, miokard infarktda bo'ladigan aritmiyada qo'llanadi.

Allapinin atrio-ventrikulyar blokadaning II va undan yuqori bosqichlarida ham jigarning va buyrakning faoliyatini og'ir etishmovchiligida tavsiya etilmaydi. Atrio-ventrikulyar blokadaning I bosqichida, qorincha ichki o'tkazuvchanligi pasayishida, sinus tugunning zaiflashish sindromida ham qon aylanishning og'ir etishmovchiligida preparat shifokorning (kardiologning) katta nazorati ostida stasionar sharoitda elektrokardiogramma ko'rsatgichiga asoslanib berilishi mumkin.

Allapinin tabletkalarda 0,025g (25mg) va 0,5% eritmasi 2ml (10mg)dan chiqariladi.

Allapinin qarib 15 yildan beri ko'p davlatlarda (Yevropa, Osiyo, Amerika) samarali va ishonchli dori sifatida aritmiyani turli shakllarida ishlatib kelinayapti.

Shuni aytib o'tish lozimki, allapininning yaratilishida, farmakologik, kimyoviy, toksikologik o'rganishdan hamda preparatni ishlab chiqarish texnologiyasini yo'lga qo'yishda qatnashgan O'zbekiston FA o'simliklar kimyosi institutining bir guruh olimlari va xizmatchilari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2007-yilda Davlat mukofoti (I daraja) bilan taqdirlangan.

12. Do'lana (Crataegus L.) – Бояришник

Do'lananing bir necha (14) turlari bor. Ularning bo'yi 5 metrga yetadigan buta yoki kichik daraxt. Turlaridan biri O'zbekistonda tabiiy holda o'sadigan Oltoy do'lanasidir (Crataegus altaca - Louol). Manzarali buta sifatida esa tikonli do'lana (C. Oxucantha L.), besh urug'chali do'lana (C – pentagyna W. etk.) ham ekiladi.

Kimyoviy tarkibi. Do'lana o'simligining tarkibida flavonoidlar, efir moyi, kislotalar, mevasi tarkibida – triterpen saponinlar (ursol va oleanol kislotalar), flavonoidlar (giperozid, kversitrin, kversitin, viteksin va b.) oshlovchi va boshqa moddalar bor. Do'lana mevasi va gullarining asosiy ta'sir etuvchi birikmalari flavonoidlar va triterpen saponinlar hisoblanadi.

Farmakologik xossalari. Do'lananing galen preparatlari asosiy ta'siri kardiotonik ta'siridir. Bunday ta'sir yurak faoliyati pasayganda yaxshi namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, yurak aritmiyasiga ta'sir etib, eksperiment sharoitida akonotin keltirib

chiqargan aritmiyani yo'qotadi. Do'lana fitopreparatlari (ekstrakti, nastoykasi) spazmolitik ta'sirga ega. Ular yurak va boshmiya qon tomirlarini kengaytiradi, aritmiyaning eksmental modelida ijobiy ta'sir etadi. Yurak glikozidlari ta'sirini kuchaytiradi. Qisman sedativ ta'siri bor.

Qo'llanishi. Do'lana fitopreparatlari yurak faoliyatining funksional o'zgarishida, mersatel aritmiyada va praksizmal taxikor-diyada (asosiy preparatlarga qo'shimcha sifatida), angionevrozda beriladi.

Fitopreparatlari. Do'lana nastoykasi (Tra Crataegi). Maydalangan mevasidan 70⁰ etil spirtida tayyorlangan. 20 tomchidan kuniga 3 marta ovqatdan oldin ichiladi. Flakonda 25 ml dan chiqariladi.

Do'lananing suyuq ekstrakti (Extr. Crataegi fluidum) 20-30 tomchidan kuniga 3-4 marta ovqatdan oldin ichiladi. Do'lananing suyuq ekstrakti (2,2 ml) «Kardiovalen» kompleks preparat tarkibiga kiradi.

Yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklar va ulardan ajratib olingan va tayyorlangan fitopreparatlardan tashqari aritmiyani davolashda shifobaxsh giyohlarning yig'indisidan ham foydalaniladi. Bunday yig'malar tarkibiga, antiaritmitik, kordiotonik, tinchlantiruvchi va qon bosimini tushuruvchi ta'sirga ega bo'lgan shifobaxsh o'simliklar kiradi. Ular aritmiyaning turli xillarida ishlatiladigan asosiy 5 guruhdan iborat preparatlarga qo'shimcha sifatida va aritmiyani engil kechadigan turlarida tavsiya etiladi. Ularga misol tariqasida quyidagi fitoyig'malarni keltirish mumkin:

1. Do'lana gullari, seberga gullari, filipendula o'ti, limono'ti, atirgulning gulbarglari, bo'ymadaron o'ti, andis ildizi, oddiy chetan gullari, maymunjon navdalari, sulining yashil poxoli, ladum novdasi, lavziya ildizpoyasi – 40 grammdan. 5g yig'mani 300ml qaynoq suvga solinadi, termosda 4 soat saqlanadi, dokadan suziladi. Illiq yig'mani 50ml dan har 4 soatda ichiladi.

2. Do'lana gullari, do'lana mevasi, qashqarbeda o'ti, marvaridgul guli, limono't, ukrop mevasi, andiz ildizi, maymunjon bargi, sulining yashil poxoli, oqqayin barglari, kashnich mevasi, bukvisa o'ti – 4 grammdan. 6 g yig'mani 300 ml qaynoq suvga

solinadi. Suv hammomida qizdiriladi, termosda 2 soat ushlanadi. Dokadan suziladi. Iliq holda 50 ml dan har 4 soatda ichiladi.

Paroksizmal taxikardiyada quyidagi yig'ma tavsiya etiladi:

3. Limon o'ti, valeriana ildizpoyasi – 20 garmmdan, binafsha o'ti, dalachoy o'ti, bo'ymadaron o'ti – 30 grammdan. Aralash tirib maydalangan yig'madan 1 osh qoshiq olib, 0,5 l qaynagan suvga solinadi. 2 soat o'tgach ovqatdan 0,5 soat oldin kuniga 3 marta ichish uchun.

Bo'lmacha fibrillyatsiyasida (mersanie) quyidagi yig'ma tavsiya etilishi mumkin:

1. O'rmon qulupnoy o'ti, valeriana ildizpoyasi – 1 osh qoshiqdan, sarsabil ildizpoyasi, arslonquyriq o'ti – 2 osh qoshiqdan, limono't bargi – 4 osh qoshiq. Aralash tirib maydalangan 3 osh qoshiq olib 1 litr qaynoq suvga solinadi, 3 minut qaynatiladi, 1 soat turgandan so'ng dokadan suziladi. 50ml dan bir kunda 5-7 marta ichiladi.

2. Arslonquyriq o'ti, dolana mevasi – 3 osh qoshiqdan, lavanda o'ti, baykal ko'kamarin ildizi, rozmarin bargi 2 osh qoshiqdan. Yig'ma aralash tiriladi va maydalanadi. 3 osh qoshiq yig'ma olib 1,5 litr qaynab turgan suvga solinadi, termosda 3-4 soat ushlab turiladi. So'ng 100ml dan bir kunda 6 martagacha ichiladi.

3. Qizil angishvonagulning barg poroshogi 0,1g kuniga 2-3 marta ovqatdan oldin qabul qilinadi.

Aterosklerozda ishlatiladigan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari

Ateroskleroz keng tarqalgan, uzoq davom etadigan, sekin-asta rivojlanib boradigan surunkali kasallik hisoblanadi.

Bu kasallikda yog' almashinuvi buzilishi natijasida arterial qon-tomirlar devorining ichki intima qavatida alohida-alohida pilakchalar paydo bo'ladi. Bu pilakchalar biriktiruvchi to'qimalardan va yog' moddalar (lipidlar) aralashmalaridan iborat. Natijada qon-tomir devorining cho'ziluvchanligi (elastikligi) buzilib, qattiqlashadi, bo'shlig'i esa torayadi. Qon harakati sekinlashadi. To'qimalarni qon bilan ta'minlanishi yomonlashib boradi. Bunday o'zgarish miya, yurak va buyrak qon-tomirlarida yuz bersa, turli hayot uchun xavfli holatlarni keltirib chiqarishi

mumkin (insult, stenokardiya, miokard infarkti, gipertaniya kasalligi va b).

Ateroskleroz rivojlanishiga moyil qiladigan omillar: gipodinamiya, alementar faktor, emotsional stres, endokrin va metabolik o'zgarishlar yog' bosishi, padagra, gipotireoz, qandli diabet, gipertoniya, qon ivishining oshishi ahamiyatlidir.

Bemorlarni davolashda turli usullar (parxez, jismoniy faollik) bilan birga har xil dori preparatlari ishlatiladi. Bular buzilgan yog' almashinuvini tiklashga qondagi xolesterin miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Bu borada asosan xolesterinning ichakdan surilishini va uning jigarda hosil bo'lishini kamaytiruvchi, uni metabolizmini va organizmdan chiqib ketishini tezlashtiruvchi ta'sirga ega bo'lgan turli dori preparatlari (xolesteramin, statinlar, essensial forte, vitaminlar, antioksidantlar va b) qo'llanadi. Shuning bilan birga dorivor o'simliklar va ulardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar ham ishlatiladi. Bular qatoriga o'simliklardan olingan va tayyorlangan tibbiyot amaliyotida aterosklerozni rivojlanishiga qarshi ta'sirli va uni to'xtatish maqsadida shlatiladigan asosiy preparatlarga kushimcha dori vositalari sifatida qo'llanadigan quyidagi dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlarini keltirish mumkin:

13. Yams (Dioscorel) – Диоскория

Yams o'simligining ikki turi ma'lum. Kavkaz yamsi (*Dioscorea cacasie* Lipsky) va Nippon yamsi (*Dioscorea nipponica* Maxim). Bular g'arbiy Zakavkaziya o'sadi. Krasnodar o'lkasida o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning ildizpoyasi va ildizida 10-25%gacha saponinlar bor. Saponinlar yig'indisidan 0,4% miqdorda steroid saponin diosin ajratib olingan.

Nippon yamsi ildizpoyasi tarkibida 8% gacha saponinlar, yog', kraxmal va boshqa moddalar bo'ladi. Saponinlar yig'indisining 0,9-2,2% (ekiladigan 1,17%) ni diosin tashkil etadi.

Farmakologik xossalari. Kavkaz yamsidan olingan va o'z tarkibida steroid glikozidlarni saqlagan diasponin preparati o'z vaqtida aterosklerozga qarshi ta'sir kursatadigan preparat sifatida

ishlatilgan. O'simlik zaxirasi kam bo'lgani sababli uning o'rnida ippon yamsidan foydalanadigan bo'lingan.

Laboratoriya hayvonlarida (quyon) o'tkazilgan tajribada polisponing ta'siri natijasida qondagi xolesterinning miqdorini kamayishi, lesitin xolesterin koeffitsiyentini ko'payishi kuzatilgan. Bu esa xolesterinning kolloid eritma holatida bo'lishiga va uni qon tomirlar ichki devorida eg'ilishiga yo'l qo'ymaydi.

Bu degani so'z polisponin (nippon yamsi) diosponinning Kavkaz yamsi singari antiaterosklerotik ta'sirga ega. Ular yog' almashinuviga ta'siridan tashqari boshqa farmakologik (qon bosimi, puls, nafas, diurez, shartli refleksga ta'siri va b.) va toksikologik ta'sirlari bo'yicha bir biriga o'xshash ekanligi eksperimental tekshiruvda aniqlangan.

Preparat xarakteristikasi:

Polisponin (Polisponinum)

Ippon yamsi ildizpoyasi va ildizidan olingan quruq ekstrakt. Suvda eriydigan steroid glikozidlarini saqlaydi.

Diaskoreyada – yamsda va ayrim o'simliklarda mavjud steroid glikozidlari qonda xolesterinni kamaytiradigan bo'lgani uchun aterosklerozning engil shaklida boshqa asosiy preparatlar va ko'rsatmalar (parhez, jismoniy harakat va b.) bilan birga tavsiya qilinadi. Ushbu tavsiya polisponin fitopreparatiga ham tegishlidir. Preparat tabletkada (0,1-0,2 g) shaklida chiqariladi. Kuniga 2-3 marta ovqatdan keyin qabul qilinadi. Davo kursi 20-30 kun bo'lib, 7-10 kun o'tgandan so'ng kurs davosi qaytariladi.

Davo davomida nojo'ya holatlar (ishtaxani pasayishi, terlash, qichinish) bo'lishi mumkin. Bular preparatni berish to'xtatilgandan keyin o'tib ketadi.

14. Yer bagirlagan temirtikan (*Tribulus terrestris* L) – Якорсы стелющиеся

Markaziy Osiyoda va Rossiyaning janubiy hududlarida o'sadigan bir yillik o't o'simlik.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning yer ustki qismida steroid saponinlar, alkaloidlar (gormon va boshqalar) flavonoidlar, vitamin E, bo'yoq, oshloovchi va boshqa moddalar, mevasida 5% gacha yog' bor.

Steroid saponinlar yig'indisidan diossin 2% diosgenin, gitogenin, grasillan va boshqalar sof holda ajratib olingan.

Farmakologik xossalari. Temirtikanning asosiy farmakologik ta'siri – antiaterosklerotik hisoblanadi. Uning ta'sirida laboratoriya hayvonlaridan aterosklerozning eksperimental modelida qondagi xolesterinning kamaytirishi va lisetin/xolesterin koeffitsiyentini oshishi aniqlangan. O'simlik tarkibidagi steroid saponinlar (tribusponin) laboratoriya hayvonlariga uzoq muddat yuborilganda aorta devorida lipidli infiltratsiyani oldini olgan. Bu degan so'z ateroskleroz rivojlanishiga yo'l qo'yilmagan. Bundan tashqari, preparat yurak qon tomir sistemasiga ta'sir etib, qon tomirlarni kengaytirib, gemolitik faollik ko'rsatadi.

Preparat xarakteristikasi:

Tribusponin (Tribusponium). Preparat yer bag'irlagan temirtikon o'tidan ajratib olingan steroid saponinlar yig'indisini saqlaydi.

Tribusponin polisponin singari aterosklerozning engil formalarida (kechishida) boshqa asosiy preparatlar va ko'rsatmalar bilan birga kompleks ravishda davo ko'rsatishda tavsiya etiladi.

Tabletkalar (0,1 g) shaklida chiqariladi. 1 tabletkadan kuniga 3 marta ovqatdan oldin qabul qilinadi. Kurs davosi 3 hafta. Keyin esa 4-5 kun o'tgandan so'ng davo kursi qaytariladi.

Yuqorida qayd etilgan o'simliklar va ularning fitopreparatlaridan tashqari aterosklerozni fitoterapiyasida turli shifobaxsh giyohlardan tashkil topgan fitoyig'malar ham berilishi mumkin. Ular ham aterosklerozni rivojlanishiga ta'sir etib, uni kamaytiradi va sekinlashtiradi.

Ko'pincha fitoyig'malar yog' almashinuvini yaxshilaydigan asosiy va yordamchi o'simliklardan tashkil topadi.

Asosiyarga karom, piyoz, sarimsoq piyoz, kungaboqar yog'i, makkajo'xori ustunchasi og'izchasi bilan, zubturum, qirqbo'g'in. Yordamchi o'simliklarga esa – qayin, tog' rayhoni, qulupnay, dolanoy, jumrut, maymunjon, oqqaldirmoq, yalpiz, tog' jambil, ukrop, fenxel va b. kiradi.

Aterosklerozda ishlatiladigan yig'malar tarkibiga ko'pincha gipotenziv (astragal, do'lana, arslonquyruq, aroniya, gnafalium), peshob haydovchi diuretik (qayin, brusnika, maymunjon, qulupnay,

qirqbo'g'in, toloknyanka), sedativ (valeriana, yalpiz, arslonquyruq, qulmoq) ta'sirli o'simliklar kiradi.

Misol tariqasida quyidagi yig'malarni keltirish mumkin:

1. Aroniya mevasi, do'lana mevasi - 2 qismdan, brusnika bargi, moychechak guli, makkajo'xori og'izchasi - 1 qismdan. Aralashmadan 1 osh qoshiq olib 250 ml qaynagan suvga solib, qaynab turgan suv hammomida 15 daqiqa qizitiladi. 45 daqiqa sovitilib, dokadan suziladi va ustiga 250 ml ga yetganicha qaynoq suv solinadi. 120 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan keyin ichiladi.

2. Arnika gullari - 5 g; dalachoy o'ti-20 g; bo'ymadaron o'ti - 25g. Aralashmadan 1 osh qoshiq olib 250 ml sovuq suvga solinadi va 3 soat davomida qoldiriladi. Keyin 5 daqiqa qaynatiladi va 15 daqiqa o'tgach dokadan suziladi. Bir kecha kunduz davomida xo'plab-xo'plab qabul qilinadi.

3. Brusnika barglari, qashqarbeda o'ti, bukvisa o'ti - 3 qismdan, tog' rayhon o'ti, sikoriya guli- 4 qismdan; tirnoqgul guli, seberga o'ti, marmarak barglari-2 qismdan; yalpiz barglari, zig'ir urug'i-1 qismdan. Aralashmadan 2-3 osh qoshiq olib, 0,5 l qaynab turgan suvga solib, termizda 6-8 soat qoldiriladi. Keyin dokadan o'tkaziladi. Iliq holda kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin qabul qilinadi.

Aterosklerozni gipertonniya bilan birga kechishida quyidagi yig'malar tavsiya etiladi.

1. Do'lana gullari, grechka guli, arslonquyruq'i o'ti-4 choy koshikdan; maymunjon - 6 choy choshiq, g'iafalium o'ti - 3 choy qoshiq. Maydalangan aralashmani 6 qismga bo'lib, 1/6 qismini 250 ml qaynoq suvga solinadi. 30 daqiqa o'tgach 50-65 ml dan kuniga 4 marta ovqatdan oldin ichiladi.

2. Do'lana guli, tog'jambul o'ti, bo'ymadoron o'ti, qoncho'p o'ti-1 choy qoshiqdan. Yig'mani 250 ml suvga solib, 10 daqiqa qaynatiladi. 30 daqiqa o'tgach 100-200 ml dan kuniga 2-3 marta ichiladi.

Aterosklerozda yana quyidagilar tavsiya etiladi:

1. 1 choy qoshiq qulupnay ildizini 200 ml suvda 15 daqiqa qaynatib, 1 choy qoshiq qulupnay bargi qo'shiladi. 1 soat o'tgach ovqatdan oldin iliq holda xo'plab-xo'plab kun davomida qabul etiladi.

2. Tozalangan pista moyidan 1 osh qoshiqdan kuniga 3-5 marta ovqatdan oldin ichiladi.

3. Piyoz sokini asal bilan aralashtirib (1:1) 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta 20-30 kun davomida ichiladi.

Xafaqon (gipertoniya) kasalligida ishlatiladigan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari

Xafaqon kasalligi aholi orasida ancha keng tarqalgan surunkali xastalik bo'lib, qon bosimi normadan ortiq bo'lgan kishilar orasida 70-80% ni tashkil etadi.

Xafaqon xastaligi - arterial qon tomirlarda qon bosimining ko'tarilishi bilan kechadigan kasallikdir.

Kasallikni kelib chiqishida turli tashqi va ichki faktorlar sababchi bo'ladi. Chunonchi, psixoemotsional holat, simpatik-adrenal sistema faolligini oshishi, adrenareseptorlar sezuvchanligini o'zgarishi katta rol o'ynaydi. Buyraklarda qon aylanishini buzilishi va arterial bosimni oshiradigan neyrogormon renin-angiotenzin-aldesteronlar miqdorini oshishi ham sababchilardan biridir. Bulardan tashkari, xafaqon kasalligini kelib chiqishi irsiy faktor ateroskleroza kasalligi va boshqa (ijtimoiy muxit, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, tamaki chekish, konstitutsion endokrin o'zgarishlar, yog' bosishi, gipodinamiya) omillar ham ahamiyatlidir.

Ma'lumki, tomirlarda qon bosimi ko'p tomondan yurak faoliyatiga bog'lik bo'lgani uchun uning bir qator kasalliklarida (yurak faoliyatini surunkali va o'tkir yetishmovchiligi bilan boradigan kasalliklar) qon bosimi pasayib gemodinamika o'zgarishga uchrab, organizmni qon bilan ta'minlanishi izdan chiqadi.

Demak, xafaqon kasalligini kelib chiqish murakkab bo'lgan omillar yig'indisidan iborat

Xafaqon kasalligi uzoq vaqt davom etishi bilan birga turli hayot uchun xavfli holatlarga sababchi bo'ladi. Masalan, bosh miya qon tomirlarini torayishi va qon bosimni xaddan tashqari ko'tarilib ketishi gipertonik kriz natijasida ishemik insult, postemorragik insult, bunday o'zgarishlar yurak toj tomirlarida (koronar tomirlar) ro'y bersa stenokardiya, miokard infarkti, buyrak qon tomirlarda bo'lsa buyrak faoliyatini yetishmasligi, oyoqlar qon tomirida yuz bersa ekdoartrit (qorason kasalligi) rivojlanishi mumkin.

Shu sababdan ham xafaqon kasalligi o'zining asoratlari bo'yicha og'ir kasallik bo'lib, hayot uchun ancha havfli hisoblanadi.

Xafaqon kasalligiga duchor bo'lganlarga davo ko'rsatishda uning kelib chiqish sabablariga, rivojlanishi kechishiga, simptomlariga, qon bosimning darajasiga qarab ta'sir etadigan, ta'sir etish mexanizmi har xil bo'lgan turli gipotenziv dori preparatlari ishlatiladi. Ularning soni hozirgi vaqtda 50 tadan ortadi. Ushbu dori vositalarini to'g'ri va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida, ular farmakologik ta'siri va ta'sir mexanizmi bo'yicha asosan 5 ta guruhga bo'linadi.

1. Neyrotrop gipotenziv preparatlarga markaziy va periferik nerv sistemasiga ta'sir etadigan va qon tomirlarni kengaytirib, qon bosimini pasaytiradigan preparatlar kiradi. Ularga rezepin, klofelin, metildofa, magnezii sulfat, uxlatuvchi, tinchlantiruvchi dori vositalari kiradi. Periferik (vegetativ) nerv sistemasiga ta'sir etuvchilarga ganglioblokatorlar (benzogeksioniy va b.), adreno-simpatilitiklar (fentolamin, ergotimin, oktadin va b.) kiradi.

2. Miotrop gipotenziv preparatlarga papaverin, no-shpa, dibazol va b. kiradi.

3. Diuretiklarga asosan tiozidlar (gipotiazid) kiradi.

4. Angiotenzinning faollashtiradigan ferment ingibitorlari va angotenzin reseptor blokatorlari (kaptonril, enalopril, lozartan va b.) kiradi.

5. Kalsiy antagonistlari (nifedipin, veripamil va b).

Shular bilan bir qatorda bir nechta dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari ham qo'llanadi.

Bemorlarni farmakoterapiyasida qabul qilingan va tan olingan prinsip, bu bemorga kompleks ravishda davo ko'rsatishdir. Bu degan so'z davo ko'rsatishda bir preparat bilan cheklanib qolmasdan ta'sir etish mexanizmi turlicha bo'lgan dori vositalaridan foydalanish zarur demakdir. Bu kompleks davo qatorida dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlarni ham o'rni bor. Bular asosan gipertoniya kasallikni 1 va 2 bosqichida samaralidir. Ular boshqa gipotenziv dori preparatlari bilan kompleks ravishda ishlatilsa yoki davo ko'rsatish davom ettirilsa, gipotenziv effekti oshadi.

15. Ilon rauvolfiya (*Rauwolfia serpentina* Benth) – Раувольфия змеиная

Rauvolfiya o'simlik tarkibidagi asosiy alkalonlari rezepin va aymalindir (o'simlik to'g'risidagi ma'lumot aritmiyada ishlatiladigan dorivorlarda keltirilgan).

Rezerpin (*Reserpinum*) farmakologik ta'sir spektori ancha keng bo'lib, neyroleptiklar guruhiga kiradi. U antipsixatik, simpatolitik, xolinolitik, mahalliy qitqlovchi va boshqa ta'sirlarga ega. Tibbiyot amaliyotida rezerpin simpatolitik va tinchlantiruvchi alkaloid sifatida gipertoniya kasalligida ishlatiladigan gipotenziv dori preparati hisoblanadi. Uning simpatolitik ta'siri quyidagicha ta'riflanadi. Rezerpinning ta'siri natijasida simpatik nervning postganglionlar tolasining oxiridagi mediatorlar deposida mediator norodrenalinning chiqishi ortadi va u MAO fermenti ta'sirida parchalanib, mediatorni depodan chiqishi kamayadi. Adrenoreseptorlarga bo'lgan ta'siri esa yuzara chiqmaydi. Boshqacha aytganda rezerpin ta'sirida arterial qontomir devoridagi silliq mushaklarning simpatik nerv orqali boshqarishi kamayadi. Natijada ular bo'shshadi. Tonusi yo'qoladi qon tomirlar kengayadi. Rezerpinning ta'siri M.N.Sga ham qaratilgan. Uning ta'sirida miya to'qimasida neyromediatorlar noradrenalin, dofamin, seratonining mikdori kamayadi. Bu degan so'z rezerpinning gipotenziv ta'sirida faqat uning simpatolitik ta'siri emas balki markaziy nerv sistemasining neyro-kimyoviy jarayonlariga neyroleptik ta'siri ham rol o'ynaydi.

Rezerpin ta'sirida gipertoniya kasalligida uning hamma turlarining kechishi va bosqichlarida qon bosimi sekin asta pasayadi. Bunday effekt gipertoniyaning boshlang'ich (I-II) bosqichida ko'proq namoyon bo'ladi. Bunday gipotenziv effekt preparatni berish to'xtatilishidan keyin ham uzoq davom etadi. Shu bilan birga, buyrakda qon aylanishi yaxshilanadi va peshob ajrashi oshadi.

Rezerpin gipertoniyaning boshlang'ich davrida 0,05-0,1 mg dan kuniga 2-3 marta ovqatdan keyin qabul qilinadi. Rezerpin tabletkalarini naxorga och qoringa qabul qilish mumkin emas. Chunki u oshqozon shilliq pardasiga qitqlovchi ta'sir etib, kislotalikni oshirib, yara keltirib chiqarishi mumkin. Preparatning

bu dozada (0,05-0,1 mg) effekti yaxshi bilinmasa doza 1 mg gacha ko'tariladi.

Preparatning gipotenziv effekti yuzaga chiqqandan so'ng uning dozasi kamaytiriladi.

Rezerpin tabletkada shaklida 0,05-0.1-0,5-1 mg da chiqariladi.

Rezerpinning bir qator kompleks preparatlari bor. Raunatin-tabletkalari tarkibida rauvalbfiya ildizidan olingan alkaloidlar yig'indisini saqlaydi. Preparatning asosiy ta'siri gipotenziv ta'sir bo'lib, unda aritmiyaga qarshi (aymalgin hisobiga) M.N.S tinchlantiruvchi ta'sir etadi. Lekin ta'siri sekin astalik bilan boshlanadi. Preparat gipertaniyani I va II bosqichida beriladi. Raunatin tabletkalar shaklida 0,002g (2 mg) dan chiqariladi. 1 tabletkadan kuniga 2 marta, keyin esa 3-4 marta berilishi mumkin (ovqatdan keyin qabul qilinadi).

Rezerpinning bir nechta kompleks preparatlari spazmatiklar bilan birga chiqariladi. Bular qatoriga quyidagi tibbiyot amaliyotida keng ishlatiladigan dori preparatlarini keltirish mumkin.

Adelfan (Adelfan) tabletkada shaklida chiqarilib, tarkibida rezerpin (0,1 mg) va tuzilishi buyicha apressinga yaqin periferik vazodilyatator digidralazin (10mg) hisoblanadi. Adelfan gipertoniyaning 1-2 bosqichida 1-2 tabletkadan, kuniga ovqatdan keyin 3 marta ichiladi.

Adelfan – ezidreksk (Adelfan-Esidreks) drojedagi rezerpin (0,1mg) digidralazin (10 mg) va dixlotiazid (10mg) va kaliy xlorid (0,6mg). Kaliy xloridni bo'lishidan maqsad droje tarkibidagi gidroxloritiazid ta'sirida bo'ladigan gipokaliemiyaning oldini olish, 1/2 va 1 tabletkadan 1-2-3 marta ovqatdan keyin qabul qilinadi.

Brinerdin (Vrinerdin). Draje tarkibida rezerpin (0,1 mg) digidroergokristin (0,5 mg), klopamid (5mg). Droje tarkibidagi digidroergokristin periferik va markaziy adrenoblokator hisoblanadi. Bulardan tashqari kristepin neokristepin, trirezid, triniton, trirozid va boshqalar bor.

16. Kichik bo'rigul (Vinca minor L) – Барвинок малый

MDH mamlakatlarining sharqiy va janubiy o'lkalarida o'sadigan doim yashil, ko'p yillik o'simlik.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning hamma qismida indol guruhiga kiruvchi rauvolfiya alkaloidlariga yaqin bo'lgan 20 dan ortiq alkaloidlar bor. O'simlik bargidan vinkamin (devinkan) rezerpin, vinkaminorin, izovinkamin, minorin alkaloidlari ajratib olingan. Ushbu alkaloidlar rezepinga o'xshash ta'sir ko'rsatadi. Kichik bo'rigulning asosiy alkaloidi vinkamin (devinkan) hisoblanadi.

Farmakologik xossalari. O'simlikning galen preparatlari va ayrim alkaloidlari qon bosimini pasaytiradi. Koronar qon tomirlarini va bosh miya tomirlarini kengaytiradi. Asosiy alkaloidi bo'lgan vinkamin ta'sirida bosh miyada qon aylanishi oshadi. Miya to'qimasida kislorod ta'minoti va uni sarflanishi yaxshilanadi. O'simlik fitopreparatlari yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. Kapillyarlarni barqaror etadi, peshob ajrashini oshiradi. Qisman sedativ ta'sir ko'rsatadi. O'simlik deyarlik zaharsiz.

Qo'llanishi. Kichik bo'rigul fitopreparatlari gipertoniya kasalligida, bosh miya qon tomirlarining spazmida, nevrogen taxikardiyada va boshqa vegetativ nevrozlarda qo'llanadi. Ularning gipotenziv ta'siri ko'proq gipertoniya kasalligini 1 va 2 bosqichida yaxshi namoyon bo'ladi. 3-bosqichda esa gipotenziv ta'siri kamroq yuzaga chiqadi.

O'simlik preparatlari farmakologik ta'siri bo'yicha rezepinga yaqin. Ularning ta'siri ham uzoq davom etadi.

Fitopreparatlari. Kichik bo'rigul o'tidan tayyorlangan damlama (Jnf herba Vincæ minor). Damlama 1:30 miqdorda tayyorlanadi. Kun davomida 1/3 stakandan 3 marta gipertoniya kasalligida ichiladi.

Vinkapan (Vincapanum) – preparat tarkibida o'simlik alkaloidlar yigindisini saqlaydi.

Tabletkada 0,01 g chiqariladi. (Bolgariya) kuniga 2-3 marta qabul qilinadi.

Devinkan (Devincan). Qon tomirlarni kengaytiruvchi gipotenziv va qisman sedativ ta'sirga ega preparat. Gipertoniya kasalligini serebral formasida, gipertoniya krizida ishlatiladi. Gipertoniya kasalligining 1 va 2 bosqichida ham beriladi. Tabletk (0,005-0,01) shaklida chiqariladi. Kuniga 2-3 marta qabul qilinadi. Preparatning 0,5% eritmasi 1 ml dan ampulada chiqariladi.

Kavinton (Cavinton). Devinkan alkaloidining yarim sintetik preparati (vinkosetin). Bu preparat miya qon tomirlarini kengaytiradi. Miyani qon bilan ta'minlanishini oshiradi. Miya to'qimalarida glyukozani sarflanishi va o'zlashtirilishi yaxshilanadi. Fosfodiesteraza ferment faolligini pasaytiradi. To'qimalarda SAMFni egilishiga olib keladi.

Trombositlar agregatsiyasini kamaytiradi. Qon bosimini qisman pasaytiradi.

Qo'llanishi. Miya qon tomirlarini torayishi bilan bog'liq holatlarda (ishemik insult, serebral vazodistoniya va b), gipertonik ensefalopatiya vazovegativ simptomlarda preparat tavsiya etiladi.

Tabletka shaklida 0,005 g (5 mg) dan, 0,5% eritma ampulada 2 ml dan chiqariladi.

Vinkanor (Vincanorum). Kichik bo'rigulning tozalangan alkaloidlari yig'indisini saqlaydi.

Preparat spazmolitik, qon tomirlarni kengaytiruvchi, gipotenziv va qisman sedativ ta'sir ko'rsatadi.

Gipertoniya kasalligini boshlang'ich davrida (1-2) miya qon tomirlarini ateroskleroz tufayli va boshqa sababli spazm bo'lishda, ishemik insultdan keyingi davrda va nevrogen sinus taxikardiyasida tavsiya etiladi. Tabletkada 0,02 g (20 mg) dan chiqariladi. 1-2 tabletka kuniga 3 marta, ayrim hollarda 4 marta qabul qilinadi. Vinkanarning analogi vinkopan Vengriyada chiqadi.

17. Tik o'suvchi bo'rigul (Vinca erecta Rglet schmal) –

Барвинок прямой

Markaziy Osiyo va boshqa yerlarda o'sadigan ko'p yillik o'simlik.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning ildizi tarkibida 3% gacha, er ustki qismida 2% gacha alkaloidlar bor. Ulardan 10dan ortig'i ajratib olingan va ko'pchiligi yaxshi o'rganilgan. Bu o'rganilgan alkaloidlardan axamiyatlisi vinkamin va vinkanindir. Mahsulot alkaloidlarining yig'indisi (asosan vinkamin alkaloidi), devinkan (yuqorida keltirilgan) dori preparati tarkibiga kiradi.

Bo'rigulning boshqa turlari: katta bo'rigul (Vinca major L) va o'tsimon bo'rigul (Vinca herbacea- Waldsi et Kit). O'simliklari ham o'rganilgan. Bulardan qon bosimni tushiradigan alkaloidlar ajratib

olingan. Katta va o'tsimon bo'rigul o'simliklarining er ustki qismida indol alkaloidlaridan aukammin, rezeprin, ervin, vinkamayin, mayorodin, maydin, vinkamonir va b). tashqari yana monoterpoid guruhiga taalluqli venoterpin alkaloidi ajratib olingan.

Bo'rigulning turi bo'lgan pushti bo'rigulning (*Vinca rosea*) o'ti tarkibida 40 yaqin alkaloidlar borligi aniqlangan. O'simlikning galen preparatlarining antibakterial, uzoq muddatli gipotenziv, gipoglikemik ta'sirlari o'rganilgan. Lekin o'simlik tarkibidagi vinolastin va vinkristin alkaloidlarini saqlagan preparatlar onkologik kasallarni davolashda keng ishlatiladi.

18. Gulbandli kiyiko't (*Ziziphora pedicilata* Pazijet Ues1) –

Зизифора цветоножечная

Ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, Toshkent viloyatida, Issiq ko'l, Olatog' hududlarida tarqalgan.

Kimyoviy tarkibida 1-3% gacha efir moyi, organik kislotalar, antasionlar, S, E vitaminlari, provitamins A, flavonoidlar, mineral tuzlar va mikroelementlar bor.

Toshkent farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedrasida prof. T.Po'latova tomonidan kiyiko'tining ushbu turi har tomonlama to'liq tekshirilgan. O'simlikning farmakologik ta'siri prof. X.U.Aliyev shogirdlari bilan aniqlagan. Chunonchi, kiyiko'tidan tayyorlangan fitopreparatlar (damlama va qaynatma) tarkibidagi biologik faol moddalar hisobiga gipotenziv, kardiotonik va yallig'lanishga qarshi ta'sirga egaligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ular peshob ajralishini oshiradi va spazmatik ta'sirga ega. Shuning bilan birga, ushbu fitopreparatlarni zaharsizligi aniqlangan.

Kiyiko'tdan tayyorlangan damlama O'zbekiston Respublikasi dori vositalari va tibbiyot texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi tomonidan tibbiyot amaliyotida antigipertenziv, kardiotonik va diuretik dori sifatida ishlatishga tavsiya etilgan.

Yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklar va ulardan ajratib olingan va tayyorlangan fitopreparatlardan tashqari gipertoniya kasalligida ishlatiladigan bir qator shifobaxsh gilyohlar bor. Bular qatoriga kitobni oldingi qismida qayd etilgan ko'knori (*Papaver somniferum* L – Мак снотворный) tarkibida benzilizoxinol unumi bo'lgan papaverin alkaloidi bor. Bu alkaloid qon tomirlar devoridagi

silliq mushaklarga bevosita ta'sir etib ularni bo'shashtirishi natijasida qon tomirlar kengayadi. Ularni qon harakatiga qarshiligi kamayadi. Natijada qon bosimi esa pasayadi. Boshqacha aytilganda, papaverin alkaloidi miotrop gipotenziv preparatlar guruhiga taaluqlidir. Bu guruhga no-shpa, kellin va b. ham kiradi. Papaverin hozirgi vaqtda sintez yo'li bilan olinadi va tibbiyot amaliyotida gipertoniya kasalligini hamma shaklida yakka o'zi yoki boshqa gipotenziv ta'sirli dori vositalari (dibazol va b.) bilan birga tabletka hamda yoki in'eksiya uchun chiqariladi.

Papaverin gidroxlorid (Papaverin hydrochlorid) tabletka (0,04 g), 2% eritma 2 ml dan ampulada va shamcha (0,02g) shaklida chiqariladi.

Bundan tashqari oldingi bo'limda qayd etilgan tinchlantiruvchi (sedativ) ta'sirli dorivor o'simliklar (valeriana, arslonquiruq, yalpiz va b.) gipertoniya xastaligida yakka holda yoki kompleks shaklida keng ishlatiladi. Chunki bu o'simliklar fitopreparatlari ta'sirida gipertoniya kasalligining kelib chiqishida rol o'ynaydigan psixo-emotsional (zo'riqish, asabni buzilishi, xavotirlik va b.) holatlarni yuqotadi, organizmni tinchlantiradi. Ularni boshqa asosiy gipotenziv dori vositalari bilan birga berilganda samarasi ancha yaxshi yuzaga chiqadi. Shular bilan birga shunday dorivor o'simliklar borki, ularga xos bo'lgan turlicha asosiy farmakologik ta'siridan tashqari, qon tomirlarni kengaytirib qon bosimini tushirishi mumkin. Ularning bunday ta'siri asosiy bo'lmasa ham amaliy tomondan ahamiyatlidir. Bular qatoriga quyidagi dorivor o'simliklarni qo'yish mumkin. Astragal, aroniya (qora mevasi), viskum (oq viskum), do'lana, kella, magnoliya, rixter sho'ragi, baykal ko'kmarani va boshqalar.

Bulardan tashqari arterial gipertoniya kasalligida turli ta'sirli dorivor o'simliklarning yig'malari fitoyig'ilmali hamma bosqichda tavsiya etilishi mumkin. Yig'malarning tarkibiga asosan inotenziv ta'sirli, tinchlantiruvchi va peshob haydovchi ta'siriga ega bo'lgan giyohlar kiritiladi.

Misol tariqasida quyidagi fitoyig'malarni keltiramiz:

1. Do'lana gullari, arslonquyruq o'ti, gnafalium o'ti, na'matak mevasi-10 grammdan. 10 gramm yig'mani 500 ml suvga solib suv

hammomida ushlanadi (15 daqiqa). Sovitiladi, dokadan suziladi. 100 ml (yarim stakan)dan kuniga 3-4 marta ichiladi.

2. Oq viskum yosh novdalari, do'lana guli-30 grammdan; valeriana ildizi, limon o't barglari-15 grammdan; bo'rigul barglari, qorazira mevasi-10 grammdan. Tayyorlanishi va ishlatilishi 1-yig'maga o'xshash.

3. Qorazira mevasi, bo'rigul barglari-10 grammdan, valeriananing ildizpoyasi va ildizi, limono't-15 grammdan; do'lana guli-20 gramm, oq viskum o'ti-30 gramm. Yig'madan 1 osh qoshiq olib 250 qaynoq suvga solinadi. 2 soat termosda saqlanadi, dokadan o'tkaziladi. 200 ml dan kuniga 2 marta ichiladi.

4. Kechqurun 5 ta yong'okni chaqib, don bo'laklarni ajratib turgan pardalarni sovuq suvga solib qo'yiladi. Ertasiga ertalab 2-3 daqiqa kaynatiladi. 10 daqiqa o'tgach naxorga ichiladi.

Gipotoniya da ishlatiladigan fitopreparatlar

Ma'lumki, qon bosimi bir me'yorda bo'lishi, asosan, yurakning faoliyatiga va periferik qon tomirlarining holatiga (tonusiga) bog'liq. Qon bosimini pasayishi turli fiziologik va patologik vaziyatlarda yuz berishi mumkin. Bunda organizmni qon bilan ta'minlanishi yomonlashib, turli ko'ngilsiz oo'ibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bunday holat qon bosimini xaddan tashqari tushib ketishida (shok-karaxtlik) kuzatiladi va hayot uchun xavflidir. Qon bosimining pasayish sabablari har xil bo'lgani uchun dori vositalari bilan uni ko'tarishda formakologik ta'sir etish yo'nalishi va mexanizmi turlicha bo'lgan preparatlar qo'llanadi. Bular qatoriga yurak faoliyatini oshiradigan kardiotonik ta'sirli (yurak glikozidlaridan strafantin K) adrenomimetiklar (asosan alfa adrenomimetiklar-noradrenalin, mezaton), simpotomimetiklar (efedrin), dofaminergik preparatlar hamda analgetiklar va boshqalar kiradi. Qon bosimini keskin tushib ketishida qonning xajmini ko'paitiradigan (shokka qarshi suyuqliklar va b.) suyuqliklar ham ishlatiladi.

Periferik qon tomirlarni toraytirish yo'li bilan qon bosimini ko'taradigan dori vositalari orasida angiotenzinamid preparati aloxida o'rin egallaydi. Chunki u organizmda mavjud bo'lgan gipertoniya kasalligini keliib chiqishida ma'lum darajada rol o'ynaydigan angiotenzin 2 ga kimyoviy tuzilishi yaqin bo'lgani

uchun qon tomirlarni (asosan ichki a'zolar buyrak va teri qon-tomirlari) toraytiradi, qon bosimni ko'taradi. Yurakga va koronar qon-tomirlarga ta'sir etmaydi. Lekin angiotenzinamidni bunday ta'siri qisqa muddatli (2-3 daqiqa), chunki u fermentlar ta'sirida parchalanadi. Shu sababdan uning effektini uzaytirish uchun u venaga tomchilab yuborib turish zarur. Preparat asosan qon bosimining juda pasayib ketishida (shokning har xil turlarida) ishlatiladi. Shunday holatlar (fiziologik va patologik) borki, bunda qon bosimi o'rtacha darajada pasaygan bo'ladi. Bunday holatlar qon bosimni sekin-asta va mu'tadil bir me'yorda ko'taradigan preparatlarga umumiy tonusni oshiruvchi fitopreparatlar kiradi. Ularga kitobning oldingi bo'limida keltirilgan jenshen, eleuterokokk, mantchjuriya araliyasi, rodiola, levziya, xitoy sxivandrasi kiradi (ular to'g'risidagi batafsil to'liq ma'lumot «M.N.S qo'zg'atuvchi dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari» bo'limida izohlangan).

Nazorat savollari

1. Yurak faoliyatining etishmovchiligida qanday dorivor o'simliklar tavsiya etiladi?
2. Angishvonagul fitopreparatlarini ko'rsating.
3. Digitalis preparatlarining kardiotonik ta'siri nimadan iborat?
4. Marvaridgul va andis fitopreparatlarining digitalis preparatlaridan farqi nimada?
5. Strofant o'simligidan tayyorlangan qanday fitopreparat bor?
6. Korglikon qanday o'simlik preparati?
7. Yurak faoliyatining o'tkir yetishmovchiligida qanday fitopreparatlar qo'llanadi?
8. Angishvonagul o'simligi nima uchun fitoyig'malar tarkibiga kiritilmaydi?
9. Ateroskleroz kasalligida qo'llanadigan dorivor o'simliklar preparatlarini ko'rsating.
10. Ateroskleroz fitoterapiyasida qo'shimcha tadbirlar nimadan iborat?

11. Xafaqon kasalligining smptomlari va asoratlari.
12. Gipertoniya kasalligida qo'llanadigan dorivor o'simliklar fitopreparatlari.
13. Rauvolfiya o'simlik preparatlari va ularning ishlatilishi.
14. Raunatin preparati tarkibida qanday alkaloidlar bor?
15. Papaverin alkaloidi qanday o'simlik tarkibida mavjud?
16. Aritmiya kasalligida ishlatiladigan dorivor o'simliklarni ko'rsating.
17. Allapinin preparati qanday o'simlikdan tayyorlangan?
18. Gulbandli kiyiko'tning fitopreparatlari va fitoterapevtik xossalari.

VI BOB. NAFAS A'ZOLARI KASALLIKLARIDA ISHLATILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

Ko'pincha shamollash natijasida kelib chiqadigan xastaliklarga yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi (bronxitlar) va viruslar sababchi bo'lgan gripp kasalligi (ORK) kiradi. Ushbu kasalliklar ayniqsa, havoni sovushi va sovuq tushishida rivoj olgani sababli ularni fasl kasalligi yoki fasl shamollashi deb yuritiladi.

Ular nafas a'zolari kasalliklari orasida eng ko'p uchraydigan xastaliklar hisoblanadi.

Bronxitlar patogenizmi bo'yicha birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Birlamchi bronxit mustaqil holda bronxlarning yallig'lanishi, ikkilamchi bronxit esa turli kasalliklarda (qizamiq, zotiljam, sil kasalligi va b) kelib chiqadi. Kelib chiqish sababi bo'yicha virusli, bakteriali hamda fizikaviy, kimyoviy, changli bo'lishi mumkin. Bronxitlar rivojlanish va kechishi bo'yicha o'tkir va surunkali, yallig'lanishi, katta kichikligiga qarab diffuzli va cheklangan guruhlarga bo'linadi. Bundan tashqari bronxitlar funksional holati bo'yicha noobstruktiv (oddiy) va obstruktiv bo'ladi. Ajralib chiqayotgan balg'amning xarakteri bo'yicha shilimshiqli (katarral), yiringli, gemorragik bo'lishi mumkin.

O'tkir bronxit. Bronxlar shilliq pardasining diffuz yallig'lanishi ko'pincha viruslar, bakterial yoki kimyoviy moddalar (azot oksidi, xlor, ammiak va b) sababchi bo'ladilar. O'tkir bronxitning yengil kechishida bemor o'zini yomon xis qiladi. U subfebril harorat (37.2-37.6), qattiq yo'tal, to'sh suyagini atrofida og'riq, balg'am ko'chishi va b. bilan davom etadi. Og'ir kechishida tana harorati baland (38⁰ dan yuqori) yo'tal kuchayadi. Terlash, bo'shshish, quvatsizlik va boshqalar kuzatiladi.

Davolashda turli tadbirlardan (chekishni to'xtatish, ko'rpa yostiqa yotish, toza va namroq havoda bo'lish) tashqari bir qator dori preparatlari og'riq qoldiruvchi, antibiotik, yo'talga qarshi, balg'am ko'chiruvchi, isitma tushiruvchi va boshqa dori vositalari

beriladi. Bulardan tashqari keng miqyosda dorivor o'simliklardan va ulardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlardan foydalaniladi.

Bemorlarga davo ko'rsatishda quyidagi turli ta'sirli dorivor o'simliklar va ularning yig'malari tavsiya etiladi. Ushbu o'simliklarning ta'siri quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi va talab qilinadi:

- yallig'lanishga qarshi ta'sirli (arpabadiyon, bexi, erika, uzum, andiz, tog'rayxon, dolachoy, tirnoqgul, moychechak, qarag'ay, uchrangli binafsha, tog'jambil, qoraqiz, marmarak, oq lamium, arpa va b);

- antiseptik ta'sirli (qayin, moychechak, evkolipt, tirnoqgul, qarag'ay, marmarak, terak);

- burishtiruvchi ta'sirli (eman, g'ozpanja, olxa, shumrut, chernika, choy);

- balg'am ko'chiruvchi ta'sirli (gulxayri, arpabodiyon, tog'rayhon, anjir, bodrezak, jo'ka, oqqaldirmoq, zubturim, qarag'ay, qoraqiz, terak, fenxel, tog'jambul, olma mevasi);

- bronx sekretsiyasini kamaytiruvchi ta'sirli (andiz);

- spazmolitik ta'sirli (ledum, yalpiz);

- allergiyaga qarshi ta'sirli (moychechak, qizilmiya, bo'ymadoron, uchgullik binafsha, qoraqiz);

- vitaminlar saqlovchilar (qulupnay, gazanda, maymunjon, chetan, qoraqot, na'matak, sabzi, limon va b).

Bronxidlarda (o'tkir respirator kasalliklarda – O'RK, o'tkir va surunkali bronxidlarda) yuqorida keltirilgan o'simliklar turli dori shaklida (damlama, qaynatma, quruq va suyuq ekstrakt va b) ishlatiladi.

Gripp kasalligida bo'ladigan o'tkir bronxit organizmning kasallikka bo'lgan qarshiligini oshiradigan immunostimulyatorli fitopreparatlar o'simlik biostimulyatori beriladi. Kasallikni boshlanishida tarkibida vitaminlar saqlagan va fitonsid xossalik o'simliklar hamda isitma tushiruvchi va terlatuvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sir etadigan dorivor giyohlar va ularni saqlagan fitoyig'malar tavsiya etiladi. Masalan:

Jo'ka mevasi, maymunjon bargi, qalampir yalpiz o'ti, marmarak-30 grammdan. 20 g maydalangan yig'madan olib, 1 l qaynoq suvga solinadi. Termosda 1 soat davomida saqlanadi.

Dokadan o'tkaziladi. Qabul qilinishi: 400-600 ml issiq damlamani 1 soatda, keyin 200 ml dan har 2 soatda ichiladi.

O'tkir bronxitga duchor bo'lganlarni yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklar bilan davolashda bemorga gorchichniklar, bankalar qo'yish, ko'krak qafasini dumba yog'i yoki g'oz yog'i bilan ishqalash, issiq sut bilan asal, isitilgan ishqoriy mineral suvlar, sariq yog' hamda xo'l mevalar, ko'katlar, sitrus mevalar (limon, apelsin, mandarin)ni iste'mol qilish yaxshi natijalar beradi va tavsiya etiladi.

Surunkali bronxit. Uzoq davom etadigan bronxlar shilliq pardasini diffuz yallig'lanish kasalligidir. Bu xastalik nafas a'zolari kasalligini orasida ko'p uchraydigan va bu borada birinchi o'rinda turadi.

Kasallikni kelib chiqishida ekzogen sabablar (tomaki tutuni, chang tutuni, uglerod oksidi, azot oksidi, infeksiya, allergiya, fizikaviy-kimyoviy faktorlar) va endogen (o'tkir respirator kasalliklarining (gripp) qaytarilishi, o'tkir bronxit modda almashinuvini buzilishi va b.) faktorlar rol o'ynaydi.

Kasallikning asosiy belgisi – yo'tal, balg'am ko'chishi, xansirash hisoblanadi. Bemorlar darmon qurishi, tez charchab qolishdan, tana haroratini qisman ko'tarilishidan, ko'p terlashdan, ish faoliyati pasayishidan noliydilar.

Kataral obstruktiv bo'lmagan surunkali bronxitda ko'pincha ertalab (ayniqsa, jismoniy harakatdan so'ng) yo'tal paydo bo'lib, balg'am ajraladi. Balg'am yiringli bo'lishi mumkin. Obstruktiv bronxitda bo'ladigan yo'talda balg'am (hatto yiringli) juda kam miqdorda ajraladi. Distal bronxitda yo'tal bo'lmasligi ham mumkin. Bunda kasalning xansirashi birdan bir belgi sanaladi. Surunkali bronxit ko'pincha asta-sekin zo'rayib boradi. Biroq tez-tez ko'chib turganda bronxit kuchayib bronxlarni tobora ko'proq qismiga yoyiladi. Bronxlarning havo o'tqazuvchanligini buzilishi emfizema paydo bo'lishiga zamin tug'diradi. Keskin destruktiv o'zgarishlar esa bronxoektazlarga olib keladi. Bular nafas yetishmasligini avj olishiga va o'pka tufayli yurak kasalliklariga sabab bo'ladi. Allergik komponent qo'shiladigan bo'lsa bronxial astma kasalligiga olib kelishi mumkin.

Kasallikka duchor bo'lgan bemorlarga da'vo ko'rsatishda kasallik sabablarini va turtki bo'ladigan omillarni bartaraf etishga qaratiladi. (kimyoterapivtik antibakterial preparatlar, tomaki chekishi to'xtatish, toza havo va b). Bundan tashqari turli muolajalar (bonka qo'yish, massaj va b) fizioterapevtik (diatermiya, kvars) shifobaxsh badantarbiya, organizmni chiniqtirish va b) tavsiya etiladi. Shuning bilan birga, kasallik belgilariga qarshi bo'lgan dori preparatlari beriladi. Bularning orasida yo'talga qarshi balg'am ko'chiradigan balg'amni suyultiradigan (mukolitik) antiseptik ta'sirli dorivor o'simliklar alohida o'rin tutadi (bular to'g'risida ma'lumot keyingi betlarda berilgan).

Zotiljam (pnevmoniya) – asosan o'pka to'qimalari (alveola, oraliq, to'qima, mayda qon tomirlarni)ning o'tkir yallig'lanishi bilan kechadigan infeksiyon kasalligidir.

Kasallikni keltirib chiqaradigan sabablaridan asosiysi pnevmokokklar (54-74%) hisoblanadi. Bundan tashqari stafilikokklar, streptokokklar, viruslar (gripp viruslari) va boshqalar ham sababchi bo'lishi mumkin.

Kasallik to'satdan boshlanib bemornig tana xarorati 39-40%ga ko'tariladi. Eti qattiq junjikib qaltiraydi. Darmoni qurib boshi og'riydi, terlaydi. Avval, quruq so'ngra qizg'ish rangli balg'am, yo'tal, ko'krak qafasida og'riq, havo yetishmasligi paydo bo'ladi. Og'riq yo'talganda kuchayadi nafas olish tezlashadi va yuzaki bo'ladi, labi, burun, qulog'i bir oz ko'karadi, labi og'iz-burin atrofiga uchuqlar toshadi.

Zotiljam kasalligida quyidagi sindromlar qayd etiladi:

1. Intoksikatsiya sindromi (umumiy bo'shshish, loxaslik, bosh og'rig'i, ishtaxani yomonlashishi, taxikardiya);

2. Umumiy yallig'lanish sindromi (haroratni ko'tarilishi, qondagi o'zgarishlar leykositoz va b);

3. O'pka to'qimasini yallig'lanishi sindromi (yo'tal, balg'am ajralishi nafasni tezlashishi va b);

4. Nafas olish sistemasidan boshqa ichki a'zo va sistemadagi o'zgarishlar (yurak qon-tomir sistemasi, hazm sistemasi, buyrak-peshob ajratish sistemaasi, nerv sistemasi);

Asoratlari: infeksiyon toksik shok, yurak qon-tomirning o'tkir yetishmasligi, endokardit, nefrit, gepatit, me'da-ichak yarasi va b.,

o'pkada bo'ladigan asoratlari: abscess, plevrit, surunkali formaga o'tishi.

Davolashda kasallikni kelib chiqish sabablari, uning kechishi, og'ir engilligi, asoratlari, bemorni yoshi va tashqi sharoitlar hisobga olinadi. Asosan bemor kasalxonada davolanadi.

Dori preparatlari bilan davo ko'rsatish etiologik patogenetik va simpamatik bo'ladi. Bu borada kimyo terapevtik antibakterial preparatlar, yo'talga qarshi, balg'am ko'chiruvchi, balg'amni suyultiruvchi va boshqa preparatlar hamda fizioterapevtik muolajalar qo'llanadi. Bulardan tashqari, turli ta'sirli dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar ham beriladi.

Nafas a'zolarining yallig'lanishida (bronxitlr, pnevmoniya) ishlatiladigan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari

1. Evkalipt (*Eucalyptus viminalis* Zabelle) – Эвкалипт

Evkalipt doim yashil daraxt. Kavkazda, Azarbayjonda va boshqa joylarda o'sadi va o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Evkalipt bargi tarkibida 1.5-3% gacha efir moyi, 10% oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyida turli termen birikmalar (sineol va pinena) bor. Bundan tashqari organik kislotalar va boshqa moddalar bo'ladi.

Farmakologik xossalari. Evkalipt bargidan tayyorlangan galen preparatlari (damlama, qaynatma va nastoykasi) yaxshigina antiseptik va yallig'lanishlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Ular grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga bakteristatik, zamburug'larga va oddiy tuzilishdagilarga bakteriotsid ta'sir etadi. Bundan tashqari, eksperiment sharoitda evkalipt galen preparatlarini zaharsizligi, yurakga kuchsiz kardiotonik va M.N.Sga sedaktiv ta'siri aniqlangan.

Qo'llanishi. Evkalipt bargidan tayyorlangan fitopreparatlar (damlama, qaynatma va moyi) antiseptik dori moddalri sifatida yuqori nafas yo'llarining kasalliklarida (rinit, larigit, bronxit) ingalyatsiya va chayish uchun ishlatiladi. Buning uchun 10g bargni 1 stakan sovuq suvga solib, 15 daqiqa qaynatiladi, sovutiladi, dokadan o'tkaziladi va 1 osh qoshiq olib, 1 stakan suvga solinadi va chayiladi.

Evkalipt barglari 100g dan qog'oz xaltachalarda chiqariladi.

Evkalipt nastoykasi (Tinstura Eucalypti)

Yallig'lanishga qarshi va antiseptik vosita sifatida yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishida 15-30 tomchidan ichiladi. Ayrim hollarda tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llanadi.

25 ml dan flakonda chiqariladi.

Evkalipt moyi (Oleum Eucalypti). Antiseptik va yallig'lanishga qarshi dori vositasi sifatida yuqori nafas yo'llarini yallig'lanishida 15-20 tomchini 1 stakan suvga solib ichiladi.

25 ml dan flakonda chiqariladi.

«Ingalipt» ingalyatsiya uchun preparat tarkibiga kiradi.

2. Gulxayri ildizi (Radicis Althaeae) – Корни алтея

Gulxayri ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlarida va boshqa Yevropa mamlakatlarida uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. Ildizi tarkibida 11% gacha shilimshiq moddalar, 37% kraxmal, 2% gacha asparagin, 4% betiin, 10.2% saxaroza va 1.7% gacha moy, pektin va boshqa moddalar bor. O'simlikning shilimshiq moddalari pentozanlar, geksozamlardan va uron kislotalar aralashmasidan tashkil topgan.

Farmakologik xossasi. O'simlik ildizi tarkibidagi shilliq (shilimshiq) suvda shishib o'ziga xos bo'lgan kolloid sistemalarni hosil qiladi. Bularni davo ko'rsatishi fizik-kimyoviy xossalardan kelib chiqadi va ularni farmakologik ta'sirini ta'minlaydi. O'simlik shilimshig'i (sliz) shilliq pardalarda yupqa qavat hosil qilib, ularni turli ta'sirlardan himoya qiladi. Natijada masalan, yarani bitishi tezlashadi, shilliq pardani yallig'lanishi sekin-asta bartaraf bo'ladi. Bundan tashqari shilimshiq kolloid xossalari xisobiga balg'am ko'chishini oshiradi. Gulxayri ildizidan olingan suvli ajratma o'rab oluvchi, himoya qiluvchi, yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi, yalig'lanishga qarshi xossalarga ega bo'lgani uchun turli kasalliklarda ishlatiladi.

Qo'llanishi. Nafas a'zolari kasalliklarida (traxeit, laringit, surunkali bronxit, bronxopnevmoniya, bronxial astma) balg'am ajrashini yengillashtiradi. Yo'talni kamaytiradi. O'simlik shilimshig'i kraxmal polisaxaridlar va boshqa birikmalar hisobiga og'iz tomoq shilliq pardasini qoplab olib, turli mexanik fizikaviy,

kimyoviy ta'sirlardan saqlaydi. Yallig'lanishni qaytaradi. Mahalliy tarzda ishlatiladigan dorilar ta'sirini uzaytiradi.

Bundan tashqari, oshqozon va ichak kasalliklarida (giperacid gastrit, me'da ichak yara kasalligi, enterokolit) ham gulxayri preparatlari keng miqyosda qo'llanadi.

Gulxayri ildizi poroshok, damlama va sirop shaklida ishlatiladi.

Gulxayri ildizining quruq ekstrakti (Ext.*Althaeae siccum*) poroshok.

Gulxayri siropi. Tarkibida 2 qism altey ildizining quruq ekstrakti, 0,8 qism qand siropi bor.

Gulxayrining damlamasi 1:30 (6,0-180 ml) nisbatida tayyorlanadi.

Ko'krak yig'masi № 1 (*Species pectoralis* № 1).

Tarkibi. Gulxayrining maydalangan ildizi va oqqaldirmoq bargi – 20 grammdan, tog' rayhon o'ti -40 gr.

Ko'krak yig'masi № 2 (*Species pectoralis* № 2).

Tarkibi. Qizilmiya ildizi, zubtutum bargi – 30 grammdan, oqqaldirmoq – 40 gramm.

Ko'krak yig'masi № 3 (*Species pectoralis* № 3).

Tarkibida gulxayri ildizi, qizilmiya ildizi-28,8 grammdan, marmarak bargi, arpabadyon mevasi, qarag'ay kurtagi-14,4 grammdan.

Ushbu yig'malar dorixonalarda tayyor holda qog'oz xaltalarda sotiladi. Keltirilgan yig'malardan (№ 1,3) damlama tayyorlash uchun 6 gr yig'mani 200 ml qaynoq suvga solinib, suv hammomida 15 daqiqa qaynatiladi. 45 daqiqa o'tgach dokadan o'tkaziladi. 100 ml dan kuniga 3-4 marta ovqatdan keyin ichiladi.

Mukaltin (*Mucaltinum*). Gulxayri o'tidan olingan polisaxaridlar aralashmasi (quruq shilimshiq). Tabletkada (0,05g) chiqariladi. Nafas yo'llarining o'tkir va surunkali yallig'lanishida (bronxit, pnevmoniya va b) ishlatiladi. 1-2 tabletkadana ovqatdan oldin ichiladi. Davolash kursi 7-14 kun.

3. Katta zubtutum (*Plantagio major* L) – Подорожник большой

Ko'p yillik o't o'simlik. O'zbekistonning hamma tumanlarida sernam va tashlandiq joylarda tarqalgan.

Kimyoviy tarkibi. Zubtutum turlarining bargi va urug'ı tarkibida shilliq, achchiq, oshlovchi moddalar, flavonoidlar va rinatin glikozidi bo'ladi. Barglari vitaminlarga (skkarotin) boy. Bundan tashqari, limon kisloata bor.

Farmakologik xossalari. Zubtutum bargidan tayyorlangan galen preparati ko'p tomonlama farmakologik ta'sir ko'rsatadi. Barg ekstrakti sedativ va gipotenziv, qon ketishini to'xtatadigan, yaralar bitishini tezlashtiradigan ta'sirga ega. Bargdan tayyorlangan damlamasi nafas yo'llari shilliq parda yuzasida pastdan yuqoriga (bronxiollardan bronxlarga, traxeyaga) harakat qiluvchi hujayralar (мерцательный эпителий) tukli, kiprikchali eriteliy faolligini oshiradi. Shu sababli bronxlarda shilliq pardadan shilimshiq ishlab chiqarish ortadi. Bu esa balg'amning suyilishiga olib kelib, uning chiqib ketishi ko'chishini osonlashtiradi. Yo'tal yumshaydi va kamayadi. Shunday qilib, zubtutum balg'am ko'chiruvchi, yo'talga qarshi va qisman antiseptik ta'sirga ega.

Qo'llanishi. Zubtutum fitopreparatlari (damlamasi) yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishida (o'tkir va surunkali bronxitlar, zotiljam) qo'llanadi. Damlamasi 1:20 (10,0-200 ml) nisbatiga tayyorlanadi.

Maydalangan bargi qog'oz xaltachalarda 100g dan chiqariladi.

4. Oqqaldirmoq (ko'ka) (Tussilago farfara) – Мать-мачеха

Oqqaldirmoq ko'p yillik ildizpoyali o't o'simlik, O'zbekistonda: Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida, sernam yerlarda o'sadi, chet ellarda keng tarqalgan.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik bargida 2,63% gacha gussiligin va boshqa achchiq moddalar hamda gallas, olma va vino kislotalari, sterinlar, inulin efir moyi, 70-251 mg% vitamin S, 5,18 mg% karatinoidlar, 0,25% flovonoidlar, alkaloidlar, saponinlar, 8,46-9,61% oshlovchi, 7-8% shilliq va boshqa moddalar bo'ladi.

O'simlikning bargi faol moddalarga boy. Lekin mahsulotning asosiy ta'sir etuvchi shifobaxsh birikmalari achchiq glikozidlar, shilliq va oshlovchi moddalar hamda saponinlardir.

Farmakologik xossalari. O'simlik bargi tarkibidagi ko'p miqdordagi shilliq moddalari tufayli uning fitopreparatlari (damlama) og'iz tomoq xiqildoq yallig'langan shilliq pardalarini

qoplab olib ularni turli ta'sirlardan saqlaydi. Yallig'lanish jarayonini tezda bartaraf bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari shilliq saponinlar va organik kislotalar balg'amni suyiltiradi. Kiprikchalik epiteliylar harakat faoliyatini oshirib balg'am chiqib ketishini yengillashtiradi. Yo'talni kamaytiradi. O'simlikning biologik faol moddalar kompleks ravishda ta'sir etib, yuqori nafas yo'llarining shilliq pardalari yallig'lanishda shifo ko'rsatadi.

Qo'llanishi. O'simlik fitopreparatlari laringit, tranxeit, surunkali bronxit, bronxopnevmoniya, bronxial astma kasalliklarida tavsiya etiladi. Ko'pincha oqqaldirshoq preparati yallig'lanishga va yo'talga qarshi ta'sirli boshqa dori vositalari bilan birga kompleks davo ko'rsatishda beriladi.

Oqqaldirmoq rasmiy qabul qilingan yig'malar (ko'krak yig'malari va terlatuvchi choylar yig'malar) tarkibiga kiritilgan.

Oqqaldirmoq bargidan damlama 1:20 (10,0-200 ml) nisbatida tayyorlanadi.

Bundan tashqari, o'simlik bargidan tayyorlangan granularlar (damlama tayyorlash uchun) bor.

5. Andiz (Inula L) – Девясил

Qora andiz (*I. helenium L.* – Девясил высокий) ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, O'zbekistonda Toshkent, Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining adir va sernam erlarida uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning ildizpoyasi va ildiz tarkibida 1-3% efir moyi, 44% gacha inulin va boshqa uglevodlar, oz miqdorda alkaloidlar, sirka va benzoat kislotalar hamda saponinlar bo'ladi.

O'simlikning asosiy shifobaxsh ta'sirga ega bo'lgan biologik faol moddasi efir moyi va uning asosiy qismi allantopikrinlar va adulen hamda qisman saponinlar hisoblanadi.

Farmakologik xossalari. Eksperimental tekshiruvlar natijasi bo'yicha andizning galen fitopreparatlari yallig'lanishga qarshi, antimikrob, balg'am ko'chiruvchi, o't haydovchi va peshob ajratuvchi ta'sirga ega.

Andizning galen preparatlari (damlama, qaynatma) oshqozon ichak sistemasiga ham ta'sir etib, sekretor va motor faoliyatini qisman tormozlaydi. Ular ta'sirida bronx shilliq pardalar sekretor

faoliyatini pasaytirib balg'am to'planishini kamaytiradi shu bilan birga uni chiqib ketishini tezlashtiradi.

Qo'llanishi. Andiz fitopreparatlari bronx shilliq parda sekretsiyasini kamaytirish maqsadida yuqori nafas yo'llarining o'tkir va surunkali yallig'lanishida (bronxitlar, traxeitlar va b.) tavsiya etiladi. Ayniqsa, preparatlarning effekti ko'p miqdorda yopishqoq va quyuq balg'am ajralishi bilan kechadigan nafas yo'li kasalliklarida (surunkali bronxit, bronxial astma, bronxoektaz) yaxshi namoyon bo'ladi. Fitopreparatlarining oshqozon va ichak kasalliklarida (yara kasalligi) ijobiy davo ta'siri aniqlangan.

Preparatlari. Andizning ildizidan qaynatma tayyorlanadi va balg'am ko'chiruvchi sifatida 1:10 (20.0-200 ml) nisbatida olinadi.

Qaynatma tayyorlashda briketlardan foydalaniladi. Har bir briketda 10 g andiz ildizi bo'ladi.

Andizning maydalangan ildizi qog'oz xaltachalarda 100 gr dan chiqariladi.

6. Tog'rayxon (*Origanum L*) – Душица

Ko'p yillik xushbo'y o'simlik. Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida (Qozoqiston, Qirg'iziston) hamda janubiy o'lkalarda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. Tog'rayxon o'ti tarkibida 0,12-1,20% efir moyi, oshlovchi moddalar, askarbin kislota (gulida 466 mg%, bargida 565 mg% gacha) va fenol karbon kislota bor. Efir moyi tarkibida 44% gacha fenollar (timol va karvakril), 12,5% bitsiklik va tritsiklik seskviterpenlar, 12,8-15,4% sof holidagi spirtlar va 2,63-5% geranik asetat bor.

Farmakologik xossalari. Tog'rayxon fitopreparatlarining o'ti alohida va boshqa dorivor o'simliklar bilan birga yig'malar tarkibida turli kasalliklarda (oshqozon, ichak, jigar va b) shu jumladan, balg'am ko'chiruvchi va sedativ vosita sifatida ishlatilishi eksperimental sharoitda o'rganilgan. Galen preparatlarini yallig'lanishga qarshi antimikrob va og'riq qoldiruvchi ta'siri aniqlangan.

Qo'llanishi. Tog'rayxon yuqori nafas yo'llarining o'tkir va surunkali yallig'lanishida bronxitlarda tavsiya etiladi. U ko'krak va terlatuvchi yig'malar choylar tarkibida og'iz tomoq yallig'lanishida

chayish uchun ham ishlatiladi. Sedativ ta'siri ham amaliyotda qo' keladi.

Preparatlari.

Tog'rayxon o'ti briketlari – damlama tayyorlashda ishlatiladi.

Tog'rayxon o'ti damlamasi (Infusum herbee Origani) 1:20 (100-200 ml) nisbatida tayyorlanadi. 100 grammdan qog'oz xaltachalarda chiqariladi.

7. Arpabodiyon (Pimpinella L) – Анис

Oddiy (anissimon) arpabodiyon (P. anisum) – Анис обыкновенный. Chet ellarda tarqalgan. O'zbekistonda ayrim joylarda ekib o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning mevasi tarkibida 1,2-3,2% (ba'zida 6% gacha) efir moyi, 8-28,4% yog' va oqsil moddalari bor.

Mevaning asosiy ta'sir etuvchi qismi esa anatol (moy tarkibida 80-90% bo'ladi). Arpabodiyon efir moyi o'ziga xos yoqimli hid, shirin mazali oq sariq rangli yoki rangsiz suyuqlikdir.

Farmakologik xossalari. O'simlik tarkibidagi efir moyi yallig'lanishga qarshi, spazmatik va balg'am ajratuvchi ta'sir ko'rsatadi. U ichga qabul etilganda oshqozon sekretsiyasini oshiradi. So'rilgandan keyin bronx shilliq pardasi orqali chiqishda uning hujayralarini qitiqlab, sekretsiya ajrashini kuchaytiradi. Bronxlar mikroflorasiga qisman bakterotsid ta'sir etadi. Efir moyining balg'am ajrashini oshirishi uning tarkibidagi anitol hisobiga. U refleks yo'li bilan nafasni qo'zg'atadi. Kiprikchali epiteliylarning faolligini oshiradi, traxeya bronxlarning shilliq parda sekretsiyasini ko'paytiradi.

Qo'llanishi. Arpabodiyon mevasidan tayyorlangan fitopreparatlarning yuqori darajali samarasi nafas a'zolarining bakteriyalar keltirib chiqargan asoratida namoyon bo'ladi. Preparatlar laringitda, traxeitda, bronxitlarda bronxopnevmoniyada, bronxoektaz kasalligida beriladi. Ko'k yo'talda ham tavsiya etiladi. Ushbu kasalliklarning o'rtacha va og'ir kechishida arpabodiyon fitopreparatlari antibiotiklar va boshqa preparatlar bilan almashtirib turiladi.

Arpabodiyon rasmiy qabul qilingan yig'ma, choylar tarkibiga kiradi (ko'krak eleksiri, ter haydovchi yig'malar).

Preparatlari.

Arpabadiyon mevasidan tayyorlangan damlama (Infusum fructum Anisi vulgarisi). Buning uchun 1 choy qoshiq olib 1 stakan qaynab turgan suvga solib damlanadi (choy singari). 20 daqiqadan so'ng dokadan o'tkaziladi. Chorak stakandan kuniga 3-4 marta 30 daqiqa ovqatdan oldin ichiladi.

Anis moyi (Oleum Anisi). Tarkibida 80% ga yaqin anitol, anisaldegid, anis kislota va boshqa moddalar bor. Balg'am ko'chiruvchi sifatida 2-3 tomchidan qabul qilinadi.

Novshadil-anis tomchilari (Liquor ammonii anisatus).

Tarkibi: 2.81 g anis moyi, 15 ml novshadil, 100 ml gacha 90° spirt.

Balg'am ko'chiruvchi sifatida ayniqsa, bronxitda 10-15 tomchidan ichiladi.

8. Afsonak (Thermopsis lanceolata R.Br) – Тернопсис

ланцетовидный

Ketma-ket gulli afsonak (Thermopsis alterniflora Regel) Тернопсис очередно цветковый.

Ko'p yillik o't o'simlik. Tyanshan va O'zbekistonda adirlar tog' bag'rlarida o'sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

Afsonak turlarining tarkibida 0,5-3,5% alkaloidlar bor.

Asosiy alkaloidi termopsin hisoblanadi. Alkaloidlardan tashqari saponinlar, flavonoidlar, 275 mg % S vitamini, shilliq saqlovchi va boshqa moddalar, urug'i tarkibida 2-3% alkaloidlar (asosiy alkaloidi sitizin) bo'ladi.

Afsonak turlarining asosiy ta'sir etuvchi biologik faol moddalar tarkibidagi alkaloidlardir.

Farmakologik xossalari. Afsonak galen preparatlari balg'am ko'chiruvchi ta'siri bo'yicha ipekakunadan qolishmaydi. Afsonak tarkibidagi saponinlar, alkaloidlar (termopsin, paxikarpin va sitizin) uni galen preparatlari nafas a'zolari faoliyatiga o'ziga xos turlicha ta'sir etadi (I bob «Sitizin»ga qaralsin).

Damlama va qaynatmalar fitopreparatlari nafas va qayt qilish markazlarini qo'zg'atadi. Afsonak bronxlar shilliq parda xujayralar sekretsiyasini oshiradi, kiprikchali epiteliylar faoliyatini yaxshilaydi. Bronxlardagi balg'amlar suyultirilib chiqib ketishi

engillashadi. Bronxlar silliq muskullarining tonusini adashgan nerv markazi orqali ko'taradi. Umuman olganda, afsonakning bunday turlicha bo'lgan nafas a'zolariga ta'siri universal hisoblanadi. Afsonak tarkibidagi faol moddalar qisman qon bosimini buyrak usti bez gormoni (adrenalin) hisobiga ko'taradi.

Qo'llanishi. Afsonak o'tidan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar nafas a'zolari kasalliklarida (traxeit, bronxitlar, bronxopnevmoniya, bronxial astma, bronxoektaz) balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida barcha yoshli shaxslarda ishlatiladi. Turli kompleks yig'malar va choylar tarkibiga kiritiladi.

Afsonak o'tining fitopreparatlari yuqori nafas yo'llarining va og'iz tomoqning kataral yallig'lanishida balg'amni ko'chishi yomon bo'lishida, yig'ilib qolishida beriladi.

Preparatlari.

Poroshok 0,01-0,05 g dan kuniga 2-3 marta qabul qilinadi.

Damlama (0,6-1g-180 ml-200 ml) 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Yo'talga qarshi tabletkalar (Tabulettae contra tussim). *Tarkibi:* 0,01g termopsis o'tining poroshoki hamda 0,25g natriy gidrokarbonat.

Quruq afsonak ekstrakti (Extractum Thermopsidis siccum). Quruq afsonak ekstraktini va sut qandi (молочный сахар) aralashmasi 1 tabletkadan (0,05g) kuniga 2-3 marta ichiladi.

Kattalar uchun yo'talga qarshi quruq mikstura (Mixture sicca contra tussim pro adultis). *Tarkibi:* 0,6g afsonak quruq ekstrakti, 2 g qizilmiya quruq ildizi. 2 grammdan natriy bikorbanat, natriy benzoat va ammoniy xlorid, 0,05g arpabadiyon moyi, 10 g shakar. Suvli eritma (1:10) balg'am ko'chiruvchi va yallig'lanishga qarshi sifatida ishlatiladi.

9. Qizilmiya-shirinmiya (Glycyrrhiza L) – Solodka

Ko'p yillik o'simlik. O'zbekistonning barcha viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. Qizilmiya ildizi tarkibida 24% gacha saponin glisirizin birikmasi, 20% gacha qand, 4% atrofida 28 tagacha turli flavonoidlar, kumarinlar, 6-34% kraxmal, 2-4% achchiq, pektin va boshqa moddalar bor.

Ildizning asosiy ta'sir etuvchi biologik faol moddalari tarkibidagi glisirrizin birikmasi va flavonoidlar hisoblanadi. Ularning yig'indisidan turli dorivor fitopreparatlar tayyorlanadi. Glisirrizin qandga qaraganda 40 marta ortiq shirin modda.

Farmakologik xossalari. Qizil miya fitopreparatlarining balg'am ko'chiruvchi ta'siri uning ildizi tarkibidagi glisirrizinga bog'liq. Uning ta'sirida traxeya, bronxlar shiliq parda xujayralar sekretsiyasi ko'payadi. Kiprikchali epiteliylar faolligi oshadi. Yuqori nafas yo'llaridagi balg'am suyiladi. Chiqib ketishi osonlashadi, yo'tal esa yumshaydi va kamayadi. Shu bilan birga qizilmiyaning ildizi va uning ekstrakti spazmolitik ta'sir ko'rsatib bronxlar devoridagi silliq muskullarini bo'shashtiradi. Bunday effekt ekstraktning tarkibidagi flavonoidlarga tegishli likviritozid ta'siri bilan tushuntiriladi.

Qizilmiya ildizi va ekstraktining ahamiyatga sazovor va muhim farmakologik xossalariidan yana biri bu yallig'lanishga qarshi bo'lgan ta'siridir. Bunday ta'sir eksperimental sharoitda gistamin, serotonin va bradikinin keltirib chiqargan yallig'lanish jarayonini kamaytirishi va bartaraf etilishida ko'rilgan. O'simlikning yallig'lanishga qarshi bunday ta'siri glisirrizin kislotaning metabolik gidrolizi natijasida hosil bo'ladigan glisirrizinning kortikostreoidlar singari yallig'lanishni kamaytirishi bilan tushuntiriladi. Qizilmiyaning yallig'lanishga qarshi ta'siri asosiy bo'lib amaliy tomondan ahamiyatga sazovordir.

Qizilmiya o'simligidan bir necha fitopreparatlar olingan va tayyorlangan (likviriton, gliseriram, glidernin, flakorbin. Ular turli kasalliklarda qo'llanadi.

Fitopreparatlari.

Ko'krak eleksiri (Elexir pectoralis).

Tarkibi: qizilmiya ildizining quyuq ekstakti 20,7 g anis moyi 0,34 g, novshadil 1,38 g, 20,41 ml 90% etil spirti, 100 ml-gacha suv, 20-40 tomchidan kuniga bir necha marta ichiladi.

Ko'krak yig'masi № 2 (Species pectorulis № 2).

Tarkibi: 3 qismdan qizilmiyaning maydalangan ildizi va maydalangan zubturo bargi, 4 qism oqqaldirmoq maydalangan bargi. Damlamasi (1 g - 200 ml) traxeit bronxidlarda 1 osh qoshiqdan kuniga 2-3 marta ovqatdan keyin ichiladi.

Qizilmiyaning ildizining quyuq ekstrakti (Extractum Glyrrhizae spissum) Pilyula tayyorlashda ishlatiladi.

Gliseram (Glycyrramum) yallig'lanishga qarshi va balg'am ko'chiruvchi o'rtacha ta'sirli fitopreparat. Preparat asosan bronxial astma kasalligining engil shaklida va ayrim teri allergik xastaliklarda beriladi. Tabletkada shaklida 0,05 g dan chiqariladi.

10. Botqoq ledumi (Ledum palustre L) – Багульник болотный

Doim yashil buta. Rossiyaning g'arbiy qismida o'sadi va o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning ildizidan boshqa qismlarida efir moyi bor. Birinchi yilning barglarida 1,5-7,5% ikkinchi yilligida kamroq 0,25-1,40%, shoxlarida esa birinchi yilgisida 0,47-1,50%, ikkinchi yilgisida 0,20% gacha, gulida 2,3%, mevasida 0,17% gacha efir moyi bor. Efir moyi tarkibida ledol, palyustrol, simol va boshqa birikmalar bor. O'simlikning yer ustki qismida efir moyidan tashqari oshlovchi moddalar, flavonoidlar, vitamin S, erikolin glikozidi va boshqa moddalar bo'ladi.

Farmakologik xossalari. O'simlikning er ustki qismining efir moyi oshqozonga yuborilganda uning bir qismi bronxlar shilliq pardasi orqali ajralishida hujayralarga qitqlovchi ta'sir etib, bronxial sekretsiyani kuchaytiradi. Kiprikchali epiteliy faolligini oshiradi. Balg'amni chiqib ketishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, efir moyining spazmolitik ta'siri aniqlangan. Bronxlar silliq muskullarni bo'shashtiradi, mikroorganizmlarga bakteriostatik ta'sir etadi.

O'simlikning asosiy farmakologik ta'siri balg'am ko'chiruvchi, o'rab oluvchi va yo'talga qarshi ta'sirlari hisoblanadi.

Qo'llanishi. Botqoq leduming o'ti damlama shaklida va kompleks yig'malar tarkibida nafas a'zolarining kasalliklarida (o'tkir va surunkali bronitlarda, traxeat, laringitda va ko'k yo'talda) balg'am ko'chiruvchi va yo'talga qarshi fitopreparatlar sifatida va boshqa xastaliklarda (bronxial astma, bronxopnevmoniya va b) beriladi.

Maydalangan mahsulot karton xaltachalarda 75 yoki 100 grammdan chiqariladi. Damlamasi 1:20 (10,0-200 ml) nisbatida tayyorlanadi va ¼, 1/3 stakanda iliq holda ichiladi.

Ledin (Ledinum). Yo'talga qarshi ta'sir etadi. Preparatning bunday ta'siri yo'tal markaziga tormozlanuvchi ta'siri bilan bog'liq. Bronxlarni kengaytiradi. Preparat botqoq ledumi novdalarining efir moyidan olingan bo'lib, tabletka shaklida chiqariladi. Ledin yuqori nafas yo'llarining o'tkir va surunkali kasalliklarida asosan quruq yo'tal bilan davom etishida tavsiya qilinadi. Balg'amli yo'talda esa balg'am ko'chiruvchi dorilar bilan birga beriladi.

Ledin 0,05-0,1 g dan kuniga 3-5 marta ovqat bilan bog'liq bo'lmagan vaqtda 3-10 kun davomida qabul qilinadi.

11. Oddiy tog' jambul (Thimus vulgaris L) – Тимьян обыкновенный

Ko'p yillik yarim buta. Rossiyaning janubiy yerlarida, Krasnodar, Qrim, Ukraina va Moldovada o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning o'ti tarkibida 0,8-1,2% efir moyi, 0,05% triterpen timun (saponin) kislota, 0,2% timussaponin hamda ursol, oleanol, kofe xlorogen, xin va boshqa moddalar, kislotalar, flavonoidlar bor. Efir moyi tarkibida 42% fenollar, simol, pinen, borneol va boshqa birikmalar bo'ladi.

Farmakologik xossasi. Tog' jambulining o'tidan tayyorlangan galen preparatlari yaxshigina balg'am ko'chiriluvchi ta'sirga ega. Chunki fitopreparatlar bronx shilliq pardadagi kiprikchali epiteliylar faolligini oshiradi. Shilliq qavat sekretsiyani ko'paytiradi, balg'amni suyiltiradi, uni ajralishini ko'paytiradi. Tomoq shilliq pardasining qurib qolishida uni o'rab oladi. Bundan tashqari efir moyi tarkibidagi timol antimikrob ta'sir etib, yallig'lanish asoratlarini yo'qotadi.

Qo'llanishi. O'simlikning galen preparatlari (damlama, qaynatma) laringitda, traxeitda, bronxitlarda, bronxopnevmoniyada samarali davo ko'rsatadi. Chunki fitopreparatlari bir vaqtda o'rab oluvchi, yallig'lashga qarshi, balg'am ko'chiruvchi va antiseptik ta'sirlarga ega.

Fitopreparatlari.

Oddiy tog'jambul damlamasi (Infusum herbae Thymi vulgaris) – Тимьян обыкновенный.

Damlama (1:20) 10,0-200 ml nisbatida tayyorladi. 1-2 qoshiqdan kuniga 2-3 marta yo'talda ichiladi.

Oddiy tog'jambul qaynatmasi (Decoctum herbac Thymi vulgaris) 1:10 (20,0-200 ml) nisbatida tayyorlanadi.

1-2 osh qoshiqdan kuniga 3-5 marta ichiladi.

Pertussin (Pertussinum).

Tarkibi: 12 qism sudralib yuruvchi yoki oddiy tog'jambul ekstrakti, 1 qism kaliy bromid, 82 qism qand siropi, 5 qism 85% etil spirti. Yuqori nafas yo'llari kasalliklarida (bronxit va boshqalar) balg'am ko'chiruvchi yo'talni yumshatuvchi sifatida 1 osh qoshiqda kuniga 3 marta ichiladi. Flakonda 100 ml dan chiqariladi.

12. Oddiy qarag'ay (*Pinus sylvestris L*) – *Сосна обыкновенная*

Doim yashil solovatli nina bargli daraxt. O'zbekistonda doimiy yashil manzarali daraxt sifatida o'stiriladi. Chet ellarda (ayniqsa, Yevropada) keng tarqalgan.

Kimyoviy tarkibi. Qarag'ay kurtagida 0,4% gacha efir moi oshlovchi va achchiq moddalar bo'ladi. Qarag'ayning bargli shoxchalarida 0,13-1,3% efir moyi, 7-12% smolalar, 5% ishlovchi moddalar, 0,1-0,3% askarbin kislota, alkaloidlar karotin antosin va boshqa moddalar bor.

Farmakologik xossasi. Qarag'ay kurtagining galen preparatlari yuqori nafas yo'llari shilliq pardasining xujayralarini qo'zg'atib, ularni sekretsiyasini kuchaytiradi. Shilliq parda satxidagi kiprikchali epiteliy faolligini oshiradi natijada balg'am suyuqlashadi. Uni ajrashi va chiqib ketishi engillashadi. Yo'tal yumshab kamayadi. Bundan tashqari, qarag'ay kurtak ekstrakti patogen mikroorganizmlarga bakteritsid ta'sir etadi. Qarag'ayning turli boshqa xususiyatlari ham mavjud.

Qo'llanishi. Qarag'ay kurtagidan tayyorlangan damlama va qaynatma yallig'lanishga qarshi va antibakterial ta'sirli hamda yuqori nafas yo'llarining kasalliklarida (traxeit, bronxitlar) balg'amni suyultirib, balg'amni ko'chishini engillashtiradi. Qarag'ay kurtagi turli yig'malar, aralashmalar tarkibiga kiradi. Rasmiy qabul qilingan ko'krak yig'malar tarkibiga kiritilgan.

Fitopreparatlari.

Qarag'ay kurtak qaynatmasi (Decoctum turiones Pini) 1:20 (10g-200 ml) nisbatida tayyorlanadi. Balg'am ko'chiriluvchi va

antimikrob fitopreparat sifatida $\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{3}$ stakanda kuniga 2-3 marta ovqatdan so'ng ichiladi. Ingalyatsiya uchun ishlatiladi.

Terpingidrat (Terpinum hydratum).

Surunkali bronxitda alohida yoki boshqa dori preparatlari bilan birga beriladi. Poroshok va tabletk (0,25-0,5g) shaklda chiqariladi.

13. Uch rangli gunafsha (Viola tricolor L.Wittr) – Фиалка трехцветная

Bir yoki ikki yillik o't o'simlik. MDH mamlakatlarining yevropa qismi o'lkalarida o'sadi va Boshqirdistonda yig'iladi.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida (bargida 0,13% gacha, poyasida 0,08%, gulida ozroq) rutin, vitoksin, oreintin va delfinidin, peonidin) efir moyi 40mg% gacha, karotin va boshqa karotinoidlar, vitamin S, salisilat va ursol kislotalar, shilliq moddalar va saponinlar bor.

Farmakologik xossasi. O'simlikning yer ustki qismidagi efir moyi va shilimshiqqa o'xshash moddalar tufayli uning galen preparatlari yallig'lanishga qarshi va antiseptik ta'sir etadi. Bronxlar shilliq parda xujayralari sekresiyani oshiradi, balg'am ajrashini yengillashtiradi. Tarkibidagi saponinlar balg'am ko'chiruvchi va peshob xaydovchi ta'sir ko'rsatadi. Flavonoid glikozid violokversetin mahalliy va umumiy ta'sirga ega. Rutin singari yallig'langan to'qimalardan turli moddalarni so'rilishi hujayra pardasini zichlanishi natijasida kamayadi.

Qo'llanishi. Uch rangli gunafshaning damlama va qaynatmasi bronx shilliq qavat hujayralar sekresiyani kuchaytirishi shilliq qavatni yallig'langan qatlamni yumshatadi. Balg'amni ko'chishi va chiqib ketishini osonlashtiradi. Yo'talni yumshatadi va kamaytiradi. Uch rangli gunafsha fitopreparatlari alohida yoki boshqa o'xshash ta'sirli dorivor o'simliklar bilan birga yuqori nafas yo'llarini yallig'lanishida (traxeit, bronxitlar, bronxopnevmoniya) qo'llanadi.

Uch rangli gunafsha o'tidan tayyorlangan damlama 1:20 (10,0-200 ml) nisbatida olinadi. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichiladi. Damlama balg'am ajratuvchi dori sifatida surunkali bronxitlarda tavsiya etiladi.

14. Mayda bargli jo'ka (*Tilia cordata* L) – Липа

O'zbekistonda manzarali daraxt sifatida o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning guli efir moyi, flavonoidlar, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalarni saqlaydi.

Farmakologik xossasi. Gullaridan tayyorlangan galen preparati (damlama 1:10) boshqa ta'sirlardan tashqari yallig'lanishga qarshi va terlatuvchi xossaga ega.

Qo'llanishi. Damlama va qaynatmasi isitma tushiruvchi terlatuvchi dorilar sifatida bronxidlarda, anginada va boshqa shomollash bilan bog'liq kasalliklarda ishlatiladi.

Shunday qilib, biz yuqorida nafas a'zolarining yallig'lanishi kasalliklarida (traxeit, o'tkir va surunkali bronxit, zotiljam) asosan rasmiy ravishda ruxsat berilgan dorivor o'simliklar to'g'risida (kimyoviy tarkibi, farmakologik xossalari, qo'llanishi va ularning fitopreparatlari) to'g'risida ma'lumot keltirdik. Bulardan tashqari, yana bir qator shifobaxsh giyohlar borki, ularning asosiy ishlatilishi boshqa kasalliklarda bo'lishi bilan birga nafas yo'llari hamstaliklarida ham bo'lishi mumkin. Bunday dorivor o'simliklar ko'pincha yallig'lanishda ishlatiladigan turli yig'malar tarkibiga kiritiladi. Shu sababdan misol tariqasida quyidagi yig'malarni keltiramiz.

O'tkir respirator kasalligida quyidagi fitoyig'malar tavsiya etiladi:

Kasallikni birinchi soatida bemorga terlatuvchi, isitma tushiruvchi, yallig'lanishga qarshi va immun sistemani qo'zg'atuvchi ta'sirli dorivor o'simliklardan tashkil topgan yig'malar tavsiya etiladi. Masalan:

1. Jo'ka gullari, maymunjon bargi, qalampir yalpiz o'ti, marmarak bargi-30 grammdan. 20 gr yig'mani maydalab, 1 litr qaynoq suvga solinadi. Termosda 1 soat saqlanadi. Keyin dokadan o'tkazib, 400-600 ml issiq damlamani bir soat davomida ichiladi. Keyin esa har 2 soatda 200 ml qabul qilinadi. 250 ml damlamaga 1 choy qoshiq asal qo'shiladi.

2. Qayin bargi, xon o'ti, bodrezak guli, maymunjon mevasi, oqqaldirmoq bargi-40 grammdan. 20 gr maydalangan yig'mani 1 litr qaynoq suvga solib, qopqoqli idishda suv xammomda 10 daqiqa ushlanadi. 1 soat o'tgach dokadan o'tkaziladi. Har 2 soatda 200 ml

issiq damlamaga 1 choy qoshiq asal qo'shib ichiladi. Yuqorida keltirilgan yig'malar terlatuvchi va isitma tushiruvchi ta'sir etadi.

Immun sistemani ko'tarish maqsadida dorixonalarda sotiladigan rasmiy o'simlik biostimulyatorlardan foydalaniladi. Ularga kitobning oldingi bo'limida keltirilgan umumiy tonusni oshiruvchi fitopreparatlar (jenshen, araliya, eleuterakokk, xitoy limonnik nastoykalari kirib, ular tomchilab alohida ichiladi yoki qabul qilinayotgan yig'maga qo'shiladi.

Bundan tashqari bir bosh osh piyoz va sarimsoq piyozning 2-3 bo'lagini bir kecha kunduzda xom holda qabul qilish tavsiya etiladi.

O'tkir respirator kasalligida og'iz tomoqni chayish uchun fitonsidli o'simliklar yig'mali ishlatiladi.

Masalan:

1. Qayin bargi, qarag'ay kurtagi, dalachoy o'ti-30 grammdan. 10 gr yig'mani 300 ml qaynoq suvga solinadi. 15 daqiqa suv hammomida isitiladi. 2 soat issiqroq joyda qoldiriladi. Bir marta chayish uchun 80-100 ml tavsiya etiladi.

2. Ingalyasiya qilish uchun quyidagi fitopreparat tavsiya etiladi. Qayin bargi 5 gr 250 ml qaynoq suvga solib suv xammomida 15 daqiqa ushlanadi. 45 daqiqadan so'ng dokadan o'tkaziladi. 15-20 daqiqa davomida ingalyatsiya (nafas yo'liga yuborish) qilinadi.

Shunga o'xshash moychechak, tirnoqgul, zubturumdan foydalanish mumkin.

O'tkir bronxitda yuqoridagi yig'malardan tashqari quyidagi fitoyig'malar tavsiya etilishi mumkin.

1. Arpabadiyon mevasi, andiz ildizi, dalachoy o'ti, tirnoqgul guli, zig'ir urug'i, qalampir, yalpiz bargi, na'matak mevasi, evkalipt bargi-40 grammdan. 8 gr maydalangan mahsulotni 300 ml qaynoq suvga solinadi. Suv xammomida 10 daqiqa isitiladi. 2 soat termosda saqlanadi. Dokadan o'tkaziladi. 50 ml dan kuniga 4-5 marta iliq holda ichiladi.

2. Ayrim dorivor o'simliklar dorixonalarda poroshok briket quruq va suyuq ekstraktlar, damlama, qaynatma, nastoyka va rasmiy yig'malar shaklida bo'ladi. Rasmiy ravishda ruhsat berilgan fitoyig'malar (№ 1.2.3) ko'krak yig'malari shu jumladandir. Bu yig'malar to'g'risida oldingi bo'limda ma'lumot berilgan.

3. Zig'irni maydalangan urug'i—100g, arpabadiyon mevasi, imbir poroshoki—20 grammdan. Hammasini 0.5 kg asalda aralastiriladi. 1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan 20 daqiqa oldin ichiladi.

Surunkali bronxitda ishlatiladigan fitoyig'malar.

Kasallikni fitoterapiyasida uni turiga va kechishiga qarab davo ko'rsatiladi. Surunkali bronxitni katarral turida uning qaytalanishida o'tkir bronxitga beriladigan yig'malar tavsiya etiladi. Yiringli bronxitda esa balg'am ko'chiruvchi va antiseptik ta'sirli, obstruktivli turida spazmolitik ta'sirli o'simliklardan tashkil topgan yig'malar beriladi.

1. Gulxayri ildizi, qayin bargi, maymunjon bargi, yasnotka o'ti, shirchoy ildizi, ledum novdasi, pervosvet o'ti, qashqar beda o'ti, sigir quyruq guli—30 grammdan. 8 g yig'ma 350 ml qaynoq suvga solib, qopqoqli idishda suv xammomida 15 daqiqa isitiladi, dokadan o'tkaziladi. 50-70 ml kuniga 4-5 marta iliq holda ovqatdan keyin ichiladi.

2. Gulxayri ildizi, dalachoy o'ti, maymunjon bargi, moychechak guli, arslon quyruq o'ti—50 grammdan. 5 gr maydalangan yig'mani 250 ml qaynoq suvga solinadi termosda 4 soat ushlanadai. Dokadan o'tkaziladi. Hammasini 3-4 marta iliq holda ovqatdan keyin ichiladi.

Zotiljam kasalligida ishlatiladigan fitoyig'malar.

Zotiljam kasalligida yo'talni pasaytiruvchi, balg'amni suyultiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sir etadigan bronxolitik, immuno-modulyatorlar ta'sirli dorivor o'simliklardan tashkil topgan fitoyig'malar tavsiya etiladi. -

1. Marjon daraxt guli, sigir quyruq gul tojisi, jo'ka guli, oqqaldirmoq guli va bargi—1 qismdan. 1 osh qoshiq yig'mani 200 ml qaynoq suvga solinadi. 3-4 soat qoldiriladi. Dokadan o'tkaziladi. 50 ml dan kuniga 4 martadan ichiladi.

2. Arpabadiyon mevasi, tog'rayxon o'ti, gazanda o'ti, oqqaldirmoq bargi, qarag'ay kurtagi, evkalipt bargi, bo'ymadaron o'ti, shirchoy ildizi, uch rangli gunafsha o'ti, manjetka bargi—50 grammdan. 10 g yig'mani 400 ml qaynoq suvga solinadi. Suv xammomida qopqoqli idishda 5 daqiqa qaynatiladi. 2 soat termosda

qoldiriladi. Dokadan o'tkaziladi. 50-70 ml har 3 soatda iliq holida ichiladi.

Bronxial astmada ishlatiladigan fitopreparatlar

Bronxial astma surunkali mustaqil allergik xastalik bo'lib, uning asosida bronxlar reaktivligining immunologik yoki noimmunologik o'zgarishlar yotadi.

Kasallikning asosiy klinik belgisi bronxlar shilliq qavatining shishishi, shilliq ishlab chiqarishni kuchayishi va bronxlarni torayishi tufayli nafas olish va ayniqsa, nafas chiqarish qiyinlashishi, bu kasallik keyingi o'n yil mobaynida ko'payib bormoqda. Kasallikni kelib chiqishida turli omillar sababchi bo'ladi. Allergenlar, surunkali uzoq davom etadigan bronxitlar, havoni ifloslanishi, tomaki chekish, emotsional holatlar va boshqalar shular jumlasidandir. Kasallik kechishi vaqti-vaqtida xuruj tutishi (nafasni qisilishi) bilan davom etadi va u bir necha bosqichdan (yengil, o'rtacha va og'ir kechishi) iborat. Kasallikning eng og'ir bosqichi astmatik status holatidir.

Bu holatda bronxial astma xuruji uzoq muddat davom etadi (24 soat va undan ortiq) dorilarga sezuvchanlik yo'qoladi. Keyin o'pka yetishmovchiligining belgilari kuchayib boradi. Organizmda kislorod etishmasligi boshlanadi. Astmatik status holati boshlanadi. Bemorni ahvoli og'irlashib ko'karishi ko'payadi va bemor xushidan ketadi. Provardida nafas markazi falajlanadi nafas butunlay to'xtaydi keyin esa yurak urishi ham to'xtaydi.

Bemorlarni davolashda turlicha farmakologik ta'sirga va ta'sir mexanizmiga ega bo'lgan sintetik, gormonal va fitopreparatlar kasallikni kechishi og'ir engilligiga bosqichlarga qarab ishlatiladi.

Asosan bronxlarni kengaytiradigan (bronxodilyatatorlar), yallig'lanishiga qarshi, allergiyaga qarshi, balg'am ajratuvchi va boshqalar qo'llanadi.

Bular qatoriga sintetik gormonal va dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan preparatlar kiradi.

Umuman olganda bronxial astma farmakoterapiyasida qo'llanadigan dori vositalarining shartli quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Neytpotron ta'sirli.

2. Miotrop ta'sirli.
3. Yallig'lanishga qarshi ta'sirli.
4. Allergiyaga qarshi ta'sirli.

Neyrotrop ta'sirli bronxodilyatorlarga M-xolinoblokatorlar (atropin, platifillin) va adrenomimetiklar (adrenalin, efedrin), miotrop ta'sirli bronxodilyatorlarga ksantinlar (teofillin, teobrimin, eufillin va b) yallig'lanishga qarshi ta'sirli dori vositalarga. allergiya qarshi va gormonal preparatlar (dimedrol, kortikosteroidlar, immunodepressantlar) kiradi.

Bronxial astma xurujida asosan atropa belladonna o'simlikdan olingan va tayyorlangan atropin alkaloidi, belladonna nastoykasi, yassi bargli senesio o'simlikdan ajratib olingan platifillin alkaloidi preparatlari ishlatiladi. Ular bronxlar devoridagi spazmga uchragan silliq muskullardagi M-xolinoreseptorlarni bloklab, ularga adashgan nerv ta'sirni yo'qotadi va spazm bartaraf etiladi. Natijada bronxlar kengayib o'z oldingi holiga keladi xuruj to'xtatiladi.

Bronxial astma xurujida neytrop ta'sirli preparatlardan alfa, beta 1-2 adrenomimitiklardan adrenalin va efedrin ishlatiladi. Adrenalin gormonal preparat bo'lsa efedrin esa qizilcha o'simligidan olingan alkaloid hisoblanadi. Bulardan tashqari beta adrenomimetiklar, selektiv bo'lmagan alfa, beta adrenostimulyatorlar va selektiv beta 2 adrenostimulyatorlar ham bronxodilyatolar hisoblanadi.

Adrenalin bronx silliq muskullaridagi beta 2 adreno reseptorlarni bevosita qo'zg'atib, ularning bo'shashgirs, efedrinning bunday ta'siri bilvosita bajariladi (simptomimetik ta'sir) bronx shilliq muskullarida 2 beta, yurakda beta 1 adreno reseptorlar bo'lgani uchun selektiv beta 2 adronosti-mulyatorlar yurak faoliyatiga (beta 1) deyarli ta'sir etmaydi. Shuning uchun bronxial astma xurujida M-xolinoblokatorlar bilan bir qatorda beta 2 adrenostimulyatorlarni ishlatishi yaxshi samara beradi.

Miotrop ta'sirli bronxodilyatatorlarga asosan choy bargidan va koka urug'idan olinadigan teofillin va teobromin alkaloidlari kiradi. Ular bronx silliq muskullariga bevosita ta'sir etib (fosfordiesteraza fermenti va SAMFni yig'ilishiga ta'sir etishi), spazmni bartaraf etadi. Bu borada asosan eufillin (tarkibida 80% teofillin va 20% etilendiamin) in'eksiya qilinadi. Teofillin tabletka holida (uzoq

muddatli ta'sir etuvchi «tsopek», «teobiolong» preparatlari) xurujni oldini olish maqsadida ishlatiladi.

Hozirda bronxial astma xurujini bartaraf etishda yuqorida keltirilgan umumiy ta'sirli neyrotrop va miotrop bronxodilyatorlardan tashqari havo yo'li orqali nafas olish ingalyatsiya yo'li bilan yuboriladigan dorilar ishlatiladi. Chunki bunday ingalyator yordamida yuboriladigan aerosol dorilarni ta'siri tez yuzaga chiqadi va ulardan bemorni o'zi foydalanadi va har tomonlama qulaydir. Bu yo'l bilan asosan 2 beta adrenostimulyatorlardan (dozalangan ingalyator) salbutamol, terbutalin, beratek, formaterol keng ishlatiladi. Bulardan tashqari, tarkibida efedrin va atropin saqlagan Efatn preparati ingalyator orqali qo'llaniladi. Bularning qatoriga kramolin natriy va ketotifen preparatlarini keltirish mumkin.

Bronxial astma kasalligida allergiyaga qarshi ta'sir etadigan (N_1 -gistaminoblokatorlar) xastalikni og'ir kechishida yallig'lanishga qarshi va immuni sistema faolligini pasaytiruvchi preparatlar ishlatiladi.

Kasallikni xavfli holati astmatik status reanimasiyada yordam ko'rsatadi.

Demak, xulosa tariqasida aytish mumkinki, bronxial astma xastaligiga duchor bo'lgan bemorlarga davo ko'rsatishda asosan kasallik xurujini oldini oladigan va uni bartaraf etadigan turli bronxodilyatorlar ta'sirli dori preparatlari ishlatiladi. Ularning orasida dorivor o'simliklardan ajdratib olingan biologik faol bo'lgan moddalar (alkaloidlar) saqlagan fitopreparatlar alohida o'rin tutadi. Bular qatoriga atropin, belladonna nastoykasi, platifillin, efedrin, teofillin, teobromin, eufillin preparatlarini keltirish mumkin. Bularning o'simliklari va fitopreparatlari to'g'risida to'liq ma'lumot kitobning oldingi bo'limlarida berilgan.

Bundan tashqari, bronxial astmada balg'amni ko'chiruvchi va suyultiruvchi, spazmolitik va boshqa ta'sirli dorivor o'simliklar fitopreparatlari ham beriladi. Ularga misol tariqasida oldingi betlarda bayon etilgan o'tkir respirator kasalligida, o'tkir va surunkali bronxitlarda, zotiljamda (bronxopnevmoniyada) ishlatiladigan dorivor o'simliklar, andiz, oqqaldirmoq, qarag'ay, gulxayri va ulardan tayyorlangan fitopreparatlarni keltirish mumkin.

Bu dorivor o'simliklar bronxial astmada alohida hamda yoki yig'malar tarkibida berilishi mumkin.

Bronxial astmani fitoterapiyasi bronxolitik, yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi. balg'am ko'chiruvchi, balg'amni suyiltiruvchi, sedativ, immunistimulyator ta'sirli dorivor o'simliklar yig'indisiga asoslangan.

Yig'ma tarkibiga kiradigan o'simliklarning har biri allergiyani chaqirishdan holi bo'lishi kerak.

Keltiriladigan yig'malar bronxial astma kasalligini barcha bosqichlarida (astmatik statusdan tashqari) asosiy dori preparatlari bilan birga uzoq vaqt davomida beriladi. Davo ko'rsatish davomida ayniqsa, yig'ma tarkibini o'zgartirishda shifokorning fitoterapevtni nazorati talab qilinadi.

Bronxial astma kasalligida beriladigan ayrim fitoyig'malarni misol tariqasida keltirishni lozim topdik. Ular quyidagilar:

1. Gulxayri ildizi, uch rangli gunafsha o'ti—20 grammdan; meniates bargi, moychechak guli, na'matak mevasi, qorazra mevasi—10 grammdan. 8 gr maydalangan yig'ma 350 ml qaynoq suvga solinadi. 5 daqiqa qaynatiladi. Termosda 3 soat qoldiriladi. Dokadan o'tkaziladi. Iliq holida 70 ml dan kuniga 5-6 marta ovqatdan 15 daqiqa keyin ichiladi.

2. Seberga guli, zubtutum bargi, qizilmiya ildizi, shirchoy ildizi, pervosvet o'ti, afsonak o'ti, fanxel mevasi—50 grammdan. Tayyorlanishi va qabul qilinishi 1-yig'ma singari.

3. Marjon daraxt guli, zubtutum bargi, uch rangli gunafsha o'ti—1 choy qoshiqdan. Yig'mani 200 ml suvga solinadi va suv xammomida 20 daqiqa qizdiriladi. 30 daqiqa qoldiriladi. Keyin 65 ml dan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Bulardan tashqari, turli dorivor o'simlik soklaridan (shirasida) foydalaniladi.

Oqqaldirmoq bargi sokidan 1 stakandan kuniga 2-3 marta ichiladi.

Osh piyoz, aloe, turp, limon, qizil lavlagi, klyuk va soklaridan 1 stakandan olinadi. 1 stakandan asal va 96° spirt solib aralashtiriladi. 2 osh qoshiqdan kuniga 3 marta 30 daqiqa ovqatdan oldin qabul qilinadi.

Nazorat savollari

1. Bronxit kasalligida qanday fitoterapevtik xossalarga ega o'simliklar ishlatiladi?
2. Nashtarsimon afsanakning fitopreparatlarini asosiy ta'siri va qo'llanishi.
3. Gulxayri o'simligining fitoterapiyada ishlatilishi nimaga asoslangan?
4. Oddiy oqqaldirmoq fitopreparatlari qanday kasalliklarda tavsiya etiladi?
5. Qizilmiya fitopreparatlarining asosiy farmakologik ta'siri va ishlatilishi.
6. Zotiljam kasalligida qo'llanadigan dorivor o'simliklarni ko'rsating.
7. Zotiljam kasalligida ishlatiladigan fitopreparatlarning asosiy ta'siri nimadan iborat?
8. Bronxial astma kasalligini ta'riflang.
9. Bronxial astma kasalligini davolashda qo'llaniladigan dorivor o'simliklarni ko'rsating.
10. Bronxial astma fitoterapiyasida qanday ta'sirga ega bo'lgan shifobaxsh o'simliklar ishlatiladi?
11. Eufillin preparatining tarkibida qanday o'simlik alkaloidi bor?
12. Efatın preparati tarkibida qanday o'simliklardan olingan alkaloidlar bor?
13. Efatın fitopreparatining asosiy ta'siri, ishlatilishi va qo'llash usuli.

VII BOB. HAZM QILISH A'ZOLARI KASALLIKLARIDA ISHLATILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

Oshqozon-ichak kasalliklari ko'pchilik bo'lib, ularning ayrimlari to'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi.

Gastritlar.

Gastrit – oshqozon shilliq pardasining distrofik yallig'lanishi demakdir.

Kelib chiqishi va kechishi bo'yicha ikki xil – o'tkir gastrit va surunkali gastritga bo'linadi.

O'tkir gastrit.

Oshqozon shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi ko'pincha sifatsiz ovqat, alkagol, turli kimyoviy moddalar (kislotalar, ishqorlar, nitratlar, pestitsidlar, asetilsalitsil kislota, sulfanilamidlar, antibiotiklar) hamda termik faktorlar va bakteriyalar sababchi bo'lishi mumkin.

Bemorda oshqozon satxida sanchiqli og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, zarda qilish va boshqa o'zgarishlar kuzatiladi.

Davo qilish: oshqozon bir necha bor chayiladi – 2-3 och qoldiriladi. Keyin esa oshqozon shilliq pardasini turli ta'sirlardan (xlorid kislota, fermentlar va boshqalardan) himoya qilish tadbirlari ko'riladi. Bularga o'rab oluvchi, burishtiruvchi va yallig'lanishga qarshi dorilar beriladi. Bu borada asosan dorivor o'simliklardan (gulxayri, zig'ir, salob, zubtutum va boshqalar) alohida tayyorlangan fitopreparatlar (damlama, qaynatma) yoki fitoyig'malar tarkibida beriladi.

1. Gulxayri ildizi (Radicis Althaeae) – Корень Алтея

(To'liq ma'lumot VI bobda berilgan)

Gulxayri ildizidan tayyorlangan damlama, qaynatma tarkibidagi shilimshiq hisobiga meda-ichak shilliq pardani qoplab olib turli moddalar (fermentlar, xlorid kislota va boshqalar) ta'siridan saqlaydi va yallig'lanishni avj oldirmaydi, uni sekin-asta

bartaraf bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababdan gulxayri fitopreparatlari yuqori nafas yo'llari yallig'lanishidan (bronxitlar va boshqalar) tashqari meda-ichak yallig'lanishida ham (gastrit, enterit) tavsiya etiladi.

Gulxayri damlamasi 1:30 (6,0-180 ml) nisbatida tayyorlanadi. 1 osh qoshiqda kuniga 3-4 marta ichiladi.

2. Zig'ir (*Linum L.*) – Лён

O'zbekistonda va chet ellarda sug'oriladigan yerlarda o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi: Zig'ir urug'i tarkibida 30-48% moy, 5-12% shilliq moddalar bor. Urug' oqsil moddalarga ham boy (12-26%), bundan tashqari, tarkibida uglevodlar, fermentlar va boshqa birikmalar (karotin, organik kislotalar, glikozid linomarin) bor.

Farmakologik xossalari. O'simlik urug'ining o'rab oluvchi xossasi uning tarkibidagi shilliq moddasiga va linomarin glikozidiga bog'liq. Ular shilliq pardani qoplab olib, sezuvchi nervlar oxirini qitiqlovchi ta'sirdan saqlaydi va yallig'lanish jarayonini bartaraf etishni tezlashtiradi. Bundan tashqari bakterial toksinlarni surilishini kamaytiradi.

Qo'llanishi. Zig'ir fitopreparatlari (urug'ining shilliq modasi) yallig'lanishga qarshi, o'rab oluvchi vosita sifatida o'tkir va surunkali gastritda, enteritlarda ishlatiladi.

Preparati: Zig'ir urug'ining shilliq moddasi (Muucilaginis seminis Lini).

Qabul qilinishi. Zig'ir urug'idan 1qism olib, 30 qism qaynoq suvga solinadi, 15 daqiqa davomida chayqatiladi. Keyin dokadan o'tkaziladi va eziladi. Chorak stakandan kuniga 3 marta ichiladi.

Ko'pincha o'tkir gastritda (3-4 kun) quyidagi fitoyig'malardan foydalaniladi.

1. Zig'ir urug'i, moychechak guli – 8 grammdan; shirinmiya ildizi, limono't bargi – 4 grammdan; yig'ma maydalanadi va 1 litr qaynoq suvga solinadi va suv hammomida 10 daqiqa isitiladi. Keyin termosda 1 soat saqlanadi. Dokadan o'tkaziladi. 100 ml dan har 3 soatda ichiladi.

2. Gulxayri ildizi, salob ildiz tuganachi – 6 grammdan; meniantes barglari, bo'ymadaron o'ti, shuvoq o'ti – 2 grammdan; 16 gramm yig'mani 600 ml sovuq suvga solinadi va 4 soat turgandan

keyin suv hammomida 5 daqiqa qizdiriladi. Keyin termosda 1 soat saqlanadi. Doka orqali suziladi. 100 ml dan har 3 soatda ichiladi.

Surunkali gastrit.

Me'da shilliq pardasining surunkali yallig'lanishi 2 turda bo'ladi: birlamchi yoki ekzogen gastrit va ikkilamchi–qandaydir ichki a'zolarining patologiyasida kuchayadi. Surunkali gastritning kelib chiqishida ekzogen faktorlar (ovqatlanishni tartibsiz bo'lishi, ovqatni og'izda yaxshi chaynalmaligi, o'ta sho'r, o'ta achchiq dag'al ovqatlanish, alkagol, tomaki chekish, salisitlarni, kaliy saklagin dorilarni, digitalis preparatlarni, rezerpinni va boshqalarni uzoq vaqt qabull qilinsa), endogen faktorlar (modda almashinuvini buzilish, semizlik, qandli diabet, gepatit, xolesistit, o'pka-yurak faoliyatini surunkali yetishmovchiligi va boshqalar) rol o'ynaydi. Bulardan tashqari, irsiy faktor, bakteriyalar (*Helibacter pylorit* 30-60% bemorlarda aniqlangan) ham ahamiyatga sazovordir.

Kislotalik etishmasligi bilan kechadigan gastritda (gipasid, anasid) turli farmakologik moddalar, preparatlar ishlatiladi. Parxezdan tashqari oshqozon sekretsiyasi oshiradigan, oshqozon sokini o'rnini bosadigan (xlorid kislota, natural oshqozon soki, fermentlar) dori vositalari ishlatiladi. Ular me'da sekretsiyasini kuchaytirib, ishtaxani ochadi va ovqat xazm bo'lishini ta'minlaydi. Shu maqsadda dorivor o'smliklardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar alohida o'rin egallaydi. Chunki ular me'da shirasini oshirishi bilan bir qatorda yallig'lanishga qarshi va antibakterial, xattoki, spazmolitik ta'sir etadi. Gipo va anasid gastritda asosan zig'ir ildizi, aloe bargi, marjondaraxt mevasi, meniantes bargi, tog'rayhon bargi, qo'ziquloq o'ti, zubturum bargi, shuvoq o'ti va boshqalardan foydalaniladi. Ularni yakka holda va ko'pincha sig'ma shaklda ishlatiladi. Gipo va anasid gastritlarda ishlatiladigan ayrim fitopreparatlar to'g'rsida ma'lumot beriladi.

Achchiq nastoyka (Tinctura amara)

Tarkibi: tillabosh o'ti (60g), uchbarg o'ti (60g), igr ildizi (30g), shuvoq o'ti (30g), kashnich mevasi (15g), 40% etil spirti 1 litr nastoyka bo'lishi uchun.

Qo'llanishi: 10-20 tomchidan ovqatdan 20-30 daqiqa oldin ichiladi. Flakonda 25 ml dan chiqariladi.

3. Zubtutum (Plantago L) – Подорожник

(To'liq ma'lumot VI bobda berilgan)

Zubtutumning yangi uzilgan bargi va er ustki qismidan ajratib olingan soklar (shiralar) aralashmasi. Anasid gastritda va surunkali kolitda 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan 15-30 daqiqa oldin ichiladi. Flakonda 250 ml dan chiqariladi.

Plantaglyusid (Plantaglucidum).

Zubtutum bargidan ajratib olingan polisaxaridlar aralashmasi. Gipasid gastritlarda va normal yoki gipasid bilan kechayotgan oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kassalligida tavsiya etiladi. Preparat spazmolitik va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ham ega. Granulalar shaklda chiqariladi. 1 yoki yarim choy qoshiqdan kuniga 2-3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi. Qabul qilishdan oldin preparat 0,5 stakan iliq suvda eritiladi.

4. Piyoz (Allium) – Лук

Yer yuzida madaniy sharoitda ko'plab ekib o'stiriladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, fitonsidlar, kislotalar va boshqa moddalar bor.

Piyozning efir moyi tarkibida o'ziga xos hid va ta'm beradigan oltingugurtli birikmalar bo'ladi. Bulardan tashqari vitaminlarga – S vitamini-10–20 mg%, V₁ vitamini-60 mg%, V₂ vitamini-90 mg%, 4 mg%-karotinga boy.

Piyoz oshqozon shirasining ajralishini oshiradi, ishtaxani ochadi, ovqat xazm bo'lishini yaxshilaydi.

Piyozdan olingan allichep preparati ichak kasalliklarida (atoniya) ham tavsiya etiladi.

Gipasid va anasid gastritlarda yuqorida keltirilganlardan tashqari bir qator dorivor o'simliklar (dorivor qoqi, uchbarg igir va boshqalar ishlatiladi). Ular yig'malar tarkibida uchrashi mumkin. Quyida yig'malar amaliy tomonidan ahamiyatlidir:

1. Ishtaxani qo'zg'atuvchi yig'ma (Species amarae). Tarkibi: shuvoq o'ti-8 qism; bo'ymadaron o'ti (yoki guli)-2 qism. 1 osh qoshiq yig'mani 1 stakan qaynoq suvga solinadi. 20 daqiqa o'tgach

dokadan suziladi. 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ovqatdan 20-30 daqiqa oldin ichiladi. Qog'oz xaltachalarda 100 g dan chiqariladi.

2. Zubtutum barglari – 20 g; yalpiz o'ti, dalachoyi o'ti, moychechak guli, tirnoqgul guli, qoqi ildizi, marmarak o'ti, igir ildizi, myaniantis barglari – 10 g dan; 10 g yig'mani 250 ml suvga solinadi, 15 daqiqa suv hammomida qaynatiladi. 45 daqiqa sovitiladi, dokadan o'tkaziladi. Yig'ma siqiladi va ekstrakt xajmi 250 ml gacha etguncha qaynagan suv qo'shiladi. 50-100 ml kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin surunkali gipasid va anasid gastritda ichiladi.

3. Igir ildizi, myaniantis bargi, tillabosh o'ti, apelsin po'stlog'i, achchiq shuvoq o'ti – 20 g dan. Yig'mani tayyorlanishi va qabul qilinishi 2-yig'ma singari.

Xlorid kislotani ko'p ajralishi bilan kechadigan gastritda (giperasid) ko'rsatiladigan davoda parxez birinchi o'rinda turadi. Dorilar bilan davo qilish asosan kislotalikni kamaytirishga qaratilgan. Chunki kislotalikni ko'p bo'lishining uzoq vaqt davom etishi turli asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin (ovqatni hazm bo'lishini buzilishi, yara kasalligi, qon ketishi, onkologik kasalliklar va boshqalar).

Kislotalikni kamaytirish maqsadida ta'siri, ta'sir mexanizmi, berilishi-olinishi turli bo'lgan dori vositalari ishlatiladi. Ularni bir necha guruhga bo'lish mumkin.

1. Ajralib chiqqan xlorid kislotani kuchini sindiradigan preparatlar.

2. Xlorid kislotani ajralishini kamaytiradigan preparatlar.

3. Oshqozon shilliq pardasini xlorid kislota ta'siridan himoya qiladigin preparatlar.

4. Antibakterial ta'sirli preparatlar.

5. Fitoterapiya.

Birinchi guruh preparatlarga xlorid kislota bilan reaksiyaga kirib, uni neytrallaydigan ishqoriy xususiyatli kimyoviy moddalar kiradi. Bunday preparatlarni antatsidlar deyiladi. Bularga bikarbinat natriy, magniy oksidi, alyumin oksidi saqlagan bir qator poroshok, tabletka, suyuqlik, emulsiya shaklidagi dori vositalari kiradi. Misol tariqasida tibbiyot amaliyotida keng miqyosda ishlatiladigan almagel, almagel-A, maaloks, fosfoliyugil va boshqalarni keltirish

mumkin. Bundan ayrimlari kislotani neytrallashtirishdan tashqari shilliq pardani o‘rab oluvchi, og‘riq qoldiruvchi ta’sirga ega (almagel-A).

Ikkinchi guruhga oshqozon shilliq pardasida joylashgan xlorid kislotasi ishlab chiqaradigan hujayralar faoliyatini tormozlaydigan, pasaytiradigan dori voitalari kiradi va ularni antisekretar preparatlar deb yuritiladi. Bularga M-xolinoblokatorlar, N₂-gistaminoblokatorlar va proton pompa ingibitorlari kiradi.

M-xolinoblokatorlar oshqozon sekretar va mator (harakat) faoliyatini boshqaradigan-oshiradigan adashgan nerv (vagus nervi) ta’sirini bartaraf etadi. Natijada oshqozon sekreti va uning harakati to‘xtaydi yoki kamayadi. M-xolinoblokatorlarning asosiy preparatlariga Atropa belladonna o‘simligidan olingan va tayyorlangan Atropin, belladonna nastoykasi hamda senesio o‘simligining alkaloid platifillin, gastrozepin preparatlari kiradi. Bular ta’sirida xlorid kislotasi ishlab chiqarilishi kamayadi. Oshqozon shilliq mushaklari bo‘shashib, spazm bilan bog‘liq og‘riqlar yo‘qoladi. Shu sababdan kislotalikning oshishi va og‘riq bilan kechadigan gastritda ular tomchilar, in‘eksiya shaklida ishlatiladi.

Oshqozon sekreti va uning oshishi faqat adashgan nervlarga bog‘liq bo‘lmasdan, balki xlorid kislotasi hujayralar tomonidan ishlab chiqarilishda endogen gistaminning roli ahamiyatlidir. Chunki gistamin ushbu hujayralar faoliyatini kuchli stimulyatori hisoblanadi. Gistaminning bunday ta’siri esa maxsus retseptorlar (gistamin reseptorlari) orqali amalga oshiriladi. Bunday retseptorlar joylashishi (to‘qima, a‘zolar) bo‘yicha ikki xil N₁ va N₂ bo‘ladi. Xlorid kislotasi ishlab chiqaradigan hujayralarda esa N₂-gistaminreseptorlar joylashgan. Demak, gistaminning xlorid kislotasi ajralishini ko‘paytirishi N₂-reseptorlar orqali bajariladi. Ushbu retseptorlarni bloklovchi dori preparatlarni N₂-blokatorlar deyiladi. Ular ta’sirida gistaminning kislotasi oshirishi cheklanadi, bloklanadi. Natijada xlorid kislotasi ajralishi kamayadi, oshqozonda kislotalik pasayadi. Bu antisekretor N₂-blokatorlarga simetidin, ranitidin, famotidin va boshqalar kiradi. Ular oshqozonda kislotalik oshishi bilan kechadigan gastrit va oshqozon-ichak yara kasalligida keng ishlatiladi.

Xlorid kislotasi ishlab chiqarishini kamaytiruvchilarga praton pompa (kanal) ingibitorlari ham kiradi. Bu guruhga kiruvchi dori

vositalari xlorid kislotasi ajralishiga ishlab chiqarishiga juda kuchli ta'sir etadi. Ularning bunday antisekretor ta'siri xlorid kislotasi hosil bo'ladigan hujayralar (parietal) pardalarida N^+/K^+ ATF azani pasaytiradi va «proton nasos» faolligini bloklaydi. Natijada vodorod (N^+) ionini oshqozon bo'shlig'iga o'tishi to'xtaydi. Xlor kislotasi hosil bo'lishi kuzatilmaydi. Oddiyroq qilib aytganda «proton pompa» ingibitorlari ta'sirida xlorid kislotani sintezi-hosil bo'lishi izdan chiqadi. Shu sababdan ularning antisekretor ta'siri ancha kuchli va uzoq davom etadi. Bunday ta'sirli dori vositalariga Omeprazol va uni saqlagan preparatlar (omaks, omeprol, omez va boshqalar) kiradi. Bular antisintetor ta'sirli mavjud preparatlardan (M-xolinoblokatorlar, N_2 -gistaminblokatorlar hamda antatsidlar) bir-necha bor kuchli va samarali hisoblangani uchun ular giperatsid gastritda, ularni turlarida (eroziv gastrit, Zolinger-Elison sindromi va boshqalar) oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligiga juda keng miqyosda va samarali ishlatiladi. Chunki ular ishlatilganda yallig'langan va yaralangan oshqozon shilliq pardasini kislotasi ta'siridan saqlaydi va xavfli asoratlarni oldini oladi (qon ketishi, oshqozon devorini teshilishi va boshqalar).

Uchinchi guruh preparatlariga oshqozon shilliq pardasini turli endogen va ekzogen ta'siridan himoya qiladigan dori preparatlari kirib, ularni gastroprotektorlar deb yuritiladi.

Bularga o'rab oluvchi va burishtiruvchi ta'sirga ega bo'lgan turli moddalar, preparatlar qaraydi.

O'rab oluvchi moddalarga tarkibida shilimshiq saqlangan asosan dorivor o'simliklar kiradi. Ular qabul qilinganida oshqozon shilimshiq pardasining satxini o'rab olib, turli ta'sirlardan (xlorid kislotasi, fermentlar, mahalliy ta'sirli dori vositalari) himoya qiladi. Bulardan oldingi betlarda qayd etilgan dorivor o'simliklar (shuvoq, sigir quyruq, zig'ir, zubturum, oqqoldirmoq va boshqalar)ni keltirish mumkin.

Burishtiruvchi moddalar esa oshqozon shilliq pardasi satxidagi hujayralarni burishtirib, yupqa pardaga o'xshash qattiq qavat hosil qilib, turli endogen va ekzogen ta'sirlardan saqlab, shilliq pardani yallig'lanishini qaytishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, sezuvchi nervlarni ta'sirlanishdan saqlab, og'riqni qoldiradi. Bularga misol qilib bir necha o'simliklardan olinadigan tanin, tanalbin preparatlari

hamda eman po'stlog'i, dalachoy o'ti, ilinsimon toron ildizi, g'ozpanja ildizi va boshqalardan tayyorlangan fitopreparatlarni keltirish mumkin. Bular alohida tayyorlangan preparat sifatida yoki yig'malar tarkibida ishlatiladi.

Kislotalikning oshishi bilan kechadigan gastritda to'rtinchi guruhga tegishli preparatlar – bakteriyalarga qarshi ta'sir etadigan – antibakterial dori vositalari kiradi. Chunki oldingi satrlarda qayd etilganidek surunkali gastritlarni, oshqozon-o'nikki barmoq ichak yara kasalligini kelib chiqishida *Helibacter pylori* bakteriyasi sabablaridan biri ekanligi aniqlangan va tan olingan. Shu sababdan bu kasallikka duchor bo'lgan bemorlarga davo ko'rsatishda yuqorida keltirilgan dori vositalaridan tashqari *Helibacteria pylori* bakteriyasiga qarshi ta'sir etadigan preparatlar tayinlandi. Bu borada asosan metrinidazol, tetrasiklin va boshqa preparatlari, antatsid, xolinobikator, N₂-bikator yoki «protan pampa» ingibitorlari bilan birga tavsiya etiladi.

Demak, kislotani oshishi bilan kechadigan xastalikni davo qilish kompleks ravishda olib boriladi. Bundan asosiy maqsadlardan biri bu kasalliklarni asoratlarini (yara kasalligi va boshqalar) oldini olishdir.

Bu borada dorivor o'simliklardan ajratib olingan biologik faol moddalar saqlagan dori vositalari yoki giyohlarning o'zidan tayyorlangan fitopreparatlar va fitoyig'malar ham ahamiyatdan holi emas.

Oldingi satrlarda keltirilgan atropa belladonna va senesio o'simliklaridan olingan atropin, belladonna va platifillin preparatlari, ularni xlorid kislotani ajralishini kamaytirishi to'g'risida so'z borgan edi (IV bobga qarang).

Bulardan tashqari quyidagi dorivor o'simliklar ham davo ta'sirga ega.

5. Oddiy igir (*Acorus celamus*) – Айр болотный

Ko'p yillik o't o'simlik. O'zbekistonning Xorazm va Samarqand viloyatlarida uchraydi.

Kimiyoviy tarkibi. O'simlikning ildiz poyasida 5% efir moyi, achchiq akorin glikozidi, oshlovchi moddalar, smola va 25,5%

gacha kraxmal bor. Igir bargi tarkibida efir moyi, 150 mg% gacha S vitamini va oshlovchi moddalar bor.

Farmakologik xossalari. Oshqozon sekretsiyasiga ta'siri bo'yicha bir xil bo'lgan fikr yo'q. Lekin o'simlik ildizpoyasining galen preparatlari oshqozon sekretsiyasiga antasidlarga o'xshash ta'sir etishi ularni xlorid kislotani o'ziga shimdirib (adsorbsiya) olishi yoki neytrallishi natijasida kislotalikni pasaytiradi degan fikr bor. Ushbu fitopreparatlarni boshqa farmakologik ta'sir (spazmolitik, jigar o't va peshob haydovchi) etishi aniqlangan.

Qo'llanishi. Igir preparatlari kuchli zarda va oshqozon satxida og'riq bilan kechadigan ma'dada kislotalikning yuqori darajasida bo'lishida antasid sifatida beriladi. Bunda ildizning proshoki yoki damlamasi kuniga 4-5 marta qabul qilinadi.

Igirning ildiz proshogi «Vikalin» va «Vikair» kompleks preparatlari tarkibiga kiradi. Ular oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida keng ishlatiladi.

Igir damlamasi (Infusum rhizmae Acori Calami) 1:20(10,0-200ml) nisbatda tayyorlanib ¼ stakandan kuniga 3-4 marta ichiladi.

6. Qizilmiya (Glyzyrrhiza L.) – Солодка (IV – bo'limga qarang)

Qizil miyaning ildizi va ildizdagi flavonoidlar yig'indisini saqlagan «Likviriton» fitopreparati mahalliy yallig'lanishga qarshi va spazmalitik ta'sirlaridan tashqari oshqozon sekretsiyasini kamaytirish xususiyatiga ega. Shu sababdan «Likviriton» giperacid gastritda va xlorid kislotani oshishi bilan kechadigan oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalliga ishlatiladi. Preparatni nojo'ya ta'sirlari yo'q. Bemorlar bu dorini engil o'tkazadilar. Preparat tabletka shaklida 0,1g dan chiqariladi. Kuniga 3-4 marta ovqatdan yarim soat oldin ichiladi.

7. Bodom (Amygdalus L.) – Миндаль

O'zbekistonning viloyatlarida (Toshkent, Jizzax, Surxandaryo) o'sadigan daraxt.

Kimyoviy tarkibi: har ikkala bodomning (achchiq va chuchuk) mag'izi tarkibida 45-62% moy, 20% oqsil modda, V₂-vitamini, 2-3% saxaroza va emulsin fermenti bo'ladi.

Tibbiyotda achchiq va chuchuk bodom mag‘zidan olingan yog‘ yengil surgı sifatida qabziyatda, chuchuk bodom mag‘zidan tayyorlangan emulsiya o‘rab oluvchi, ichni yumshatuvchi sifatida ichiladi. Bundan tashqari, emulsiya xlorid kislotasi ishlab chiqarishini kamaytiradi. Shu sababdan kislotalikni oshishi bilan kechadigan gastritda, oshqozon va o‘nikki barmoq ichak yara kasalligida beriladi.

Kislotalikni oshishi bilan davom etadigan gastritda yuqorida keltirilgan fitopreparatlardan tashqari, tarkibida yallig‘lanishga qarshi, o‘rab oluvchi, burishtiruvchi va spazmolitik ta‘sirli dorivor o‘simliklar saqlagan yig‘malar (fitoyig‘malar) ham ishlatilishi mumkin. Misol tariqasida quyidagi yig‘malarni keltiramiz:

1. Gulxayri ildizi, moychechak guli, tirmoqqul guli, qizilmiya ildizi, dalachoy o‘ti, buznoch guli, bo‘ymadaron o‘ti, eman po‘stlog‘i, arslonqo‘yruq o‘ti, gnafoium o‘ti—10 grammdan. 10 gr yig‘ma 250 ml suvga solinadi, suv hammomida 15 daqiqa qaynatiladi. 45 daqiqa sovutiladi, dokadan o‘tkaziladi. Dokada qolgan yig‘ma qoldig‘i siqiladi, eziladi. Ekstrakt hajmini qaynagan suv qo‘shib 250 ml ga yetkiziladi. 60-100 ml dan kuniga uch marta ovqatdan oldin ichiladi (normal kislotalik va giperacid gastritda ichiladi).

2. Qon cho‘p o‘ti-10g, bo‘ymadaron o‘ti, moychechak guli, dalachoy o‘ti—30 g dan. Tayyorlanishi va ishlatilishi 1-yig‘ma kabi.

Oshqozon va o‘nikki barmoq ichak yara kasalligi

Bu kasallik surunkali xastalik bo‘lib, oshqozon va o‘nikki barmoq ichak shilliq pardasida yara paydo bo‘lishi natijasida yuzaga chiqadi. Kasallik yaraning vaqti-vaqtida bitib va qaytarilib (residiv) turishi bilan xarakterlanadi. Kasallikni kelib chiqishi sabablari turlicha bo‘lib, ular ikkiki guruhga ekzogen va endogen faktorlarga bo‘linishi mumkin. Ekzogen faktorlarga qattiq, dag‘al, sho‘r, achchiq, yomon chaynalgan ovqatlar qabul qilish (mexanik nazariya). Endogen faktorlarga oshqozon xlorid kislotasini yuqori darajada ko‘payishi me‘da va o‘n ikki barmoq ichak shilliq pardasini turli ta‘sirlardan (xlorid kislotasi, pensin) himoya qiluvchi shilliqni kamayishi, bu a‘zolar faoliyatini neyrogumoral va endokrin boshqarishni buzilishi (asosiy faktorlar-o‘tkir va surunkali ruhiy kechikmalar va b.) hamda 1988-yilda aniqlangan spiralsimon

bakteriya. Helibakter pylorining yara kasalligi kelib chiqishida sababchilardan biri aniqlangan.

Kasallikning asosiy klinik belgisi og'riqdir. Og'riq (sanchiqli, kesuvchi, siquvchi) ma'lum darajada takrolanib, kunning ma'lum vaqtlarida kuzatiladi va ovqatlanish bilan bog'liqdir. Ovqatlanishdan keyin qisqa muddatda (20-30 daqiqa) paydo bo'ladigan erta og'riqlar me'da yarasiga xos. Och qoringa, tungi va kech ovqatlanishdan 1,5-3 soat o'tgach paydo bo'ladigan og'riqlar esa o'nikki barmoq ichak yara kasallikga xos bo'lib, ovqat qabul qilish og'riqni pasaytiradi. Shu bilan birga, yara kasalligini og'riqsiz turi ham mavjud. Bemorda og'riqdan boshqa turi o'zgarishlarni (ko'ngil aynish, qusish, zarda qilish) tuzatish mumkin.

Bu kasallikni aniqlash rentgenoskopiya, rentgenografiya va hozirda asosan endoskopiya usullaridan foydalaniladi. Yara kasallikni xavfli asoratlari bo'lib, ular asosan yaradan qon ketishi (ko'proq o'nikki barmoq ichak yarasida), oshqozon-ichak devorining teshilishi (perforatsiya), oshqozonni o'nikki barmoq ichagiga o'tish joyida chandiqlar hosil bo'lishi va ovqat massasining o'tishini qiyinlashishi va yarani rak (o'sma) kasalligiga o'tishi (asosan oshqozonda joylashgan peptik yarada kuzatilish mumkin). Bu asoratlarni deyarlik hammasi hayot uchun xavfli bo'lib, ko'pincha shoshilinch jarrohlik yordamini talab qiladi.

Shuning uchun shifokorlarning (gastroenterologlarni) asosiy vazifasi bemorlarni davolash va bu asoratlarni oldini olishdir.

Bemorlarga davo ko'rsatishning (gastritni davolash singari) turlari quyidagicha:

1. Parxez.
2. Farmakoterapiya.
3. Fizioterapiya.
4. Sanatoriya kurort davosi.

Bulardan farmakoterapiya davo ko'rsatishning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Bemorlarni turli dori darmonlar bilan davo qilishda (farmakoterapiyada) farmakologik ta'siri, ta'sir mexanizmi, olinishi va ishlatilishi turlicha bo'lgan dori moddalaridan-preparatlaridan foydalaniladi. Bunda bemorni ahvoli, kasallikning og'ir-yengilligi, uni simptomlari, asoratlari va oshqalar inobatga olinadi.

Davo ko'rsatishda yara kasalligining kelib chiqishida bevositita qatnashadigan asosiy sababchilardan biri bo'lgan xlorid kislotasi va pepsin fermentini kamaytirishga qaratilgandir. Chunki bu yara kasallik deyarlik hamma vaqt (o'nikki barmoq ichak yara kasalligida) kislotalikni va pepsin fermentining oshishi bilan birga kechadi va ko'pincha yara kasalligining xavfli asoratlariga sababchi bo'ladi. Umuman olganda oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligini davolash bo'yicha standart sxemasi ishlab chiqilgan. Bu standart sxemasi asosan kislotalikning oshishi bilan kechadigan gastritda qo'l keladigan dori preparatlari ham kiritilgan.

Oldingi betlarda keltirilganidek giperatsidli surunkali gastritda quyidagi preparatlar guruhi qayd etilgan edi:

Antatsidlar (almagel, maaloks va b.).

1. M-xolinoblokatorlar (atropin, belladonna preparatlari, gastrozepin va b.).

2. N₂-gistaminblokatorlari (simetidin, ranitidin, famotadin va b.).

3. «Proton pompa» ingibitorlari (omeprazol, omaks va b.).

4. Gastroprotektorlar (o'rab oluvchilar, burishtiruvchilar).

5. Antibakterial preparatlar (metrinidazol, tetrasiklin va b.).

Yara kasalligini davolashda keltirilgan 6 guruh preparatlardan tashqari yara bitishini tezlashtiradigan, og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi, tinchlantiruvchi va boshqa dori vositalari, fitopreparatlar ham ishlatiladi.

Shu jumladan, yuqorida qayd etilgan dori preparatlari orasida dorivor o'simliklardan ajratib olingan biologik faol moddalar (alkaloidlar) saqlagan dori vositalaridan (atropin, belladonna preparatlari, platifillin) tashqari, bir qator dorivor o'simlik fitopreparatlar va ularning kompleks yig'malari ham mavjud.

Bular qatoriga giperatsid gastritning davolashda qayd etilgan «Likviriton», tanin, tanalbin fitopreparatlari bilan birga qo'shimcha quyidagi dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan dori vositalarini keltirish mumkin.

1. Kaleflon (Caleflonum) – Dorivor tirnoqgul gulining tozalangan quruq ekstrakti. Oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida va surunkali gastritning avj olishida, yallig'lanishga qarshi hamda yara bitishini tezlashtiruvchi (reparativ regeneratsiyani

o'shiruvchi) dori vositasi sifatida tavsiya etiladi. Tabletkalar shaklida (0,1 g) chiqariladi. Ovqatdan keyin kuniga uch marta qabul qilinadi.

2. Botqoq gnafalium o'ti (Herbe Gnaphalii uliginosi) – Gullagan vaqtda va quritilgan o'ti ildizi bilan tayyorlangan fitopreparat tarkibida K-vitami, burishtiruvchi va boshqa moddalar bor. Oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida yallig'lanishiga qarshi vosita sifatida damlama shaklida (10,0-200 ml) osh qoshiqda kuniga 2-3 marta ichiladi.

3. «Vikalin» tabletkalari (Tab. «Vikalinum») – *Tarkibi*: vismut nitrat (0,35), magniy karbonat (0,4g), gidrokarbonat natriy (0,2g), igir ildizining poroshogi va frangula po'stlog'i poroshogi (0,025g-dan), rutin va kelin (0,005g). Tabletkalar kompleks ravishda (burishtiruvchi, antatsid va b.) ta'sir etadi. Oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida va giperpsid gastritda 1-2 tabletkadan kuniga 3 maxal ovqatdan keyinyarim iliq suv bilan ichiladi.

4. «Vikair» tabletkalari (Tab. Vikairum) – *Tarkibi*: vismut natriy (0,35g), magniy karbonat (0,4g), igir ildizi va farangula po'stloq poroshogi (0,025g). Tabletkalar oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida va giperatsid gastritda 1 tabletkadan kuniga 3 marta ovqatdan keyin chorak stakan suv bilan qabul qilinadi.

100 tabletkadan o'ralgan holda chiqariladi.

8. Salob (Orchis maculata) – Ятрыщник пятнистый

Ko'p yillik o'simlik. MDHning yevropa qismida o'sadi.

Kimyoviy tarkibi: salob ildizining tuganaklarida 50% gacha shilliq va 30% gacha kraxmal hamda dekotron? qand polisaxoridlar? mineral tuzlar? Glyukozbdlar, efir moy va boshqa moddalar bor.

Farmakologik xossalari. Ildiz tuganaklardagi ko'p miqdorli shilliq va kraxmal hisobiga o'simlik shillig'i yaxshigina o'rab oluvchi, yallig'lanishga qarshi va yumshatuvchi ta'sir etadi. Shilliq parda orqali zararli moddalarni surilishiga to'sqinlik qiladi.

Qo'llanishi. O'simlik shilliq moddasi oshqozon va o'nikki barmoq ichak kasalligida, giperatsid gastritda gastroentritda va kolitda qo'llanadi.

Salob shillig'i (Mucilaginis Salepe).

O'smilik shillig'ini qabul qilishdan oldin tayyorlanadi. Buning uchun 3-5g ildiz tuganagini maydalab yarim stakan sovuq suv bilan aralashtiriladi. Keyin asta-sekin 1,5-2 stakan bo'lgacha qaynoq suv qo'shiladi va 10-15 daqiqa aralashtiriladi. 1-2 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ovqatdan keyin ichiladi.

9. Burga zubturumi (*Plantago psyllium* L.) – Подорожник блошинный (To'liq ma'lumot VI bobda berilgan)

Farmakologik xususiyatlari: urug' tarkibidagi ko'p miqdorda shilliq moddalar bo'lishi hisobiga o'rab oluvchi va yallig'lanishga qarshi va ichni surish ta'siri aniqlangan. Bundan tashqari urug' shillig'i kolloidli modda bo'lgani uchun bakteriyalarni ushlab so'rib oladi. O'simlikning galen preparatlari qisman qon oqishini kamaytiradi. Shu sababdan ular oshqozon va o'nikki barmoq ichak kasalligida yaradan qon ketishida ishlatiladi.

Burga zubturum urug' shillig'i (*Mucilogenis seminis Plantago psyllis*) ishlatishdan oldin tayyorlanadi. Buning uchun 2 osh qoshiq urug'i yulib olinadi va 200 ml qaynoq suvga solinadi. 10 daqiqa sovitiladi va naxorda 1 osh qoshiqdan ichiladi.

10. Jumrutsimon chakanda (*Hyppophae rhamnoides* L.) – Облепиха крушиновидная

Bo'yi 1-6m bo'lgan ikki uyli buta yoki daraxt. O'rta Osiyoda va boshqa janubiy mamlakatlarda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi: chakandaning mevasi tarkibida 450mg% vitamin S, 0,035mg% vitamin V₁, 0,056mg% vitamin V₂, 145mg% vitamin E, 60mg% karotin va boshqa karotindoshlar, 0,70% folat kislota, 9% mevasining pishgan qismida yog', flavonoidlar, 3,65% qand, ursol kislota, 2,04% organik (asosan olma va vino) kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi. Urug'ida 12,5% yog', 0,28mg% vitamin V₁, 0,38mg% vitamin V₂, 14,3mg% vitamin E va 0,3mg% karotin bor.

Chakanda moyi olsin, sterin, linol, linolen va alniti kislotalarining glidseridlaridan tashkil topgan bo'lib, tarkibida 180-300mg% karotinoidlar, 100-160mg% vitamin E va F bo'ladi.

Farmakologik xossalari: laboratoriya hayvonlarida o'tkazilgan tajribada chakanda moyining yaralar (terini ko'z shox pardasining

kuyish yarasi va b.) bitishini regeneratsiyani tezlashtirishi aniqlangan. Bundan tashqari, chakanda moyining antibakterial ta'siri natijasida stafillokkok, esherixiy protey gemolitik streptokokklarning o'sishini to'xtatishi, antisklerotik, jigar foliyatiga ijobiy ta'siri aniqlangan.

Qo'llanishi: terining turli yarasida (kuyish, trofik yara va b.) ginekologik yaralar, ko'z yaralarida shuning bilan birga oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida, yaralik qolit, praktit va b. ishlatiladi.

Preparati: chakanda moyi (*Oleum Hippophaeae*) dermatologiya amaliyotida turli yaralarni bitishini tezlashtirish uchun sirtga qo'llanadi. Oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida 1 choy qoshiqdan kuniga 2-3 marta ovqatdan 30-40 daqiqa oldin ichiladi.

Flakonda 50,100,200 ml dan chiqariladi.

Oshqozon va o'nikki barmoq ichak yara kasalligida yuqorida qayd etilgan dorivor o'simliklardan tashqari, ularning yig'malari ham ishlatiladi. Yig'malar tarkibida asosan o'rab oluvchi, yallig'lanishga qarshi, yara bitishini tezlashtiradigan, og'riq qoldiradigan, qon ketishini to'xtatadigan, asab sistemasini tinchlantiradigan ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklar bo'ladi. Yig'malar kasallikni qaytarilishida (residiv) ham residiv yo'q davrda ham beriladi. Kasallikni kechishiga, asorati va simptomlariga qarab yig'ma tarkibi fitoterapevt tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Misol tariqasida quyidagi yig'malarni keltiramiz. Kasallikni qaytarilishida (residiv) beriladigan yig'ma:

Eman po'stlog'ida qolgan ildizi, suli donlari, qoqi ildizi, shuvoq o'ti, shirinmiya ildizi, bo'ymadaron o'ti, chakanda novdasi, oq atirgul bargi, marmarak o'ti—5 g dan. 10 gr yig'mani 250 ml qaynoq suvga solinadi. Suv hammomida 10 daqiqa qaynatiladi, termosda 2 soat saqlanadi, dokadan o'tkaziladi, 50 ml dan noxorga ichiladi, kun davomida har ovqatdan 1 soat keyin va tunda og'riqda ichiladi.

Yaradan qon ketishida quyidagi yig'ma tavsiya etiladi:

Igir ildizi, qo'shtaron o'ti, tog'rayxon o'ti, tillabosh o'ti, zig'ir urug'i, limono't bargi, na'matak mevasi, shotora o'ti, polimonium o'ti, lamium o'ti 5 g dan. Tayyorlanishi va ishlatilishi 1-yig'madek.

Kasallik qo'zg'amagan (remissiya) davrida quyidagi yig'ma tavsiya etiladi:

3. Qashqarbeda o'ti, kiprey o'ti, igir ildizi, moychechak guli, marmarak o'ti, 20g dan. Tayyorlanishi va ishlatilish 1-yig'ma singari.

Remissiya davomida dorivor o'simliklarni yakka holda ishlatilishi tavsiya etiladi. Masalan: 20 g zig'ir urug'i, 300 ml qaynoq suvga solib, 8 soatga qoldiriladi, keyin dokadan o'tkaziladi va yuviladi. 100 ml dan ovqatlanmagan davrda, uyqudan oldin va kechasi og'riq bo'lganda ichiladi.

Andiz ildizi (2 osh qoshiq) 500ml qaynoq suvga solinadi. 2 soatdan keyin 80-120 ml iliq damlamasidan kuniga 3-4 marta ovqatdan oldin ichiladi.

Surunkali enterit.

Surunkali enterit deganda ingichka ichakning shilliq qavati yallig'lanishi va distriфик o'zgarishlari tushuniladi. Bu o'zgarishlar uning atrofiyasiga olib kelishi mumkin.

Kasallikning sabablari turlicha. O'tkir enteritni noto'g'ri davolash, alimantar o'zgarishlar (o'z vaqtida ovqatlanmaslik, dag'al, achchiq, sho'r ovqatlar, ovqatni yaxshi chaynamasdan shoshib yeyish, sifatsiz oziq ovqat eyish, spirtli ichimliklar), tamaki chakish gijja invaziyasi amyoba, lyamblioz, oshqozon shirasini kamayishi, oshqozon osti bezlarini faoliyatini buzilishi va boshqalar sababchi bo'lishi mumkin.

Surunkali enterit disbakterioz (ichak mikroflorasini o'zgarishi) kandidamikoz zambrug'ini o'sishiga olib kelishi mumkin. Bu holat antibiotiklarni (tetrasiklin va b.), sulfanilamid preparatlarini betartib nazoratsiz va uzoq vaqt qabul qilishdan kelib chiqishi mumkin.

Ingichka ichakda sodir bo'ladigan o'zgarishlar uning asosiy faoliyati bo'lgan qabul qilgan oziq-ovqatni so'rilishini, hazm bo'lishini buzilishiga olib keladi. Organizmga zarur bo'lgan uglevodlar, yog'lar, oqsil va boshqa moddalar so'rilishi izdan chiqishi natijasida turli patologik o'zgarishlar (avitaminoz, moddalar almashinishi va b.) kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, ichak mikroflorasi tomonidan ayrim vitaminlarni (vitamin K, vitamin V₅) sintezi buziladi. Shunday qilib, surunkali enteritda

nafaqat ichakdagi mahalliy o'zgarishlar kuzatiladi, balki butun organizmda ham turli patologik holatlar namoyon bo'lishi mumkin.

Bemorlar qorinda yoqimsiz sezgi – ayrim hollarda og'riq, qorinning dam bo'lishi, quldirashidan shikoyat qiladilar. Ich ketishi (diareya) najasda ham turli ovqat bo'laklari bo'ladi. Umumiy quvvatsizlik, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, ishtaxani pasayishi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Kasallikning yengil kechishida qayd etilgan o'zgarishlar uncha bilinmaydi. Og'ir kechishida esa ular yaqqol namoyon bo'ladi. Organizmda ovqat moddalarini tansiqiligi bilan bog'liq o'zgarishlar zo'raya bordi.

Bemorlarga davo ko'rsatishda kasallikning og'ir yengil kechishiga qarab turli davo tadbirlari ko'riladi. Yengil kechishda asosan parhez buyuriladi va ayrim simptomatik davo ko'rsatilsa og'ir kechishida esa kasalxonaga yotqiziladi. Kasallik tufayli kelib chiqqan umumiy o'zgarishlarni bartaraf etish choralari ko'riladi.

Bunda organizmni tanqislikdan kelib chiqqan o'zgarishlarga qarab o'rin bosar preparatlar (vitaminlar, glyukoza, fiziologik eritma, oqsil, uglevod yog' va b.) shaklda yuboriladi. Bu dori-darmon moddalar parenteral yo'l bilan yuboriladi. Bundan tashqari, ingichka ichak faoliyatini tiklash tadbirlari ko'riladi. Chunonchi, ich ketishi to'xtaganda (loperamid), ko'p suyuqlik yo'qatilganda xolesteramin, va belegin, qorin dam bo'lganda (adsarbentlar, karbolen), ichak atoniyasida esa ichak harakatini tiklaydigan (prozerin, kaliy xlorid), og'riq bilan davom etsa spazmolitiklar (noshpa), disbakterioz bo'lsa ichak mikroflorasini tiklaydigan (bifilumbakterin, bifakol), infeksiya bilan bog'liq turlarida antibakterial preparatlar (antibiotiklar, sulfanilamidlar va boshqalar) beriladi.

Bular bilan bir qatorda, yallig'lanishga qarshi, o'rab oluvchi, burishtiruvchi, og'riq qoldiruvchi ta'sir etadigan dorivor o'simliklardan tayyorlangan fitopreparatlar (yig'malar) yaxshi davo ko'rsatadi. Masalan, quyidagi yig'malar tavsiya etiladi:

1. Fenxel mevasi, igir ildizi 15 g dan; moychechak ildizi, yalpiz barglari – 30 g dan. 20 g yig'maga 500ml suv solib, suv hammomida 15 daqiqa qaynatiladi. 45 daqiqa sovitiladi dokadan o'tkaziladi, o'tmagani eziladi va ekstrakt hajmini 250 ml gacha

qaynoq suv qo‘shiladi. 100-150 ml dan iliq holda kuniga 3 marta ovqatdan keyin metiorizmida va ichak sanchig‘ida ichiladi.

2. Archa mevasi 10 g, fenxel mevasi, qora zira mevasi—20 g dan moychechak guli, yalpiz bargi—25 g dan. Tayyorlanishi 1 yig‘ma singari. 100-150 mm dan iliq holda kuniga 2 marta ovqatdan keyin ertalab va kechqurun ichiladi.

3. Ko‘ko‘t (sangadora), jumrut mevasi, olxa, yalpiz o‘ti, qora zira mevasi, fenxel mevasi, shirinmiya ildizi, toron ildizi, moychechak guli, dalachoy o‘ti—10 gr dan. 10 g yig‘mani 200 ml qaynagan suvga solinadi, qaynatiladi 45 daqiqa sovitiladi, dokadan o‘tkaziladi, qolgan yig‘ma qoldig‘i siqiladi va damlama 1/3-1/2 stakandan kuniga 3- marta 30 daqiqa ovqatdan oldin surunkali enteritda ichiladi.

Surunkali kolit

Surunkali kolit yo‘g‘on ichak shilliq qavatining distrofik o‘zgarishlar bilan kechadigan yallig‘lanishdir. Bu patologik holat yo‘g‘on ichakning shira ajralishi sekretiya, surilish, xarakat va boshqa faoliyatlarining buzilishiga olib keladi.

Sabablari: infeksiya ko‘proq dizenteriya, zaharlanish (qo‘rg‘oshin simob), alkagol, surgi dorilar, parazitlar invazyalar (amyoba, lyamblioz gijjalar), oshqozon axiliyasi, avitaminoz S va b.

Surunkali kolitning rivojlanishida autoallergik va allergik o‘zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Surunkali kolitning asosiy belgisi ich ketishini buzilishi, ich ketishiga soxta istak tenezm paydo bo‘lishi hisoblanadi. Ich ketishi, suyuq najas massasining shilimshiq bilan ajralishi, ichak bo‘shaganda engil tortish sezgisi yo‘qligi yoki badbo‘y yel chiqishi, faqat shilimshiqning chiqishi qon aralash shilimshiq bilan qoplangan bo‘lishi mumkin.

Bemorni davolashda parxezdan tashqari kasallikning sabablariga qarshi, organizmni kasallikga qarshiligini ko‘tarish, yallig‘langan yo‘g‘on ichakka yuklamani kamaytrish, yallig‘lanishga qarshi choralar va boshqa tadbirlar ko‘riladi. Chunonchi, antibakterial preparatlar (antibiotiklar, sulfalizin), o‘rab oluvchilar va burishtiruvchilar, spazmolitiklar, vitaminlar, allergiyaga qarshi dori preparatlari va mahalliy muolajalar (ichakni

chayish, dori darmonli klizmalar, subakval vannalar, shilliq parda regeneratsiyasi kuchaytiradigan dori vositalari) beriladi.

Shular bilan bir qatorda, dorivor o'simliklardan tayyorlangan o'rab oluvchi, regeneratsiyani tezlashtiradigan, burishtiruvchi ta'sirli fitopreparatlar tavsiya etiladi. Bular qatoriga kiradigan quyidagi yig'malarni qo'shish mumkin:

1. Moychechak guli, fenxel mevasi, qora zira mevasi, olxa, yalpiz bargi, shuvoq ildizi, dalachoy o'ti, zubtutum bargi, bo'znoch guli va limon o't mevasi 10 g dan. 20 g yig'maga 500 ml suv quyiladi, suv hammomida 15 daqiqa qaynatiladi, 45 daqiqa sovutiladi, dokadan o'tkaziladi, qolgani siqiladi, ekstraktga 500 ml ga etguncha qaynagan suv quyiladi. 60-100 ml kuniga 3 marta ovqatdan oldin surunkali spastik kolitda ichiladi.

2. Arpabodiyon mavasi fenxel mevasi 10 g dan yalpiz bargi 20 g moychechak guli, jumrut po'stlog'i 30 g dan. Tayyorlanishi 1 yig'ma singari surunkali spastik kalitida 60-100 ml dan kuniga 3 maxal ovqatdan oldin ichiladi.

Gemorroy. Bavosil

Bavosil to'g'ri ichakning kasalligi bo'lib, unda vena qon tomiri tugunchalarining kengayishi bilan kechib ko'pincha shilliq pardaning yallig'lanishiga olib keladi. Vena qon tomirlarida qon yeg'ilishi natijasida kengayib shishib gemorraidal tugun hosil bo'ladi. Vaqti-vaqtida ayniqsa, najasni chiqarishda (defekatsiyada) bu shishish tugunchalar yorilib qon ketadi, og'riydi. Yaralangan va tromblar bilan kechadigan turi kuchli og'riq berishi mumkin.

Bavosil tugunchalarining kechishi ularni qayerda tashqarida (orqa teshikdan chiqib turadi) va ichkarida joylashishga bog'liq. Bu kasallik uzoq vaqt harakatsiz o'tirishdan va surunkali qabziyatdan kelib chiqadi.

Bemorlarga davo ko'rsatishda og'riqni qoldiradigan, yallig'lanishga qarshi, qon oqishini to'xtatadigan, ichni yumshatadigan, antiseptik ta'sirli dori preparatlaridan asosan mahalliy shamcha, klizma, vanna ravishda ishlatiladi. Bular orasida dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar, fitoyig'malar alohida o'rin egallaydi. Misol tariqasida quyidagi shifobaxsh o'simliklar va fitopreparatlarni keltiramiz:

11. Oddiy soxta kashtan (*Aesculus Hippocastanum*) – Каштан конский обыкновенный

Bo'yi 30 m gacha yetadigan daraxt. Markaziy Osiyoda manzarali daraxt sifatida o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi: urug' tarkibida 8-10% saponinlar (shu jumladan, essin triterpen saponini), flavonoidlar (spirireozid, kversetin, kempferin va ularning o'zi hamda triglikozidlari), eskulin, fraksin kumarin glikozidlari, 0,9% oshlovchi moddalar, 6-8% yog', 5% kraxmal, vitamin V, S va K, 8-10% oqsil moddalar bor.

Daraxtning novda po'stlog'ida 3% eskulin fraksin glikozidlari, assin triterien saponini, oshlovchi moddalar, bargi va gulida kvarsitrin, kvarsetin, rutin, karotinoidlar bo'ladi.

Farmakologik xossalari. Oddiy soxta kashtanning bargidan, gulidan, mevasidan va to'pmevasidan tayyorlangan galen preparatlarning farmakologik ta'siri tarkibidagi biologik faol modda triterpen glikozidi essinga bog'liq. Eksperiment tajribalarida essinning ta'siri vena qon tomirlariga qaratilganligi, yallig'lanishni kamaytirishi, shishlarni pasaytirishi ko'rilgan. Bu ta'siri bo'yicha butadion preparatidan ustun turishi aniqlangan. Essin kapillyarlar devorini mustahkamlaydi, o'tkazuvchanligini kamaytiradi.

Qo'llanishi. Preparatlari operatsiyadan keyingi bo'ladigan trombozlarni, tromboemboliyani oldini olish uchun, uning preparatlari (eskuzan) buvosil kasalligida va venalarni kengayib (varikoz) ketishida keng ishlatiladi.

Preparatlari.

1. Eskuzan (*Aescuson*). Oddiy kashtan mevasidan olingan suvli-spirтли ekstrakt. Tarkibidagi aralashmalar rutinga yaqin saponinlar shu jumladan, essin saqliydi. Preparat kapillyarlarni o'tkazuvchanligini kamaytiradi, vena qon-tomirlar tonusini oshiradi, yallig'lanishni kamaytiradi. Venalar tonusini oshirib, tromblarni hosil bo'lishiga qarshi, venalarda qon yig'ilib qolishda va ularni kengayib ketishida, oyoq venalarini kengayib qolishda va bavoil kasalligida ishlatiladi. 20-30 tomchidan kuniga uch marta ichiladi. Flakonda 20 ml dan chiqariladi.

2. Esflazid (*Aesflazidum*). Preparat tarkibida oddiy kashtan mevasidan olingan essin va bargidan olingan flavonoidlar yig'indisini saqlaydi. Ta'siri va davo ko'rsatish bo'yicha eskuzanga

yaqin. Flebit, tromboflebit va gemorroyda ishlatiladi. 1 tabletkadan birinchi kun 2 marta, keyinchalik kuniga 3-4 ichiladi. Tabletkada 0,005 essin va 0,025 flavonoidlar bor. 30 dona tabletka o'ralgan holda chiqadi.

3. Reparil (Penaril). Preparat oddiy kashtanning mevasidan, urug'idan olingan. Triterpen saponini essinni saqlaydi. Essin yaqqol kapillyaroprotektor va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Preparat operatsiya va travmadan keyin kuzatilgan shishlarni, og'riqni kamaytirib, organ va taqima faoliyatini tiklash uchun flebitlarda, vena qon tomirlarini kengayib qolishida, gemorroyda va boshqa patologik hollarda ishlatiladi. Preparat antkaogulyantlar ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Reparil droje holda 1 donadan kuniga 3 maxal ichilaadi. Preparat droje holda 20-50 yoki 100 donadan chiqariladi.

Bulardan tashqari «betiol» (Suppo sitoria «Betiolum»), «Anuzol» (Sup. Anuzolum), preparatlar bo'lib, tarkibida belladonna ekstrakti bor. To'g'ri ichak yaralarida mahalliy ravishda ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan dorivor o'simloklar faol moddalarni saqlagan preparatlardan tashqari, fitoyig'malar ham tavsiya etiladi. Ularning tarkibida yallig'lanishga qarshi ta'sirli, ichni yumshatuvchi, og'riq qoldiruvchi va qon ketishini to'xtatuvchi yoki qon ivishini sekinlashtiruvchi dorivor o'simliklar bo'lishi mumkin.

1. Moychechak guli, valeriana ildizi, qoqi ildizi, piray ildizi 20 gr dan. 2 osh qoshiq yig'mani 0,5 litr suvda ushlab 6 soat qoldiriladi, 5-7 daqiqa qaynatiladi, dokadan suziladi. Klizma qilish uchun.

2. Sano bargi, bo'yumadaron o'ti, jumrut po'stlog'i, shirinmiya ildizi, kashtan mevasi—bir xil miqdorda. Yig'madan 1 osh qoshiq 200 ml qaynoq suvga solinadi, 1 soat qoldiriladi, dokadan suziladi. 50 ml dan kuniga 3-4 marta ichiladi.

3. Jumrut o'ti—80 g, bo'yumadaron o'ti, o'rmalovchi seberga—20 gr dan; qorazira mevasi—10 gr. 1 choy qoshiq yig'mani 200ml suvga solib, 10 daqiqa qaynatiladi, sovutiladi, dokadan suziladi. Uyqudan oldin ichiladi.

4. 2 osh qoshiq maydalangan shaftoli bargi, taron o'ti. 0,5l qaynoq suv solinadi, termosda saqlanadi. Bir kecha kunduz uchun.

Bir kurs 1,5-2 oy davom etadi. Damlama ham klizma qilish va o'tirgan holda vanna qilish uchun.

5. 30 g bo'ymadaron o'ti 1 l qaynoq suvga solib, 1 soat damlanadi. Kuniga 100 ml dan 3-4 marta choy sifatida ichiladi.

6. Antigemorroidal choy (*Species antihaemorrhoidalis*).
Tarkibi: sano bargi, jumrut ildizi, oddiy bo'madaron, kashnich mevasi, shirinmiya ildizi—20 g dan. Iosh qoshiq yig'mani 1 stakan qaynoq suvda damlanadi, 20 daqiqadan so'ng $\frac{1}{2}$ l stakandan kechqurun ichiladi.

12. Dala ononisi (*Ononis arvensis* L.) – Стальник полевой

Rossiyaning yevropa qismida, Kavkazda va Qozog'istonda o'sadigan ko'p yillik o't o'simlik.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik ildizida trifolirizin, kemipferol, trifolin va onon flavonoidlari, ononin va onospin, izoflovin glyukoizidlari, saponinlar, triterpen diomerdan oloserin, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Farmakologik xossasi. O'simlik ildizidan tayyorlangan galen preparatlari (nastoykasi) diuretik va ichni yumshatuvchi kapillyar o'tkazuvchanligini kamaytiruvchi, yallig'lanishga qarshi va qon oqishini to'xtatuvchi ta'sir etadi. Bundan tashqari, ichak peristalkasini kamaytirib, uning tonusini oshiradi.

Qo'llanishi. Dala ononsining galen preparatlari qadimdan buvosil, surunkali qabziyat, to'g'ri ichak yarasida samarali ishlatib kelinmoqda. Asosan preparatlar kasallikning avj olishida ishlatiladi. Preparat ta'sirida defekatsiya onsonlashadi, shilliq parda yallig'lanishi va og'riq kamayadi, qon ketayotgan bo'lsa to'xtaydi.

Preparatlar. Qaynatma holda (30 g ildiz 1 l suvda qaynatiladi). 50 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan oldin ichiladi.

Ononis nastoykasi (Tinct. Ononidis) 1:5 nisbatda 70° spirtda tayyorlanadi. 1 choy qoshiqdan kuniga 2-3 marta ichiladi.

Qorinning dam bo'lishi (metiorizm)

Ichni dam bo'lishi asosan ichak harakatining (peristaltikasi) turli sabablar bo'yicha pasayishi va harakatsizlanishi (atoniya) natijasida kuzatiladi. Bunda ichak bo'shlig'idagi turib qolgan ovqat

massasidan ajralgan yel yig'ila boshlaydi va bemorni bezovta qiladi. Bunday holat ko'pincha kam harakat, faqat quruq ovqat qabul qilish, qorinda jarrohlik operatsiyasidan keyin, ayrim spastik entrokolitda kuzatiladi. Metiorizmni davolashda adsorbentlar yelni shimib oluvchi karbolen. ichak harakatini tiklovchilar, yel haydovchi dori moddalari ishlatiladi. Ular quyidagilar:

13. Dorixona ukropi (Foeniculum vulgare) – Фенхель обыкновенный

Dorixona ukropi ko'p tomondan ekiladigan ukropga o'xshaydi.

Kimyoviy tarkibi. Meva tarkibida efir moyi (anetol, fenxon, pinen va b.) hamda oleynon, linolenon, steorin kislotalar bor.

Farmakologik xossasi. Galen preparatlari oshqozon-ichak sekretsiyasini va harakatini oshiradi, spazmatik, o't haydovchi ta'sir etadi.

Qo'llanishi. Spazm va metiorizm bilan kechadigan oshqozon-ichak kasalligida beriladi.

Preparatlari.

1. Fenxel mevalari (Fructus Foeniculi) – Плод фенхеля.

Fenxellar turini mevalarining yig'indisi. Metiorizmدا ukrop suvi singari elni haydovchi modda sifatida beriladi. 5-10 tomchidan ichiladi. Flakonda 5-10 ml dan chiqariladi.

2. Yel haydovchi yig'ma (Species carminabivae) – Сбор ветрегонный. Tarkibida barobar miqdorda olingan yalpiz bargi (maydalangan), fenxel mevasi va valeriana ildizini saqlaydi. Spazmolitik sifatida metiorizmда yel haydash uchun beriladi. Damlama 1 osh qoshiq 1 stakan qaynoq suvga solib damlanadi 1/4-1/2 stakandan iliq holda ertalab va kechqurun ichiladi. Karton xaltalarda 100 g dan chiqariladi.

3. Ukrop suvi (Aquaе Foeniculi). Вода укропная. Tarkibida 1 qism ukrop efir moyi 1000 qism suv metiorizmда 1 osh qoshiqdan kuniga 3-6 marta ichiladi.

Qabziyat

Qabziyat – ichning qotib qolishi asosan ingichka va ayniqsa, yo'g'on ichakning harakatini – peristaltikisini, tonusini susayib qolishidan kelib chiqadi. Bunday o'zgarishlarning sabablaridan asosiysi kasallik tufayli yoki boshqa sabablar bo'yicha harakatsiz,

kam harakat, uzoq yotib qolish bo'lsa, alimentar faktorlar quruq oziq-ovqat bilan ovqatlanish, ko'katlar, ho'l mevalar bo'lmagan ovqatlarni iste'mol qilish va boshqalar ham ahamiyatlidir. Qabziyatni bir necha turlari ma'lum: atonik va spastik qabziyatlar. Ularda atonik qabziyat ko'proq qariyalarda, yotib qolishga majbur bo'lganlarda uchraydi. Surunkali qabziyat turli asoratlarga olib kelishi mumkin. Bularni oldini olish maqsadida surgu dorilar ishlatiladi. Ularning bir necha turlari mavjud – tuzli, yog'li o'simliklardan tashkil topgan va sintetik surgu dorilar. Bulardan eng kuchlisi tuzli surgular bo'lib, ular qabziyatni o'tkir kechishida va gijjalarni haydashda ko'proq ishlatiladi. Bulardan ayniqsa, dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar o'z ta'siri bo'yicha kuchsizroq bo'lib, surunkali atoniya qabziyatida ishlatiladi, ichni yumshatadi. Ularga quyidagi dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari kiradi:

14. Sano (Cassio L.) – Кассия

O'tkir bargli sano (Cassio acutifolia) – Кассия остролистная.

Asosan O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ekiladi. Chet elda ayniqsa, Afrikada keng tarqalgan yarim buta.

Kimyoviy tarkibi. Sanoning bargi va mevasi tarkibida tegishlicha 6,17% va 2,70% gacha antrosen unumlari, flavonoidlar, kislotalar va faqat bargida smolalar bor.

Sano bargi va mevasining ta'sir qiluvchi biologik faol birikmalari antrisen unumlari (sennozidlar, aloe-emodin, resin va b.) hisoblanadi.

Farmakologik xossalari. Sano bargi va mevasidan tayyorlangan galen preparatlari asosan yo'g'on ichak peristaltikasini va tonusini oshirib, ichni surishi laboratoriya hayvonlarida o'rganilgan. Ularning bunday ta'siri tarkibidagi antrosen birikmalari ichakda parchalanib, emodin va xrizofon kislotalarni yo'g'on ichakda hosil qiladi. Ushbu kislotalar yo'g'on ichak shilliq pardasini ta'sirlab ichak harakatini oshiradi va ich yurishini keltirib chiqaradi. Shu sababdan sano preparatlarining ichning surishi qabul qilingandan 8-10 soat so'ng ro'yobga chiqadi.

Qo'llanishi. Sanoning bargi va mevasidan tayyorlangan preparatlar–damlama, quruq ekstrakt, tabletkalar va b. surgu dori sifatida atonik surunkali qabziyatda, bavosil kasalida qo'llanadi.

Preparatlari.

1. Sano bargining damlamasi (Infusum foliarum Sennae) 1:10(10 g-100 ml suv). 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichiladi.

2. Sanoning quruq ekstrakt tabletkalari (Tab. Extracti Sennae sicci 0,32) 1-2 tabletkadan kuniga 2-3 marta ovqatdan oldin yoki 1-2 tabletkadan uyquga yotishdan oldin va ertalab naxorga qabul qilinadi.

3. Qizil miya ildizining murakkab poroshogi (Pulvis glycyrrhizae compositum). Tarkibi: sano bargi 20 qism, qizilmiya ildizi 20 qism, jumrut meva poroshogi 10 qism, tozalangan oltinugurt 10 qism, shakar 40 qism. 1-2 choy qoshiqni suv bilan aralashtirib yengil surgi sifatida, ayniqsa, bavoilda kuniga 1-2-3 marta ichiladi.

4. Sanoning murakkab damlamasi yoki vena ichimligi (Jnf. Sennae compositum). *Tarkibi:* Maydalangan sanoning bargi 10 qism, natriy-kaliy tartarat 10 qism, tozalangan asal 10 qism, 95% spirt 10 qism. 1-3 qoshiqdan ichiladi.

5. Surgi choyi №2. *Tarkibi:* Sano bargi 3 qism jumrut po'stlog'i va tog' jumrut mevasi 2 qismdan anis va qizilmiya ildizi 1 qismdan. 1 osh qoshiqni 1 stakan qaynoq suvga solib, damlanadi. 20 daqiqa qoldiriladi, dokadan suziladi, yotishdan oldin ½ yoki 1 stakan ichiladi.

Bulardan tashqari kalsiy tuzli antraglikozidlar saqlagan sano bargining tozalangan ekstraktidan olingan preparatlar bor.

Ularga antraseninining senadeksin, senade tabletkalari kiradi. Sanoning kompleks preparatlaridan biri kafiol (Cafiolum).

Tarkibi: Sano bargi 0,7 g, sano mevasi 0,3 g, olxori meva eti 2,2 g, anjir mevasi 4,4 g, vazelin moyi 0,84 g. Briket shaklida chiqariladi. Briketni kechqurun chaynab qabul qilinadi.

Senade (Senade).

Sano bargining antraglikozidlarini saqlaydi. A va V sennazid-larning kalsiy tuzlari saqlangan tabletkalar shaklida chiqariladi. Faolligi bo'yicha 0,6 g sanoning bargiga to'g'ri keladi. Senaden kechki ovqatdan oldin 1-2 tabletkadan ichiladi. O'ramida 50 tadan chiqariladi. Surunkali atonik qabziyatlarda ishlatiladi. Glaksena Hindiston preparatining analogi hisoblanadi.

15. Dengiz karami. Shakar limanariya (Lamanariya cachcharina) – Лиманария сахарная

Uzoq sharq dengiz bo'yida o'sadigan o'simlik.

Kimyoviy tarkibi: limanariya tarkibida uglevodlar, 30%gacha polisaxarid limonarin, 21% mannid, 4% l-fruktoza galektan pentozanlar hamda karotin, vitamin V₁, V₂, S, pigmentlar va 2,7-3% yod bo'ladi. Yodning asosiy qismi (40-90%) yodidlar va yod organik birikmalari holida bo'ladi. Lamanariyaning kulida brom, temir, kalsiy, kaliy, natriy va turli mikroelementlar bor.

Farmakologik xossalari. Eksperimental tekshirishda va laminariya preparatining ichni suradigan ta'siri aniqlangan. Bunday ta'siri o'simlik tarkibidagi polisaxaridlarga bog'liq. Ular oshqozon-ichak bo'shlig'ida shishib xajmi kattalashadi. Natijada ular ichak shilliq pardasidagi retseptorlarni ta'sirlab, ichak xarakatini kuchaytiradi. Tarkibidagi yodni hisobiga laminariya turli farmakologik ta'sir ko'rsatadi.

Qo'llanishi. Lamanariya parashogi turli kasalliklarda (ateroskleroz gipoteroz va b.) ham yengil surgi dorisi sifatida surunkali atonik qabziyatda, gemorroyda tavsiya etiladi.

Shu maqsadda ½ lchoy qoshiq poroshok kechqurun uyquga yotishdan oldin suv bilan ichiladi.

Nefritda, gemorrogik diatezda va yod preparatlarini berish man etilgan hollarda laminariy tavsiya etilmaydi. Preparat poroshok shaklida korobkada 180 g dan chiqariladi.

Ichni surish ta'sirli o'simliklarga rovoch ildizi, jumrut, frangulalar kiradi.

Yuqorida keltirilgan surguli ta'sirga ega va amaliyotda ishlatiladigan dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlardan tashqari bir qator sintetik ravishda olingan tuzli va boshqalar surgi preparatlari mavjud izofenin, guttalaks va boshqalar.

Surunkali gepatit

Surunkali gepatit – distrofik-yallig'lanish bilan kechadigan jigarning yalpi kasalligi bo'lib, ko'pincha o'tkazilgan virusli o'tkir gepatitning asorati sifatida qaraladi. Jigar hujayralarining

degenerativ va distrofik o'zgarishi jigar sirroziga olib kelishi mumkin.

Bemor jigar sohasida og'riq bo'lishiga, o'ng tomon qobirg'alar tagida og'riq bo'lishiga, ayrim paytda teri va shilliq pardalarning sariq rangli bo'lishga va terini qichishiga shikoyat qiladi. 95% bemorlarda jigar hajmi kattalashadi.

Alkogol, qovirilgan, achchiq, yog'liq ovqatlar qabul qilinganidan keyin va jismoniy harakatlarda og'riq kuchayadi. Bundan tashqari bemorlarda dispeptik o'zgarishlar ayniqsa, ertalab og'izda achchiq bemaza ta'mni sezish, ishtaxani yomonlashishi, ko'ngil aynishi ayrim holatlarda qayt qilish, ichni buzilishi, tana haroratini ko'tarilishi va qonda bo'ladigan o'ziga xos o'zgarishlar kuzatiladi. Kasallik asta-sekin rivojlanib boradi.

Surunkali faol lyupoidli gepatitda dorilarning ikki turidan foydalaniladi.

Jigar hujayralarida modda almashinuvini yaxshilovchi dori preparatlari (gepatoprotektorlar V_1 V_6 V_{12} V_S vitaminlari, lipoid kislotasi, essensial forte va b.). Jigar hujayralarining nobud bo'lishini to'xtatish va regeniratsiyani kuchaytiradigan dori preparatlari tavsiya etiladi. Aminokislotalar, oqsil gidrolizatlari (aminopeptid, albumin, aminokrovin va b.). Bular bilan birga, yallig'lanishga qarshi ta'sirli, immun sistema faoliyatini yaxshilovchi dori vositalari ham ishlatiladi. Bu maqsadda glikokortikoidlar aminoxinolinlar, sitostatiklar ishlatiladi.

Surunkali gepatitni davolashda yuqorida keltirilgan dori preparatlaridan tashqari, farmakologik ta'siri bo'yicha ularga yaqinroq bo'lgan dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan preparatlardan foydalanish ham mumkin. Bular asosiy davo ko'rsatuvchi dorilar bo'lmasa ham lekin ko'p hollarda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatib, kasallikni kechishini engillatadi va u bilan bog'liq o'zgarishlarni bartaraf etadi.

Umuman, jigar kasalligida ishlatiladigan dorilar gepatotrop vositalar quyidagi guruhlariga bo'linadi: o't haydovchi dorilar, gepatoprotektorlar, xolelitolitik dorilar. Ulardan surunkali gepatitlarda ko'pincha o't haydovchi ta'sirli va gepoprotektorlar ishlatiladi. Bunday ta'sirga quyidagi dorilar o'simliklar va ularning fitopreparatlari ham ega.

16. Qumloq bo'znochi (*Helichysum arenarium*) –

Бессмертник песчаный

Ko'p yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyoda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. Bo'znoch savatchasi (gul to'plami) tarkibida uglevanidlar (apigenin aglikonlari va ularning glikozidlari salipuriozol va boshqa glikozidlar), steroid birikmalar, karotinoidlar, filoxinonlar, organik kislotalar, polisaxaridlar, inozit, 0,4% efir moyi skopoletin kumarini, oshlovchi, shilliq moddalar bor. O'simlik yer ustki qismida oshlovchi moddalar, K vitamini, efir moyi bor.

Farmakologik xossasi. Bo'znochning galen preparatlari o't haydaydigan ta'sirga ega. O't kislova konsentratsiyasini kamaytiradi, jigar o'tida holatlar va bilirubin miqdorini oshiradi. Bundan tashqari, spazmolitik va qisman antibakterial ta'siri aniqlangan.

Bo'znochning gul savatchasining ekstrakti va qaynatmasi o't haydovchi sifatida o't-tosh kasalligida, xolessistitda, surunkali gepatitda, o't yo'li diskneziyasida ishlatiladi. O't xaydaydigan yig'malar tarkibiga kiradi.

Preparatlari.

1. Qaynatma (10g-250ml) iliq holda $\frac{1}{2}$ stakandan kuniga 2-3 marta ichiladi.

2. Bo'znochning quruq ekstrakti (Ext. *Florum Helicrysi arenoris siccum*). Granula shaklidagi bo'znoch gulining quruq ekstrakti. 1g dan kuniga 3 marta ichiladi.

3. O't haydaydigan yig'ma (*Specits chologoga*).

Tarkibi: bo'znoch guli-4 qism, uchbargning bargi-3 qism, yalpiz bargi-2 qism, kashnich mevasi 2 qism. 1 osh qoshiqni 2 stakan qaynoq suvga solib, damlab, 20 daqiqa o'tgach dokadan o'tkazib $\frac{1}{2}$ stakandan kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

O't haydovchi yig'ma №2 (*Species chologoga №2*).

Tarkibi: Bo'znoch guli 4 qism, bo'ymadaron bargi 2 qism, yalpiz bargi 2 qism, kashnich mevasi 2 qism. Tayyorlanishi va ishlatilishi o't haydovchi yig'ma singari. Ikkala yig'malar qog'oz haltachalarda 100 g dan chiqariladi.

Bo'znoch o'simligidan o't haydovchi flamin va virusga qarshi areparin preparatlari olingan.

17. Oddiy zirk (*Berberis vulgaris* L.) –

Барбарис обыкновенный

Tikonli buta. Zirkning asosiy zaxirasi Shimoliy Kavkaz hisoblanadi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning hamma qismida protaberberin guruhiga kiradigan alkaloidlar bo'ladi. Ularni bir qanchasi ajratib olingan: berberin, palmetin, yatorizin, kolumbamin, bermamin va b.

Farmakologik xossasi. Barbaris ildizi preparatlari o't qopiga fistula quyilgan laboratoriya hayvonlarda bajarilgan surunkali tajribalarda o't ajralishini oshirgan. O'tni ajralishini bunday ko'payishi o't yo'llari va o't qopidagi yallig'lanishni yo'qotish uchun yaxshi sharoit tug'diradi.

Qo'llanishi. Barbarisning preparatlari gepatitlarda gepatoxolesistitlarda, o't yo'li diskineziyasida ishlatiladi. Berberin ikkilamchi gepatit asoratini bergan surunkali xolesistitda bemorlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Turli sabablardan kelib chiqqan surunkali gepatitda berberinning davo ta'siri natijasida jigar hajmi kichrayadi, og'riq kamayadi, qondagi bo'ladigan o'zgarishlar ham sekin-asta o'z holiga keladi. Sirrozgga o'tgan surunkali gepatitda berberin samarasiz.

Preparatlari.

Barbarin bisulfat (Berberini bisulfas)

Berberin alkalodining sulfat tuzi sifatida tibbiyotda ishlatiladi. Preparat turli kasalliklarda shu jumladan, surunkali gepatitda, gepatoxolesistitda, xolesistitda, o't tosh kasalligida ishlatiladi. 0,005-0,01g kuniga 3 marta ovqatdan oldin ichiladi. Homiladorlikda berilmaydi. Tabletka shaklida 0,005 g dan chiqariladi.

Amur barbrinining barglari nastoykasi (Tinc. Folium Berbris amuresis). (1:5 nisbatda 40⁰ spirtida tayyorlanadi). Tarkibida berberin va boshqa alkaloidlar bor. 15-20 tomchidan kuniga 2-3 marta ichiladi.

O't qopi tosh kasalligida (kalkulez xolesistitda) qo'shimcha davo sifatida quyidagi yig'ma tavsiya etiladi.

Qayin kurtagi, bo'znoch guli, qo'shtaron o'ti, tog'rayxon o'ti, dala choy o'ti, tirmoqgul guli, moychechak guli, sachratqi ildizi, qoncho'p o'ti–1 choy qoshiqdan. Yig'ma 600 mg suv solib suv

hammomida qaynatiladi (15 daqiqa), 30 daqiqa qoldiriladi. 50 ml dan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Gepatoprotektorli ta'sirga ega bo'lgan va surunkali gepatit, jigar sirrozi va boshqalarda ishlatiladigan bir qator dori preparatlari mavjud bo'lib, ularni orasida turli dorivor o'simliklardan olingan va tayyorlangan fitobirikmalar alohida o'rin tutadi. Alkaloidlar, ekdistroidlar, polimer propantosiadlar, laktonlar fosfolipidlar va boshqalar bularga misol bo'la oladi. Lekin amaliy jihatdan yaqqol gepatoprotektorlik ta'sirga ega bo'lgan va davvo effekti samarali va klinik tajribada tasdiqlangan quyidagi flavanoid tuzilishli preparatlar ahamiyatga sazovordir. Bularga legalon, silibor, karsil, tanasexol va boshqalar kiradi.

Legelon (Legalonum).

Oddiy salibum (Salybum marianum) o'simligining faol moddalari saqlangan preparat. O'simlik mevasidan (Fructus Cardiamaria) flavanoidli birikmalarning surunkali gepatitda gepatoprotektorlik ta'siri aniqlangan. Bu guruhga silimarin (Silimarin) nomi berilgan. Keyinchalik silimarin tarkibida slabinin, silidanin, silikristin birikmalar mavjudligi aniqlangan. Legalon tarkibida ana shu 3 ta gepatoprotektor ta'sirli moddalarni hamda oddiy silibum mevasining ekstraktini saqlaydi. Legalon draje shaklida chiqariladi va o'tkir toksik gepatitda davoni qo'llab turuvchi dori sifatida surunkali gepatitda va jigar sirrozida ham tavsiya etiladi.

Salimarinning gepatoprotektorlik ta'siri uning antioksidantlik faolligi, lipidlarni perekis oksidlanishning tormozlanishi, oqsil sintezining kuchayishi va fosfolipidlar almashinuvini bir meyorida bo'lishi bilan tushuntiriladi.

Legalon daraje – 70 20. 100 va 400 donadan o'ramda chiqariladi. Legalin – 140. 20 va 100 donadan kapsula shaklida chiqariladi. Suspenziyasi 450 ml dan chiqariladi.

Silibor (Saliborum).

Preparat tarkibida oddiy silibum o'simligining flavanoidlar yig'masini saqlaydi. Surunkali gepatitlarda va jigar sirrozida ishlatiladi. Tabletk shaklida 0,04 g dan chiqariladi. Bitta tabletkadan kuniga 3 marta ovqatdan oldin qabul qilinadi.

Katergen (Catergenum) Tabiiy flavonoidlar bo'lib, kimyoviy tuzilishi bo'yicha kavasetinga va rutinga juda yaqin silibininga ham yaqinroq.

Gepatoprotektor preparati sifatida virusli hepatitda, turli etiologik surunkali hepatitda va boshqa toksik hepatitlarda beriladi. Tabletkada shaklida 0,5 g dan chiqariladi. 1 tabletkadan ovqat bilan birga qabul qilinadi.

Liv-52 (Live-52). Bir necha o'simliklarning sokidan va qaynatmasidan tayyorlangan kompleks preparat bo'lib, tarkibida (tabletkada) 16 mg bo'ymadaron, 65 mg sachratqi, 16 mg sano, 32 mg qora ituzim va boshqa o'simliklar bor.

Jigarning turli kasalliklarida infeksiyon va toksik hepatitlarda, surunkali hepatitlarda va boshqalarda tavsiya etiladi. Tabletkalar holida chiqariladi. 2-3 tabletkada kuniga 3-4 marta qabul qilinadi.

Flaronin (Flaroninum). Preparat O'zbekiston FA o'simliklar kimyosi instituti xodimlari tomonidan (Yusupova S.M. va b.) farmako-toksikologik tomonidan o'rganilgan. Flaronin o'simlikdan ajratib olingan flavonoidlar yig'masini saqlaydi. Laboratoriya hayvonlarida geliotrin, tetroxlorometan va etanol bilan chaqirilgan jigar kasalligida, hepatitda flaronin yaqqol hepatoprotektorlik ta'sirini ko'rsatadi. Bu borada boshqa preparatlardan (karsil, tanasixol) ustunligi aniqlangan. Flaronin tabletkada shaklida 0,5g tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan hepatoprotektorli ta'sirga ega bo'lgan bir qator o'simliklardan ajratib olingan biologik faol moddalardan tashqari ayniqsa, jigar sirrozining yengil shaklida, yengil kechishda asosiy dori vositalari bilan birga bir qator fitoyig'malar tavsiya etiladi. Ular ham uzoq muddat davomida uzluksiz qabul qilinishi talab qilinadi. Ushbu yig'mani tashkil etuvchi dorivor o'simliklarning ta'siri ko'p tomonlama bo'lib, kasallangan jigar hujayralar faoliyatini sekin-asta tiklaydi, yallig'lanish jarayonini kamaytiradi, hujayralar nobud bo'lishini ildini olish, regeneratsiya jarayonini jonlantiradi, asosiy dori preparatlar hepatoprotektorlar ta'sirini samarali bo'lishiga yondoshadi. Ular quyidagilar:

1. Andiz ildizi. qulupnayning hamma qismi, g'ozpanja o'ti, yalpiz bargi, qoqi ildizi, qora zira mevasi, sachratqi ildizi, qoncho'p, qizil tomir o'ti—20 g dan. Yig'madan 24 g olib 600 ml qaynoq suvga

solinadi va suv xammomida 15 daqiqa qaynatiladi. Termosga solib 2 soat ushlanadi. Keyin dokadan o'tkaziladi, 60-70 ml dan iliq holda kuniga 3-4 marta ovqatdan keyin ichiladi.

2. Igir ildizi, zirk guli, maniantes bargi, taron o'ti, bodrezak guli, gazanda o'ti, limono't bargi, moychechak guli, marmarak o'ti 20 g dan. Yig'ma 24 g olinadi. 1-yig'ma singari tayyorlanadi va qabul qilinadi.

3. Bo'znoch guli, maniantes bargi, kalgan ildizi, gazanda o'ti, zubtutum bargi, moychechak guli, bo'ymadaron, qoncho'p o'ti, na'matak mevasi, oddiy silibum o'ti, arxangelika ildizi –20 g dan. 24 g yig'ma olinadi. 1-yig'ma kabi tayyorlanadi va qabul qilinadi.

Surunkali pankreatit

Oshqozon osti bezining surunkali yallig'lanishi asosan sekretsia chiqib ketishi yo'lini to'silishi yoki yarim to'silishi natijasida vujudga keladi. Bundan tashqari uni kelib chiqishida o'tkazilgan o'tkir pankreatit, bezga yaqin joylashgan a'zolarining kasalliklari, allergiya surunkali xolesistit, oshqozon yara kasalligi va b. ahamiyatlidir. Bemorda vaqti-vaqtida tananing oshqozon-bel qismida aylanma joylashgan og'riq sezgisi kindik atrofida og'riq chap bel tomoniga beriladi. Metiorizm, ich ketishi, ozib ketish, qandli diabet qo'shilishi mumkin. Og'riq sezgisi doimiy yoki vaqti-vaqtida kuchayib, achchiq, sho'r, yog'li ovqatni qabul etish hamda spirtli ichimliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Pankreazning ekskriter faoliyatini o'zgarishi amilaza, tripsin, lipaza fermentlarini ingichka ichakka tushishini buzilishiga va ovqatni hazm bo'lishini izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan organizm uchun zarur bo'lgan yog'lar, oqsillar, uglevodlarni etishmasligi natijasida organizmda turli o'zgarishlar namoyon bo'lishi mumkin.

Surunkali pankreatit kasalligiga duchor bo'lgan bemorlarni davo qilishda turli dori preparatlaridan (fermentli preparatlar, og'riq qoldiruvchilar, spazmolitiklar va b.) tashqari ko'p komponentli dorivor, o'simliklar, yig'malar tavsiya etiladi. Ular asosiy davo preparatlari bo'lmasa ham kasallik tufayli yuzaga chiqadigan asoratlarni, o'zgarishlarni oldini olishda ahamiyatli bo'lishi mumkin. Ular kasallikni xuruji qaytarilish davrida

berilmay remissiya davrida tavsiya etiladi. Ushbu yig'malar tarkibiga kiruvchi dorivor o'simliklar spazmolitik, o't haydaydigan, yallig'lanishga qarshi, yel haydovchi, to'qima regeneratsiyasini jonlantiruvchi, ishtaxa ochuvchi dispersiyani kamaytiruvchi, organizmning umumiy qarshiligini oshiruvchi ta'sir etib, kasallik kechishini yengillashtiradi. Quyidagi fitopreparatlar tavsiya etiladi:

1. Qayin barglari, valeriana ildizlari, toron o'ti, dalachoy o'ti, tirnoqqul guli, gazanda o'ti, yalpiz o'ti, shuvoq o'ti, moychechak guli—20 g dan. 15 g yig'ma 500 ml qaynoq suvga solinadi, termosda 8 soat ushlanadi, dokadan o'tkaziladi. 100 ml dan kuniga 4 marta ovqatdan so'ng va uyquga yotishdan oldin 1 stakan iliq holda ichiladi.

2. Bo'znoch guli, andiz ildizi, tillabosh o'ti, ukrop mevasi, qoncho'p o'ti, qirqbo'g'in o'ti pasternak ildizi, gnafalium o'ti, shuvoq o'ti, bo'znoch o'ti, qoraqiz ildizi—20 g dan tayyorlanishi va ishlatilishi 1-yig'ma singari.

3. Bo'znoch guli, taron o'ti, dalachoy o'ti, gazanda o'ti, qoqi ildizi, shuvoq o'ti, fenxel mevasi, qoncho'p o'ti, na'matak mevasi, qirqbo'g'in, arslonquyruq o'ti, qoraqiz ildizi—50 g dan. 24 g maydalangan yig'mani 600 ml sovuq suvga solinadi, 4 soat qoldiriladi. Suv xammomida 10 daqiqa qaynatiladi keyin 2 soat qoldiriladi, dokadan o'tkaziladi 100 ml dan kuniga 4 marta ovqatdan keyin va kech yotishdan oldin 200 ml iliq holda ichiladi.

Surunkali pankreatitning keltirilgan fitoyig'malar bilan davolash kasallikning kechishiga, har bir bemorni ahvoliga qarab olib boriladi. Kasallikning yengil kechishida va bemorning holahvoli yaxshi bo'lishida davoning davom etish 1,5-2 oygacha bo'lib, zaruriyat tug'ilsa 2-3 haftadan keyin dori kursi qaytariladi.

Ushbu dorivor yig'malar kasallik qaytarilishida yoki qaytarilish xavfi tug'ilganda ham berilishi shart. Ayrim bemorlarga kasallikni kechishiga qarab yig'malar to'xtovsiz berilishiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda fitoyig'malarni har 2 oyda almashtiriladi.

Davo qilishning ko'rsatgichlaridan ich kelishini normallanishi og'riqning va metiorizmning yo'qolishi yoki kamayishi, ishtaxani yaxshilanishi, bemorlarning kayfiyatini yaxshi tomonga o'zgarishi hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. O'tkir surunkali gastrit kasalliklarini kelib chiqish sabablari va kechishi.

2. Giperatsid va gipatsid gastritda xlorid kislotasi sekretsiyasini o'zgarishi.

3. Giperatsid va gipatsid gastritda ishlatiladigan fitopreparatlar.

4. Oshqozon-ichak yara kasalligida qo'llanadigan fitopreparatlarni ko'rsating.

5. Oshqozon-ichak yara kasalligida qanday ta'sirli dorivor o'simliklar ishlatiladi.

6. Oshqozon-ichak yara kasalligida qo'llanadigan fitopreparatlarni ko'rsating.

7. Enterit kasalligining fitoterapiyasi nimadan iborat?

8. Surunkali kalit kasalligida ishlatiladigan dorivor o'simliklarni ko'rsating.

9. Metiorizm qanday holat?

10. Qorinning dam bo'lishida qanday ta'sirli fitopreparatlar qo'llanadi?

11. Dispepsiyaning fitoterapiyasi.

12. Qabziyat qanday holatlarda kuzatiladi?

13. Qabziyatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarni ko'rsating.

14. Sano o'simligining qanday preparatlari bor?

15. Sano fitopreparatlarining farmakologik ta'siri nimadan iborat?

16. Nima uchun sano preparatlari kech yotishdan oldin qabul qilinadi?

17. Bavosil kasalligida ishlatiladigan fitopreparatlarni ko'rsating.

18. Surunkali gepatit kasalligida qanday fitopreparatlar qo'llanadi?

19. Surunkali gepatitda ishlatiladigan fitopreparatlarning asosiy ta'siri qanday?

20. Liv-52 preparatining ishlatilishi nimadan iborat?

VIII BOB. BUYRAK, PESHOB CHIQRUVCHI YO'LLARI KASALLIKLARINING FITOTERAPIYASI

Ma'lumki, buyrak tanada hosil bo'lgan keraksiz turli moddalarni organizmdan chiqarish organi hisoblanadi. Peshobning hosil bo'lishi buyrakda joylashgan Malpigiyeu kaptokchalarda, ulardagi kapillyarlar devorida suv va suvda erigan moddalar (elektrolitlar, dori moddalari va b.) filtrlanadi va birlamchi peshob hosil bo'ladi. Birlamchi peshob buyrak kanalchalardan o'tishida maxsus fermentlar (suksingidrogenoza, korboangidrizi va b.) yordamida elektrolitlar bilan birlamchi peshob (suv) qaytatdan qonga so'riladi (reabsorbsiya). Birlamchi peshobni 99% reabsorbsiyaga uchraydi. Qolgan 1% ikkilamchi peshob organizmdan tashqariga chiqariladi.

Afsuski buyrakning parenximasi turli kasalliklarga duchor bo'ladi va natijada uning bunday faoliyati izdan chiqib, turli asoratlarga sababchi bo'ladi. Bunday buyrak va peshob chiqarish yo'llarining kasalliklarida, ayniqsa, yiringli – yallig'lanish bilan kechadigan xastaliklarda, turli ta'sirga ega bo'lgan dori vositalari bilan davo ko'rsatiladi. Bular orasida dorivor o'simliklar alohida o'rin egallaydi. Ulardan yallig'lanishga qarshi, antibakterial va spazmalitik ta'sirga ega bo'lgan fitopreparatlar tavsiya etiladi. Fitoterapiya ta'sirida koptokcha kapillyarlar devorining o'tkazuvchanligi oshadi, yallig'lanishni kamaytiradi, peshob yo'llari spazmini yo'qotadi, buyrak faoliyatining sezilarli darajada yaxshilaydi. Jumladan, og'riqlar kamayadi yoki yo'qoladi, peshob bilan qon chiqishi (gemoturiya) to'xtaydi, shishlar kamayadi, uyqu va umumiy ahvol normallasadi, peshobni ajralishining ko'payishida kaliy ionlarining qondagi miqdori deyarlik o'zgarmaydi.

Buyrak va peshob yo'llarining kasalliklarida yig'malar tarkibida asosan quyidagi farmakologik ta'sirli dorivor o'simliklar bo'ladi:

- peshob haydaydigan (diuretik) o'simliklar (marjondaraxt, qayin, tarvuz, brusnika, bo'tako'z, sabzi (urug'i), makkajo'xori, qulupnoy, qumrio't, buyrak choyi, ko'ktikan, qo'shtoron, toloknayanka, uch rangli binafsha, qirqbo'g'in, archa);

- yallig'lanishga qarshi ta'sirli (gulxayri, igir, tog'rayxoni, dalachoy, maymunjon, tirnoqgul, suli (ko'k xashak), moychechak, bo'ymadaron, marmarak va b.);

- spazmolitik ta'sirli (yalpiz, tog'rayxon va b.);

- sedativ, og'riqni qoldiruvchi ta'sirli (valeriana, yalpiz, sigir quyruq, limono't, lavanda va b.);

- antibakterial ta'sirli (dalachoy, tirnoqgul, qoraqant, qarag'ay, evkolipt va b.);

- gipotenziv ta'sirli (do'lana, astragal, sigir quyriq, gnafalium, ko'kamaron va b.);

- safro xaydovchi ta'sirli (bo'znoch, tillabosh, makkajo'xori, qoqi);

- terlatuvchi ta'sirli (marjondaraxt gullari, tog'rayxon, jo'ka, maymunjon);

- achchiq ta'mlik (meniantes, tillabosh, qoqi, oddiy shuvoq va b.).

Bulardan qayin, archa va qirqbo'g'in buyrak to'qimasini ta'sirlagani uchun ular kasallikni o'tkir kechishida berilmaydi.

Glomerulonefrit

Glomerulonefit – buyraklar ko'ptokcha apparati mayda qon tomirlarining yallig'lanishi bilan kechadigan immuno-allergik kasallik hisoblanadi. Buyrak ko'ptokchalarining hammasi yallig'lansa yalpi, kichik bir qismi yallig'lansa, o'choqli glomerulonefit deb yuritiladi.

Hozirgi tushuncha bo'yicha angina va boshqa streptokokkli kasallik bilan og'riqan bemorlar qonidagi streptokokk antigenlari bilan unga qarshi paydo bo'lgan antitanalar o'zaro birikishadi. Bu birikmalar buyrak ko'ptokchalarining bazal membranasi yuzasiga o'tiradilar, uni zararlantiradi. Polinuklearlar gistamin va serotoninni ajratadi va ko'ptokchalarda giperergik yallig'lanish paydo bo'ladi. Bunda ko'ptokchalar kapillyarlar devorining o'tkazuvchanligi oshadi, peshobda o'zgarishlar ro'y beradi.

O'tkir glomerulonefritda 3 guruh o'zgarishlar kuzatiladi: tanada shish paydo bo'lishi, qon bosimini oshishi va peshobdagi o'zgarishlar.

O'tkir glomerulanefritda bo'ladigan qon bosimining ko'tarilishi 70-90% bemorlarda kuzatiladi. Bu buyrakda qon aylanishining buzilishi natijasidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, angiotenzin – aldestron sistemasining ta'sir doirasi kuchayib, buyrak depressor faoliyatining pasayishi hisobiga qon bosimi ko'tariladi. O'tkir nefritning dastlabki belgilaridan biri peshob ajralishini kamayishi, ba'zi hollarda anuriya kuzatiladi. Bu ko'ptokchalarda bo'ladigan filtratsiyani kamayishi natijasidir. Bundan tashqari, o'tkir glomerulonefritning doimiy va albatta yuz beradigan gemoturiya – peshob bilan qon chiqishidir. Shu bilan birga, ko'ptokcha qon tomirlarining o'tkazuvchanligi izdan chiqishi natijasida peshobda oqsillar, gialin, epteliylar, silindrlar bo'lishi mumkin.

Davolash. O'tkir glomerulofrit kasalligida birinchi vazifa bemor ma'lum muddat davomida havo harorati issiq va quruq xonada, o'rinda yotishi uchun sharoit bo'lishi kerak. Davolash davrida maxsus parhez taom beriladi. Suyuqlik, osh tuzi chegaralanadi. Vitaminlar (ayniqsa, vitamin S), kalsiyga boy oziq-ovqatlar (tvorg, suzma, qatiq, sut, sharbatlar, qand va olma) beriladi. Davo ko'rsatishda turli dori preparatlari (antibiotiklar, steroid gormonal preparatlar, kortikosteroidlar, gipotenziv dori preparatlari, diuretiklar va b.) tavsiya etiladi. Ushbu dori preparatlar berilishida kasallikni kechishiga, uning sindromlariga qarab ta'minlanadi. Shu bilan bir qatorda, fitopreparatlar ham tavsiya etiladi.

Dorivor o'simliklar bilan davolashda ham kasallikning sababiga, patogeneziga, simptomlariga ta'sir ko'rsatadigan fitopreparatlar, fitoyig'malardan foydalaniladi. Chunki yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi, peshob haydovchi, tinchlantiruvchi, gipotenziv ta'sirli hamda tarkibida vitaminlarni, ayniqsa, S, V, A saqlagan o'simliklardan tashkil topishi kerak.

Yuqorida qayt etilganidek, glomerulonefritni kelib chiqishida streptokok infeksiya o'chog'i bo'lgan murtakni yallig'lanishi (angina, tonzillit) katta rol o'ylaydi. Shuning uchun anginada va larinofaringitda og'izni chayish ahamiyatlidir. Shu maqsadda marmarak bargi (fol *Salviae*), moychechak gullari (flor

Chammonillae) damlama shaklida (1 choy qoshig'i 1 stakan qaynoq suvga solib damlanadi) ishlatiladi (chayiladi). Shu maqsadda yig'ma ham tavsiya etilishi mumkin.

Fenxel mevasi – 5,0; yalpiz (bargi) – 15,0; moychechak (guli) – 15,0; marmarak (bargi) – 15,0. Ushbu yig'madan tayyorlangan damlama og'izni chayib turish uchun tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, tomoqni chayish uchun quyidagi yig'ma ishlatilishi mumkin: fenxel mevasi – 5,0; g'ozpanja ildizi – 15,0; gulxayri ildizi – 15,0; eman po'stlog' – 15,0; yalpiz (bargi) – 15,0. Qaynatma iliq holda tomoqni chayish uchun beriladi.

O'tkir glomerulonefritda qabul etilgan asosiy tadbirlaridan so'ng quyidagi tarkibida terlatuvchi, desensibilizatsiya etuvchi, yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi ta'sirli dorivor o'simliklar saqlagan yig'malar qo'llanishi mumkin. Talab qilinsa yurak-qon tomiriga, oshqozon-ichak traktiga ta'sir etuvchi, jigar o'tini xaydaydigan o'simliklar qo'shiladi.

Fitoterapiyada ishlatiladigan fitoyig'malar o'tkir glomerulonefritda 3-4 oy davomida to'xtovsiz beriladi. Shuning bilan birga 1-1,5 oy o'tgach boshqa tarkibli yig'maga almashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tkir glomerulonefritda quyidagi fitoyig'malar tavsiya etiladi.

1. Qayin bargi, meniantes bargi, pereska o'ti, grushanka bargi, andiz ildizi, dalachoy o'ti, ko'ko't ildizi, qoraqat bargi, qoraqiz o'ti – 10 grammdan. Yig'mani 250 ml suv hammomida qaynatiladi (10 daqiqa), termosda 2 soat ushlanadi, keyin dokadan o'tkaziladi. Kuniga 50 ml dan iliq holda 4 marta ovqatdan keyin ichiladi.

2. Ko'kbo'tako'z – 5 qism, qizilmiya ildizi – 4 qism. Yig'ma aralashtirib, 1 osh qoshiq yig'madan olib 200 ml qaynoq suvga solinadi. 100 ml dan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Xalq tabobatida quyidagi yig'ma ishlatiladi:

3. Arslonquyruq o'ti, tirnoqgul guli, shuvoq o'ti, bukavisa o'ti – hammasi bir miqdorda. 1 osh qoshiq olib 200 ml qaynoq suvga solinadi va 10 daqiqa qaynatiladi. 4 soatdan keyin dokadan suziladi. 50 ml dan kuniga 4 marta ichiladi.

Davolash natijasida kasallikning simptomlari (shish, gipertoniya, peshobdagi o'zgarishlar) yo'qolgandan keyin ham fitoyig'malarni berish 1,5-2 oy davom etiladi. Kurslar oralig'ida 20-40

kun berilmaydi. Shu maqsadda tarkibi kichikroq bo'lgan fitoyig'malar beriladi. Masalan:

1. Qayin bargi, vaxta bargi, gazanda o'ti, buyrak choyi navdalari – hammasi bir xil miqdorda olinib, aralastirib 1 osh qoshiq yig'mani 200 ml qaynoq suvga solinadi, 2-3 soatdan keyin 100 ml dan kuniga 3-4 marta ichiladi.

2. Marjon daraxtning po'sti va ildizidan 6 gramm olib 500 ml qaynagan suvga solib, suv xammomida 20 daqiqa qizdiriladi. 1 soat o'tgach dokadan o'tkaziladi. Issiq holda 120 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan 1 soat oldin qabul qilinadi. Po'stlog'ini o'rnida faqat 12 gramm ildizini 500 ml suvda tayyorlash mumkin.

3. Sulining yashil poxoli 40 grammni 1000 ml qaynoq suvga solinadi. 15 daqiqa suv xammomida qizdiriladi, dokadan o'tkaziladi. 200 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan 1 soat oldin ichiladi.

Surunkali glomerulonefrit

Surunkali glomerulonefrit – buyrak ko'ptokchalarining uzoq davom etadigan immun-allergik yallig'lanishidir. Bu kasallik buyrak ko'ptokchalarida asta-sekin shikastlanish hisobiga buyrak faoliyatining susayishi, arteriya qon bosimni oshishi va buyrak faoliyatini yetishmovchiligini rivojlanishi bilan ifodalanadi.

Surunkali nefrit o'tkir glomerulonefritdan so'ng va birlamchi surunkali glomerulonefrit sifatida ham rivojlanishi mumkin.

Kasallik asosan quyidagi 3 turda kechishi ma'lum:

1. Peshobning o'zgarishi bilan kechadigan (proteinuriya, gemoturiya, silindruriya).

2. Qon bosimini ko'tarilishi bilan kechadigan va u bilan bog'liq o'zgarishlar.

3. Boshlanishida shish bo'lishi bilan kechadigan turi.

Bemorlar ko'pincha bosh og'rig'i, quvvatsizlik, bel og'rig'i, peshob chiqishini kamayishi, shishlar paydo bo'lishi va boshqacha shikoyat qiladilar.

Surunkali glomerulonefritda farmakoterapiya asosan kasallikni avjga chiqishini, qaytarilishini oldini olishga qaratilgan bo'lib, uni uzoq vaqt davom ettirish tavsiya etiladi. Vaqti-vaqtida dorivor o'simliklar, yig'malarni o'xshash ta'sirli fitopreparatlar bilan almashib turish maqsadga muvofiqdir. O'zini issiq tutish, osh tuzini

ovqatda kamaytirish (1-2 gr tavsiya etiladi). Kasallik qaytadan rivojlanishida o'tkir glomerulonefritda beriladigan fitoyig'malar qo'llanadi.

Surunkali glomerulonefritda quyidagi yig'malar berilishi mumkin:

1. Buyrak choyi (o'ti) – 20,0; zubtutum (bargi) – 15,0; qirqbo'g'in (o'ti) – 10,0; bo'ymadaron (o'ti) – 10,0; tirnoqgul (guli) – 20,0; qariqiz – 15,0; na'matak (mevasi) – 15,0. Damlama tayyorlanib, undan $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{3}$ stakan olib, kuniga 3-4 marta ichiladi.

2. Buyrak choyi (o'ti) – 15,0; zubtutum (bargi) – 15,0; qirqbo'g'in (o'ti) – 10,0; oddiy bo'ymadaron (o'ti) – 15,0; gazanda ikki uyli (bargi) – 15,0; tirnoqgul (guli) – 15,0; qorqiz (o'ti) -15,0. Damlama tayyorlanib, undan $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{3}$ stakan olib, gematuriya bilan kechadigan surunkali glomerulonefritda kuniga 3-4 marta ichiladi.

Keltirilgan fitoyig'malarning damlamasi kasallikning qaytalanishi tugaguncha to'xtovsiz qabul qilinadi. Faqat har bir 1,5-2 oydan keyin yig'malar almashtirilib turiladi. Bular kasallikni remissiya davrida 3-5 kun berilishi mumkin. Lekin bu davrda quyidagi yig'malar tavsiya etiladi:

1. Astragul o'ti, brusnika bargi, meniantes, qo'shtaron o'ti, andiz ildizi, tog'rayxon o'ti, zig'ir urug'i, na'matak mevasi, qiziltomir (yasmennik) – barobar miqdorda olinib, uning 10 grammdan 100 ml suvda suv hammomida 15 daqiqa qizdiriladi. 1 soat qoldiriladi, dokadan suziladi. 50 ml dan kuniga 4 marta ovqatdan yarim soat oldin ichiladi.

Surunkali glomerulonefritning remissiya (vaqtinchalik kasallik avj olmagan davri) davomida qon bosimi ko'tarilib tursa quyidagi fitoyig'malar tavsiya etiladi:

1. Qayin bargi, marjondaraxt ildizi, g'ozpanja o'ti, loviya po'stlog'i, qirqbo'g'in, grushanka bargi, makkajo'xorining onalik ustuni, foligendula (labaznik), toloknyanka – barobar miqdorda olinadi. Maydalangan yig'madan 8 grammi 300 ml suvga solinib, suv hammomida 15 daqiqa ushlanadi. 1 soatdan keyin dokadan o'tkaziladi. 50 ml dan iliq holatda kuniga 4 marta ovqatdan so'ng ichiladi.

2. Buyrak choyi o'ti, zubtutum bargi, oddiy bo'ymadaron, gazanda bargi, tirnoqgul guli, qariqiz o'ti – 15 grammdan olinadi;

qirqbo'g'in – 10 g. Maydalangan yig'malar 8 grammi 350 ml suvga solinadi, 10 daqiqa suv xammomida qizdiriladi. 4-5 daqiqadan keyin dokadan o'tkaziladi. Damlamaning hammasi iliq holatda 3-4 marta ichiladi (asosan gemituriya bilan kasallik kechishida tavsiya etiladi).

Surunkali glomerulonefritda yuqorida keltirilgan yig'malardan tashqari quyidagi fitoyig'malar ham berilishi mumkin:

Igir ildizi – 1 qism, eman po'sti, zig'ir urug'i, yalpiz o'ti, tog'jambul, na'matakning maydalangan mevasi – 2 qismdan; brusnika bargi, tirnoqgul guli, buyrakchoy o'ti – 3 qismdan; toron – 4 qism; dalachoy – 5 qism; botqoq gnafalium – 6 qism. Hammasi aralashtiriladi. Undan 2-3 osh qoshiq olib, termosga solinadi va ustidan 700 ml qaynab turgan suv quyiladi. 6-8 soat qoldiriladi, so'ng dokadan suziladi. Iliq holda 150 ml dan kuniga 3-4 marta ovqatdan 20-30 daqiqa oldin qabul qilinadi.

Kasallikni turg'in remissiyasida quyidagi yakka o'simlik fitopreparatlari tavsiya etiladi:

1. Bo'yumadaron o'tidan 8 gramm olib 250 ml suvga solib, suv xammomida 10 daqiqa ushlanadi. 1 soat qoldiriladi, dokadan o'tkaziladi. Kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

2. 12 gramm na'matakning mevasi yoki bargini 500 ml suvga solib, qaynatiladi. Termosda 6 soat qoldiriladi. Iliq holatda 250 ml-dan kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

Glomerulonefritning qaytalanmagan turg'un davrida alohida quyidagi dorivor o'simliklardan foydalanish mumkin.

1. Oddiy bo'yumadaron (*Achillea millefolium*) –

Тысячелистник обыкновенный

Ko'p yillik o'simlik bo'lib, Markaziy Osiyoda ham keng tarqalgan.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik bargida axilein alkaloidi, efir moyi (tarkibida xamazulen bor). Murakkab efirlar, oshlovchi moddalar, K vitamini va boshqalar bor.

Farmakologik xossasi. O'simlik galen preparatlari turlicha farmakologik ta'sirga ega. Chunonchi, o'simlik tarkibidagi oshlovchi moddalar, efir moyi va xamazulen hisobiga yallig'lanishga qarshi,

mikroblarga qarshi, allergiyaga qarshi va yara bitishini tezlash-tiruvchi xossalarga ega.

Shu sababdan glomerulonefritning remissiya davrida o'simlikning damlamasi, qaynatmasi tavsiya etiladi. Buning uchun 8 gr bo'ymadaronning o'tiga 250 ml suv solib, 10 daqiqa suv xammomida qaynatiladi. 1 soat o'tgach dokadan o'tkaziladi. 60-100 ml kuniga 4 marta ovqatdan oldin ichiladi.

2. Na'matak (Rosa L.) – ШИПОВНИК

Na'matakning bir necha turlari: Bexter n., itburun n., Fedchengo n. va Qo'qand na'mataklari mavjud. Bular Toshkent, Namangon, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'sadi.

Na'matak turlarining mevasi biologik faol moddalarga ayniqsa, vitaminlarga (S, V₂, K, R, karotin) boydir. Mevasining asosiy farmakologik ta'siri ushbu vitaminlarga va ayniqsa, S, R, karotinlarga bog'liqdir. Ular (S, R vitaminlar) qon tomir devorining o'tkazuvchanligini kamaytiradi, uni mustahkamlaydi. Undan tashqari, vitaminlar organizmni kasallikga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi.

Shunga asosan na'matak mevasidan tayyorlangan damlama glomerulonefrit avj olishini oldini olish maqsadida bemorlarga tavsiya etiladi.

Buning uchun na'matak mevasidan yoki bargidan 12 g olib, 500 ml qaynoq suvga solinadi, termosda 6 soat damlanadi. 250 ml-dan iliq holda kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

3. Ko'k bo'tako'z (Centaurea cyanus L.) – Василек синий

Bir yillik o't o'simlik. O'rta Osiyoda ham uchraydi.

Kimyoviy tarkibida (gulida) glikozidlar (sinarin, sentaurin, sikornin), flavanoidlar (apegenin, kversetin), polisaxaroidlar, oshlovchi moddalar va boshqa birikmalar mavjud.

Bo'tako'zning galen preparatlari peshob ajralishini oshiradi. Bunday ta'sir tarkibidagi anisianlar bilan bog'liqdir. O'simlikning damlamasi va qaynatmasi buyrakning surunkali yallig'lanishida yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi fitopreparatlar shaklida beriladi.

Bundan tashqari bo'tako'z ko'pchilik yig'malar tarkibida ham kiritilgan.

O'simlik yakka holda damlama shaklida surunkali glomerulonefritning remissiya davrida ishlatiladi. Buning uchun bo'tako'z gulidan 6g olib, 250 ml qaynoq suvga solinadi, termosda 30 daqiqa damlanadi. 100 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa keyin qabul qilinadi.

Yuqorida keltirilgan damlama va qaynatma shaklidagi fitopreparatlar boshqa dorivor o'simliklardan ham (gazanda, filipendula, sulining yashil poxoli, qayin bargi va b.) tayyorlanib, uzoq muddat ichish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Surunkali pielonefrit fitoterapiyasi

Surunkali pielonefrit buyrakning oraliq (interstisial) to'qimasining bakterial ta'siri tufayli o'ziga xos bo'lgan surunkali yallig'lanishi bo'lib, buyrak jomlari va parenximasi shikastlanadi. Ko'pchilik hollarda surunkali pielonefrit o'tkir pielonefritning oqibati natijasida ro'y beradi.

Bu kasallikning asosan ichak tayoqchasi va enterokokklar keltirib chiqaradi. Bulardan tashqari streptokokklar, stafilokokklar va boshqalar sababchi bo'lishi mumkin.

Kasallik kechishi bo'yicha 4 xil turda (yashirin, qo'zib turadigan, qon bosimi oshadigan va azotemik) bo'lishi mumkin.

Bu kasallikda tanada va peshobda yallig'lanish va buyrak faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liq alomatlar kuzatiladi (tana harorati, qon bosimi, qonda va peshobdagi o'zgarishlar). Bemorlarni davolashda asosan mikroblarga qarshi ta'sir etadigan dori preparatlari – uroantiseptiklar (penisillin, sefalosporinlar, nitrofuranlar va b.) tavsiya etiladi. Bulardan tashqari, dieta, sanatoriya, fiziaterapiya qo'llanadi.

Kasallik avj olganida shifokor bilan maslaxatlashib, qo'shimcha dori vositasi sifatida dorivor o'simliklar – fitopreparatlar berilishi mumkin. Ular asosan antiseptik, yallig'lanishga qarshi, peshob haydaydigan va organizmning kasallikka qarshi qobiliyatini oshiradigan ta'sirli dorivor o'simliklardir. Ular yakka holda yoki yig'malar shaklida uzoq vaqt qabul qilinadi.

Yig'malar:

1. Qayin bargi, qo'shtaron o'ti, filipandula o'ti, jag'-jag' o'ti – teng miqdorda olinadi va maydalaniladi. 10 g yig'mani 400 ml qaynoq suv solib, dokadan suziladi, yig'ma eziladi. 100 ml dan iliq holda kuniga 4 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

2. Moychechak guli, tolokyanka bargi, uchrangli gunafsha o'ti, marmarak barglari – teng miqdorda olinadi, 10 g maydalangan yig'mani 400 ml qaynoq suvga solib, 10 daqiqa qaynatiladi. Issiq joyda 45 daqiqa saqlanadi, dokadan o'tkazib, eziladi va 100 ml kuniga 4 marta iliq holda ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

Yakka holdagi o'simliklar:

1. Bo'znoch gulidan 1 choy qoshiq olib, 200 ml qaynoq suvga solib, 1 soat damlanadi. 50-70 ml dan kuniga 3-4 marta ovqatdan oldin ichiladi.

2. Marmarak bargidan 1 osh qoshiq olib, 600 ml suvga solinadi va 400 ml qolgunicha qaynatiladi. 130 ml dan qaynatma kuniga ovqatdan oldin 3-4 marta ichiladi.

Shunga o'xshash maymunjon bargidan damlama va qaynatma tayyorlanib, iste'mol qilinishi mumkin.

Peshob-tosh kasalligining fitoterapiyasi

Peshob-tosh kasalligi (urolitiaz) buyrakning chashkalarida va jomida (loxankasida) konkrimentlar (toshlar) hosil bo'lib, buyrakda va peshob yo'llarida turli patologik o'zgarishlar bilan kechadigan xastalikdir. Kasallikning sababi turlicha bo'lib, asosan organizmda mineral almashinuvining buzilishi, peshob yo'lida infeksiya bo'lishi, peshobni yig'ilib qolishi, buyrakning shikastlanishi sababchi bo'ladi. Toshlarining 50% dan ortig'ini kalsiy-oksalat va u bilan aralashgan komponentlar tashkil etadi. Kimyoviy tarkibi bo'yicha toshlar quyidagicha bo'lishi mumkin: oksalatlar, fosfatlar, uratlar va karbonatlar. Bularni hosil bo'lishida peshobdagi vodorod ionlarining konsentratsiyasi (RN) katta ahamiyatga ega. Masalan, fosfat kalsiy toshlari ko'proq – ph 7 da, oksalat kalsiy – ph 5,5 da, uratli toshlar – ph 5,5 dan kamroq bo'lganda hosil bo'ladi.

Kasallikning asosiy belgisi og'riq bo'lib, ko'pincha u birdan boshlanadi va kuchli sanchiq bilan bel sohasida seziladi. Bunday og'riq juda ham kuchli bo'lib, ayrim holatlarda karaxtlik holatiga

olib kelishi mumkin. Bunday og'riq xuruji (pochechnaya kolika) toshning peshob yo'liga (mochetochnik) tushib, tiqilib qolishi natijasida peshobni buyrakda yig'ilib, uni taranglashishi bilan tushuntiriladi. Og'riq bemorni juda ham bezovta etib, peshobda qon paydo bo'ladi. Belning kasallangan buyrak joylashgan tomonini qo'l bilan paypaslash va urishda og'riq kuchayadi (Pasternatskiy simptomi).

Kasallikni o'rganishda va toshning qaerda joylashishi va uning katta-kichikligi UZI, rentgenografiya, urografiya yordamida aniqlanadi.

Bemorni davolashda og'riq qoldiruvchilar – analgetiklar (promedol, baralgin va b.), spazmalitiklar (atropin, papaverin va b.) ishlatiladi.

Ayrim hollarda toshni maydalaydigan usuldan va jarrohlik yo'ldan foydalaniladi. Shuning bilan birga, peshobtoosh kasalligida dorivor o'simliklardan tayyorlangan fitopreparatlar ham qo'llanadi.

Peshobtoosh kasalligida asosan toshni maydalanishini va qumni peshob bilan chiqib ketishini osonlashtiradigan, birga kechadigan yallig'lanish jarayonini kamaytiradigan, kasallik qaytarilishini oldini oladigan va peshob ajralishini oshiradigan dorivor o'simliklar fitopreparatlari tavsiya etiladi. Boshqacha aytganda ushbu kasallikda diuretik, yallig'lanishga qarshi, antibakterial va spazmolitik ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklar, fitopreparatlar beriladi.

Bular qatoriga quyidagi dorivor o'simliklar hamda ulardan tayyorlangan va ajratib olingan biologik faol moddalar saqlagan preparatlar kiradi.

4. Ro'yan (Rubia L.) – Марена

Ro'yan o'simligining ikki turi mavjud: bo'yoqdor ro'yan (*Rubia tinctorum* L.), Gruziya ro'yani (*Rubia iberica* C. Koch).

Ro'yan ko'p yillik o'simlik bo'lib, Kavkazda va Markaziy Osiyoda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning yer ostki qismida ildizpoya va ildizi tarkibida 5-6% gacha antrasen unumlari (alizarin, riberitrin kislota, galiazin, purpurin, ksantopurin, psevdopurpurin, rubiadin glikozid, munistin, lusidin, iberisin va b.) bor.

Rubertirin kislota glikozid bo'lib, gidrolizga uchraganda alizarin aglikoni va primveroza polisaxaridiga parchalanadi. Ildizpoyasida anratsen unumlaridan tashqari, 15% gacha qandlar, pektin hamda limon. olma va vino kislotalar mavjud.

O'simlikning ikkala turi yer osti qismlarining (ildizpoya va ildiz) farmakologik ta'siri, ularning tarkibidagi kimyoviy moddalarga bog'liq. Chunonchi, anratsen unumlari va birikmalari, peshob haydovchi, spazmolitik va peshob toshlarini yumshatuvchi ta'sir ko'rsatadi. Ular ta'sirida asosan fosfat kalsiyik toshlar yumshayadi va parchalanishga olib kelib, ularning peshob bilan chiqib ketishiga imkon tug'diradi.

Ro'yan o'simlik turlarining fitopreparatlari (kukuni, quruq ekstrakti, tabletkalari, nastoykalari) tibbiyotda keng ishlatiladi. *Ular quyidagilar:*

Bo'yoqdor ro'yanning quruq ekstrakti (Extractum Lubiae tinctorum siccum).

Ro'yanning ikkala turining (bo'yoqdor va Gruzuya ro'yani) ildiz va ildizpoyasidan tayyorlangan quruq ekstrakt bo'lib, tarkibida 3% dan kam bo'lmagan miqdorda antrasen unumlarini saqlaydi. Spazmolitik va diuretik ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, fosfotkalsiy, magniy saqlagan peshob toshlarini yumshatishga imkon tug'diradi. Buyrak tosh kasalligida spazmni bo'shashtirish va toshni chiqib ketishini yengillashtirish uchun ishlatiladi.

Quruq ekstrakt tabletka shaklida 0,25 g dan chiqariladi va 2-3 tabletkadan kuniga 3 marta tavsiya etiladi. Tabletkalar qabul qilishdan oldin yarim stakan iliq suvda eritiladi. Davolash kursi 20-30 kun.

Ro'yan bo'yoqdor xossaga ega bo'lgani uchun davo etish davomida peshob qo'ng'ir-qizil rangli bo'ladi. Agar bunday ranglanish kuchli bo'lsa preparatni dozasi kamaytiriladi yoki berish vaqtincha to'xtatiladi.

«Marelin» tabletkalari (Tabulettae «Marelinum obductae»)

Tabletkalar tarkibida bo'yoqdor ro'yanning quruq ekstrakti (0,0325g), dala qirqbo'g'in o'tining quruq ekstrakti (0,015g), solidago (zolotarnik) quruq ekstrakti (0,025g), magniy fosfat

(0,01g), korglikon (0,000125g), kellin (0,0025g), solisilamid (0,035g) saqlaydi.

Yallig'lanishga qarshi va spazmolitik ta'sir etadi. Kalsiy oksalat va kalsiy fosfat toshlarni chiqib ketishiga yondoshadi. Buyrak sanchig'i (почечная колика) og'riqni kamaytiradi yoki yo'qotadi. Peshob ajralishini oshiradi. Ishqoriy «rn» li peshobni kislotalik tomonga o'tkazadi.

Peshobtosh kasalligida 2-3 tabletkadan kuniga 3 marta ovqatdan oldin 20-30 kun davomida qabul qilinadi. Davo qilish kursi 1-1,5 oydan keyin qaytariladi. Jarrohlik yo'li bilan toshni olib tashlangandan keyin yoki toshni o'zi chiqib ketgandan so'ng kasallikning qaytarilishini oldini olish maqsadida «Marelin» 2 tabletkadan kuniga 3 marta 2-3 oy mobaynida tavsiya etiladi. Oshqozon-ichak kasalliklarida preparatni ovqatdan keyin qabul qilish tavsiya etiladi.

«Marelin» o'tkir va surunkali glomerulonefritda berilmaydi.

«Marelin» tabletkalari shisha idishda 120 donadan chiqariladi.

Sistenal (Cistenal). Tarkibida bir necha moddalar bo'lgan kompleks preparat bo'lib, ulardan asosiysi ro'yan o'simligi hisoblanadi. Ular quyidagilar: ro'yan nastoykasi (0,093g), magniy salisalat (0,14g), efir moylari (5,75g), etil spirti (0,8g), zaytun moyi (10grammgacha).

Preparat peshob chiqarish yo'li devorlaridagi (mochetochnik) silliq muskullarni bo'shashtirib, spazmolitik ta'sir etadi. Bunday ta'sir natijasida peshob toshlarini chiqib ketishiga imkon tug'diradi. Bundan tashqari, qisman peshob ajralishini oshiradi.

Preparat buyrak tosh kasalligida tavsiya etiladi. Uning 3-4 tomchisi qandga tomizilib, ovqatdan 30 daqiqa oldin, buyrak sanchig'i xurujida esa bir matra 20 tomchi ichiladi. Oshqozon zardobi yuz bersa preparatni ovqat bilan birga yoki ovqatdan keyin qabul qilinadi. Og'riq xuruji qaytarilib turadigan bo'lsa, preparatni 10 tomchidan kuniga 3 marta qabul etish tavsiya etiladi.

Sistenol o'tkir va surunkali glomerulonefritda buyrak faoliyati izdan chiqishi bilan kechadigan buyrak tosh kasalligida, oshqozon yara kasalligida tavsiya etilmaydi.

5. Tishli kella (Ammi visnaga L.) – Амми зубная

Ikki yillik (o'stiriladigani bir yillik) o't o'simlik bo'lib, asosan Kavkazda o'sadi va o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik mevasida 20% dan ortiq tabiiy yog'lar, efir moyi va flavanoidlar (okasetin va b.) bo'ladi. O'simlik mevasining tarkibidagi bu moddalar furanxromning unumlari hisoblanadi. Bular orasida eng asosiy biologik faol bo'lgan kellin bo'lib, unga yaqin bo'lgan boshqa moddalar (visnadin, visnagin, samidin, kellinol, kellanton va b.) bor.

Farmakologik xossasi. O'simlikdan tayyorlangan nastoyka va ekstrakt preparatlari eksperimental tekshiruvda ularning spazmolitik ta'siri aniqlangan. Ular ta'sirida bir qator organlarni va ayniqsa, peshob yo'li (mochetochnik) devorining silliq muskullari bo'shashadi, spazmlar yo'qoladi. Bundan tashqari, koronar qon tomirlar va bronxlar ham kengayadi.

Ishlatilishi. Tishli ammi o'simligining urug'idan olingan kellin preparati bronxial astma kasalligida, oshqozon-ichak spazmida, stenokardiyaning engil shaklida ishlatiladi. Hozirgi paytda kellin alohida preparat sifatida ishlatilmaydi. Lekin, boshqa kompleks preparatlar («Vikalin», «Marelin») tarkibiga kiradi. Kellin saqlagan «Kellatrin» va «Kelliverin» preparatlari ham reestrndan o'chirilgan.

Avisan (Avisnum). Tarkibida tishli kella o'simligining mevasidagi moddalar yig'indisini saqlaydi. Moddalar yig'indisida 8% xromonlar, uncha ko'p bo'lmagan furokumarinlar va flavonoidlar bor.

Avisan tishli kelladan ajratib olingan kellin singari, silliq muskullarni bo'shashtiradi, tonusni pasaytiradi. Bunday spazmolitik ta'sir tekshirishlar natijasiga ko'ra peshob chiqish yo'li silliq muskullarida yaxshi namoyon bo'ladi.

Preparat spazmolitik sifatida buyrak tosh sanchig'i va peshob yo'llarini spazmida beriladi. Avisan bunday og'riqni kamaytiradi yoki butunlay bartaraf etadi, toshni chiqib ketishiga imkon tug'diradi. Shunga o'xshash, ta'sir tishli kellaning nastoykasida kuzatiladi. Avisan o'tkir va surunkali sistitda peshob chiqishining buzilishini kamaytiradi. Preparat peshob yo'liga kateter yuborishda ham ishlatiladi.

Avisan qabul qilinayotgan vaqtda toshni chiqib ketishini ta'minlash va tezlashtirish maqsadida bemorga ko'proq suyuqlik ichish tavsiya etiladi. Agar bemorning yurak-qon tomir va buyrak faoliyati bo'yicha avisan preparatining ishlatish man etilmagan bo'lsa unda 2-3 soat davomida 1,5-2 litr suv yoki choy ichilishi mumkin. Bir necha kundan keyin bu qaytarilishi zarur. Bundan asosiy maqsad toshni chiqib ketishini engillashtirishdir. Avisanning nojo'ya ta'siri juda kam. Ayrim holatlarda dispeptik (ko'ngil aynish, ich ketish) o'zgarishlar yuz bergan holatlarda preparat dozasi kamaytiriladi.

Preparat tabletkalarda 0,05g (50mg) chiqariladi. 1-2 tabletkadan kuniga 3-4 marta ovqatdan keyin qabul qilinadi. Kursning muddati 2-3 hafta.

6. Qalampir yalpiz (*Mentha piperita* L.) – Мята перечная

Ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, asosan Ukrainada, Qrimda, Krasnodarda va Toshkent viloyatida o'stiriladi. Yovvoyi holda uchramaydi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik tarkibida 2,4-2,7% gacha efir moyi mavjud. Moy tarkibida 14-70% gacha mentol, 6-25% gacha menton, pinen, limonen, ismin xalida 4-9% mentolning sirka, valeriana va boshqa kislotalar bilan hosil qilgan efirlari bor.

Qalampir yalpiz tarkibida efir moyidan tashqari, 40mg% karotan, gesperidin, evpatorin va boshqa flavanoidlar, betain, 0,3% ursol va 0,12% oleanol kislotalar, mikroelementlar (mis, marganes, stronsiy va b.) bor.

Farmakologik xossalari. Qalampir yalpizning bargidagi biologik faol moddalar, asosan efir moyi ko'p tomonlama farmakologik ta'sir etadi.

O'simlikning galen preparatlari (damlama, nastoyka) spazmolitik ta'sir etadi, silliq muskullar tonusini pasaytiradi, shu jumladan, peshob va o't chiqarish yo'llarini bo'shashtiradi, toshlar chiqib ketishini engillashtiradi. Bundan tashqari, oshqozon-ichak sekretsiyasini oshiradi, ishtaxani yaxshilaydi, tinchlantiruvchi va antiseptik ta'sir etadi. Qalampir yalpizning fitopreparatlari yurak qontomirlarini reflektor yo'li orqali kengaytiradi, kapillyar qon aylanishini oshiradi.

Yuqorida qayd etilgan o'simlikning farmakologik ta'siri uning tarkibidagi mentol moddasidan kelib chiqadi.

Ishlatilishi. Qalampir yalpizning fitopreparatlari asab sistemasi, oshqozon-ichak, yurak qontomir kasalliklaridan tashqari, urologiyada ham asosan peshob tosh kasalligida ishlatiladi. Ayrim preparatlar va turli yig'malar tarkibiga kiradi.

Asosiy preparatlari.

Olimetin (Olimetinum). Tarkibida qalampir yalpiz moyi (0,017g), tozalangan terpentin moyi (0,0341g), igir moyi (0,025g), zaytun moyi (0,4205g), tozalangan oltinugurt (0,0034g) bor.

Preparat spazmolitik, o't xaydaydigan hamda qisman peshob xaydaydigan va yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi. Efir moylarining bunday ta'siri peshob yo'llarida joylashgan konkrimentlarni (toshlarni) chiqib ketishini osonlashtiradi.

Preparat buyrak tosh kasalligida va o't tosh kasalligida profilaktika va davo qilish uchun ishlatiladi.

Olimetin tarkibi va ta'sir etish mexanizmi bo'yicha xorijiy preparatlarga – «Epatin», hamda «Rovatin» va «Rvaxol» – o'xshash.

Olimetin buyrak tosh kasalligida 2 kapsuladan kuniga 3-5 marta ovqatdan oldin yoki oshqozon zardasida ovqatdan keyin qabul qilinadi.

Tosh kasalligini oldini olish maqsadida (tosh chiqib ketganidan keyin) 1 kapsuladan kuniga 1 marta uzoq vaqtgacha iste'mol qilinadi.

O'tkir va surunkali glomerulonefritda, gepatitda, oshqozon yara kasalligida preparatni berish man etiladi.

Preparat kapsula shaklida 0,5 g dan chiqariladi.

Urolesan (Urolesanum). Tarkibida qalampir yalpiz moyi (2g), oqqarag'ay moyi (8g), kanakunjut moyi (11g), yovvoyi sabzi urug'ining ekstrakti (32g), qumloq xudda ekstrakti (33g), oddiy tog'rayxon o'tining ekstrakti (23g) bor.

Preparat spazmolitik ta'sir etib, peshob yo'lidan toshni chiqib ketishini yengillashtiradi, peshob yo'llarining yallig'lanishini kamaytiradi, o't ishlab chiqarish va uni chiqib ketishini oshiradi. Buyrak va jigar tosh kasalligida, o'tkir va surunkali kalkulezpielonefritda, xolessistitda beriladi. Preparatning 8-10

tomchisi qandga tomizilib kuniga 3 marta ovqatdan oldin qabul qilinadi. Davo etish kursi 5 kundan 1 oygacha. Buyrak jiggar tosh sanchig'ida 15-20 tomchidan ichiladi.

Urolesan tomizib ichishga moslashgan flakonlarda 15 ml dan chiqariladi.

Qalampir yalpizning yuqorida zikir etilgan dorivor preparatlaridan tashqari, undan tayyorlangan bir qator fitopreparatlari bo'lib, ular turli kasalliklarda (asab sistemasi, yurak qon-tomir, oshqozon-ichak kasalliklarida) qo'llanadi. Ular turli dori shaklida bo'lishi mumkin. Misol tariqasida quyidagi fitopreparatlarni keltirish mumkin: damlama, bargidan tayyorlangan briket, tabletkalar, nastoyka, yalpiz suvi, moyi hamda turli yig'malar.

7. Qush toron (*Polygonum aviculare* L.) – Сропынья

Bir yillik o't o'simlik bo'lib, deyarlik hamma tumanlarda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning yer ustki qismida 120-887 mg% askarbin kislota, vitamin K, avikulyarin, kversettrin va giperozid flavonglikozidlari, karotin, qisman efir moyi, 3-4% oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Farmakologik xossalari. Qush toronning galen preparatlari (damlama va b.) eksperimental tekshiruvda peshob ajralishini oshirishi, peshob bilan ortiqcha natriy va xlor ionlarining chiqarishi, buyrak koptokchalarida filtratsiyani oshirishi, buyrak kanalchalarida reobsoabsiyani – peshobni qaytatdan so'rilishini kamaytirishi aniqlangan. O'simlikning o'tida buyrakda tosh hosil bo'lishini oldini olish xossasi bor. Bunday ta'sir galen preparatlari tarkibidagi kremniy kislotaning eruvchan birikmalari hisobiga deb qaraladi. Ular peshob yo'lidan o'tishida himoya kolloidi rolini o'ynab, mineral tuzlarning kristallizatsiyalanishiga to'sqinlik qiladi. Bu degan so'z buyrak toshlarini hosil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ishlatilishi. O'simlik preparatlari boshqa asosiy dorilar bilan birga buyrak tosh kasalligini boshlang'ich davrida tavsiya etiladi.

Preparati.

Qush taron o'ti (*Herba Polygoni avicularia*). Tarkibidagi flavonol glikozidlari bo'lgan kversetin, avikulyarin hisobiga buyrak

tosh kasalligida toshni chiqib ketishiga zamin tayyorlaydigan fitopreparat sifatida ayrim hollarda ishlatiladi. Preparat o'rtacha yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi.

Damlama (10,0-15,0:200ml) 2 osh qoshiqda kuniga uch marta ovqatdan oldin ichiladi.

Maydalangan o'ti karton xaltachalarda 100 g dan chiqariladi.

Turli dorivor o'simliklardan shu jumladan, qush taron o'ti saqlaydigan fitopreparatlar qatoriga Fitolizon preparati ham kiradi.

Fitolizin tarkibida quyidagi o'simliklar ekstraktini saqlaydi: petrushka ildizi, o'rmalovchi bug'uoyoq ildizpoyasi, qirqbo'g'in o'ti, oqqayin bargi, qush taron o'ti hamda qalampir yalpiz moyi, marmarak moyi, qarag'ay moyi, apelsin moyi va vanilin.

Preparat diuretik, yallig'lanishga qarshi va spazmolitik ta'sir etadi. Buyrak, peshob tosh kasalligida beriladi. Preparat pasta holida tubiklarda (100g) chiqariladi. 1 choy qoshig'i 0,5 stakan suvda eritilib kuniga 2 marta ichiladi.

Buyrak tosh kasalligida yuqorida qayd etilgan fitopreparatlardan tashqari, turli dorivor o'simliklarning yig'malari – fitoyig'malar ham qo'llanadi. Ular ham tarkibidagi o'simliklar farmakologik xossalari qarang qarab peshob toshini yumshatishni, maydalanishini va peshob bilan chiqib ketishini osonlashtiradi, birga kechayotgan yallig'larinshni kamaytiradi yoki yo'qotadi, kasallik qaytarilishini oldini oladi. Yig'malar tarkibiga asosan peshob haydovchi, yallig'lanishga qarshi, antibakterial, spazmolitik hamda tosh va qumlarni chiqib ketishini osonlashtiruvchi ta'sirga ega dorivor o'simliklar kiradi. Ularning orasida peshob haydovchi ta'sirli o'simliklar asosiy hisoblanadi.

Yig'malar tarkibiga kiradigan dorivor o'simliklarni tanlashda kasallikni kechishi, og'ir-yengilligi va toshning tuzilish xususiyati hisobga olinadi.

Misol tariqasida quyidagi yig'malarni keltirish mumkin:

1. Bo'yoqdor ro'yan ildizi – 20,0; dala anonisi – 15,0; oq qayin bargi – 10,0; buyrak choyi o'ti – 15,0; qirqbo'g'in o'ti – 10,0; dorixonni moychechagi (guli) – 15,6; hushbo'y shivid urug'i – 15,0. 1:20 nisbatida damlama tayyorlanadi. ½, 1/3 stakandan kuniga 3-4 marta buyrak tosh kasalligida ichiladi.

2. Oq qayin bargi – 20,0; dala anonisi ildizi – 20,0; oddiy archa mevasi – 20,0; qoncho‘p o‘ti – 20,0; g‘ozpanja o‘ti – 20,0. 1:20 nisbatida damlama tayyorlanadi, peshob yo‘li (machatochnik) va peshob qopi tosh kasalligida 1 stakandan iliq holida kech. uyquga yotishdan oldin ichiladi.

Kislotalik xususiyatli peshobda va uratli toshlarda quyidagi yig‘malar tavsiya etiladi:

1. Brusnika barglari, qushtaron o‘ti, petrushka ildizi, buyrak choyining novdalari, o‘rmon qulupnoy bargi, igir ildizi, makkajo‘xori gulining onalik ustuni – barobar miqdorda. 10g yig‘ma 250 ml qaynoq suvga va 15 daqiqa suv hammomida qizdiriladi. 5 daqiqa qoldiriladi, dokadan o‘tkaziladi. 60 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

2. Oqqayin bargi, brusnika bargi, meniantes bargi, kashnich mevasi, g‘ozpanja o‘ti, buyrak choy navdalari, yashil sulining xashagi, ledum navdalari, qalampir yalpiz o‘ti, ukrop mevalari – barobar miqdorda olinadi. Tayyorlanishi va qabul qilish 1-yig‘maga o‘xshash.

Oksalat va fosfatlik buyrak toshlarda quyidagi yig‘ma tavsiya etilishi mumkin.

Zira gullari, bo‘znoch gullari, brusnika barglari, marjondaraxt gullari, erika, qashqarbada o‘ti, bo‘yoqdor ro‘yan ildizi, sigirquyruq o‘ti – barobar miqdordan olinadi. 6g yig‘ma 250 ml suvga solinadi. Suv xammomida 15 daqiqa ushlanadi, 45 daqiqa sovitiladi, dokadan o‘tkaziladi. 60 ml-dan ovqatdan yarim soat oldin ichiladi.

Fosfatli peshob toshida quyidagi yig‘ma tavsiya etilishi mumkin.

1. O‘rmalovchi bug‘doyiq – 5 qism, oq qayin bargi, zubtutum bargi, qirqbo‘g‘in o‘ti – 4 qismdan, dalachoy o‘ti – 3 qism, zira ildizi, na‘matak gulbargi, qalampir yalpiz bargi, qoraqat bargi, qulmoq g‘uddasi – 2 qismdan. 1 osh qoshiq maydalangan yig‘mani termosdagi 300 ml qaynoq suvga solinadi, 6-8 soatga qoldiriladi. 100 ml-dan kuniga 3 marta ovqatdan 1 soat oldin yoki ovqatdan 3 soat keyin ichiladi. Davolash kursi 1,5-2 oy, 10 kun tanaffusdan keyin ikkinchi kurs va b. Umumiy davolash kursi 6-8 oy.

Fosfat – karbonatlik toshlarda quyidagi yig‘ma tavsiya etilishi mumkin:

Makkajo'xori onalik ustuni – 60g; loviya po'stlog't; tog'jambul o'ti – 30 g; qalampir yalpiz bargi; archa mevasi – 20 g; qirqbo'g'in o'ti; samano't – 15 g. 4 osh qoshiqda maydalangan yig'mani termosdagi 1 l qaynoq suvga solib qo'yiladi. Vaqt o'tgach 4 marta kun davomida ichiladi (peshobni rn 5,2-5,6 bo'lganda tavsiya etiladi).

Buyrakning oksalatli toshlarida quyidagi fitoyig'ma tavsiya etilishi mumkin:

1. Qo'shtaron o'ti, bo'ymadaron o'ti – 20 gr; qoncho'p o'ti – 5 yoki 10 gr. Yig'madan 3 osh qoshiq olib 900 ml termosdagi qaynagan suvga solinadi. 10 soat qoldiriladi. Apelsin soki bilan kun davomida 3 marta ichiladi. Davolash kursi 3 oygacha.

Urutli buyrak toshlarida olma, sabzi, petrushka, tarvuz, bodring, qovoq, qulupnay mevasi va soki qabul qilish foydalidir.

Fosofatli va oksalatli toshlarda esa nordon ho'l mevalar va ularning soki (olma, bexi, nok, uzum, o'rik va b.) istemol qilish tavsiya etiladi.

Buyrak tosh xurujida (pochechnaya kolika) peshob yo'lida toshni tiqilib qolishi bilan bog'liq xurujda birinchi galda issiq (38-39⁰) vannaga (10-20 daqiqa) tushish va unga quyidagi fitoyig'mani qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moychechak va jo'ka gullari – 20 gr; sulining yashil poxoli – 200 gr; malva barglari – 50 gr. Har bir o'simlik mahsuloti 3 litr qaynoq suvga solinadi. Qopqog'i berk idishda 15 daqiqa qaynatiladi. 30 daqiqadan so'ng dokadan o'tkaziladi va vannaga quyiladi.

Yuqorida keltirilgan yig'malar tarkibidagi o'simliklar bo'lmasa, quyidagi alohida spazmatik va diuretik taxirli o'simliklardan foydalanish mumkin:

1. Oq qayin mayda navdasi, bargi – 40 g. 1 litr qaynoq suvga solinadi. Suv hammomida 20 daqiqa ushlanadi, dokadan o'tkaziladi va iliq holda 1 soat mobaynida qabul qilinadi.

2. Qirqbo'g'in o'ti – 30 g. 1 litr qaynoq suvga solinadi, suv hammomida 15 daqiqa qaynatiladi. 1 soat o'tgach dokadan o'tkaziladi. Iliq holda 1 soat davomida ichiladi.

Sistitning fitoterapiyasi

Sistit – asosan mikroorganizmlar keltirib chiqargan peshob qopi devori shilliq qavatining yallig‘lanishi. Bu kasallik hamma yoshdagilarda bo‘lishi mumkin. Lekin ko‘proq yoshi katta ayollarda uchraydi. Chunki ayollarda peshob chiqarish yo‘lining kalta va kengroq hamda tanosil organlarga yaqin joylashgani bilan bog‘liq.

Yallig‘lanishning sababchisi mikroorganizmdan tashqari peshob qopi shilliq pardasini ta’sirlovchi turli faktorlar (qum, tosh, kimyoviy moddalar) hamda organizmning sovuq qotishi va boshqalar keltirib chiqarishi mumkin.

Asosiy belgilari: siyish paytida peshob yo‘lida achishish va qichima, qovuq sohasida siyishning oxirida kuchayadigan og‘riq seziladi. Siyish tez-tez bo‘lib turadi va borgan sari peshob miqdori kamayib boradi. Ayrim hollarda peshob bilan qon chiqishi mumkin.

Davosi: antibakterial ta’sirli (uroantiseptik) dori preparatlaridan (furazolin, furodonin, oflaksisin) va fizioterapevtik (vanna, grelka) muolajalaridan tashqari dorivor o‘simliklardan tayyorlangan fitoyig‘malar ham ishlatilishi mumkin. Ular asosan peshob haydovchi, antiseptik ta’sirli fitopreparatlaridir. Ular bemorga asosiy davo etuvchi preparatlar bo‘lmasa ham o‘z ta’siri kamroq va har tomonlama bo‘lgani uchun kasallikni engillashtiradi.

Misol tariqasida quyidagi fitoyig‘malarni keltirish mumkin:

1. Oq qayin bargi, zig‘irak o‘ti, qizilmiya ildizi, tolokyanka bargi – barobar miqdorda olinadi. 10 gr yig‘mani 300 ml qaynoq suvga solinadi, suv xammomida 15 daqiqa ushlanadi. 45 daqiqadan keyin dokadan suziladi. Iliq holda 50-100 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan 1 soat oldin ichiladi.

2. Toloknyanka bargi – 25 gr, loviyaning po‘stlog‘i – 20 gr, archa mevasi – 15 gr, tern guli, igir ildizi, qirqbo‘g‘in o‘ti – 10 gr-dan olinadi. Yig‘madan 4 osh qoshiq olib, 1 litr qaynoq suvga solinadi. 1 soat qoldiriladi. Damlamani kunning birinchi yarmida ichiladi. Siyish o‘tirgan holda issiq vanna olgandan keyin bajariladi.

3. 15 g rayhon o‘ti va 2 qoshiq asal olib 0,5 litr suvga solib 0,25 litr qolguncha qaynatiladi. Bir kunda 2 marta ertalab naxorga va kechqurun uxlashdan oldin ichiladi.

Nazorat savollari

1. Glauronefrit qanday kasallik?
2. Surunkali glouronefritda qanday fitoterapevtik ta'sirga ega bo'lgan fitopreparatlar tavsiya etiladi?
3. Petrushka o'simligi fitopreparatlarining ishlatilishi.
4. Temirtikan fitopreparatlarining asosiy farmakologik ta'siri nimadan iborat?
5. Surunkali pielit kasalligini ta'riflang.
6. Surunkali pielitda ishlatiladigan fitopreparatlarni ko'rsating.
7. Buyrak tosh kasalligini ta'riflang.
8. Peshob-tosh kasalligida qanday fitoterapevtik xossalarga ega bo'lgan o'simliklar tavsiya etiladi?
9. Peshob-tosh kasalligida peshobning RN muhitining ahamiyati nimadan iborat?
10. Peshob-tosh kasalligida qo'llanadigan asosiy dorivor o'simliklarni ko'rsating.
11. Qanday dorivor o'simliklar peshob haydovchi ta'sirga ega?
12. Bo'yoqdor ro'yan o'simligining fitoterapevtik shifobaxsh ta'siri nimadan iborat?
13. Buyrak-peshob-tosh kasallik xurujida qanday ta'sirli fitopreparatlar beriladi?
14. Fitolizin preparatining tarkibi, shifobaxsh ta'siri nimadan iborat?
15. Sistenal preparatning ta'siri va ishlatilishi.

IX BOB. QON OQISHINI TO‘XTATUVCHI DORIVOR O‘SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

Ma'lumki, hayotda turli sabablar tufayli qon ketish xodisalari ro'y berib turadi. Ko'pincha jaroxatlanish natijasida qon tomirlarining shikastlanishi qon ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, organizmning turli kasalliklarida (bavosil, oshqozon-ichak yara kasalligi, gipovita-minoz S, o'pka kasalliklarida, ichki a'zolarning rak kasalligida va b.) ham ichdan qon ketishi mumkin.

Jaroxatlanish natijasida qisqa muddat davomida ko'p miqdorda qon ketishi (arteriya va katta vena qon tomirlarining shikastlanishi) bemorda karaxtlik (shok) holatini keltirishi mumkin. Bunday holatda zudlik bilan tegishli choralar (qon va qon o'rinbosar suyuqliklar va b.) ko'rildadi.

Turli kasalliklar tufayli ichki a'zoldan oz-ozdan uzoq muddat qon ketishi (oshqozon-ichak yarasi, xayz ko'rishni buzilishi va b.) kamqonlikga olib keladi. Bunda organizmning qon bilan ta'minlanishi kamayadi va o'ziga xos bo'lgan o'zgarishlar (bosh aylanishi, ko'z tinishi, charchoqlik, quvvatsizlik va b.) bilan davom etadi.

Organizmning qon yo'qotishining sabablaridan biri qon ivishining izdan chiqishidir. Ma'lumki, mayda qon tomirlar (kapillyarlar) jaroxatlanishi sababli qon ketishi ma'lum vaqtdan so'ng o'z-o'zicha to'xtaydi. Bu jarayon qonning ivishi natijasida kelib chiqadigan fiziologik jarayondir.

Lekin ayrim holatlarda va ayniqsa, qonning ivishi jarayonida qatnashadigan faktorlarning (vitaminlar Q, S, kalsiy, trombositlar va b.) etishmovchiligida qonning ivishi namoyon bo'lmaydi va bu esa hayot uchun xavfli turli holatlarni keltirishi mumkin.

Qonning ivishi ancha murakkab fiziologik jarayon bo'lib, butun organizmni qon bilan etarli miqdorda ta'minlanishi, qon yo'qotishni oldini olishga qaratilgandir.

IX BOB. QON OQISHINI TO'XTATUVCHI DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING FITOPREPARATLARI

Ma'lumki, hayotda turli sabablar tufayli qon ketish xodisalari ro'y berib turadi. Ko'pincha jaroxatlanish natijasida qon tomirlarining shikastlanishi qon ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, organizmning turli kasalliklarida (bavosil, oshqozon-ichak yara kasalligi, gipovita-minoz S, o'pka kasalliklarida, ichki a'zolarining rak kasalligida va b.) ham ichdan qon ketishi mumkin.

Jaroxatlanish natijasida qisqa muddat davomida ko'p miqdorda qon ketishi (arteriya va katta vena qon tomirlarining shikastlanishi) bemorda karaxtlik (shok) holatini keltirishi mumkin. Bunday holatda zudlik bilan tegishli choralar (qon va qon o'rinbosar suyuqliklar va b.) ko'rildadi.

Turli kasalliklar tufayli ichki a'zolardan oz-ozdan uzoq muddat qon ketishi (oshqozon-ichak yarasi, xayz ko'rishni buzilishi va b.) kamqonlikga olib keladi. Bunda organizmning qon bilan ta'minlanishi kamayadi va o'ziga xos bo'lgan o'zgarishlar (bosh aylanishi, ko'z tinishi, charchoqlik, quvvatsizlik va b.) bilan davom etadi.

Organizmning qon yo'qotishining sabablaridan biri qon ivishining izdan chiqishidir. Ma'lumki, mayda qon tomirlar (kapillyarlar) jaroxatlanishi sababli qon ketishi ma'lum vaqtdan so'ng o'z-o'zicha to'xtaydi. Bu jarayon qonning ivishi natijasida kelib chiqadigan fiziologik jarayondir.

Lekin ayrim holatlarda va ayniqsa, qonning ivishi jarayonida qatnashadigan faktorlarning (vitaminlar Q, S, kalsiy, trombositlar va b.) etishmovchiligida qonning ivishi namoyon bo'lmaydi va bu esa hayot uchun xavfli turli holatlarni keltirishi mumkin.

Qonning ivishi ancha murakkab fiziologik jarayon bo'lib, butun organizmni qon bilan etarli miqdorda ta'minlanishi, qon yo'qotishni oldini olishga qaratilgandir.

Hozirgi zamon tushunchasiga ko'ra qon ivish jarayoni, qon ketishning to'xtashi (gemostaz) asosan ikki turda namoyon bo'ladi: qon-tomir – trombositar va koagulatsion geosatoz.

Qon-tomir – trombositar gemostaz mayda qon tomirlarning (kapilyarlar, venalar) shikastlanganda sodir bo'ladi, elektorstatik asosida bajariladi. Chunonchi, qon tomirlar devorining butunligi buzilsa shu erga elektrostatik (manfiy va musbat qutiblanish) kuch bilan qondagi trombositlar yog'iladi. Buni trombositlar adgeziyasi deyiladi. Ular bir-biri bilan yopishib (agregasiya) tromb hosil qiladi va jaroxatlangan qon tomir devori yopiladi va qon oqishi to'xtaydi.

Qon ketishining to'xtashining ikkinchi turi – koagulatsion gemostaz o'ta murakkab fiziologik jarayon bo'lib, fermentlar va boshqa moddalar – faktorlar qatnashadi. Ulardan tromboplastin (trombokinaza), qondagi kalsiy ionlari, protombin, trombin, fibrinogen va fibrinlar asosiy qon ivishida zarur faktorlar hisoblanadi. Tromboplastin qondagi trombositlardan hosil bo'lsa, qondagi kalsiy ovqat tarkibida organizmga – qonga o'tsa, protrombin esa jigarda vtiamin K qatnashishida hosil bo'ladi. Protrombin trombinga o'tib, fibrinogen fibrin (tolalar) hosil qilib, qon iviydi, tromblar hosil bo'ladi. Bu fiziologik jarayonlarda ushbu asosiy faktorlardan tashqari yana bir qancha faol faktorlar ishtirok etadi. Ularning ayrimlari qon ivishini sekinlashtirsa, boshqalari esa, aksincha, bu jarayonni tezlashtiradi. bir xillari esa qonning haddan tashqari tromblar hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, ortiqchasini emiradi.

Qondagi bunday qon ivishida qatnashadigan faktorlarni biri bo'lmasa yoki miqdori kamayib ketsa, qonning ivishi izdan chiqib, qon ketishi davom etadi. Chunki ushbu fiziologik jaryonda qatnashadigan faktorlarni – omillarni bir-biri bilan uzviy bog'lanishi uzuladi, fiziologik jarayon esa yuzaga chiqmaydi.

Bunday holatlarda qon oqishini to'xtatish, qon ivishini ta'minlaydigan tadbirlar ko'riladi.

Qonning ivishining bunday buzilishini turli dori preparatlari keltirib chiqarishi mumkin. Bularni antikoagulyatorlar deyiladi. Antikoagulyatorlarga geparin, fraksiparin, neodakumarin, sinkumar,

1. Jag'-jag' (Capsula Bursa pastoris) –

Пастушья сумка обыкновенная

O'simlikning yer ustki qismi tarkibida turli kimyoviy moddalardan tashqari, vitamin K, askarbin kislota (0,12%), oshlovchi moddalar, saponinlar va boshqalar bor.

O'simlikning fitopreparatlari (damlama, suyuq ekstrakt) qon ketishini keskin to'xtatuvchi (gemostatik) ta'sirga ega. Shu sababdan uning preparatlari bachadondan, o'pkadan, oshqozon-ichakdan qon ketishida boshqa gemostatik ta'sirli fitopreparatlar bilan kompleks holda yoki alohida tavsiya etiladi.

Damlama (Jnf. Herbe Bursae pastoris) 1:10 nisbatda tayyorlanadi va 1 osh qoshiqdan kuniga 4-5 marta ovqatdan keyin ichiladi.

Suyuq ekstrakti (Extr.Bursae pastoris fluidum) bachadon atoniyasi va bachadondan qon ketishida 20 tomchidan kuniga 3 marta ichiladi.

2. Suv qalampir (Polygonum hydropiper L.) – Водяной перец

O'simlik o'ti tarkibida boshqa faol moddalardan tashqari vitamin K, askarbin kislota, oshlovchi modalar, (rutin) saqlaydi.

O'simlikning fitopreparatlari gemostatik ta'sirga ega. Shu sababdan ular akusherlik – ginekologik amaliyotida tug'riqdan keyingi bachadondan qon ketishida, xayzda ko'p va uzoq muddat qon ketishida, gemorroйдan qon ketishida tavsiya etiladi.

Damlama (Jnf. Herbae polygonum hydropiperis L.) 1:10 nisbatida tayyorlanadi va 2 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Suyuq ekstrakti (Extr. Polygoni hydropiperis fluidum) 30-40 tomchidan kuniga 3-4 marta ichiladi.

3. Bozulbang (Lagoehilus) – Лагохилус

O'simlikning guli va bargi tarkibida vitamin K, askarbin kislota, oshlovchi moddalar, kalsiy va temir tuzlari va boshqa moddalar bor (lagoxilin va b.)

O'simlikning fitopreparatlari qon oqishini kamaytiruvchi sifatida diatezda, gemorroйдan qon ketishida, burun qonashida va boshqalarda ishlatiladi.

antiagregantlar (asetilsalisil kislotasi, kurantil), fibrinolitiklar (fibrolizin, streptokinaza) kiradi. Bular turli kasalliklarda (tromboz, tromboflebit, stenokardiya, miokord infarkti, ateroskleroz va b.) ishlatiladi. Profilaktika maqsadida ham beriladi.

Qon oqiishni to'xtatish maqsadida, qon ivishini tezlash-tiradigan dori vositalari va turli tadbirlar ko'riladi. Tadbirlardan qon tomirlarni toraytiradigan (sovuq tampon, bog'lam qo'yish, qon tomirini koagulyatsiya qilish, qon quyish, qon tomirini torayti-radigan preparatlar, noradrenalin va b.) vositalar qo'llanadi. Shuning bilan bir qatorda, qon ivishida qatnashadigan faktorlar saqlagan turli dori preparatlari (kalsiy xlorid, glyukonat kalsiy, vikasol va b.) va qon tomirlarining o'tkazuvchanligini kamaytiradigan dori prepa-ratlari (rutin, eskuzan va b.) keng tishlatiladi.

Shuning bilan bir qatorda surunkali qon yo'qotishda, ayniqsa, ichki a'zolardan oz miqdorda uzoq vaqt qon ketishida va har xil jarrohlik operatsiyalaridan keyin qon ketishini oldini olish maqsadida bir qator dorivor o'simliklar ham qo'llanadi.

Asosan tarkibida vitamin K, vitamin S, oshlovchi moddalar saqlagan dorivor o'simliklar ishlatiladi. Ular yakka holda turli dori shaklida (damlama, quruq, suyuq ekstrakt, nastoyka, tabletka, ineksiya uchun ampulada) yoki yig'malar shaklida berilishi mumkin. Ayrim hollarda ushbu fitopreparatlar qon oqishini to'xtatishga qaratilgan boshqa tadbirlari bilan birga va ayniqsa, qon ketishini oldini olish maqsadida ishlatiladi.

Bular qatoriga tarkibida K, S vitaminlarga boy dorivor o'simliklarni (jag'-jag' o'ti, bo'yumadaron o'ti, gazanda bargi, zubturus bargi, lagoxilusning guli va bargi, bodrezak po'sti va b.) hamda oshlovchi moddalar (ko'ko't ildizi, skumpiya bargi, sumak bargi, eman po'sti, dalachoy o'ti, grek yong'og'ining bargi va mevasidagi qismi, bergeniya ildizi, toron turlarining o'ti, gazanda ildizi, olxa, chernika mevasi, yorongul o'ti va b.) saqlagan quyidagi ayrim giyohlarni qo'yish mumkin. Ulardan bir nechtasini keltiramiz.

Damlama (Jnf. Flor. Lagochili) 1:10, 1:20 nisbatda tayyorlanadi va 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Lagoxilus nastoykasi (Tinc. Lagochili) 20-30 tomchidan kuniga 2-3 marta ovqatdan oldin ichiladi.

Yuqorida izohlangan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlaridan tashqari, tibbiyot amaliyotida qon ivishini tezlatuvchi preparatlar qatoriga Vikasol va Eskuzan dori vositalarini keltirish mumkin.

Vikasol tabiiy vitamin K ning sintetik analogi bo'lib, vitamin K sifatida qaraladi va qo'llanadi.

Preparat protrombinning kamayishi va qon ketishi holatlarida parenximatoz kapillyarlardan qon ketishida (oshqozon-ichak yara, nur kasalligi, jarohatlanish va b.) ishlatiladi. Tabletkka shaklida 0,015 g dan, 1% eritmasi ampulada 1ml dan chiqariladi.

Eskuzan. Soxta kashtan mevasining suvli-spirтли ekstrakti.

Tarkibida rutinga yaqin bo'lgan flavonoidlar, saponinlar, essin va boshqa moddalar bor.

Preparat qon tomir devorlar o'tkazuvchanligini kamaytiradi. Vena qon tomirlar tonusini oshiradi. Preparat gemorroйда va venalarni kengayishi bilan kechadigan kasalliklarda 10-20 tomchi kuniga 3 marta ovqatdan oldin ichiladi. Flakonda 20 ml dan chiqariladi.

Yig'malar: 1. Shaftoli bargi, taron o'ti, bozulbang o'ti, bo'ymadaron guli-baravar miqdorda olinadi. Undan 2 osh qoshiq 200 ml qaynoq suvga solib, 1-2 soat qoldiriladi, dokadan o'tkazib, qon oqayotgan joyga kampres shaklida qo'yiladi.

2. Achchiq taron o'tidan 1 osh qoshiq olib 200 ml qaynoq suvga solinadi. 1 soat qoldiriladi, 2-3 qoshiqdan kuniga 3-4 marta ovqatdan oldin ichiladi (gemarroйдan va boshqa qon ketishida).

X BOB. TERI KASALLIKLARI FITOTERAPIYASI

Ma'lumki, butun organizm satxini qoplagan teri to'qmasi uning ajralmas qismi bo'lib, fiziologik faoliyati turlichadir (termolregulyatsiya, himoya, sekretor va b.). Teri kasalliklari ham turlicha bo'lib, ayrimlari organizmning umumiy kasalligini terida bo'ladigan turli o'zgarishi simptomilari bo'lib kechadi (sifilis, skarlatina, qizamiq, gepatit va b.). Shu bilan birga, teri to'qimasi bilan chegaralangan patologik o'zgarishlar kasalliklari mavjud. Ularni dermatozlar deyiladi. Terini yiringli xastaliklari, zambrug' va virusli va allergik o'zgarishlar va boshqalar teri kasalliklari hisoblanadi.

Teri kasalliklarini davolashda ularni kelib chiqish sabablari, kechishi, simptomlari va og'ir-yengiliga qarab turli umumiy butun organizmga ta'sir etuvchi hamda mahalliy qo'llash usuli yordamida (eritmalar, surtmalar, pastalar, poroshoklar va b.) olib boriladi. Dermatologiyada ko'proq antiseptiklar, yallig'lanishga qarshi va boshqalar mahalliy tarzda qo'llanadi. Bularni orasida sintez yo'li bilan olingan, gormonal, organopreparatlardan tashqari dorivor o'simliklardan ajratib olingan dorivor o'simliklarni ham o'zidan tayyorlangan preparatlar bor.

Teri kasalliklarini davolashda asosan yallig'lanishga qarshi allergiyaga qarshi, antisiptik ta'sirli, sedativ, ayrim hollarda isitma tushuruvchi, diuretik umumiy bardamni oshiruvchi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklardan foydalaniladi.

Teri kasalliklarini belgilarini—simitomini davolashda simtomatik davo dorivor o'simliklardan foydalaniladi. Misol tariqasida quyidagilarni ketirish mumkin: Ayrim kasalliklar terini qichishi bilan davom etadi (allergiya, diabet, qo'tir va b.). Bunda qichishga qarshi, yallig'lanishga qarshi ta'sirli dorivor o'simliklar ishlatiladi. Masalan, qariqiz, qayin, gazanda, qirqbo'g'in, bo'ymadaron, moychechak, igir va b. ishlatiladi. Fasodi oqadigan yaralarda burishtiradigan ta'sirli o'simliklar eman, g'ozpanja, olxa, yong'oq po'stlog'i va b. qo'llanadi.

Yallig'lanishda unga qarshi ta'sirli dorivor o'simliklar tirnoqgul, marmarak, dalachoy, andiz va b. tavsiya etiladi.

Kasallik tufayli asab sistemasi o'zgargan bo'lsa (uyqusizlik, bezovtalik) tinchlantiruvchi sedativ ta'sirli dorivor o'simliklar valeriana, arslon quyruq, yalpiz, sallagul, limono't, tog'rayhoni va b. qo'llanadi. Ayrim teri kasalliklarining surunkali va og'ir kechishida gormonsimon ta'sirli qizilmiya ildizi, astragal o'ti, uchrangli dala binafsha o'ti yaxshi natija beradi. Ularni alohida yoki kartikostroidlar bilan birga ishlatish mumkin. Birga qo'llanadigan kartikosteroidlarni dozasi kamaytiriladi.

Organizmni kasallikka nisbatan umumiy qarshiligini oshirish maqsadida dovo ko'rsatish kompleksiga adaptogen, umumiy tonusni oshiradigan dorivor o'simliklar shu jumladan, eleuterakokk jenshen radiola, limonnik, araliya, anioxpanakis, sulii, bug'doyiq va b. tavsiya etiladi.

Teri kasalliklari shishish bilan davm etadigan bo'lsa peshob haydaydigan dorivor o'simliklar oq qayin bargi, qirqbo'g'in o'ti, toloknyanka bargi, brusnika bargi, buyrak choy bargi, ko'k bo'tako'z guli, samancho'p va b. yig'ma tarkibiga kiritiladi.

Teridagi o'zgarishlar jigar kasalligi bilan bog'liq bo'lsa, o't haydaydigan dorivor o'simliklar bo'znoch guli, makkajo'xori gulining onalik uyunchasi, arnika guli, zirk ildizi va bargi, na'matak mevasi va b. beriladi.

Yiringli teri kasalliklar fitoterapiyasi

Terining yiringli kasalliklari-piodermgiya dermatozlar orasida eng ko'p uchraydigan xastalik hisoblanadi.

Tiodermiyaning kelib chiqadigan sabablari turlicha: stafilokokkilar, streptokokkilar, stafilo-streoptokokklar. Piodermiya patologik jarayonining zabt etishi bo'yicha yuzaki va chuqur, kechishi, bo'yicha o'tkir va surunkali bo'lishi mumkin.

Piodermiyaning kelib chiqishida ekzogen (yuzaki jaroxatlanish ifloslik, sovuq va issiqlik va b.) va endogen (qandli diabet, gipofiz-adrenalin sistemani va qalqonsimon bezning faoliyatini etishmasligi, vegetativ nevrozlar, gipovitaminoz ayniqsa. A va S vitaminlar) faktorlar alohida o'rin egallydi. Organizmning immun sistemasini kasallikka qarshi himoya etish faoliyatining pasayishi poideriyani

kelib chiqishi va kechishida katta ahamiyatga ega. Yuzaki joylashgan poideriyaga – soch, tuk follikularining yiringli yallig‘lanishi osteofolikulit va folikulitlar deyiladi.

Chuqur joylashgan poideriyalarga esa asosan furunkul, karbankul va gidroadenitlar kiradi.

Terining bunday kasalliklarida keng miqyosda umumiy va mahalliy mikroblarga qarshi antiseptiklar antibiotiklar va b., yallig‘lanishga qarshi, organizmning immun sistemasi faoliyatini oshiruvchi dori vositalari va ayrim holatlarga esa jarroxlik usuli qo‘llanadi.

Shu bilan birga dorivor o‘simliklardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar ham ishlatilishi mumkin.

Poideriyani fitoterapiyasida ham keltirib chiqargan mikrobgga qarshi va organizmning qarshiligini oshiruvchi ta’sirli dorivor o‘simliklardan foydalaniladi.

Yallig‘lanishga va qichishiga qarshi ta’sir etadigan dorivor o‘simliklarga o‘rmalovchi bug‘doyiq ildizi, uch rangli gunafsha o‘ti, igir ildizi, bo‘tako‘z gullari va b. fitopreparatlari kiradi.

Surunkali pidermiyada asab sistemasini tinchlantirish maqsadida sedativ ta’sirli dorivor o‘simlielar arslon quyruq, valeriana, gangituvchi bozulfang, sallagul va b. ishlatilishi mumkin. Organizmning umumiy quvvatini oshiruvchi ichki sekretsia bezlar faoliyatini bir meyorga keltiruvchi dori vositalari eleuterokk, jenshen, zamanixa, lavzey, olivandra, radiola evkalipt, suli va b. ham tavsiya etish mumkin.

Karbon suv almashinuvi giperglikemiya bilan bog‘liq pidermiyaning surunkali kechishida quyidagi fitoyig‘malar tavsiya etiladi.

Dalachoy o‘ti, tirmoqqul gullari, marmarak bargi, loviya po‘sti, chernika barglari, suli poxoli-35g-dan; yalpiz bargi, qariqiz ildizi-25g-dan; zig‘ir urug‘i 20g yig‘maning 1 osh qoshig‘i 500ml qaynoq suvga solinib, 5 daqiqa qaynatiladi, 20 daqiqadan so‘ng 2 qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Terining yiringli kasalliklarida ishlatiladigan ayrim dorivor o‘simliklar izohi.

1. Oddiy oq qaldirmoq (Tussilago farfara) – Мать и мачеха (To'liq ma'lumot IV bobda berilgan)

Farmakologik xossasi. O'simlik bargi tarkibidagi biologik faol moddalar kompleksi hisobiga uning yallig'lanishga qarshi va boshqalardan tashqari bakterioistatik ta'siri mavjud.

Ishlatilishi. Yuqori nafas yo'llarini yallig'lanishdan tashqari o'simlik bargini qaynatmasi va damlamasi nam bog'lam kompleks, malxam, primochka, vanna shaklida dermatologiyada – teri yiringli kasalliklarida, furuiklyozda, mayda yaralarda, boshning yiringli dermatozlarida qo'llanadi.

2. Suli (Avena sativa) – Овёс полевой

Suli bir yillik ozuqa o't o'simlik. U don sifatida oziq-ovqat tibbiyot va kanditer amaliyotida keng ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi. Don tarkibida quyidagi foydali moddalar saqlanadi: 10-16% oqsil, 3,3% almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar, 6,7% almashtirib bo'ladigan aminokislotalar, kraxmal, glyukoza, fruktoza va turli mikroelementlar, vitaminlar V, karotin, E bor.

Suli tarkibida oqsillar, uglevodlar, yog'lar va vitaminlarni ko'p miqdorda bo'lishi, uni almashib bo'lmaydigan parhez uchun va davo ko'rsatadigan don sifatida qaraladi. Shuning uchun u oziq-ovqat etishmovchiligi va kasallik tufayli ozib quvvatsizlanib ketishda, oshqozon-ichak kasalliklari, kamqonlik va boshqa xastaliklardan tashqari dermatologiya amaliyotlarida ham ishlatiladi. Chunonchi terini normal trofikasini ta'minlash maqsadida tarkibidagi V vitamini va boshqa biologik faol moddalar hisobiga ekzemada, surunkali dermatitlarda hamda bolalarda uchraydigan diatezda ishlatilganda ijobiy natijalar qayd qilingan.

Teri kasalliklarini mahalliy davolashda tozalanmagan donning suli qaynatmasi, malxami, primochkasi qo'llanadi. Qaynatmasi dokadan o'tkazib vanna qilish uchun suvga qo'shiladi.

Suli don tolqonidan tayyorlangan maska kosmetikada so'lib qolgan terining quruq bo'lishida ishlatiladi.

Vanna uchun 0,5 yoki 1kg maydalangan suli poxoliga 10 litr suv solinadi va qaynatiladi, 30 daqiqa sovigandan so'ng yuvinish yoki vanna uchun ishlatiladi.

3. Grek yong'og'i (Juglans regia L.) – Греческий орех

Balandligi 35 metrga yetadigan daraxt O'rta Osiyoda chunonchi O'zbekistonda ham o'sadi va o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Yong'oqning tarkibida 70% yog'lar, 20% oqsillar, deyarlik shuncha miqdorda azot saqlangan ekstraktiv moddalar bor. Aminokislotalar valin, izolensin, leysin, lizin, metionin bor. Vitaminlardan V₁ V₂ V₆, mikroelementlar kaliy, kalsiy, magniy, natriy, mis, marganes, ftor, rux va b. mavjud. Yong'oq urug'ida oshlovchi moddalar 3-4%, bo'yoq modda yuglan, yangi yosh bargida yugnan, izotin karotin flavonoidlar, efir moyi, A, V, R vitaminlar bor. Meva oldi qisimida askarbin kislota, oshlovchi moddalar va b. bo'ladi.

Hozirgi zamon tibbiatida yong'oq bargidan va meva qismidan yuglan preparati olingan. Uning tarkibida vitaminlar yig'indisi, flavonoidlar, oqsil, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yuglanning surtmasi, suv-spirтли eritmasi teri kasalliklarida sil, stafilakokk va streptokokk keltirib chiqargan yiringli kasalliklarda qo'llanadi. Preparatlar mikroblarga qarshi, yallig'lanishga qarshi va yara bitishini tezlashuviga ta'sir etadi.

Yong'oqni ekzema, psoriasis va neyrodermit kasalliklarida berib bo'lmaydi.

4. Uch rangli gunafsha (Vialae tricolor) – Фиалка трехцветная (To'liq ma'lumot IV bobda berilgan)

Farmakologik xossalari. O'simlikning yer ustki qismidagi farmakologik faol moddalari bo'lgan efir moyi, shilliqsimon moddalar hisobiga antiseptik ta'sir etadi. Flavonoidlar va oshlovchi moddalar esa yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi. O'simlik o'ti yallig'lanishga qarshi ta'sirdan tashqari, giposensibilizatsiya, (organizmning ayrim moddalarga o'ta sezuvchanligini kamayishi) xossasiga ega. Gunafshaning ushbu effektlari hisobiga uning preparatlarini mahalliy ishlatilganda teri kasalliklarida (allergik dermatit, eksudativ diatez, ekzema) ishlatilishi mumkin. Bu teri kasalliklarini kelib chiqishda o'ta sezuvchanlik reaksiyasi rol o'ynaydi.

5. Dalachoy (*Hypericum perforatum*) – Зверобой продырявленный

Dalachoy yer ustki qismining turli farmakologik ta'sirga spazmolitik, burishtiruvchi, yallig'lashga qarshi va b. ega bo'lishidan tashqari, uning fitopreparatlari antimikrob ta'sir ko'rsatadi. Uning spirtli, atsetonli va boshqa ekstraktlari yuqori darajada tilla stafilokokklarga va boshqa mikroblar qarshi ta'siri aniqlangan. O'simlik o'tidan ekstrakt novoimanin preparati olingan. Preparat asosan grammusbat mikroorganizmlarga shu jumladan, penitsillina turg'un tilla stafilokokklarga ham ta'sir etadi.

Novoimanin sirtga qo'llash uchun mo'ljallangan. Uning 95% etil spirtida tayyorlangan 1% lik eritmasi chiqariladi. Buning 0,1% spirtli eritmasi (1% eritmani distillangan yoki izotonik eritmada suyultiriladi) dermatologiyada yiringli yaralarda (follkulit, chipqon, karbonkul, flegmona, absess) chayish, yuvish va salftetka va doka plikchalarni xo'llab teriga qo'yiladi. Novoimanin 1% spirtli holda flakonlarda 10 ml dan chiqariladi.

Bundan tashqari, teri yiringli kasalliklarida kashnichning suvli ajratmasi va efir moyi tarkibidagi aldegidlardan biri hisoblangan sitralning antimikrob ta'siri chipkonda (furunkul) mahalliy ravishda ishlatilganda yaxshi namoyon bo'lgan.

6. Evkalipt (*Eucalyptus globule*) – Эвкалипт шаровидный (O'simlik ma'lumoti IV bobda berilgan)

Farmakologik xossalari. Galen preparatlari kuchli darajada antiseptik va yallig'lanishlarga qarshi ta'sirga ega. Ular ta'sirida grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarning ko'payishini to'xtatadi, zamburug' va oddiy tuzilishdagilarga ham ta'sir etadi. Chunonchi, uning preparatlari ta'sirida tilla stafilokokk, esherixiy, sil mikobakteriyalar, dizenteriya, amyoba va trixomonad ko'payish faolligini pasaytiradi.

Ishlatilishi. Evkalipt bargidan tayyorlangan damlama va qaynatmalari absesslarda, flegmonalarda, yiringli uzoq davom etadigan yaralarda va terining boshqa yiringli (poidermiya, chipqon va b.) kasalliklarida mahalliy ravishda (chayish, salftetkani ho'llab qo'yish tampon va b.) ishlatiladi. Evkalipt bargi tarkibidagi xloromfillarning aralashmasidan xlorofilipt preparati olinadi. Ushbu

preparatning mahalliy ravishda ishlatilishi uchun uning 1% spirtli eritmasi 0,25% li novokainda (1:5) eritiladi va teri kuyganda teridagi bitmaydigan trofik yaralarda ishlatiladi. Xlorofilliptning 1% spirtli eritmasi 100, 200 ml dan flakonda mahalliy ishlatish uchun chiqariladi.

7. Makleya (Macleaymicrocarpa) – Маклея лекарственная

Ko'p yillik bo'yi 25 m ga yetadigan o't o'simlik. Vatani Xitoy bo'lib, Krasnodar o'lkasida o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Yer ustki qismida izoxinolin alkaloidlari sangvinarin, xeleritrin, protopin va adiokriptokinni saqlaydi.

Farmakologik xossalari. Olib borilgan eksperiment tadqiqot natijasida o'simlikning biologik faolligi uning tarkibidagi alkaloidlar yig'indisiga bog'liq. Chunonchi sangvinarin va xeleritrin alkaloidlari asosiy hisoblanishi aniqlangan. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan alkaloidlar yig'indisini saqlagan «Singviritrin» (Sanguinrinum) preparati yaratilgan.

Ushbu fitopreparat antixolinesteraz (ezerin, prozerin, galantamin preparatlari singari) ta'siridan tashqari, turli mikroblarga qarshi faolligi aniqlangan. Preparat grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga hamda ayrim zamburug'larga qarshi ta'sir etadi. Klinik tadqiqotlar natijasida sangviritin preparati turli teri kasalliklarida dermatozlarda shu jumladan, yiringli ekzemada, yuzaki baastomikozlarda, piodermiyaning har xil turlarida hamda tirnoq kandidozida, mikrosporiyada, trixofitiyada samarali ta'sir etadi.

Sangviritin yiringli yaralarni, piodermiyani, ekzemani, dermatomikozlarni, zamburug' kasalliklarni davolash sirtga qo'llash bilan oshiriladi. Shu maqsadda preparatning 1% linimenti va 0,2% spirtli eritmasi qo'llanadi.

Sangviritin 1% liniment shaklida bankalarda 20 g dan chiqariladi. 0,2% eritma flakonda 10 ml dan chiqariladi.

Yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari terining yiringli kasalliklarining hamma turlarida, yuzaki piodermiya, osteofollikulit, chuqur joylashgan furunkul, karbunkul, gidroadenit va b. asosan mahalliy ravishda (surtish, chayish yuvish, vanna, dokani ho'llab qo'yish, turunda qilish va b.)

ishlatiladi. Qayd etilganidek, ularni qo'llashda kasallikni keltirib chiqargan sababi mikroorganizmning turi, kechishi, simptomlari va boshqalar hisobga olinishi shart.

Yuzaki podermiyada yiringli yallig'lanish soch (tuk) follikulalari bilan cheklangan bo'lsa, furunkulda (chipqon) esa o'tkir kechuvchi yiringli nekrozli yallig'lanish sochlardan tashqari ter va oyog' bezlari va teri to'qimasini qamrab oladi va uning kelib chiqishida asosan stafilakoklar sababchi bo'ladi. Agar bunday patologik jarayon tez-tez qaytarilib tursa va bir necha joylarda bo'lsa uni furunkulez deyiladi. Bunday holat ko'pincha organizmning kasallikga umumiy qarashligini pasayishi bilan kechadigan xastaliklarda (qandli diabet avitaminoz, spru, nur kasalligi va b.) kuzatiladi. Furunkulning (chipqonning) ayniqsa, yuzda labda va burun terisida bo'lishi xavfli hisoblanadi. Chunki og'ir kechadigan va xavfli asoratlarni (meningit, sepsis) berishi mumkin. Chipqon ko'pincha limfatik tugunchalarni yallig'lanishi limfadenit bilan davom etadi.

Karbunkul (xuppoz) esa ko'pincha bir necha chipqonlardan tashkil topgan bo'lib, soch follikulalari, ter va yog' bezlarini ham teri osti qavati to'qmalarini qamrab terini kengroq va chuqurroq jaroxatlaydi. Organizmni umumiy holati ham teri xarorati, qondagi o'zgarishlar va b. o'zgarib ayrim holatlarda xavfli asoratlarni (sepsis) beradi.

Karbunkulni kelib chiqishi furunkulga o'xshash lekin kechishi ancha og'irdir.

Terining yiringli kasalliklariga gidradenit ham kiradi.

Gidradenit ter bezlarining yiringli yallig'lanishi bo'lib, asosan qo'ltiq teri ostida joylashgan ter bezlari yallig'lanishga uchraydi. Kasallik ko'p terlash natijasida va mikroorganizmlarni tushishi oqibatida yuzaga chiqadi. Bunday yallig'lanishda to'qimalarning nekrotik o'zgarishi kuzatilmaydi. Kasallik uzoq muddat davom etishi mumkin.

Furunkul, karbunkul va gidradenitni davolashda kimyoterapevtik antibakterial preparatlar (antibiotiklar, antiseptiklar va b.) hamda jarrohlik usullari bilan davolash asosiy hisoblanadi. Shuning bilan birga ikkinchi darajali hisoblangan antibakterial ta'sirga ega bo'lgan, ko'proq mahalliy ravishda ishlatiladigan dorivor

o'simliklardan olingan va tayyorlangan fitopreparatlar ham qo'llanadi. Ayniqsa, ushbu xastalıklar surunkali kechsa va qaytalanib tursa buni oldini olish maqsadida fitopreparatlar va yig'malar qo'l keladi. Bunday ta'sirga ega bo'lgan ayrim dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlari to'g'risida yuqorida ma'lumot berildi. Fitoyig'malarning ayrimlari quyida keltiriladi va ishlatilish uchun beriladi:

1. Tirnoqgul guli 15,0, zubtutum katta bargi 15,0, moychechak 10,0, marmarak o'ti 15,0, dalachoy o'ti 30,0, andiz ildizi 15,0, qirqbo'g'in o'ti 10,0. Tayyorlangan damlama yoki qaynatma 1/3 yoki 1/2 stakandan kuniga 3 marta ovqatdan oldin piodermiyada ichiladi.

2. Yalpiz bargi, zubtutum bargi, oq qaldirmoq bargi, bir xil miqdorda. Yig'madan 1 osh qoshiq olib, 200ml qaynoq suvga solinadi. 1-20 daqiqa o'tgach dokadan o'tkaziladi. 100ml kuniga 3 marta furunkulyozda ichiladi.

3. Xalq tabobatida lovyaya unidan kulcha xamir yasab asal bilan yorilmagan chipqon ustiga qo'yiladi. Chipqonni etilishini tezlashtiradi.

4. Simfitum (okopnik) ildizi, qashqar beda o'ti, oqqaldirmoq bargi—2 osh qoshiqdan, tirnoqgul guli, sachratqi guli—3 osh qoshiqdan. Butun yig'mani aralashtirib uning 3 qoshig'ini 1,2 litr qaynoq suvga solinadi va termosda 3-4 soat saqlanadi. Karbunkul, furunkul va gavnichchada 50 ml kuniga 5-6 marta ichiladi.

5. Xalq tabobatida karbunkulda ham qizil lavlagi qirg'ichdan o'tkazib smetana bilan aralashtirib teriga qo'yish tavsiya etiladi.

Gidradentda quyidagi fitopreparatlar ishlatilishi mumkin:

1. Qari qiz ildizi, na'matak mevasi—20 grammdan; uch rangli gunafsha, dala choyi o'ti—10 grammdan, 1 osh qoshiq yig'mani 400 ml qaynoq suvga solib termosda 4 soat saqlanadi. 200 ml dan kuniga 2 marta 2-3 oy davomida ichiladi. 3-4 haftadan so'ng kurs qaytariladi.

2. Zig'ir urug'i qashqar beda o'ti—20 grammdan; malva bargi, gulxayri bargi—10 grammdan; 2 osh qoshiq yig'ma 300 ml suvga solinadi 5 daqiqa qaynatiladi. Salfetkani ho'llab (primichka) teriga qo'yiladi.

Teri zamburug' kasalliklari fitoterapiyasi

Terining zamburug' kasalligi dermatomikozlar deb ataladi. Ular ko'p uchraydi va piodermiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Patogen zamburug'larning turi har xil bo'lib, unga terining kasallanishi yuzaki, epidermis jaroxatlanishi (turli rangdagi lishay), epidermis va tirnoqni mikrosporiya, trixotifiya va b. kiradi. Achitqi singari ko'payadigan zamburug'larga kandidalar kiradi. Ular terida va shilliq parda va ichki organlarda bo'ladi.

Ushbu patogen zamburug'larning keltirib chiqarilgan teri tirnoq va ichki organlarning kasalliklarini davolashda mahalliy va umumiy ta'sir etuvchi zamburug'larga qarshi turli dori preparatlaridan foydalaniladi. Masalan, umumiy ta'sir etuvchilar antibiotiklar (amfotersin, grizefulvin, nistatin, mahalliy ta'sir etuvchilarga bifonozin, mikozolon, ekfoderil teroizil va b. kiradi. Ular zamburug'ni turiga qarab ishlatiladigan asosiy preparatlardir.

Shuning bilan birga dermatomikozlarda patogen zamburug'larga qarshi ta'sir etadigan turli dorivor o'simliklar qo'llanishi mumkin. Bular o'z ta'siri va ishlatilishi bo'yicha asosiy bo'lmagan qo'shimcha dovo preparatlari hisoblanadi. Bular qatoriga oq qayrag'och qora moyi (dyogit) evkalipt, shumrut (chermuxa), qora terak, qon cho'p, sarept xantali va boshqalar kiradi. Kuchli fungisid (zamburug'larga qarshi ta'sirli) qayin va qarag'ay qora moy qatrami hisoblanadi. Dermatozlarni davolashda toza qoramoy ishlatiladi. 5-10% yoki salisil kislota yoki naftalin bilan birga qo'llanadi.

Terining zamburug' kasalliklarida fitoyig'ma preparatlari ham tavsiya etilishi mumkin. Masalan:

Dalachoy o'ti – 20 g; burusnika bargi, qirqbo'g'in o'ti, moychechak guli, uchrangli gunafsha o'ti – 15 g dan; bo'y madaron o'ti, evkalipt bargi – 10 g dan. Yig'mani aralashtiriladi. 5g yig'mani 200 ml qaynoq suvga solib, damlama tayyorlanadi. 100 ml dan kuniga 2 marta 2-3 hafta davomida ichiladi. Shu bilan birga yig'ma dozasi 4 marta oshirib 1 litr qaynoq suvga solib tayyorlanadi. Terining kasallangan joyiga toza salftkani xo'llab qo'yiladi yoki vannacha qilinadi. Kasallangan joyni fasadi kamayib, namligi kamaygandan so'ng qoramoy saqlagan surtma (Vishnovskiy surtmasi) tirnoq gul nastoykasi va b. qo'yiladi.

Vannacha uchun qoraqiz o'ti, eman po'stlog'i, suli urig'i, bo'ymadaron o'ti va b. qo'llanishi mumkin.

Kandidozlarda yordamchi dori vositalari sifatida piyoz va sarimsoq piyozdan tayyorlangan preparatlar ishlatilishi mumkin.

Panja va tovon kadidazida quyidagi yig'ma tavsiya etiladi:

1. Bo'ymadaron guli, qashqarbeda o'ti – 10 grammdan; shitora o'ti – 20 g; 2 osh qoshiq yig'mani 1 litr qaynoq suvga solib, 2 soat qoldiriladi. Kasallangan panja yoki tovonni suvga (38-40⁰) solib, 15-20 daqiqa ushlab turiladi. Yig'ma yallig'lanishga va zamburug'ga qarshi ta'sir etadi.

Atirgulning, tog' jambulning, yalpizning, lavanda va ukropning efir moylari ham zamburug'ga qarshi ta'sir etadi. Ular sirtga qo'llash uchun ishlatiladi. Shu maqsadda mumyo ham (1g-100ml suvga) qo'llash mumkin.

Viruslar keltirib chiqaradigan teri kasalliklari fitoterapiyasi

Bu dermatozlarga uchuq (gerpes) kamarga o'xshash joylashuvchi temiratki, so'gal va boshqalar kiradi.

Uchuq viruslar ta'sirida lablarda, burunda, yuzda bo'lib, terini qizarishi, pufakchalar hosil bo'lishi, ular qurib po'stloq hosil qilishi kuzatiladi. Keyinchalik po'stloq ko'chadi, terida chandiq qoldirmaydi. Bunday hollarda virusga va yallig'lanishga qarshi ta'sir etadigan dorivor o'simliklar preparatlari ichish uchun va sirtga qo'llash uchun beriladi. Bularga Osiyo sariq choyi (repeynik), limono't dalachoy, marmarak, tirnoqgul va boshqalardan tayyorlangan damlama va qaynatmalar ichish uchun beriladi. Sirtga qo'llash uchun esa osiyo sariq choyi, limon o'ti, ayiqtovon o'tlarining virusga qarshi ta'sir etadigan soklari ishlatiladi. Oddiy uchuq va kamarsimon joylashadigan lishayda (temirotki), toshma toshishida, vayyan, dalachoy, aloe, sarsabil, grek yong'og'i, dalachoy nastoykasi va boshqalar qo'llaniladi. Ularni ta'sirida patologik jarayonning orqaga qaytishini davolash tezlashadi.

Yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklardan tashqari virusli dermatozlarda organizmda interferonning ishlab chiqarilishni oshiruvchi hamda adaptogen ta'sirli fitopreparatlar (jenshen,

eleuterokok araliya rodiola va boshqalar), fitonsidlar (piyoz, chesnok) davo qilish kompleksiga kiritiladi. Yuqorida qayd etilgan dorivor o'simliklarning ichish uchun sirtga qo'llashga mo'ljallangan fitopreparatlari virusli dermatozlarning uchuqdan tashqari boshqa shakillarda ham (so'gal, kamarsimon joylashadigan lishay va boshqalar) ishlatilishi mumkin.

Ekzema kasalligining fitoterapiyasi

Ekzema terida pufakchalar hosil bo'lishi, infiltratsiya, suv yo'qolishi, qora qo'tir, katta-kichik po'stloq paydo bo'lishi bilan kechadigan, ko'pincha, surunkali davom etadigan, tez-tez qaytalab turadigan teri kasalligi hisoblanadi. Oshqozon va ichak, jigar kasalliklarida har xil kimyoviy moddalar, nur energiyasi va allergenlar ta'sirida paydo bo'ladi. Ekzemaning ko'p turlari vezikulyar, gipertrafik qora qo'tir, mikroblil papulez professionil va boshqalar ma'lum.

Ekzemani davo qilishda yallig'lanishga qarshi, antimiqrob ta'sirli, allergiyaga qarshi ta'sir etadigan, etiologik va patognitik dori preparatlari hamda organizm qarshiligini oshiruvchi immunomodulyatorlar ishlatiladi. Bundan tashqari, ekzemani keltirib chiqargan faktorlarni bartaraf etish katta ahamiyatga egadir.

Ekzemani davo qilishda turli dorivor o'simliklardan ham foydalanish mumkin. Fitopreparatlarni qo'lashda ham kasallikni kelib chiqish sababiga, kechishiga, shakliga va organizmni umumiy holini inobatga olinadi. Shu jumladan, kasallik uyquning buzilishiga, asab buzilishi bilan kechadigan holatlarda sedativ – tinchlantiruvchi ta'sirli fitopreparatlar – arslonquyriq damlamasi yoki nastoykasi, valeriana ildizi va ildizpoyasining damlamasi, qaynatmasi yoki nastoykasi, yalpiz, tog'rayxon o'tlari va boshqalar yoki ularni saqlaydigan fitoyig'malar tavsiya etiladi. Masalan:

Tog'rayxon o'ti – 25 g, qoraqiz o'ti, gazanda barglari, loviya po'sti – 20 g dan, qulupnay barglari, yalpiz barglari, valeriana ildizi – 10 g dan. Yig'maning 1 qoshig'i 200 ml qaynoq suvga solinadi va bir necha vaqt qoldiriladi. 100 ml kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

Ekzema oshqozon ichak kasalligi bilan bog'langan bo'lsa ko'pincha quyidagi dorivor o'simliklardan tashkil topgan fitoyig'malar tavsiya etiladi: marmarak bargi, zubtutum barglari,

gazanda barglari, qizilmiya ildizi, achchiq shuvoq o'ti, dalachoy o'ti, bo'yadaron o'ti. qirq bo'g'im o'ti va boshqalar.

Jigar kasalligi bilan davom etsa, o't xaydovchi ta'sirli dorivor shsimliklar – bo'znoch gullari, makkajo'xori ustunchasi, zirk barglari, ekzema yiringli o'zgarishlar (piodermiya) bilan zararlangan bo'lganda yallig'lanishga qarshi, antiseptiklar, umumiy quvvatni oshiradigan o'simliklari – dalachoy o'ti, tirnoqgul guli, oq tol po'sti, marmarak barglari, andiz ildizi va ularni saqlagan fitoyig'malar qo'llaniladi.

Kasallik qichinish bilan davom etganda qoraqiz, oq qayin, gazanda qirqbo'g'in, bozulbang nastoykasi va ularni saqlagan fitoyig'madan foydalaniladi.

Ekzemada sirtga qo'llash uchun turli yig'malar ishlatiladi. Masalan: bo'znoch guli, eman po'stlog'i, limono't barglari, tirnoqgul guli, qirqbo'g'im o'ti–1 choy qoshig'dan, qariqiz 2 choy qoshiq. Yig'ma 150 ml o'simlik moyiga solinadi, qaynaguncha isitiladi. Bir necha vaqtga 12 soat iliq joyda qoldiriladi. Dokadan o'tkazilib, kasallangan joyga kompress qo'yiladi va kuniga 2-4 marta surtiladi.

Sirtga qo'llashda turli ta'sirga ega bo'lgan surtmalar vannalardan ham foydalaniladi.

Psoriaz (po'stloqli temiratki) fitoterapiyasi

Psoriazning kelib chiqish sababi ma'lum bo'lmagan surunkali qayta-qayta takrorlanadigan xastalikdir. Kasallikning davom etishiga ko'ra progressiv, regressiv va stasionar turlariga bo'linadi. Psoriaz terida shakillangan turlicha va katta kichik tugunchalar paydo bo'lib, tezda oqimtir, kumush rangli plastinka po'stloqlar bilan qoplanadi. Tugunchalar boshning soch qismida, bilakda, tizzada ko'proq, tirnoqlar va bo'g'imlarda esa kamroq uchraydi.

Kasallikning davosida organizmning bu xastalikka seziluvchanligining genetik irsiy faktori, kasallikning kechishi davri, terida tarqalishi hamda psoriazni boshqa kasalliklar bilan davom etishi inobatga olinib, umumiy va mahalliy davo ko'rsatiladi.

Fotokimyoterapiyada ishlatiladigan preparatlardan tashqari (baroksan, psoralin, psiberan, dermozolan va boshqalar) turli ta'sirli fitopreparatlar ham qo'llaniladi. Shu jumladan, umumiy davo sifatida adaptogenlar (eleutrakokk, anixopanaks, araliya, radiola va

boshqalar). tinchlantiruvchi (arslonquyriq, valeriana, yalpiz, sallagul ivan choy va boshqalar). buyrak usti bez faoliyatini yaxshilaydigan o'simliklar (qoraqiz damlamasi, qoraqat damlamasi, marjon daraxt damlamasi va boshqalar ishlatiladi. Psoriazning og'ir kechishida sitostatiklar va glyuksteroidlar bilan bir qatorda kortikosteroidlarga o'xshash ta'sirli dorivor o'simliklar qizilmiya, kiyik panja, astral damlamalari, dermatonik (anonis, uchrangli gunafsha, chakanda) fitopreparatlar beriladi.

XI BOB. STOMATOLOGIK KASALLIKLARI FITOTERAPIYASI

Ma'lumki, stomatologiya klinik meditsinaning tarmog'i bo'lib, og'iz bo'shlig'iga qarashli a'zolarining (shilliq parda, tishlar, til, jag'lar suyagi va boshqalar) kasalliklarini aniqlash (sababi, diagnoz qo'yish), davo ko'rsatish, kasallikni oldini olish va boshqa masalalar bilan shug'ullanadi.

Stomatologiyaning uch yo'nalishi bo'lib, tegishli mutaxassislariga ega. Mutaxassislar quyidagicha:

Stomatolog terapevt, stomatolog jarroh va stomatolog ortoped. Bulardan stomatolog terapevt og'iz bo'shlig'i kasalliklari shilliq parda yallig'lanishi, tish, milk, til kasalliklari bilan shug'ullanib, davo ko'rsatadi. Stomatolog jarrox yuz-jag', tish kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davo qiladi. Stomatolog ortoped esa yasama tishlar (protez) qo'yish, qiyshiq, noto'g'ri joylashgan tishlarni to'g'irlash va boshqalar bilan shug'ullanadi.

Stomatolog terapevt bemorlarga davo ko'rsatishda asosan turli farmakologik ta'sirga ega bo'lgan dori vositalaridan foydalaniladi. Ularga og'riq qoldiruvchi, yalig'lanishga qarshi, antimikrob ta'sirli dori preparatlari kiradi. Bular qatoriga dorivor o'simliklardan tayyorlangan va ajratib olingan faol moddalar saqllovchi fitopreparatlar ham kiradi. Ular to'g'risida ayrim stomatologik kasalliklarda ishlatilishi to'g'risida quyida ma'lumot beriladi.

Karies kasalligida ishlatiladigan fitopreparatlar. *Karies* juda ko'p uchrab turadigan tish kasalligi bo'lib, tishni demineralizatsiya, keyin esa destruksiyalanishi, emal va dentinni buzilishi natijasida tishda bo'shliq hosil bo'ladi. Bu bo'shliq (kovak) da ovqat massasi yig'ilib mikroorganizmlar taraqqiy etadi va tishning pulpasini (yumshoq to'qima) yallig'lanishi pulpitni keltirib chiqaradi. Bundan tish og'rig'i boshlanadi va bemorni bezovta qiladi. Agar o'z vaqtida davo ko'rsatilmasa turli asoratlarni (periodonitit, absess va boshqalar) beradi. Bunday holatlarda kasallikni sababini yo'qotish va asoratni oldini olish tadbirlari va simptomatik davo ko'rsatiladi.

Antiseptiklar, yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi ta'sirli fitopreparatlar ham qo'l keladi. Tish og'rig'ida quyidagi fitopreparatlardan foydalaniladi:

1. Igirning 40-70⁰ spirtida tayyorlangan 30% li nastoykasi paxtaga shimdirib, og'riyotgan tishga qo'yiladi.

2. Grek yong'og'ining yosh barglaridan 1-2 qoshiq olib, 250 ml qaynoq suvga solinadi. 1 soat qoldiriladi. Og'rigan tish, gingivit va anginada og'iz chayiladi.

Parodontoz tishning alveolar qismining rivojlanib boruvchi atrafiyasi bo'lib, parodontning sistemali kasalligidir. Kasalikning kelib chiqishida qon tomirlarini aterosklerotik o'zgarishi, mahalliy qon aylanishini izdan chiqishi, endokrin sistemani va oshqozon-ichakning kasalliklari, organizmning kasallikka qarshi kurashish faoliyatini pasayishi va boshqalar ma'lum darajada ahamiyatlidir. Bu kasallik uzoq davom etadi va tishlarni tushib ketishiga olib keladi. Parodontoz kasalligi ko'p uchraydi. Bemorlarni davolash parodontozning rivojlanishini sekinlashtirish va to'xtatishga qaratilgan bo'lib, organizmning umumiy ahvolini va ayniqsa, nerv sistema faoliyatini yaxshilash, tish kasalliklarini o'z vaqtida davolash, og'iz bo'shlig'ini chayib turish, tishlarni tozalash, milkni massaj qilish, chaqich (jivachka) chaynash va boshqalar tavsiya etiladi.

Bulardan tashqari ayrim yallig'lanishga va mikro-organizmlarga qarshi va regenerativ jarayonni jonlantiruvchi ayrim dorivor o'simliklar hamda turli tavsialardan foydalaniladi. Masalan:

1. Har kuni 2-3 marta sabzi, turip, karom (xom)ni og'izda yaxshilab maydalanguncha qayta-qayta chaynash. Ovqatdan keyin tish orasini tozalagich bilan tozalash va yotishdan oldin ham og'izni bir necha bor sodali eritma bilan (1 choy qoshiq soda 1 stakan suvda eritiladi) yoki qarag'ay preparatlari bilan chayiladi.

2. Jo'ka gullari, tirnoqgul gullari, tog'rayxon gullari, moychechak gullari, marmarak guli, glafalium guli, gazanda bargi, bo'yumadaron o'ti. Keltirilgan bu o'simliklarni biridan damlama tayyorlanib tishlarni chayib turish. Shu maqsadda aloe soki ham qo'llanadi.

3. Dalachoy, na'matak, chakanda moyli damlama bilan shimdirilgan paxta bo'lagini milkga qo'yiladi.

Stomatitlar fitoterapiyasi

Og'iz bo'shlig'ini qoplagan shilliq pardaning yallig'lanishi stomatit deyiladi. Unga kiradi: gingivit (milkning yallig'lanishi), glossit (tilni o'zini yallig'lanishi), palatinit (tanglayni yallig'lanishi), xeylit (lablarni yallig'lanishi). Bunday yallig'lanishning kelib chiqishida organizmni turli kasalliklari ayniqsa, hazm a'zolarining xastaliklari (oshqozon, ichak, jigar) hamda qon, gipovitaminoz va boshqalar ahamiyatlidir.

Stomatitning bir necha turlari ma'lum travmatik, simptomatik, infeksiyon va spetsifik.

Stomatitning kataral shakli eng ko'p uchraydi. Bunda og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining qizarishi, shishishi, oq, keyinchalik jigar rang shilimshiq bilan qoplanishi, ovqat massasi qabul qilinganda qonashi, og'riq sezish va og'izdan yoqimsiz hid kelishi kuzatiladi.

Yarali stomatit kataral stomatitning asorati shaklida hamda mustaqil shakilda rivojlanishi mumkin. Ko'pincha bu kasallik oshqozon-yara kasalligi va surunkali gastrit bilan og'rigan bemorlarda kuzatiladi. Kataral stomatitda faqat shilliq qavatni yuzaki qismi o'zgarishga uchragan bo'lsa, yaralik stomatitda esa shilliq qavatning hamma qismi yallig'lanadi va yaralar hosil bo'ladi.

Yarali stomatitning asosiy belgilari quyidagicha: og'iz bo'shlig'ida, ayniqsa, ovqat qabul qilishda kuchayadigan og'riq, og'izda yoqimsiz hid bo'lishi, shilliq pardani qizarishi va shilliq bilan qoplangan yaralarni bo'lishi. Shuning bilan birga organizmda kuzatiladigan o'zgarishlardan umumiy quvvatsizlik, bosh og'rig'i, istmani ko'tarilishi ($37,5^0$) mumkin. Regionar limfatik tugunchalarning kattalashishi va og'riqni bo'lishi, qonda leykotsitoz, eritrotsitlarning cho'kishini tezligini oshishi (soe) va boshqalar ham kuzatiladi.

O'tkir aftoz stomatit. Kasallik umumiy quvvatsizlik, tana haroratini ko'tarilishi, og'izda og'riq bo'lishi bilan boshlanadi. Og'izning shilliq qavatida aftolar toshadi. Qonda leykotsitoz va echt

(soe) 45mm/soatga yetadi. Oval va dumaloq shaklda bo'ladi. Aftozlar kulrang shilimshiq bilan qoplangan bo'ladi.

Aftoz stomatit kechishi bo'yicha o'tkir kechishidan tashqari qaytalovchi surunkali bo'lishi mumkin.

Stomatitning qayd etilgan shakllarida umumiy va mahalliy ta'sir etadigan antiseptik, kimyoterapvtik antibiotik preparatlardan tashqari og'izni chayish uchun turli dorivor o'simliklardan tayyorlangan fitopreparatlar yig'malar, alohida o'simliklar ishlatiladi. Ular asosan yallig'lanishga qarshi, antiseptik va burishtiruvchi ta'sirli xususiyatga ega bo'lgan preparatlar hisoblanadi.

Stomatitda quyidagi yig'malar tavsiya etilishi mumkin:

1. Eman po'stlog'i, igir ildizi, gazanda bargi, marmarak bargi – 1 osh qoshiqdan olinadi. Aralashmani 1 litr qaynoq suvga solib, 15 daqiqa qaynatiladi, keyin sovutiladi, dokadan suziladi. Og'izni chayish uchun tavsiya etiladi.

2. Eman po'stlog'idan 1-2 osh qoshiqda olib, 200 ml qaynab turgan suvga solinadi. 5-10 daqiqa qaynaydi. Bir soat o'tgach og'iz-tomoqni chayish tavsiya etiladi.

3. Shirchoy ildizi yoki o'tidan 1-2 qoshiq olib, 200 ml qaynoq suvga solib, 30 daqiqa qaynatiladi (ayrim holatlarda 10 daqiqa qaynatiladi). Og'iz bir necha bor chayib turiladi.

Bulardan tashqari, stomatitning turli shakllarda va kechishida kalanxoening bir qator fitopreparatlari keng ishlatiladi. Shu sababdan ushbu o'simlik to'g'risida ma'lumot beriladi.

1. Patsimon kalanxoy (Kalanchoe pinnata Lam.) –

Каланхое перистое

Ko'p yillik o'simlik bo'lib, tropik mamlakatlarda o'sadi. Boshqa davlatlarda (Gruziya) o'simlik sokini olish uchun o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning va poyasining shirasi (soki) tarkibida flavonoidlar, oz miqdorda oshlovchi moddalar, vitamin S, mikroelementlar, 30-40%gacha polisaxaridlar, organik kislotalar (olma, oksalat, sirka, limon va izolimon), fermentlar bor. Flavanoidlar yig'indisidan biozid-jealin ajratib olinadi.

Farmakologik xossalari. Turli laboratoriya hayvonlari ustida o'tkazilgan tekshiruvlarda kalanxoe shirasi kam zaharli, ekspe-

remental yo'sinda chaqarilgan yaralar bitishini tezlashtiruvchi, yallig'lanishning eksudativ fazasini rivoj topishini tormozlovchi, granulatsiya to'qimasini hosil bo'lishini kamaytiruvchi, yallig'lanishning proliferativ fazasini kamaytiruvchi xususiyatga ega. Shu sababdan kalanxoe shirasi va surtmasi yallig'lanishga qarshi dori sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Ishlatilishi. Kalanxoening yaralar bitishini va epitilizatsiyani kuchaytiruvchi xossasi tufayli u jarrohlik, stomatologiya, akusher-ginekologik va oftalmologik amaliyotda keng ishlatishiga imkon tug'diradi. Kalanxoe shirasi va surtmasi to'qimaning yiringli-nekrotik jarayonlarida, oyoqning trofik yaralarida, terining ezilishida va boshqa teri jaroxatlarida qo'llanadi.

Kalanxoe stomatologiya amaliyotida keng ishlatiladi. Gingivitlarda (milkning o'tkir, surunkali, kataral yallig'lanishida), paradontozning yallig'lanishi distrofik shaklda (II-III daraja), qaytariladigan surunkali aftoz stomatitda keng qo'llanadi. Ko'pincha aerozil ingalyatsiyadan foydalanishda yoki shirani o'zini tampon shaklida qo'yiladi.

Preparati.

Kalanxoe shirasi (Succus kalanchoes) yangi uzib olingan bargidan va yashil novdasidan olingan shira.

Kalanxoe shirasi yallig'lanishga qarshi mahalliy ta'sir etadi, yiringli yaralarni nekrotik to'qimalardan tozalaydi va yara bitishini tezlashtiradi. Sirtga qo'llash trofik yaralarda, bitishi qiyin bo'lgan yaralarda, kuyishda, teri ezilish yarasida hamda aftoz stomatitlarda, gingivit va paradontozlarda qo'llanadi.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga kuniga 3-4 marta aplikatsiya qilinadi.

Preparat ampulalarda 10 ml dan yoki flakonlarda 100 ml dan chiqariladi.

Stomatologiya amaliyotida kalanxoe shirasi ishlatilishidan oldin suv hammomida 37⁰C gacha ilitiladi.

Bundan tashqari, og'izni chayish uchun 3 choy qoshiq shirani 100 ml qaynoq suvga solinadi. Iliq holda og'iz chayiladi.

Shu maqsadda tirnoqqul fitopreparatlari ham ishlatilishi mumkin. Chunki ular yallig'lanishga qarshi va antiseptik to'qima regeneratsiyasini tezlashtiruvchi ta'sirga ega.

2. Tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) –

Календула лекарственная

Bir yillik o't o'simlik bo'lib, Yevropada, O'tra Osiyoda o'sadi va o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning gullari (savatchaga yig'ilgan tilsimon gullari) tarkibida 7,6-7,8mg% karotinoidlar, 0,62-0,4 efir moyi, 0,83-0,88mg% flavonoidlar, kumarinlar, smolalar, shilliq modalar va boshqalar bor. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishida (stomatitlarda, parodontozda) og'izni chayish uchun tirnoqgulning damlamasi (10 gr-200 ml suvga) ishlatiladi. O'simlik mahsulotining galen preparatlari (damlama) yallig'lanishga qarshi, antiseptik va to'qima regeniratsiyasini tezlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklar va ularning fitopreparatlaridan tashqari, yallig'lanish bilan kechadigan kasalliklarda (stomatit, gingivit va b.) dalachoyning (damlama, nastoyka, briket), marmarakning (damlama, salvin), moychechakning (rotokan, romazulon), evkaliptning (evkalimin, xlorofillipt), makleyaning (sangviritrin) turli dori shaklidagi (damlama, nastoyka, ekstrakt va b.) fitopreparatlari ham mahalliy ravishda (chayish, surtish va b.) keng ishlatiladi.

XII BOB. VITAMIN YETISHMOVCHILIGINING FITOTERAPIYASI

Vitaminlar odam organizmi uchun zarur va ularning o'rnini hech narsa bosolmaydigan moddalar hisoblanadi. Ular kimyoviy tuzilishi va kelib chiqishi bo'yicha asosan organik moddalar bo'lib, butun organizm va organlar, to'qimalar normal faoliyati uchun kichik miqdorda zarur moddalardir.

Vitaminlar turli modda almashinuvida qatnashib, organizmni normal faoliyatini ta'minlaydi. Ular organizmga asosan ovqat tarkibida qabul qilinadi. Shuning bilan birga, ayrim vitaminlar (V, K) ichak mikroflorasi qatnashishida hosil bo'ladi.

Ovqat tarkibida vitaminning butunlay bo'lmasligi natijasida kelib chiqadigan xastalikni avitaminoz, uning qisman yetishmasligida esa gipovitaminoz deyiladi.

Bu holatlar faqat ovqat tarkibida vitaminlarni bo'lmasligidan tashqari, ularni ichakdan so'rilishining buzilishida, organizmni vitamanga talabining oshishida (jismoniy mehnat, xomilalik, surunkali inefksion kasalliklarida va boshqalar) va vitamanga zid antogonistlarni (kimyoviy tuzilishi vitaminlar yaqin bo'lgan moddalar dezaksitrildoksam, pritiamin va boshqalar) qabul qilinganda qayd etilishi mumkin.

Ovqat tarkibida vitaminlarni yetarli darajada bo'lmasligi bilan bog'liq gipo va avitaminozni ekzogen, ularni ichakdan so'rilishini buzilishi natijasida kuzatiladigan gipo-avitaminozni endogen deb yuritiladi.

Vitaminlar ikki guruhga bo'linadi: suvda eruvchilar va yog'da eruvchi vitaminlar. Birinchi guruhga vitamin $V_1 - V_2 - V_6 - V_{12} - V_S - S$, ikkinchi guruhga: A, D, E, K lar kiradi. Ular turli ovqat mahsulotlarda, mevalarda, donlarda, sut va gosht mahsulotlarida, turli o'simliklarda bo'ladi.

Gipovitaminoz V_1

Vitamin V_1 (tiamin) dukkakli va boshqali o'simliklarda (noxot, loviya, suli, grechka va boshqalar), har xil mevalarda va hayvon

mahsulotlarida uchraydi. Qisman ichakda hosil bo'ladi. Tiamin ichakdan so'rilgandan so'ng ATF qatnashishida fosforlanadi va fiziologik faol vitaminning profosfor efiriga kakorbaksilozaga o'tib, pirouzum kislotaning karboksillanishini ta'minlaydi. Vitamin V_1 etishmovchiligida modda almashinuvi (karbon suv almashinuvi) buzilib, to'qimada sut va prouzumkislotaga yig'ilib boradi. Shu abali asab sistemani va yurak ishini buzilishi kuzatiladi. Gipo vitaminozning og'ir kechadigan turlarida beri-beri yoki polinevit kasalligi yuzaga chiqadi. Bunda yarim yoki to'la falajlik, mushaklar atrofiyasi, yurak va me'da-ichak faoliyatining izdan chiqishi rivoj topadi. Bunday holatlarni oldini olish va ularni davolash maqsadida sintez yo'li bilan olingan preparatlari – tiamin bromid va tiamin xloridlardan tashqari vitamin V_1 saqlagan piva achitqilari, noxot, loviya, suli, grechkali oziq-ovqatlar tavsiya etilishi mumkin. Bular ko'pincha gipovitaminozning oldini olish maqsadida ishlatiladi.

Vitamin V_1 ning ichakdan so'rilishi yomon bo'lgan holatlarda (ichak kasalliklari) tiamin bromid (3%) in'eksiya qilinadi.

Gipovitaminoz V_2

Vitamin V_2 (riboflavin) o'simlik va hayvonlar tanasida bo'lib, odam organizmida asosan go'sht, sut mahsulotlari va dukkakli, boshoqli don tarkibida qabul etiladi. Vitamin V_2 achitqida, sut zardobida, tuxumning oqsilida, go'shtda, baliqda, jigarda, noxotda va donlarda bo'ladi. O'simliklar va mevalardan sachratqida, na'matakda, poliz ismalog'ida, chernikada, shotutda va boshqalarda bor. Bundan tashqari qo'ziqorin, kepakli non, kunga boqar va kunjut urug'lari, grek yong'og'i, soya, loviya, noxot vitamin V_2 ga boy hisoblanadi.

Gipovitaminoz V_2 da shap ko'rlik, konyunktivit, stomatit, glossit, dermatit (quloq oldida va burun-lab burushig'ida va panjalarda) kuzatiladi. Bundan tashqari, xolsizlik, bosh og'rig'i, ozib ketish va boshqa o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Bunday holatlarda sintez yo'li bilan olingan vitamin V_2 preparati riboflavindan (tabletkaga yoki 1% li ampula) tashqari tarkibida uni saqlagan go'sht va sut, don, mevalar bilan bir qatorda yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklardan tayyorlangan fitopreparatlar, yig'malar gipovita-minozni oldini olish va davolash maqsadida berilishi mumkin. Masalan: sachratqi bargi, shotut bargi

– 2 choy qoshtqdan, chernika – 3 choy qoshiq. Yig‘ma maydalanadi va 2 qismga bo‘linadi. Yig‘maning yarmi 300ml qaynoq suvga solinadi va 10 daqiqa qaynatiladi. 1 soatga qoldiriladi. 65 ml dan kuniga 3 marta ovqatdan 20 daqiqa oldin ichiladi.

Bundan tashqari, yuqorila qayd etilganidek yong‘oq, semichka (pista), noxot, loviya tavsiya etiladi. Bular asosan gipovitaminozning oldini olish maqsadida keng iste‘mol qilinadi.

Gipovitaminov V_6

Vitamin V_6 (piridoksin) modda almashinuvida qatnashadi. U markaziy va periferik nerv tizimining normal faoliyati uchun zarur. Ayrim fermentlar tarkibiga kiradi. Gipovitaminov V_6 da nerv tizimini buzilishi (polinevritlar, paresteziya, uyqusizlik), oshqozon-ichak faoliyatini o‘z-garishi (anoreksiya, ko‘ngil aynishi, stomatit, glossit), dermatit (yuz va bosh terisini yallig‘lanishi), gipoxrom anemiya (qamqonlik) yuz beradi.

Vitamin V_6 turli o‘simliklarda, jonivorlar organizmida, ayniqsa, tozalanmagan boshqoli o‘simliklarda, mevalarda, go‘sht, sut mahsulotlarida, baliq jigarida bo‘ladi. Shuning bilan birga, achitqida, soyada, grek yong‘og‘ida, makkajo‘xorida, sulida, petrushkada, olmada, gilosda, piyozda va boshqalar tarkibida bor.

Sintez yo‘li bilan olingan piridoksin gidroxlorid preparati gipovitaminovda tavsiya etilishi bilan birga yuqorida keltirilgan o‘simlik va go‘sht sut mahsulotlari va vitamin V_6 saqlagan meva va o‘simliklar (soya, makkajo‘xori, yong‘oq, suli, petrushka va b.) beriladi. Piridoksin gidroxlorid turli kasalliklarda (homiladorlik toksikozida, kamqonlikda, leykopeniyada, asab kasalliklarida, radikulit, xoreya nervit va b.) ishlatiladi.

Vitamin V_6 qisman ichak mikroflorasi tomonidan hosil qilinadi.

Tarkibida piridoksin saqlagan pirasin preparati aterisklerozni davolashda ishlatiladi.

Gipovitaminov V_5

Vitamin V_5 (folat kislota) organizmda asosan qon ishlab chiqarishda zarur bo‘lib, megaloblastlarni yetishishida va normablastlarni hosil bo‘lishida qatnashadi. Ushbu vitamin yetishmasligida qon elementlarini megaloblastik fazasini normablast holatga o‘tishi natijasida qonda yetishmagan yosh qon elementlari

paydo bo'ladi. Folat kislotasi vitamin V_{12} bilan birga eritropoezni oshiradi, nuklein kislotalar sintezida qatnashadi.

Vitamin V_5 ichak mikroflorasi tomonidan hosil qilinadi. Bundan tashqari, turli mevalarda va o'simliklar tarkibida bo'ladi.

Folat kislotasi sintez yo'li bilan olingan. Uning preparati poroshok va tabletkalar holida chiqarilib, makrositar (megaloblastik) anemiya, spru kasalligida dorilar va ionlangan radiatsiya keltirib chiqargan leykopeniya, sianokobalamin va askarbin kislotasi bilan birga beriladi. Pernisioz anemiyada folat kislotasi vitamin V_{12} bilan berish shart hisoblanadi.

Bunday kasalliklarni oldini olish va davolash maqsadida tarkibida vitamin V_5 saqlagan (qulupnoy, malina, olcha, oraxis, olma, karam, sabzi, petrushka, lovlagi, tarvuz va b.) mevalar tavsiya etiladi.

Gipovitaminoz R

Vitamin R guruhiga qon tomirlar (kapilyarlar) devorining o'tkazuvchanligini va buzilishini kamaytiruvchi flavonoidlar kirib, ularning bunday xususiyati askarbin kislotasi bilan birga ishlatilganda yaqqol ko'riladi. Ular oksidlanish-qaytarilish jarayonida qatnashib gialuronidaza fermenti faoliyatini kamaytiradi.

Vitamin R ga o'xshash faollik rutin, kversetin flavonoidlarida qayd etilgan.

Vitamin R yetishmovchiligida mayda qon tomirlar devorini o'tkazuvchanligi oshgani sababli qon talashlar, qonashlar kuzatiladi.

Vitamin R – bunday flavonoidlar, glikozidlar ko'rinishida turli o'simliklarda, mevalarda, na'matakda, qora choyda, limonda, pomidorda, sabzida, olmada uchraydi. Vitamin R rutin, kversetin preparatlari sifatida turli qon ketishida gemorragik diatez, ko'z to'rsimon pardasida qon oqishida va boshqa kasalliklarda nur kasalligida, endokorditda, revmatizmida, allergik kasalliklarida ishlatiladi.

Shu bilan birga, gipovitaminoz R ni oldini olishda va davolash maqsadida uni saqlagan turli o'simliklar (yapon saforasi, hushbo'y ruta, choy), meva, ko'katlar (pomidor, sabzi, qora qat, smarodina, olma) tavsiya etilishi mumkin.

Gipovitaminoz RR

Vitamin RR (nikotin kislota) nikotinamidadeninnukleidit (NAD) va uni fosfolati (NAPF) shaklida ko'p fermentlar tarkibiga kiradi. Ushbu fermentlar esa hujayralar hayoti uchun zarur bo'lgan oqsillar metabolizmida qatnashadi. Vitamin RR yetishmasligida pellagra kasalligi kelib chiqadi. Bunda badanning ochiq joylarida teri rangining o'zgarishi (dermatit, depigmentatsiya), yallig'lanish, me'da-ichak faoliyatining o'zgarishi (dispepsiya, anoreksiya, stomatit, glossit) va oliy nerv faoliyatining buzilishi es-xush, aqliy qobiliyatning buzilishi (demeisiya) va ko'pincha megaloblastik kamqonlik kuzatiladi. Nikotin kislota qon tomirlarni kengaytiradi, qonda xolestirin miqdorini kamaytiradi. Nikotin kislota sintez yo'li bilan olinadi va uning preparati faqat pellagrida emas, balki organizm turli kasalliklarda (jigar, oshqozon, yurak kaslliklarida) keng ishlatiladi. Nikotin kislotaning aterosleroz kasalligida va gipertoniyada ishlatilishi alohida o'rit egallaydi. Shuning bilan birga tarkibida nikotin kislota turli o'simliklar va don-mevalar, yong'oq, ko'k choy, noxot, grechka, suli, makkajo'xori, loviya, kartoshka tavsiya etiladi. Bularni yakka tartibda yoki ovqat tarkibida qabul qilinishi qayd etilgan kasallikga (pellagra) va boshqa xastaliklarni oldini oladi va davo ko'rsatadi. Nikotin kislota saqlagan turli kompleks preparatlar nikoverin, nikoselan, nikomilon va boshqalar mavjud bo'lib ular tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladi.

Gipovitaminoz S

Vitamin S (askarbin kislota) organizmning faoliyatida muhim ahamiyatga ega. U oksidlanish, qaytarilish jarayonining bir maromda bo'lishini ta'minlaydi, uglevod almashinuvi, qonning ivishida to'qimalarni regenerasiyasida, steroid gormonlarning hosil bo'lishida, qon tomirlarni o'tkazuvchanligida, kollogenlarning sintezida qatnashadi.

Vitamin S organizmda sintez qilinmaydi va shuning uchun u ovqat tarkibida organizmga tushib turadi. Askarbin kislota yetishmasligida singa kasalligi rivojlanadi. Bunda milkdan qon ketishi, shilliq pardani o'zgarishi, terida nuqtali qon oqishi, og'ir holatlarda teri ostida qon eg'ilishi, kamqonlik va boshqa o'zgarishlar kuzatiladi.

Askarbin kislota sintez yo'li bilan olingan. Uning preparati gipovitaminoz S ni oldini olish va davo ko'rsatish maqsadida, singa kasalligida, gemorrogik diatezida, burundan, o'pkadan, bachadondan, jigardan va boshqa qon ketishda, yuqumli kasalliklarda jigar kasalliklarida, intoksikatsiyada, bitishi qiyin bo'lgan yaralarda, homiladorlikda va boshqa holatlarda ishlatiladi.

Vitamin S ko'p miqdorda turli o'simliklarda, mevalarda, ko'katlarda, limon, apelsin, mandarin, na'matak mevasida, karamda, chakanda moyida, pomidorda, kartoshkada, rediskada, turupda, olmada, olchada va boshqalarda bo'ladi.

Shuni qayd etish lozimki askarbin kislota yuqori temperaturada parchalanadi va o'z xususiyatlarini yo'qotadi. Qaynatilganda, qovirilganda vitamin S deyarli butunlay parchalanadi.

Shuning uchun vitamin S ni saqlagan mevalar, ko'katlar va boshqalar tabiiy holda tavsiya etiladi.

Bulardan tashqari gipovitaminoz S da fitoyig'malar ham ishlatilishi mumkin. Masalan:

1. Na'matak mevasi, qoraqat mevasi – 1 osh qoshiqdan olinadi. Bir osh qoshiq yig'mani 400 ml qaynoq suvga solinadi, 2 soat qoldiriladi, filtdan o'tkaziladi va kerakligicha asal yoki shakar qo'shiladi. 70-100 ml dan iliq holda kuniga ovqatdan oldin 3-4 marta ichiladi.

2. Maymunjon mevasi, limono't bargi, odiiy chetan mevasi, qirqbo'g'in o'ti, na'matak mevasi–2 choy qoshiqdan olinadi. Yig'mani 700 ml qaynoq suvga solinadi va 2 soat qoldiriladi. 200 ml dan kuniga 2-3 marta ichiladi.

3. Marjondaraxt mevasi–1 qism, gazanda bargi, na'matak mevasi 3 qismdan. Yig'madan 1 osh qoshiq olib, 400 ml qaynoq suvga solinadi. 2 soat qoldiriladi, filtdan o'tkaziladi, keragicha asal yoki shakar qo'shib 70-100 ml dan iliq holda kuniga 3-4 marta ovqatdan oldin ichiladi.

Gipovitaminoz A

Vitamin A (retinol) yog'da eriydigan vitaminlar qatoriga kiradi. Oziq-ovqat (sarig' yog', tuxum sarig'i, jigar, baliq moy va b.) tarkibida bo'lib, o'simlikli oziq-ovot tarkibida uchramaydi. Lekin bir qator o'simliklar, ko'katlar, mevalar (sabzi, ko'k piyoz, ismalog', otquloq, pomidor, o'rik, mandarin va b.) tarkibidagi

karotin provitamin A hisoblanadi. Organizmda karotin vitamin A ga o'tadi. Vitamin A qorong'ulikda ko'rishni ta'minlaydigan rodobsinning biosintezi uchun zarur. Bundan tashqari, vitamin A epitelial xujayralar butunligini saqlaydi. Glikokortikoidlar, xolestirin sintezi va tananing o'sishi uchun zarur.

Gipovitaminoz A da shapko'rlik (gemorolopiya), ko'z shoxpardasining qurib qolishi (kseroftalmiya), ko'z qovoqlarining yallig'lanishi, terida o'zgarishlar kuzatiladi.

Ushbu holatlarda sintez yo'li bilan olingan retinal asetat, retinol palmitat va vitamin A saqlovchi oziq-ovqat (jigar, baliq moyi, sariq yog' va b.)lardan tashqari provitamin A bo'lgan karotin saqlagan ko'katlar, mevalar (sabzi, ko'k piyoz, otquloq, qovoq, qovun va b) tavsiya etiladi.

Bularni ayniqsa, gipovitaminozni oldini olish maqsadida istemol qilish foydalidir. Vitamin A yog'da eruvchan bo'lgani uchun orga-nizmda yig'ilab, turli asoratlarni (ishtaxani pasayishi, ko'ngild aynishi, qusish, teri va shilliq pardalarni qurib qolishi, kam qonlik va b.) berishi mumkin.

Gipovitaminoz E

Vitamin E (alfa tokoferol) yog'da eruvchan bo'lib, organizm uchun zarur hisoblanadi. Bu vitamin yetishmasligida laboratoriya hayvonlarida (tajribada) ularning urchish qobiliyati buzilgan. Erkak hayvonlarda urug'-sperma ishlab chiqarish to'xtagan. Homiladorlik davrida esa homilaning taraqqiy qilishi sekinlashgan. Urchigan tuxum hujayrasining implantasiyasi (bachadon shilliq pardasiga yopishishi) buzilgan. Shu bilan birga, mushaklarda degenerativ o'zgarishlar yuz bergan, yurakning faoliyati zaiflashgan. Bundan tashqari, vitamin E tibbiy antioksidant hisoblanib, to'yinmagan yog' kislotalarni, vitamin S va provitamin A ning o'zicha oksidlanishini bartaraf etadi.

Tokoferol chakanda, shirin bodom, kedr yong'oq, fistashka, suli, kungaboqar urug'ida, na'matak, karam, no'xat, petrushka tarkibida bo'ladi. Ayniqsa, tokoferol o'simlik moylarida (kungaboqar, paxta, makkajo'xori, araxis, soya, chakanda) ko'p miqdorda bo'ladi. Bundan tashqari, hayvon mahsulotlarida (go'sht, yog' to'qimasi, tuxum va sut) ham kam miqdorda bor.

Vitamin E yetishmasligini oldini olish va davolash maqsadida sintez yo'li bilan olingan tokoferol atsetat preparatidan tashqari yuqorida ko'rsatilgan tokoferol saqlagan mahsulotlar keng miqyosda tavsiya etiladi. Shuning bilan birga tokoferol boshqa kasalliklarda (ateroskleroz, stenokardiya, mushaklar distofiyasida, dermatit miozitlarda, menstrual siklni buzilishida, homilalikni buzilish xavfi tug'ilganda, erkaklarda jinsiy bezlar faoliyatining pasayishida va b.) beriladi.

Gipovitamiz K

Vitamin K yog'da eruvchanlarga kirib, uning 2 turi mavjud – vitamin K₁ va vitamin K₂. Vitamin K₁ (filloxinon) bir qator o'simliklarda (karamda, na'matak mevasida, achchiq toronda, bedada, poliz ismalog'ida, qizilchada, chakandada, qulupnoyda va b.) sintez qilinadi va tarkibida bo'ladi. Vitamin K₂ ingichka ichak mikroflorasi tomonidan sintez qilinadi. Organizmga vitamin K asosan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida kiradi va qonning ivishi jarayonida qatnashadi.

Aniqrog'i vitamin K qonning ivish jarayonining faol va zarur faktorlaridan biri bo'lgan protrombinning jigarda sintez bo'lishi uchun zarur. Ushbu vitaminning yetishmasligi ko'proq ovqat tarkibida kam miqdorda bo'lishi yoki uning turli kasalliklarda (jigar-o'tini ichakka tushmasligida-obstruktiv sariqlik, o't yo'lini torayib qolishida, dioreyada, yaralik kolitda, dizenteriyada, va b.) ichakda so'rilish buzilishi natijasida yuzaga chiqishi mumkin. Gipovitaminoz K ning asosiy belgisi qon ivishini pasayishi natijasida turli ko'rinishda organ, to'qimalardan qon ketishidir (burundan qon ketishi, terida qontalashi, bachadondan qon ketishi, jaroxatlanganda qon ketishi va b.).

Gipovitaminozni oldini olish va davo ko'rsatishda sintez yo'li bilan olingan (vikasol, fitomenadion) preparatlaridan tashqari vitamin K ni saqlagan yuqorida keltirilgan o'simlik mahsulotlari tavsiya etiladi. Bular asosan gipovitaminozni oldini olish maqsadida ishlatiladi. Ular fitopreparat shaklida (damlama, qaynatma, nastoyka, ekstrakt va b.) berilishi mumkin.

Masalan: (gazanda bargi damlamasi, achchiq taron suyuq ekstrakti) ichillishi mumkin.

Vitaminlarga boy o'simliklar va ularning mahsulotlari

1. Na'matak mevasi (Fructus cunusbati) – Плоды шиповника

Na'matakning 8 ta turi (may, tikanli, paxmoq, Fedchenko, va b.) bulardan Fedchenko na'matagi O'zbekistonning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tog'li hududlarida keng tarqalgan.

Mevasining kimyoviy tarkibida (quruq holda hisoblanganda) 4-6 ba'zan 18% gacha vitamin S, 0,3 mg% vitamin V₂, K₁, R, 12-18 mg% karotin bor.

2. Kora qoraqat bargi va mevasi (Folia et fructus Ribus nigri) –

Листья и плоды смородины

Sobiq Ittifoqning Ovropa qismida o'sadi va o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Qora qoraqat bargida 400mg% gacha askarbin kislota, vitamin R, meva tarkibida esa 568mg% gacha askarbin kislota, 3mg% karotin, vitamin V₁, V₂, V₆, K saqlaydi.

3. O'rmon qulupnayi bargi va mevasi (Folia et fructus

Fragariae vescae) – Земляника лесная

MDHning yevropa qismida, Kavkazda hamda Markaziy Osiyoda (Tyanshan tog'larida) o'rmon o'tloqlarida, o'rmondagi ochiq va quruq erlarda, butalar orasida va boshqa erlarda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. O'rmon qulupnayi bargi tarkibida 250-280mg% vitamin S, karotin, 2,17% rutin va flavonoidlar bor. Mevasi tarkibida vitaminlar (S, V₁, V₂, V₆, R, E) bo'ladi.

4. Ekma sabzi (Daucus sativus) – Морковь посевная

O'zbekistonda ham keng miqyosda o'stiriladi va poliz mahsuloti sifatida ko'p ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi. Boshqa turli moddalardan tashqari, ildizida bir qator vitaminlar mavjud. Ular qatoriga karotinoidlar (15-62mg%), vitamin S (11,9-22,4mg%), vitamin V₁ (0,1mg%), V₂ (0,05mg%), vitamin RR (0,15-0,4mg%), vitamin E (0,63mg%) va vitamin K (190 biologik birlikda 1 grammga) bo'ladi.

5. Limon (Citrus lemon) – Лимон

O'zbekistonda keng ravishda o'stiriladi va istemol qilinadi.

Kimyoviy tarkibi. Limonning mevasida boshqa turli moddalardan tashqari, quyidagi vitaminlar mavjud. Vitamin S (45-140mg%), E (0,2mg%), β -karotin (0,02mg%), V_1 (0,04mg%), V_2 (0.02mg%), V_6 (0,06mg%).

6. Chetan mevasi (Fructose sorbi) – Плоды рябины

Chetan Rossiyaning yevropa qismida o'rmon-cho'lo'rmon zonasida Sibir va Kavkazda o'sadi. Bog', parklarda o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik mevasi tarkibida boshqa moddalardan tashqari, quyidagi vitaminlar mavjud: askarbin kislota (40-200mg%), karotin (18mg%), vitamin R. O'simlik bargida 200mg% vitamin S bor.

7. Chakanda mevasi va moyi (Fructose et oilium Hippophaes) – Плоды и масла облепихи

Asosan Markaziy Osiyoda, Sibirning janubiy tumanlarida, Qora dengiz atrofiga, Kavkazda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. Chakanda o'simligining mevasi tarkibida 400mg% vitamin S, 0,035mg% vitamin V_1 , 0,056mg% vitamin V_2 , 145mg% vitamin E, 60mg% vitamin V_s (folat kislota) va boshqa moddalar bor. Urug'i tarkibida 12,5% yog', 0,28mg% vitamin V_1 , 0,38mg% vitamin V_2 , 14,3mg% vitamin E va 0,3mg% karotin bo'ladi. Chakanda moyi tarkibida 180-300mg% karonoidlar, vitamin E va F bor.

8. Tirnoqgul guli (Flores Calendula) – Цветы календулы

Manzarali o'simlik sifatida Moldova, Ukraina, Rossiyaning yevropa qismida hamda Kavkazda, Krasnodar, Poltova va Moskva viloyatlarida o'sadi. Markaziy osiyoda yovvoyi holda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik gullari tarkibida 7,6-7,8mg% karotin (karotinoidlarning umumiy miqdori savatchaning tilsimon chetki gullari tarkibida 3% ga etadi) va boshqa moddalar mavjud.

9. Gazanda bargi (Folia Urticae) – Листья крапивы

Rossiyaning yevropa qismida, Kavkazda va Markaziy Osiyoda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi. Gazandaning barglari tarkibida 100-160mg% vitamin S, 452-758mg% vitamin K, (1g mahsulotda 400 biologik birliklargacha) va vitamin V₂, 14-50mg% karotinlar va boshqa molddalar bo'ladi.

10. Makkajo'xoring onalik guli ustunchasi bilan og'izchasi (*Stulicum stigmatis zae mayalis*) – Кукурузные столбики с рыпьсами

Makkajo'xoring vatani janubiy Meksika va Gvatemala hisoblanadi. Respublikamizda keng miqyosda o'stiriladi va ko'p sohada ishlatiladi.

Kimyoviy tarkibi. Makkajo'xori mahsuloti (doni) tarkibida vitamin K, (1g mahsulotda 1600 biologik birlikda) – β – karotin – 0,32mg%, vitamin – E 5,5 – 16,4mg%, vitamin V₁ – 0,14mg%, vitamin V₆ – 0,48mg%, vitamin R – 4,8-1,6mg%. Makkajo'xori moyida – 83mg% vitaminlar bor. Makkajo'xori og'izchasi tarkibida 10,86mg% vitamin K, 99,5mg% askarbin kislota va vitaminlar V₁, V₂, V₆, D, E bo'ladi.

11. Bodrezak po'stlog'i va mevasi (*Lorte fructus Viburni*) – Кора и плоды Калины

O'simlik Moldova, Ukraina, Belarus, Rossiyaning yevropa qismida, Qozog'istonda, G'arbiy Sibirda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida 70-80mg% vitamin S, 28-31mg% vitamin K, 21mg% karotin va boshqa moddalar bor.

Meva o'z tarkibida karotinoidlar, askarbin kislota va boshqa moddalar saqlaydi.

12. Bozulbang guli (*Flores Lagochili*) – Цветы лагохилуса

O'zbekiston va Tojikiston respublikalarida yarim cho'l va shag'alli qiya tog' bag'irlarida o'sadi. O'zbekistonning Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi. Ko'p yillik o'simlik.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik guli va qisman bargi vitamin K, (0,6-1,97%), askarbin kislota 44-77mg%, 5-10mg% - karotin, bargida 77-100mg% askarbin kislota va boshqa moddalar bo'ladi

Toshkent Farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedrası professori T.P.Po'latova bozulbangning respublikamizda o'sadigan uch turini (*Lagochilus inebrians* Bge, *Lagochilus setulusus* Vved.

Lagochilus platycalux Schrenx) to'liq o'rganib chiqib, Lagochilus setulusus Vved o'simlikning er ustki qismini Lagochilus inebrians Bge bilan bir qatorda qon oqishini to'xtatish uchun ishlatish mumkinligi to'g'risida fikr yurg'izgan. Lagochilus inebrians Bonge ning gemostatik ta'siri plazmadagi qon ivishda qatnashadigan faktorlarning faoliyatini oshishi bilan tushintiriladi.

13. Jag'-jag' yer ustki qismi (Herba Bursae pastoris) – Трава пастушей сумки

Jag'-jag' barcha aholi yashaydigan yerlarda, yo'l yoqalarida, o'tloqlarda, begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadigan bir yillik o't o'simlik.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning yer ustki qismida boshqa moddalardan tashqari, 0,12% askarbin kislota, vitamin K va boshqa birikmalar mavjud.

14. Qiziltasma (Polugonum avicilare L) – Горлес птичий

O'zbekitoning deyarlik hamma viloyatlarida ekin ekiladigan yerlarda, yo'llar chetlarida o'sadigan begona bir yillik o't o'simlik.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik o'tida boshqa birikmalar, moddalardan tashqari, bargida 57-450mg% vitamin S, 4,7-4,9mg% karotin, vitamin K bo'ladi.

15. Tomirdori (Polygonum amphibium L.) – Горлес земноводный

Ko'p yillik o'simlik bo'lib, Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona viloyatlarida o'sadi. O'simlik yer ostki qismida boshqa moddalardan tashqari 30,8mg% vitsmin S bor. Toron o'simligining boshqa turi g'adir-budir taron (Polygonum scabrum Moench - Горлес шероховатый) bir yillik o'simlik bo'lib, Toshkent, Samarqand, Suxondaryo va Buxoro viloyatlarilda o'sadi. O'simlik o'tida boshqa moddalardan tashqari uning bargida 200mg% gacha vitamin S bo'ladi.

16. Bo'yumadaron (Achillae millifolium) – Тысячелистник

Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida o'sadigan ko'p yillik o't o'simlik. O'ti tarkibida boshqa moddalar, birikmalardan tashqari, bargida 91mg% vitamin S, 9-13mg% karotin bo'ladi.

Tarkibida vitaminlar saqlagan fitopreparatlar

1. Chakanda moyi (Oleum ex fructibus Hippophae) – Масло облепиховое

Mevasidan va bargidan olingan o'simlik moyi tarkibida karotin va karotinoidlar, tokoferollar, xlorofil moddalar, glidseridlar, olein, linolev, poliminit, stearin kislotalar saqlaydi.

Sirtga qo'llash va ichish uchun beriladi. Moyni ta'sirida turli yaralarning bitishi tezlashadi, yallig'lanish jarayonini kamaytiradi. Radiaktiv nurlar keltirib chiqargan terining va shilliq pardaning jaroxatlanishida, kolpitlarda, bachadon bo'ynining eroziyasida moyi paxtaga shimdirib qo'yiladi.

Chakanda moyi oshqozon va o'nikki barmoq ichak yarasida boshqa dorilar bilan bir qatorda ichish uchun beriladi. Yuqori nafas yo'llarining yaldirilishida ham ishlatiladi.

Xolesiistda, o't-tosh kasalligida, pankreatitda chakanda moyini ichish tavsiya etilmaydi.

Chakanda moyi flakonlarda 30, 50 va 100 ml dan chiqariladi.

2. Na'matak moyi (Oleum Rusae) – Масло шиповника

O'simlikning urug'idan olinadi. Tarkibida to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalar, karotinoidlar, tokoferollar saqlaydi.

Sirtga qo'llash va ichish uchun beriladi. Emizuvchi ayollar sut bezining so'rg'ich qismini shilinishi, yorilishida, oyoqning trofik yaralarida, dermatozlarda, ozenada, spetsifik bo'lmagan yaralik kolitlarda (klizma shaklida) ishlatiladi. Dermatozlarda moyi mahalliy qo'llash bilan birga ichish uchun tavsiya etiladi.

Na'matak moyi flakonlarda 100 ml dan chiqariladi.

3. Gipozol (Hiposolum)

Tarkibida chakanda moyi (15g), metilurasil (1g), etapol natriy (1g) hamda emulatorlar, stabilizatorlangan distillangan suv va prosellent xladon – 12 bor bo'lib, aerazol ballonchalarda chiqariladi. Preparat ballonchadan chiqishda ko'pik hosil qiladi.

Preparat yallig'lanishga qarshi, antibakterial va yara bitishini tezlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Gipozol spetsifik bo'lmagan vulvitlarda, kolpitlarda, bachadon bo'yini eroziyasida, praktitlarda, to'g'ri ichak yaralarida, to'g'ri ichak va ichaklarda operatsiyadan

keyin qo'llanadi. Ballon qisilganda chiqadigan ko'pik bilan jaroxatlangan joy qoplanadi.

4. Olazol (Olasolum)

Tarkibida chakanda moyi, levomisitin, anestezin, bor kislotasi va qo'shimcha moddalar saqlagan aerozol ballonchalarda chiqariladi. Ballonchalardagi aralashma bosim ostida bo'lgani uchun dozalanganda holda ko'pik chiqadi. Sirtga qo'llash uchun ishlatiladi.

Preparat kuygan to'qimani bitishini tezlashtiradi. Yiringli yaralarda, trofik yarada, ekzemada, qichitma dermatozlarda mahalliy ravishda qo'llanadi.

Aerozol ballonlarda 60-120 ml dan chiqariladi.

5. Oblekol plyonkasi (Meubrana «Oblecatum»)

Chakanda moyi qo'shilgan (1:100) kollogendan yasalgan plastinkalar. Sirtga qo'llash uchun mo'ljallangan. Teridagi turli yaralarni dovolash uchun ishlatiladi. Buning uchun terining qo'llanadigan joyi tozalanadi, polietilen paketdagi plyonka steril sharoitida olinadi. Plyonka qo'yiladigan satx o'lchovi bo'yicha plyonka kesib olinadi, sterillangan izotonik eritmaga yoki furasillin eritmasiga solinadi va terining mo'ljallangan joyiga (yaraga) qo'yiladi va ustidan sterillangan bog'lam yoki nakleyka bilan yopiladi. Nakleykani har 2-3 kunda almashtiriladi. Hammasi bo'lib bir kunda bir kursda 3-15 marta aplikasiya qilinadi.

Plyonkaning o'lchami 5×5 yoki 10×10 sm bo'lib, polietilen paketda chiqariladi.

6. Chetan mevasi (Fructus Sorbi aucupariae) – Плоды рябины

Chetan daraxtining (butasining) butunlay mevasi etishgan davrida eg'ib olingan va quritilgan mevasi tarkibida karotin, vitamin S va boshqa molddalar va birikmalar saqlaydi.

Tibbiyot amaliyotida vitaminli hamda peshob haydaydigan va surgi vosita sifatida ishlatiladi.

Damlama shaklida yarim stakandan kuniga 2 marta ovqatdan keyin ichiladi.

Damlama tayyorlash uchun 10 g mevasi olinadi, emallangan idishga solib 1 stakan suv quyiladi. Keyin idish qopqoq yopib,

qaynab turgan suv hammomida 15 daqiqa ilitiladi. Keyin sovutiladi, dokadan o'tkazilib va xajmini suv bilan 200 ml gacha etkaziladi.

Qog'oz xaltachalarda 100 gr dan chiqariladi.

7. Vitaminli yig'malar

Tarkibida vitamin S, R, karotinoidlar va boshqa moddalar saqlaydigan yig'malar.

Vitaminli yig'ma №1

Tarkibida barobar miqdorda na'matak va qoraqat mevalarini saqlaydi.

Vitaminli yig'ma №2

Tarkibida barobar miqdorda na'matak va chakanda mevasini saqlagan aralashma.

Ko'p vitaminli yig'ma

Tarkibida 3 qism gazanda bargi va 7 qism chakanda mevasi aralashmasi bor.

Vitaminli yig'malardan 2 choy qoshiqdan olib 2 stakan qaynoq suvga solinadi, 1 soat qoldiriladi, dokadan o'tkaziladi, talab bo'yicha shakar qo'shib, yarim stakandan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Bulardan tashqari yuqorida qayd etilgan vitaminli o'simliklar izohida ham ularning fitopreparatlari (damlama, qaynatma, quruq va suyuq ekstrakt) to'g'risida ma'lumot berilgan.

XIII BOB. XALQ TABOBATIDA ISHLATILADIGAN AYRIM DORIVOR O‘SIMLIKLAR

Ma'lumki, xalq tabobati ko'p mingyillik boy tarixga ega. Qadim-qadimdan insoniyat uni o'rab turgan atrofdagi o'simliklarni davo qilish maqsadida foydalangan. Davo ko'rsatadigan o'simliklar to'g'risida ma'lumoti og'izdan-og'izga, qabiladan-qabilaga og'zaki, keyinchalik esa yozma shakilda o'ta boshlagan.

Abu Ali ibn Sino yaratgan «Tib qonunlari» kitobining 5 jildidan ikkinchisida o'sha zamonda ishlatiladigan 811 ta dorivor o'simliklar ta'riflangan. Xalq tabobatining asosida ushbu «Tib qonunlari» yotadi. Xalq tabobatida tabiblarning roli katta bo'lgan. Chunki ular dorivor o'simliklarni tanlashi, ularni davo ta'sirini bilishi va ulardan dori shaklini tayyorlashi amaliy tomondan bajarilgan. Boshqacha aytganda, tabobatda ishlatib kelinayotgan dorivor o'simliklarni davo ko'rsatishi ko'p yillik shaxsiy tajribaga asoslangan.

Hozirgi vaqtda xalq tabobatida ishlatib kelingan va ishlatilayotgan ko'pchilik dorivor o'simliklarning davo ko'rsatishi nazariy va amaliy tomondan o'rganilgan va tasdiqlanib, tibbiyot amaliyotida ulardan keng foydalaniladi. Misol tariqasida quyidagi ayrim dorivor o'simliklarni keltirib o'tamiz:

1. Sano (Cassia L.) Kassiya. Sano o'simligi xalq tabobatida keng miqyosda ishlatilib kelinayotgan shifobaxsh giyohlardan biridir. Sano bargidan tayyorlangan damlamasidan ibn Sino bod, jigar va sariq kasalliklarni davolashda hamda surgı dori sifatida foydalangan.

Xalq tabobatida sano bargi va mevasidan tayyorlangan damlama surunkali qabziyat holatlarda va ichak faoliyatini zaiflashganda surgı dori sifatida qo'llanib kelingan va hozirda ham ishlatiladi.

O'simlikning bargi va mevasi kimyogarlar tomonidan o'rganilgan va ularning tarkibida faol moddalar – antraglikozidlar, flavonoidlar, smola va boshqa birikmalar borligi aniqlangan.

O'simlik fitopreparatlarining farmakologik va toksikologik ta'sirini eksperimental (laboratoriya hayvonlarida) o'rganilgan, ularning ichak, ayniqsa, yo'g'on ichak xarakterini kuchaytirishi, ichni yumshatishi aniqlangan. Shuning bilan birga, o'simlikning zaharsizligi, ta'sir mexanizmi o'rganilgan va tibbiyot amaliyotida surgu dori sifatida surunkali atonik qabziyatda ishlatilishi uchun tavsiya etilgan.

Hozirda o'simlikning fitopreparatlari (damlama, tabletkasi - Senade) tibbiyot amaliyotida keng ishlatiladi.

2. Oddiy zirk (*Berberis vulgaris* L.) – Барбарис обыкновенный. Xalq tabobatida zirk mevasining damlamasi va shirasi (soki) jigar va o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi va ishtaxa ochuvchi, chanqoqni bosuvchi (isitma kasalliklarida) dori vositasi sifatida qo'llanadi. O'simlik bargidan tayyorlangan damlama jigar va o't pufagi kasalliklarini (sariq kasalligi, xolesistit, o't-tosh kasalligi va b.) davolashda hamda bachadondan qon ketishida va boshqa xastaliklarda tavsiya etiladi.

Kimyoviy tarkibini o'rganish natijasida zarkning bargi, mevasida, ildizida alkaloidlar (berberin va b.), qandlar, organik kislotalar va boshqa moddalar borligi aniqlangan.

Farmakologik va toksikologik o'rganishlar natijasida o'simlik mahsulotlarining fitopreparatlari jigar o'tini haydovchi va spazmolitik ta'sir etishi ko'rsatilgan.

Tibbiyotda zirk bargidan tayyorlangan nastoyka surunkali gepatit, gepatoxolesistit, xolesistit, o't-tosh kasalligida o't haydovchi hamda bachadon mushaklarini tonusini oshirib, qon ketishini to'xtatuvchi sifatida tavsiya etiladi. Shu maqsadda berberin bisulfat tabletkasi (5mg) beriladi. Nastoykasi esa 15-20 tomchidan kuniga 2-3 marta ichiladi.

3. Bo'yoqdor ro'yan (*Rubia tinctorum*) – Марена красильная. Abu Ali ibn Sino ro'yanning ildizpoyasi va ildizidan tayyorlangan qaynatmani buyrak va boshqa kasalliklarda peshob xaydovchi dori sifatida ishlatgan.

Xalq tabobatida o'simlikning ushbu mahsulotidan tayyorlangan damlama va qaynatma buyrak va o't yo'llaridagi toshlarni haydash uchun va padagra kasalligida ishlatilgan. Bundan tashqari, qovuq, o't yo'llari sanchiqlarida berilgan.

O‘simlikning fitopreparatlarini eksperimental tekshiruv natijasida ularning peshob haydaydigan, buyrak va peshob yo‘lidagi toshlarni tushirish va spazmolitik xossalari aniqlangan.

O‘simlikning kimyoviy tarkibida antraglikozidlar, organik kislotalar, qandlar, bo‘yoqli va boshqa moddalar mavjudligi topilgan.

Hozirda tibbiyot amaliyotida ro‘yanning ildizi va ildizpoyasining quruq ekstrakti buyrak tosh kasalligida, uning og‘riq xurujlarida toshning xaydash uchun ishlatiladi. O‘simlikning suyuq ekstrakti peshob tosh kasalligida qo‘llanadi. «Sistenal» kompleks preparati tarkibiga kiritilgan. Bu preparat peshob haydaydigan, toshlarni yumshatadigan va spazmolitik ta‘sir ko‘rsatib, peshob o‘tish yo‘llarini kengaytiradi, tosh bilan bog‘liq bo‘lgan og‘riqni qoldiradi.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan xalq tabobatida ishlatiladigan, farmakologik va klinik tekshiruvlarda davo ta‘siri tasdiqlangan va tibbiyot amaliyotida keng qo‘llanadigan dorivor o‘simliklar va ulardan tayyorlangan turli dori shaklidagi fitopreparatlardan tashqari, yana bir necha o‘nlab samarali shifobaxsh o‘simliklar va fitopreparatlarini keltirish mumkin.

Haqiqatan ham xalq tabobatini «sog‘liqning xazinasini» deb atalishi bejiz emas. Chunki xalq tabobatida qo‘llanadigan dorivor giyohlarning ko‘pchiligi nazariy, eksperimental va klinik tekshiruvlarda amarali ekanligi tasdiqlangan.

Nazorat savollari

1. Surunkali qon oqishida qo‘llanadigan dorivor o‘simliklarni ko‘rsating.

2. Ichki organizmlardan (oshqozon-ichak yara kasalligi) qon ketishida tarkibida vitamin K saqlagan o‘simliklar nima uchun beriladi?

3. Bozurbang o‘simligining qanday fitopreparati qon ketishida ishlatiladi?

4. Teri yiringli kasalliklarida qanday ta‘sirli fitopreparatlar qo‘llanadi?

5. Antiseptik ta‘sirli fitopreparatlarni ko‘rsating.

6. Grek yong'oc bargi va mevasidan qanday fitopreparat olingan va ishlatilishi.

7. Dalachoyning dermatologiyada ishlatilishi.

8. Stomatologiyada qanday farmakologik ta'sirli fitopreparatlar ishlatilishi mumkin?

9. Patsimon kalanxoe fitopreparatlari qanday farmakologik ta'sir ko'rsatadi va ishlatilishi.

10. Gipovitaminoz S da qanday dorivor o'simliklar tavsiya etiladi?

11. Provitamin A saqlovchi o'simliklarni qo'llanishi.

Vitamin K yetishmovchiligida qanday kasallik kuzatiladi va uning fitoterapiyasi.

DORIVOR O'SIMLIKLARNING O'ZBEKCHA NOMLARI KO'RSATGICHI

Adonis (sug'uro't)
tillarang adonis
Turkiston adonisi
Aloe
daraxtsimon aloe
yo'l-yo'l aloe
Angishvonagul
yirik gulli angishvonagul
kiprikli angishvonagul
malla angishvonagul
sertukli angishvonagul
qizil angishvonagul
Andiz
Britaniya andizi
sariq andiz
qora andiz
Araliya
Manchjuriya araliyasi
Arpabodiyon
annisimon arpabodiyon
Arislonquyruq
beshbo'lakli arislonquyruq
Turkiston arislonquyrug'i
Afsanak
ketma-ket gulli afsanak
lansetsimon afsanak
Achchiqmiya
qalin mevali achchiqmiya
Bangidevana
oddiy bangidevana
Kavkaz bangidevanasi
Belladonna
Bodom
Bodrezak

Bozulbang (Iagoxilus)
gangituvchi bozulbang
Bo'znoch
qumloq bo'znochi
Bo'yadaron
oddiy bo'yadaron
Bo'rigul
kichik bo'rigul
tik o'suvchi bo'rigul
Bo'tako'z
ko'k bo'tako'z
Valeriana
dorivor valeriana
Voronov galantusi
Gazanda
ikki uyli gazanda
Gulxayri
armani gulxayri
dorivor gulxayri
Gunafsha
uch rangli gunafsha
Dalachoy
teshik dalachoy
Dasturbosh
oddiy dasturbosh
Do'lana
oddiy do'lana
Oltoy do'lanasi
to'q qizil do'lana
Yong'oq
Gretsiya yong'og'i
Jag'-jag'
oddiy jag'-jag'
Jenshen
oddiy jenshen
Jumrut
tog' jumruti

Jut
uzun mevali jut
Jo'ka
Zaytun
Yevropa zaytuni
Zirk
Amur zirgi
oddiy zirk
Zig'ir
Zubturum
katta zubturum
Igir
oddiy (botqoq) igir
Kalanxoe
Kamfora daraxti
Kanakunjut
Karam
dengiz karami
Kashnich
ekma kashnich
Kendir
nashasimon kendir
Kella
tishli kella
Kiyiko't
tulbargli kiyiko't
Kuchala
oddiy kuchala
Ko'knor
Ledum
botqoq ledumi
Levziya
maxshirsimon levziya
Limon
Maymunjon
Makleya
mayda mevali makleya

Makkajo‘xori
Marvaridgul
may marvaridguli
Marmarak
dorivor marmarak
Mingdevona
qora mingdevona
Moychechak
dorivor moychechak
Na‘matak
begger na‘matagi
may na‘matagi
imburin na‘matagi
Fedchenko na‘matagi
Qo‘qand na‘matagi
Olxo‘ri
Oqqaldirmoq (ko‘ka)
Parpi
jungar parpisi
qora ko‘l parpisi
Periploka
Gretsiya periplokasi
Petrushka
ekma petrushka
Piyoz
osh piyoz
sarimsoq piyoz
Polikarpus
patsimon bargli polikarpus
Rauvolfiya
ilon rauvolfiya
Rodiola
pushti rodiola
Ro‘yan
bo‘yoqdor ro‘yan
Sabzi
ekma sabzi

Salob
Sano
o'tkir bargli sano
torbargli sano
Seberga
Senesio
Soxta kashtan
Strofantus
Kombe strafantusi
Suli
Sxezandira
Xitoy sxezandrasi
Temirtikon
Yer bag'irlagan temirtikon
Tomirdori
Tirnoqgul
dorivor tirnoqgul
Tugmachagul
o'rmon tugmachaguli
Tog'jambul
oddiy tog'jambul
Tog' rayhon
Ukrop
dorixona ukropi
Oddiy fenxel
Frangula
Olxanoma frangula
Sinxona (hind daraxti)
Chakanda
jumrutnoma chakanda
Chetan
chetan mevasi
Choy
Xitoy choyi
Xitoy limonnigi (sxiandriyaga qarang)
Shuvoq
achchiq shuvoq

Evkolipt
Erizimum
yopiq erizimum (chatrang'i)
Exinoponaks
baland exinoponaks
Qarag'ay
oddiy qarag'ay
Qizilmiya
oddiy qizilmiya
Orol qizilmiyasi
Qizil tasma
Qizilcha (efedra)
tog' qizilchasi
cho'l qizilchasi
Qirqbo'g'in
dala qirqbo'g'ini
Qitir
baland qitir
Qoncho'p
katta qoncho'p
oddiy qoncho'p
Qora zira
Qoraqat
qora qoraqat
Qulupnay
o'rmon qulupnayi
Qushtaron
Yams
Yalpiz
qalampir yalpiz

DORIVOR O‘SIMLIKLARNING RUSCHA NOMLARI KO‘RSATGICHI

Адонис (см. «горисвет»)

Аир

аир болотный

аир обыкновенный

Алтей

Армянский

лекарственный

Алое

древовидное

полостое

Аконит

Амми зубная

Анис обыкновенный

Аралия манжурская

Баульник болотный

Барбарис

Амурский обыкновенный

Барбинок

прямоствящий

малый

Белена черная балладонна (см «Красовка»)

Боярышник

обыкновенной

Алтайский

Бессмертник

Валериано лекарственная

Василек

Горес птичий

Горлес земноводная

Горисвет

весенний

Туркистанский

золотистый

Девясил

крупный
высокий
Британский
Диоскория
Джут длинноплодный
Дурман обыкновенный
Душица
обыкновенная
мелкосветная
Желтушник (см «Эризимум»)
Женьшень
обыкновенный
Жосетер
Заманиха высокая
Зверобой обыкновенный
Земляника лесная
Зизифора светоножечная
Коланхое
Калина обыкновенная
Камфорное дерево
Капуста
Кассия
острилистная
узкалистная
Келла (см. «Амми зубная»)
Кендыр коноплевый
Клевер луговой
Клещевина
обыкновенная
Конский каштан
Кориандр посевной
Крапива двудомная
Красовка
обыкновенная
Кавказская
Крестовник
Широколистный

Крушина обыкновенная
Кукуруза обыкновенная
Лагохилус опьяняющий
Ландыш майский
Левзея сафоровидная
Лимон
Лимонник китайский (см. схизан)
Липа
Лук
Мак снотворный
Маклея меокоплодная
Малва лесная
Малина обыкновенная
Маслина красильная
Мать-мачеха обыкновенная
Морковь посевная
Миндаль обыкновенный
Мята
Наготка
Напрестянка
красная
ржавая
ресничная
марингуми
Обвойник Гречиский
Облипиха крушиनावидная
Пастушья сумка
обыкновенная
Петрушка обыкновенная
Поликарпус перистолистный
Пижа
Подорожник большой
Поденжник Воронова
Полынь горькая
Пустырник обыкновенный
пятилопастный
Туркистанский

Гаувольфия змеиная
Родиола розовая
Ромашка аптечная
Рябины полды
Слива
Солодка обыкновенная
Софора толстоплодная
Сосна обыкновенная
Строфонтус Комбе
Синхона
Термопсис лансетный
огеродно светный
Туркистанский
Тмин обыкновенный
Тысячалистник обыкновенный
Фенхель обыкновенный
Фиалка трехцветная
Хвощ полевой
Чай Китайский
Чебрец
Чилибуха обыкновенная
Чистотел большой
Шалфей лекарственный
Эвкалипт
Эфедра средняя
Эризмум
Эхинопонаке
Ятрышник пятнистый
Якорсы приземные


DORIVOR O'SIMLIKLARNING LOTINCHA NOMLARI KO'RSATGICHI

Achillea millifolium
Acunitum L.
Acorus calamus L.
Adonis turkestanica Adolf.
Vermalis I.
Aesculus hippocastinum L.
Allium L.
Aethaca officinalis I.
Aloe
Amugdalus L.
Ammi visnago L.
Anisum vilgara
Artemisia abcinthium
Aralia mandchurica Rups
Apocynum cannabinum L.
Belladonna L.
Berberis vulgaris L.
Brassica L.
Burse pastoris Medic
Calndula L.
Carum carvi L.
Cassia angustofolia L.
Centaurea L.
Cheldonium major L.
Cinchona succirubra Pav.
Cinnamomum camphora L.
Citrus limon Birn.
Convallaria majalis L.
Carchorus alitorius L.
Coriandrum salivum L.
Crategus altaica Lound.
Datura stramonium L.
Daucus sativa L.
Digitalis


Dioscorea L.
Ephinopanax elatus Nik.
Ephedra Bge.
Erisimum diffusum Ehr.
Eucaliptus globulus
Equisetum arvense L.
Foeniculum vulgare Mill.
Fragaria vesca L.
Frangula alnus Mill.
Fructus sive
Galanthus Woronovi A.
Glycyrrhiza glabra
Helleborus
Hippophae rhamnoides
Hypericum L.
Hyascyamus niger
Inula britannica L.
Kalanchoe
Lagochilus inebrians Bre.
Ledum palustre L.
Leonurus quinquelobatus Gilib. turkestanicus Kreer.
Leuzea carthamoides (D.C.)
Malva sylvestris
Macleaya microcarpa
Macula Eu.
Matricaria chamomilla
Mentha L.
Olea europaea
Oxalis acetosella
Oreochloa maculata
Origanum vulgare L.
Panax ginseng c.a. meg
Papaver somniferum
Periploca graeca L.
Petroselinum crispum (Mill.)
Pilocarpus pinnatifidus L.
Plantago major L.

Pinus sylvestris L
Polygonum aviculare L
Polygonum amphibium
Prunus domestica L
Rauwolfia serpentine Benth
Rhamnus cathartica L
Rhodiola rosea L
Ricinus communis L
Ribes nigrum L
Rosa majalis
Rubus tinctorum L
Rubus idaeus L
Salvia officinalis
Schizandra chinensis Baill
Senecio platyphyllides Som
Sophora pachycarpa C.A.Meg
Strychnos nux vomica L
Strophanthus Kombe Oliv
Tanacetum vulgare L
Tilia
Thea sinensis L
Thermopsis Grand
Thymus vulgaris
Tribulus terrestris L
Trifolium pratense L
Tusilago farfara L
Urtica dioica L
Valeriana officinalis L
Viburnum opulus L
Vinca erecta Rgi
Vinca minor L
Viola tricolor L
Yuglans L
Zea mays L
Ziziphora pedunculata Pazij

FITOTERAPIYADA ISHLATILADIGAN DORIVOR
O'SIMLIKLAR



Bahorgi Adonis




Kalanxoy



Aloy




Gulxayri




Igir




Mingdevona




Marjondaraxt



Valeriana




Sugurt



Qashqabeda



Bangidevona



Tog'rayxon



Jenshen



Gazanda




Marvaridgul



Maymunjon



Arslonquyruq




Zubtutum



Bo'ymadoron



Sachratqi




Afsonak




Moychechak




Chakanda




Namatak



Isiriq



Angishvonagul



Dalachoy




Pushti rodiola



Serpantin rauvolfiya



Kastor




Rodiola



Donnik



Oq qaldirmoq



Oddiy bo'ymadoron




Kanakunjut



Termopsis o'ti




Kamfora daraxti



Kuchala




Baland qitir



Mahsarasimon levzey




Manjuriya araliyasi




Xitoy sxizandriyasi



Tikanli eleuterokokk



Tog' qizilchasi




Ko'knori



Arslonqyruq




Butasimon amorfa




Tog' qizil passiflorasi



Oddiy qulmoq




Meksika bangidevonasi




Oddiy bangidevona



Karniol skopoliyasi




Qora mingdevona



Yassi bargli senessio



Patsimonbargli pilokarpus




Zaharli fizostigma




Voronov galantusi




Qalin mevali achchiqmiya



Sho'r buyan




Angishvonagul




Adonis



May marvaridguli



Kombe strofanti



Yoyiq erizimum




Nashasimon kendir



Uzun mevali jut




Gretsiya periplokasi



Do'iana



Yams



Yer bag'irlagan temirtikan



Ilon rauvolfiya

ВОПРОСЫ ТЕСТОВ

1. Фитотерапия - это совокупность лечебных мероприятий с использованием:

- а) пыльцы растений, цветов, плодов, цедр;
- б) почек, листьев, плодоножек;
- в) травы в целом;
- г) корней и корневища, коры;
- д) верны все перечисленные выше ответы.

2. Готовность лекарственного сырья определяют по следующим признакам:

- а) корни с хрустом ломаются;
- б) листья и цветы легко растираются между пальцами;
- в) кора, стебли без усилий ломаются;
- г) плоды и почки при сжатии их в кулаке не слипаются между собой;
- д) верны все перечисленные выше ответы.

3. Траву, как правило, собирают:

- а) на городских газонах;
- б) ранней весной и зимой;
- в) после отцветания растения, когда оно образует семена;
- г) во время бутонизации или цветения;
- д) когда выпадет утренняя роса.

4. Настой - это:

- а) масляный экстракт из растения;
- б) сок, выжатый из растения;
- в) водная вытяжка из растения;
- г) спиртовая вытяжка из растения;
- д) сухой порошок из растения.

5. Настойка - это:

- а) масляный экстракт из растения;
- б) сок, выжатый из растения;
- в) водная вытяжка из растения;

- г) спиртовая вытяжка из растения;
- д) сухой порошок из растения.

6. Водные вытяжки из лекарственных растений обычно применяют:

- а) во время еды;
- б) до еды;
- в) после еды;
- г) за 1 час до сна;
- д) верны все перечисленные выше ответы.

7. Для профилактики кариеса рекомендуют включать в рацион:

- а) дыню;
- б) тыкву;
- в) арбуз;
- г) клубнику;
- д) яблоки.

8. Самым нетоксичным глистогонным средством считаются:

- а) ягоды малины;
- б) плоды груши;
- в) семена тыквы;
- г) лук;
- д) редька.

9. Вытяжки из плодов моркови могут назначаться врачом для лечения:

- а) ишемической болезни сердца;
- б) парадонтоза;
- в) сахарного диабета;
- г) глистных инвазий;
- д) гриппа.

10. Гипотензивное действие присуще:

- а) сушенице болотной, рябине черноплодной, пустырнику пятилопастному;
- б) крушине ольховидной, сене, жостеру слабительному;
- в) женьшеню, левзее сафроловидной, радиоле розовой;
- г) кровохлебке лекарственной, плодам малины;
- д) багульнику болотному.

11. При лечении геморроя местно применяют «свечки», выструганные из:

- а) редьки;
- б) картофеля;
- в) свеклы;
- г) моркови;
- д) капусты.

12. Успокаивающим действием обладают:

- а) кофе;
- б) крепкий чай;
- в) кровохлебка лекарственная, кора калины, горец почечуйный;
- г) валериана лекарственная, вахта трехлистная, синюха голубая;
- д) кукурузные «рыльца», лапчатка прямостоячая.

13. При лечении заболеваний органов дыхания особой осторожности и строгого врачебного контроля требует назначение:

- а) ромашки аптечной;
- б) тимьяна ползучего (чебреца);
- в) подорожника большого;
- г) полыни горькой;
- д) багульника болотного.

Фитотерапию относят:

- а) к народной медицине;
- б) к нетрадиционной медицине;
- в) медицина едина, фитотерапию следует рассматривать в научном медицинском поле.

К веществам первичного синтеза в растениях относят:

- а) белки, углеводы, липиды, ферменты, витамины;
- б) органические кислоты и минеральные элементы;
- в) гликозиды, алкалоиды, фенольные соединения, эфирные масла.

Сроки заготовки лекарственных растений определяют:

- а) время и место накопления полезных веществ в растении;
- б) климатическая зона;
- в) наличие водоемов и солнечная активность.

Сбор или чай –это:

- а) смесь растений;
- б) сырье для приготовления настоев, отваров, припарок;
- в) смеси высушенных и измельченных лекарственных растений, иногда с добавлением минеральных лекарственных веществ.

Водные извлечения – это:

- а) настои, отвары, напары, экстракты, ингаляционные смеси, лечебные ванны;
- б) экстракты, мази, настойки;
- в) настои, настойки, экстракты, бальзамы.

Спиртовые экстракты отличаются от настоек:

- а) более высокой концентрацией действующих начал;
- б) тем, что экстракты готовят выпариванием;
- в) экстракты готовят на 90%-м, а настойки на – 40%-м растворе спирта.

Лучше извлекаются растительными маслами:

- а) алкалоиды (если они находятся в форме оснований), эфирные масла, жирорастворимые витамины;
- б) все витамины;
- в) сердечные гликозиды.

Водные извлечения из коры крушины, листьев ивы, плодов жостера, содержащих антрагликозиды, целесообразно готовить:

- а) в микроволновой печи при 70%-й мощности работы в течение 25 мин;
- б) в режиме отвара на кипящей водяной бане;
- в) кипячением в течение 20 мин.

Группы лечебных факторов фитотерапии;

- а) психотерапевтические и фармакологические;
- б) фармакологические, экологические, патогенетические;
- в) спонтанного и целенаправленного действия.

Воздействие в «режиме меню» означает:

- а) организм выбирает из множества предложенных те химические соединения, которые ему необходимы;

- б) организму предлагают те химические соединения, которых ему предположительно не хватает;
- в) организм «заказывает» и «выбирает» химические соединения, которые ему необходимы для нормального существования;
- г) фитосредство содержит необходимые питательные вещества (белки, жиры и углеводы) с заданной калорийностью.

В основе физиологической и репаративной регенерации лежит:

- а) воспаление;
- б) одни и те же механизмы, но более интенсивное течение при репаративной регенерации;
- в) пролиферация.

Можно ли применять иммунодепрессивный тип воздействия фитосредствами для коррекции репарации:

- а) нельзя, нужна только иммуностимуляция;
- б) можно, но вместе с иммуностимуляторами;
- в) можно при выраженном аутоаллергическом компоненте или при трансплантации органов и тканей.

К стимуляторам ЦНС, нарушающим передачу процессов торможения, относятся:

- а) алкалоидсодержащие растения;
- б) челибуха, секуринага, мордовник;
- в) аралия, лимонник, женьшень.

Роль инфекционных агентов в патогенезе заболеваний органов дыхания:

- а) вызывают воспаление;
- б) являются пусковым механизмом инфекционно-воспалительного процесса;
- в) патогенный агент не является лишь пусковым фактором, он участвует в формировании всей динамики воспалительного процесса.

При воспалительных процессах органов дыхания используют растения со следующим действием:

- а) бактерицидное, противовоспалительное, отхаркивающее, вяжущее;

- б) репаративное и антиаллергическое;
- в) общеукрепляющее и жаропонижающее.

Могут ли сердечно-сосудистые заболевания быть вызваны дисфункцией регуляторных систем:

- а) могут, например, артериальная гипертензия;
- б) нет, в основе сердечно-сосудистых заболеваний лежит атеросклероз;
- в) могут, только иммунной и нервной систем;
- г) нарушения функции эндокринной, нервной и иммунной систем могут привести к развитию многих заболеваний сердца и сосудов.

Лечить заболевания желудочно-кишечного тракта только фитосредствами:

- а) можно, кроме состояний, требующих активной гормонотерапии применения препаратов по жизненным показаниям;
- б) нельзя;
- в) можно.

Группы растений, обладающие фармакотерапевтическими свойствами, специфичными для заболеваний желудочно-кишечного тракта:

- а) антимикробным, болеутоляющим, вяжущим, подавляющим секрецию пищеварительных желез;
- б) желчегонным, кровоостанавливающим, смягчительным, обволакивающим, противовоспалительным;
- в) ранозаживляющим, спазмолитическим, стимулирующим секрецию пищеварительных желез.

Основной патогенетический механизм возникновения гломерулонефрита:

- а) инфекция;
- б) интоксикация;
- в) аутоиммунная перестройка, когда собственные белки почек видоизменяются под влиянием бактериального агента и становятся чужеродными для собственного организма.

В эндокринную систему входят:

- а) надпочечники, щитовидная железа, гипофиз;

- б) эндокринные железы, органы с эндокринной тканью, органы с эндокринной функцией клеток;
- в) клетки, продуцирующие гормоны.

Для регуляции эндокринной системы:

- а) применяют заместительную терапию;
- б) стимулируют функцию эндокринных органов;
- в) применяют средства, стимулирующие выработку гормонов, проводят заместительную терапию, используют антагонисты гормонов.

Дистрофические, склеротические изменения яичников могут привести:

- а) к снижению глюкокортикоидной функции коры надпочечников и изменению гонадотропной функции гипофиза;
- б) гипофункции яичников, проявляющейся недостаточностью обеих фаз менструального цикла или преимущественным угнетением лютеиновой фазы, нарушением процесса овуляции;
- в) нарушению функции щитовидной и поджелудочной желез.

Основные функции кожи:

- а) синтез меланина, выведение шлаков;
- б) барьерная, терморегуляционная, секреторная и экскреторная;
- в) дыхательная и резорбционная, участие в обмене веществ.

Основной патогенетический признак ревматических заболеваний:

- а) иммуновоспалительное поражение соединительной ткани;
- б) поражается опорно-двигательный аппарат;
- в) поражаются суставы.

Взаимосвязь между протоонкогенами и онкогенами:

- а) онкогены переходят в протоонкогены;
- б) протоонкогены переходят в онкогены под влиянием точковых мутаций, хромосомных перестроек, амплификации и усиления экспрессии генов;
- в) протоонкогены при возникновении опухоли становятся онкогенами.

Лечение ароматами растений — это:

- а) ароматерапия;
- б) фитоароматерапия;
- в) фитотерапия.

Название «эфирные масла» сложилось потому, что:

- а) в них много эфирных соединений;
- б) они жирные на ощупь;
- в) летучи.

Могут ли быть абсолютно безвредными средства, способные вызывать вильные фармакологические эффекты:

- а) да;
- б) нет;
- в) могут, но не всегда.

Тактика фитотерапевта при ухудшении состояния больного:

- а) отмена или коррекция фитотерапии;
- б) верить в успех и продолжать лечение;
- в) замена фитосредств не раньше 2 недель от начала лечения.

При первых проявлениях аллергии на фитосредство следует:

- а) начать принимать антигистаминные препараты, продолжая фитотерапию;
- б) немедленно прекратить прием фитосредства, вызвавшего аллергию;
- в) избрать тактику пошаговой фитотерапии.

Изучение исторического наследия для фитотерапии имеет значение:

- а) познавательное;
- б) научное;
- в) практическое.

Растительные пектины – это:

- а) полисахариды клеточных стенок, основным компонентом которых являются полиуроновые кислоты;
- б) полисахариды, которые можно получить из свекловичного жома, яблочной выжимки, ягод клюквы, плодов шиповника, корней

солодки, обладающие репаративным, противовоспалительным действием;

в) БАВ с витаминной активностью.

На солнце можно сушить:

а) только цветки и плоды;

б) все, кроме надземных частей растения;

в) корневища с корнями, плоды и семена.

Водные извлечения из сырья, содержащего сапонины, целесообразно готовить:

а) в виде настоя;

б) режиме отвара на кипящей водяной бане или настаивания в термосе (4 ч);

в) кипячением в течение 5 мин с последующим охлаждением (3 ч).

Большее содержание эфирного масла в водных вытяжках обеспечивает:

а) отвар на водяной бане;

б) настой с немедленным фильтрованием;

в) настой в термосе в течение 3 ч с постепенным охлаждением.

Для максимального извлечения дубильных веществ целесообразно использовать:

а) 15-минутное настаивание на водяной бане с 45-минутным постепенным охлаждением;

б) отвар на кипящей водяной бане без последующего охлаждения при комнатной температуре;

в) настаивание в микроволновой печи (50%-й мощности) в течение 20 мин.

Реституция – это:

а) полная регенерация с восстановлением структуры и функций;

б) частичная регенерация;

в) регенерация, ведущая к органосклерозу.

Выраженной иммуностропной активностью обладают растения – средства выбора при аллергических состояниях:

а) адаптогены, эфирные масла, витаминсодержащие;

- б) солодка, череда, крапива, календула;
- в) чага, зверобой, девясил, полынь.

К ноотропным относят растения:

- а) адаптогены;
- б) психотропные средства метаболической терапии;
- в) барвинок малый, маакия амурская, астрагал, копеечник, адаптогены.

Используют для холодных ингаляций:

- а) все ароматические растения;
- б) чеснок, лук, хрен;
- в) мята, душица, лабазник.

Умеренное гипотензивное действие присуще:

- а) бруснике, березе, чернике;
- б) пустырнику, сушенице болотной, доннику лекарственному;
- в) герани луговой, боярышнику, синюхе голубой, шлемнику байкальскому;
- г) рябине черноплодной, астрагалу шерстистоцветковому.

Фитосредства антибактериального действия в гастроэнтерологии применяют:

- а) при всех воспалительных процессах;
- б) язвенных процессах;
- в) колитах микробного происхождения.

Слабительные фитосредства делят на группы:

- а) раздражающего, механического и химического действия;
- б) увеличивающие объем пищевого комка, ограничивающие всасывание, химически раздражающие рецепторы слизистой, облегчающие продвижение кишечного содержимого;
- в) горечи, слабительные, стимулирующие секрецию.

При остром пиелонефрите рекомендуют:

- а) любые сладкие фруктовые морсы в небольшом количестве;
- б) некрепкий чай с лимоном, разбавленные водой фруктово-ягодные соки, отвар шиповника, напитки из клюквы, брусники (2 л и более при отсутствии противопоказаний);

в) уменьшить потребление жидкости, пить кислые морсы.

Содержат йод:

- а) свекла, салат, морковь;
- б) дурнишник, ламинария, клюква, салат, шпинат, гречиха;
- в) зверобой, чистотел, шиповник.

Для примочек и обмываний при дерматитах используют растения:

- а) тысячелистник, зверобой, череду, валериану, клевер;
- б) крушину, сенну, вахту;
- в) горец змеиный, лопух, солодку, можжевельник, иву, сосну, душицу, мяту.

Основное воздействие при ревматических заболеваниях:

- а) иммунокоррекция, оптимизация обмена веществ, противовоспалительное, антибактериальное;
- б) антисклеротическое, анальгезирующее, цитостатическое, местнораздражающее;
- в) вяжущее, дубящее, обволакивающее, мочегонное.

Широко применяют противоопухолевые препараты из растений:

- а) колхамин, розевин, винкристин;
- б) солкосерил, сапарал, соматон, флакарбин;
- в) олиметин, викалин, викаир.

Существуют ли эфирные масла фиалки, яблоневого цвета, сирени:

- а) нет;
- б) эти растения не являются эфирномасличными;
- в) используют синтетические аналоги эфирных масел, имеющие сходный аромат, но не оказывающие лечебного действия.

Импульс в отдельном нервном волокне органов обоняния и ощущение запаха возникают:

- а) при возбуждении не менее 40 нервных волокон;
- б) попадании на рецепторы 8–10 молекул пахучего вещества;
- в) содержании в 1 м³ воздуха 15 млн молекул вещества.

Химическая коммуникация между животными осуществляется

- а) посредством запаха пота и сала;

- б) феромонов;
- в) гормонов, попадающих в секреты потовых и сальных желез.

При длительном приеме препаратов солодки:

- а) осложнений не бывает;
- б) может быть затруднено мочеиспускание, образуются отеки;
- в) возникает токсическое поражение почек.

Отравление багульником:

- а) возможно, вплоть до паралича;
- б) невозможно;
- в) возможно, но при очень высоких дозах.

Могут ли адаптогены вызывать угнетение деятельности центральной нервной системы:

- а) нет, только стимулируют;
- б) возможны парадоксальные реакции;
- в) да, в высоких дозах.

Способность облепихи усиливать рост аденомы предстательной железы связана:

- а) с содержанием фитоэстрогенов;
- б) иммуностропной активностью;
- в) способностью вызывать отеки.

Документ, регламентирующий применение лекарственных средств из растений:

- а) учебное пособие, утвержденное Минздравом России;
- б) Государственная фармакопея;
- в) Государственный реестр лекарственных средств;
- г) Красная книга.

К веществам первичного синтеза в растениях относят:

- а) белки, углеводы, липиды, ферменты, витамины;
- б) органические кислоты и минеральные элементы;
- в) гликозиды, алкалоиды, фенольные соединения, эфирные масла.

К веществам вторичного синтеза в растениях относят:

- а) белки, полисахариды, БАВ;
- б) дубильные вещества, витамины, ферменты;
- в) органические кислоты, минеральные* элементы, БАВ.

Слизи – это:

- а) липидные соединения;
- б) растворимые в воде углеводы, образующие коллоидные растворы;
- в) обволакивающие, смягчительные, противовоспалительные, ранозаживляющие фитосредства.

Растения, содержащие значительное количество каротина:

- а) крушина, тысячелистник, зайцегуб;
- б) облепиха, рябина, шиповник, ноготки, сушеница, череда, тыква;
- в) печень морских рыб (треска, камбала, палтус) и млекопитающих (киты, тюлени).

Водные извлечения из сырья, содержащего сапонины, целесообразно готовить:

- а) в виде настоя;
- б) режиме отвара на кипящей водяной бане или настаивания в термосе (4 ч);
- в) кипячением в течение 5 мин с последующим охлаждением (3 ч).

Большее содержание эфирного масла в водных вытяжках обеспечивает:

- а) отвар на водяной бане;
- б) настой с немедленным фильтрованием;
- в) настой в термосе в течение 3 ч с постепенным охлаждением.

Для максимального извлечения дубильных веществ целесообразно использовать:

- а) 15-минутное настаивание на водяной бане с 45-минутным постепенным охлаждением;
- б) отвар на кипящей водяной бане без последующего охлаждения при комнатной температуре;
- в) настаивание в микроволновой печи (50%-й мощности) в течение 20 мин.

«Экологическое воздействие» при фитотерапии означает, что:

- а) БАВ из растений или продукты их метаболизма поступают в организм с пищей;
- б) человек — часть биоценоза данной местности;
- в) для лечения используют только экологически чистые лекарственные травы.

Можно ли прогнозировать фармацевтическое взаимодействие в лекарственных формах из растений:

- а) да;
- б) нет;
- в) можно, но не с большой степенью достоверности.

Адаптогены:

- а) повышают иммунологическую реактивность и противоопухолевый иммунитет;
- б) стимулируют функции половых желез;
- в) повышают неспецифическую сопротивляемость организма и увеличивают его устойчивость к различным неблагоприятным факторам;
- г) общеукрепляющие средства.

Фитосредства – регуляторы репаративных процессов делят:

- а) на ранозаживляющие, противовоспалительные, общеукрепляющие;
- б) иммунопотенцирующие, антигипоксанты, противовоспалительные, анаболики;
- в) анаболики, общеукрепляющие, адаптогены, антибактериальные, противовоспалительные, биостимуляторы комбинированного репаративного действия.

Наибольшее содержание кобальта, имеющего значение для иммунной системы:

- а) в винограде, бобовых, свекле, салате, петрушке, малине, смородине черной, перце красном;
- б) тысячелистнике, календуле;
- в) коре дуба, цветках ромашки, корне аира.

К стимуляторам ЦНС, нарушающим передачу процессов торможения, относятся:

- а) алкалоидсодержащие растения;
- б) челибуха, секуринег, мордовник;
- в) аралия, лимонник, женьшень.

Кофеиноподобное и б-адреностимулирующее действие оказывают растения:

- а) чай китайский (чайный куст), кофе аравийский, какао настоящее, кола заостренная, падуб парагвайский, портулак огородный, эфедра хвощевая;
- б) кофе аравийский, чай китайский, золототысячник, девясил;
- в) адаптогены типа женьшеня.

При лечении бронхиальной астмы инфекционно-аллергической природы решающее значение имеют растения:

- а) общеукрепляющего и гормонального действия;
- б) антибактериального и противовоспалительного действия;
- в) влияющие на гормональную и иммунную сферы.

При гипотонии применяют растения, содержащие:

- а) адаптогены;
- б) седативного действия;
- в) спазмолитики.

Адаптогены при анемии применяют:

- а) при нормальном уровне артериального давления;
- б) депрессивных состояниях;
- в) инфекционном процессе.

Для снятия почечной колики в домашних условиях рекомендуют:

- а) принять успокоительный сбор и лечь в постель;
- б) горячую ванну (38 – 39 °С) продолжительностью 10 – 20 мин с растениями успокаивающего, спазмолитического, обезболивающего действия, после ванны находиться 1,5 – 2 ч в постели тепло укутанным;
- в) горячую ванну продолжительностью 10 – 20 мин с травой сушеницы, душицы, листьями шалфея, березы, цветами ромашки, соцветиями липы.

При лечении хронического простатита имеют значение:

- а) противовоспалительное и антибактериальное действие;
- б) спазмолитическое и общеукрепляющее действие;
- в) снимающее местный отек, улучшающее микроциркуляцию, антибактериальное действие.

Снижают аппетит и модифицируют обменные процессы при ожирении растения:

- а) кукурузные рыльца, лопух, пырей, брусника, цикорий;
- б) ромашка, полынь, тысячелистник, аир, бессмертник;
- в) анис, фенхель, хмель, пустырник.

При задержке менструации используют растения:

- а) льнянку, петрушку огородную, полынь обыкновенную, руту душистую;
- б) яблоки, вишню, лавровый лист;
- в) женьшенеподобного, иммуномодулирующего, антидепрессантного действия.

Антимикотической активностью обладают растения:

- а) пустырник, сenna, календула, зверобой, тысячелистник, патриния, хмель, ольха, дуб, льнянка;
- б) береза, вероника, дурнишник, горец птичий, настурция большая, грецкий орех, полынь, черемуха;
- в) горчица сарептская, можжевельник, мокрица, подорожник, тополь черный, эвкалипт.

Основной патогенетический признак ревматических заболеваний:

- а) иммуновоспалительное поражение соединительной ткани
- б) поражается опорно-двигательный аппарат
- в) поражаются суставы.

Растения, препятствующие развитию лейкопенического эффекта после воздействия цитостатиков:

- а) папоротник, солодка, череда, фиалка;
- б) морковь, бессмертник, морская капуста, лен, рута;
- в) лимонник китайский, сирень амурская, сосна обыкновенная.

Механизм действия ванн с эфирными маслами следующий:

- а) раздражение рецепторов кожи;
- б) за счет рецепторного воздействия и ингаляций;
- в) рецепторное, гуморальное, ингаляторное воздействие.

Чаще используют для аппликаций биовоски из растений:

- а) роза, шалфей, лаванда;
- б) чебрец, иссоп, базилик;
- в) береза, корица, лимон.

Нежелательные побочные эффекты алоэ:

- а) усиление перистальтики кишечника, диарея;
- б) усиление менструальных кровотечений, аллергические реакции;
- в) повышение артериального давления, сердцебиение, головная боль.

Препараты алоэ противопоказаны:

- а) при задержке желчеобразования, простатите;
- б) стрессах и бессоннице;
- в) беременности, циститах, кровотечениях.

Могут ли быть абсолютно безвредными средства, способные вызывать вильные фармакологические эффекты:

- а) да;
- б) нет;
- в) могут, но не всегда.

Фитотерапию относят:

- а) к народной медицине;
- б) к нетрадиционной медицине;
- в) медицина едина, фитотерапию следует рассматривать в научном медицинском поле.

К веществам первичного синтеза в растениях относят:

- а) белки, углеводы, липиды, ферменты, витамины;
- б) органические кислоты и минеральные элементы;
- в) гликозиды, алкалоиды, фенольные соединения, эфирные масла.

Сроки заготовки лекарственных растений определяют:

- а) время и место накопления полезных веществ в растении;
- б) климатическая зона;
- в) наличие водоемов и солнечная активность.

Спиртовые экстракты отличаются от настоек:

- а) более высокой концентрацией действующих начал;
- б) тем, что экстракты готовят выпариванием;
- в) экстракты готовят на 90%-м, а настойки на 40%-м растворе спирта.

Лучше извлекаются растительными маслами:

- а) алкалоиды (если они находятся в форме оснований), эфирные масла, жирорастворимые витамины;
- б) все витамины;
- в) сердечные гликозиды.

Водные извлечения из коры крушины, листьев ивы, плодов жостера, содержащих антрагликозиды, целесообразно готовить:

- а) в микроволновой печи при 70%-й мощности работы в течение 25 мин;
- б) в режиме отвара на кипящей водяной бане;
- в) кипячением в течение 20 мин.

Группы лечебных факторов фитотерапии:

- а) психотерапевтические и фармакологические;
- б) фармакологические, экологические, патогенетические;
- в) спонтанного и целенаправленного действия.

Воздействие в «режиме меню» означает:

- а) организм выбирает из множества предложенных те химические соединения, которые ему необходимы;
- б) организму предлагают те химические соединения, которых ему предположительно не хватает;
- в) организм «заказывает» и «выбирает» химические соединения, которые ему необходимы для нормального существования;
- г) фитосредство содержит необходимые питательные вещества (белки, жиры и углеводы) с заданной калорийностью.

В основе физиологической и репаративной регенерации лежит:

- а) воспаление;
- б) одни и те же механизмы, но более интенсивное течение при репаративной регенерации;
- в) пролиферация.

Можно ли применять иммунодепрессивный тип воздействия фитосредствами для коррекции репарации:

- а) нельзя, нужна только иммуностимуляция;
- б) можно, но вместе с иммуностимуляторами;
- в) можно при выраженном аутоаллергическом компоненте или при трансплантации органов и тканей.

К стимуляторам ЦНС, нарушающим передачу процессов торможения, относятся:

- а) алкалоидсодержащие растения;
- б) челибуха, секуринага, мордовник;
- в) аралия, лимонник, женьшень.

Роль инфекционных агентов в патогенезе заболеваний органов дыхания:

- а) вызывают воспаление;
- б) являются пусковым механизмом инфекционно-воспалительного процесса;
- в) патогенный агент не является лишь пусковым фактором, он участвует в формировании всей динамики воспалительного процесса.

При воспалительных процессах органов дыхания используют растения со следующим действием:

- а) бактерицидное, противовоспалительное, отхаркивающее, вяжущее;
- б) репаративное и антиаллергическое;
- в) общеукрепляющее и жаропонижающее.

Могут ли сердечно-сосудистые заболевания быть вызваны дисфункцией регуляторных систем:

- а) могут, например, артериальная гипертензия;
- б) нет, в основе сердечно-сосудистых заболеваний лежит атеросклероз;

- в) могут, только иммунной и нервной систем;
- г) нарушения функции эндокринной, нервной и иммунной систем могут привести к развитию многих заболеваний сердца и сосудов.

Лечить заболевания желудочно-кишечного тракта только фитосредствами:

- а) можно, кроме состояний, требующих активной гормонотерапии применения фармпрепаратов по жизненным показаниям;
- б) нельзя;
- в) можно.

Группы растений, обладающие фармакотерапевтическими свойствами, специфичными для заболеваний желудочно-кишечного тракта:

- а) антимикробным, болеутоляющим, вяжущим, подавляющим секрецию пищеварительных желез;
- б) желчегонным, кровоостанавливающим, смягчительным, обволакивающим, противовоспалительным;
- в) ранозаживляющим, спазмолитическим, стимулирующим секрецию пищеварительных желез.

Фитотерапия – это:

- а) клиническая дисциплина;
- б) теоретическая дисциплина;
- в) раздел фармакогнозии.

К веществам вторичного синтеза в растениях относят:

- а) белки, полисахариды, БАВ;
- б) дубильные вещества, витамины, ферменты;
- в) органические кислоты, минеральные* элементы, БАВ.

Надземные части растений целесообразно собирать:

- а) ранней весной;
- б) в середине лета;
- в) в период цветения растений.

Соки растений получают:

- а) из надземных частей растения;
- б) плодов и листьев;

в) любых органов свежих растений путем измельчения сырья и последующим выжиманием.

Новогаленовые препараты – это:

- а) максимально очищенные от балластных веществ водные и спиртовые извлечения;
- б) таблетки, гранулы, чай;
- в) химически стандартизованные спиртовые извлечения.

Водные извлечения – это:

- а) настои, отвары, напары, экстракты, ингаляционные смеси, лечебные ванны;
- б) экстракты, мази, настойки;
- в) настои, настойки, экстракты, бальзамы.

Регуляция восстановительных процессов обеспечивается:

- а) взаимно дополняющими друг друга нервными, гормональными, гуморальными и иммунными механизмами;
- б) иммунной системой;
- в) эндокринной и иммунной системами.

Нужна ли иммуностимуляция при наличии опухолей в организме:

- а) нужна, поскольку организм ослаблен;
- б) вредна, может проявиться «феномен усиления опухолевого роста»;
- в) нужно стимулировать только клеточное звено.

Адреномиметическое действие оказывают растения:

- а) портулак, эфедра, грудинка, копытень, майник;
- б) эфедра черная, промежуточная, пустынная;
- в) все виды кофеинсодержащих растений.

Обладают выраженными антибактериальными свойствами следующие растения:

- а) аир, береза, зверобой, календула, шалфей, эвкалипт, дуб, горец змеиный;
- б) ольха, череда, репешок, синеголовник;
- в) истод, клевер, малина, клюква.

Инфекционные агенты могут вызывать следующие заболевания сердечно-сосудистой системы:

- а) все заболевания;
- б) васкулиты, миокардиты, атеросклероз сосудов сердца;
- в) все заболевания, где присутствует воспаление.

Растения, оказывающие вяжущее действие:

- а) солодка, череда, календула;
- б) тысячелистник, зверобой, шалфей;
- в) алтей, бадан; калган, кровохлебка.

Растения, стимулирующие секрецию желез пищеварительного тракта:

- а) горечи;
- б) солодка, алтей, белладонна;
- в) аир, вахта, золототысячник, одуванчик, полынь.

Следующие овощи, ягоды и фрукты обладают выраженным мочегонным действием:

- а) арбуз, барбарис, груша, дыня;
- б) земляника, капуста, крыжовник, клюква, укроп;
- в) береза, айва, гранат, яблоко.

Кортикостероидоподобным действием обладают:

- а) адаптогены группы женьшеня, астрагалы, солодки, папоротник-многоножка;
- б) растения, способные стимулировать функцию коры надпочечников;
- в) растения, обладающие анаболическим действием.

Климактерический синдром характеризуется:

- а) изменением артериального давления и тахикардией;
- б) вегето-сосудистыми, нервно-психическими и обменно-эндокринными расстройствами;
- в) бессонницей, дизурией, диспепсией.

Основные принципы фитотерапии дерматитов и экземы:

- а) применяют противовоспалительные, антимикробные, репаративные, десенсибилизирующие фитосредства;

- б) главное - обеспечить нормальный баланс витаминов и микроэлементов;
- в) применяют седативные, вяжущие, обволакивающие, общеукрепляющие фитосредства.

Растения, наиболее часто применяемые для лечения суставных форм ревматизма:

- а) одуванчик, пырей, репешок, смородина черная, фиалка, череда;
- б) хмель, клевер, донник, липа, буквица;
- в) береза, верба, девясил, крапива, лопух.

Ступени канцерогенеза на молекулярном уровне:

- а) повреждение, гиперплазия, перерождение;
- б) внедрение вируса, извращенная репарация, амплификация;
- в) инициация (мутация), промоция, прогрессия.

Для эфирных масел характерны:

- а) терпеноиды;
- б) гликозиды;
- в) сложные эфиры.

Допустимо ли появление новых симптомов при фитотерапии?

- а) нет;
- б) немедленно отменить данное фитосредство;
- в) допустимо как временное явление при лечении основного заболевания.

Следует ли обращать внимание на обострение психоневрологической симптоматики при фитотерапии:

- а) нет;
- б) это допустимо;
- в) нужна коррекция лечения.

Тактика врача при отравлении:

- а) срочно отменить лечение, промыть желудок;
- б) антидотная, детоксикационная и симптоматическая терапия;
- в) антидотная терапия, срочная замена фитосредства.

Информационная база фитотерапии – это:

- а) фармакогнозия, фармакология;
- б) историческое наследие, фармакогнозия, фитофармакология, патоморфология и патофизиология, биофизика, психотерапия, врачебный опыт;
- в) историческое наследие, биохимия и биофизика растений и человека, психотерапевтический компонент.

Подземные органы растений целесообразно собирать:

- а) в период отмирания надземных частей, когда растения переходят в период покоя (конец лета–осень, ранняя весна);
- б) в фазе увядания цветков;
- в) в период бутонизации растений.

Водные извлечения из сырья, содержащего сапонины, целесообразно готовить:

- а) в виде настоя;
- б) режиме отвара на кипящей водяной бане или настаивания в термосе (4 ч);
- в) кипячением в течение 5 мин с последующим охлаждением (3 ч).

Большее содержание эфирного масла в водных вытяжках обеспечивает:

- а) отвар на водяной бане;
- б) настой с немедленным фильтрованием;
- в) настой в термосе в течение 3 ч с постепенным охлаждением.

Принцип антагонистической регуляции функций – это:

- а) всегда уравнивающее по отношению друг к другу влияние регуляторных систем;
- б) факторы восстановления организма;
- в) гомеостаз, который обеспечивается уравниванием тормозных и возбуждающих влияний.

Фагоцитоз стимулируют растения:

- а) горец птичий, репейничек, хвощ, шалфей, зверобой, череда;
- б) пустырник, хмель, тысячелистник;
- в) малина, смородина, крыжовник, рябина, валериана.

Есть ли противопоказания для применения адаптогенов:

- а) нет;
- б) да; язвенная болезнь, инфаркт, аллергия;
- в) да; повышенная нервная возбудимость, нарушение сна, острые инфекционные заболевания, гипертоническая болезнь II стадии.

Обладают отхаркивающим действием следующие растения:

- а) аир, ромашка, дуб, пустырник;
- б) алоэ, алтей, багульник, корень истода, подорожник, солодка;
- в) мята, укроп, фенхель, календула.

Сердечные гликозиды:

- а) восстанавливают тонус сердечной мышцы, усиливают ее сокращения, замедляют ЧСС;
- б) расширяют сосуды сердца;
- в) снижают АД и оказывают мочегонный эффект.

Лекарственные растения, подавляющие секрецию пищеварительных желез:

- а) алтей, белладонна, девясил, солодка, сушеница;
- б) полынь, тысячелистник, вахта;
- в) валериана, спорыш, шалфей.

В острой фазе язвенной болезни желудка применяют растения, обладающие свойствами:

- а) антиоксидантным, антибактериальным, вяжущим, обволакивающим, иммуномодулирующим, седативным, ингибирующим внешнюю секрецию;
- б) стимулирующим секрецию желез пищеварительного тракта, репаратным;
- в) седативным и противовоспалительным.

При пиелонефрите преимущественно поражаются:

- а) капилляры клубочков почек;
- б) почечная лоханка, чашечки и паренхима почки с преимущественным поражением межуточной ткани;
- в) почечная лоханка.

Стимулируют функцию коры надпочечников:

- а) растения, содержащие слизи и камеди;
- б) бузина черная, гипостемма пятнистая, паслен сладко-горький;
- в) ремания клейкая, смородина черная, хвощ полевой, камедь абрикоса и акации.

К нейроэндокринным синдромам относят:

- а) климактерический, посткастрационный, предменструальный;
- б) метроррагию, аменорею, олигоменорею;
- в) вирилизм, дисфункциональные кровотечения.

Для уменьшения экссудативных явлений наружно используют растения:

- а) дуб, зверобой, мяту, календулу, аир;
- б) противовоспалительного, вяжущего, дубящего, репаративного действия;
- в) березу, бруснику, пол-полу, почечный чай.

При ревматизме применяют наружно:

- а) траву донника, пустырник, листья малины, подорожника, сенны;
- б) перец красный, прострел луговой, редьку, сирень, сосновые ветки, таволгу, чебрец, фиалку;
- в) череду, бузину черную, девясил, эвкалипт.

Можно ли предотвратить рак:

- а) только теоретически;
- б) да;
- в) нет.

Конкрет – это:

- а) смесь душистых, дубильных, красящих и других веществ, полученных при переработке эфирномасличного сырья экстракцией органическим растворителем с последующей его отгонкой;
- б) экстракт, полученный при обработке сырья горячим этиловым эфиром;
- в) водный экстракт растения.

«Абсолютное масло» — это:

- а) вещество со 100%-й жирностью;
- б) вещество, содержащее только эфирные масла;
- в) часть конкрета, растворимая в спирте, обладающая запахом, наиболее полно передающим аромат исходного сыря.

Тактика врача при отравлении:

- а) срочно отменить лечение, промыть желудок;
- б) антидотная, детоксикационная и симптоматическая терапия;
- в) антидотная терапия, срочная замена фитосредства.

Нежелательные побочные эффекты алоэ:

- а) усиление перистальтики кишечника, диарея;
- б) усиление менструальных кровотечений, аллергические реакции;
- в) повышение артериального давления, сердцебиение, головная боль.

Препараты алоэ противопоказаны:

- а) при задержке желчеобразования, простатите;
- б) стрессах и бессоннице;
- в) беременности, циститах, кровотечениях.

Могут ли адаптогены вызывать угнетение деятельности центральной нервной системы:

- а) нет, только стимулируют;
- б) возможны парадоксальные реакции;
- в) да, в высоких дозах.

Изучение исторического наследия для фитотерапии имеет значение:

- а) познавательное;
- б) научное;
- в) практическое.

Растительные пектины – это:

- а) полисахариды клеточных стенок, основным компонентом которых являются полиуроновые кислоты;
- б) полисахариды, которые можно получить из свекловичного жома, яблочной выжимки, ягод клюквы, плодов шиповника, корней

солодки, обладающие репаративным, противовоспалительным действием;

в) БАВ с витаминной активностью.

На солнце можно сушить:

а) только цветки и плоды;

б) все, кроме надземных частей растения;

в) корневища с корнями, плоды и семена.

Историческая роль фитотерапии в развитии медицины:

а) всегда играла роль вспомогательного метода лечения;

б) была ведущим методом лекарственного лечения, но уступила место современной фармакотерапии, оставшись ее составной частью;

в) метод лечения, в последние годы полностью утративший свое значение.

Липиды растений – это:

а) жиры, жирные масла и жироподобные вещества природного происхождения;

б) насыщенные жирные кислоты (стеариновая, лауриновая, пальмитиновая);

в) ненасыщенные жирные кислоты (олеиновая, линолевая, линоленовая, арахидоновая).

Сушка считается законченной, когда:

а) корни, корневища, кора при сгибании не гнутся, а с треском ломаются, листья и цветки можно растереть в порошок, а сочные плоды, сжатые в руке, не склеиваются в комки и не мажутся;

б) растения теряют 60 % влаги;

в) когда сырье рассыпается в порошок при легком нажатии.

Соки растений получают:

а) из надземных частей растения;

б) плодов и листьев;

в) любых органов свежих растений путем измельчения сырья и последующим выжиманием.

Новогаленовые препараты – это:

- а) максимально очищенные от балластных веществ водные и спиртовые извлечения;
- б) таблетки, гранулы, чай;
- в) химически стандартизованные спиртовые извлечения.

В очаге повреждения происходят процессы:

- а) повреждение → медиаторная и микроциркуляторная реакция → экссудация и эмиграция из сосудов → очищение от продуктов распада → пролиферация фибробластов и рост сосудов → фибриллогенез коллагена → созревание и фиброзное превращение грануляционной ткани → реорганизация и инволюция рубца.
- б) воспаление в ответ на повреждение, репаративная регенерация, органосклероз;
- в) разрушение, дедифференцировка, рост и дифференцировка клеток.

Основные фармакологические эффекты солодки обеспечивает:

- а) глицирризиновая кислота, способная стимулировать кору надпочечников, что приводит к увеличению секреции кортикостероидов;
- б) глицирризиновая кислота, оказывающая иммуностимулирующее действие;
- в) глицирризиновая кислота, которая оказывает иммунодепрессивное действие, сравнимое с гидрокортизоном.

К растениям с аминазиноподобным действием относят:

- а) донник лекарственный, тысячелистник обыкновенный, маакию амурскую;
- б) валериану, кипрей узколистный, пион уклоняющийся, синюху голубую;
- в) все успокоительные средства.

Чаще применяют для полоскания ротоглотки растения:

- а) чистотел, душицу, бессмертник;
- б) морковь, свеклу, лук, чеснок;
- в) аир, звербой, календулу, ромашку, бузину черную, шалфей, эвкалипт.

Обладают антисклеротическим и успокаивающим действием:

- а) омела белая, боярышник, сушеница болотная;
- б) синюха голубая, укроп, ромашка аптечная;
- в) береза, пол-пола, крапива.

Чаще применяют при поносах фитосредства:

- а) противовоспалительные, успокоительные;
- б) обволакивающие, вяжущие, спазмолитические;
- в) иммуностропные, кровоостанавливающие. горечи.

При сигмоидите, геморрое, трещинах прямой кишки показаны клизмы с извлечениями из растений:

- а) полыни, бессмертника, солодки;
- б) валерианы, тысячелистника, хмеля;
- в) алтея, бадана, горца змеиноного, календулы, семени льна, шалфея.

Уратные камни образуются при избытке в моче:

- а) пуриновых соединений;
- б) солей щавелевой кислоты;
- в) солей угольной кислоты.

Для лечения диффузного токсического зоба используют растения:

- а) пустырник, бурую водоросль, ламинарию, Черноголовку, дурнишник, боярышник, грецкий орех;
- б) донник, ромашку, календулу, аир;
- в) только йодсодержащие.

Эндометриоз – это:

- а) доброкачественное разрастание ткани морфологически и функционально похожей на эндометрий;
- б) воспаление эндометрия;
- в) хроническое воспаление матки.

Характерный признак нейродерматозов:

- а) мокнутие;
- б) кожный зуд;
- в) покраснение кожи.

При ревматоидных артритах используют:

- а) исландский мох, пырей, марену красильную, почечный чай, пол-полу, таволгу, дягиль, багульник;
- б) бруснику, землянику, корень шиповника, сабельник;
- в) одуванчик, спорыш, лопух, ежевику, березу, хвощ.

Обладают ли противоопухоловой активностью растения, содержащие витамин А:

- а) нет, поскольку это витамин дифференцировки;
- б) обладают все растения, его содержащие;
- в) обладают многие растения, его содержащие (например, аконит болиголов).

Обонятельные клетки имеют следующие группы рецепторов:

- а) гормональные, трансмиссерные, триггерные;
- б) холинэргические, гамкергические, адренэргические;
- в) реагирующие на феромоны, на запахи пищи, на широкий круг веществ.

О тесной связи биосистем, опосредуемой летучими веществами, свидетельствует:

- а) сходство каскадов реакций, вызываемых гормонами;
- б) сходство химической структуры растительных ароматических веществ и регуляторных факторов: стероидных гормонов, простагландинов, нейромедиаторов и др;
- в) способность биосистем взаимодействовать.

Способность облепихи усиливать рост аденомы предстательной железы связана:

- а) с содержанием фитоэстрогенов;
- б) иммуностропной активностью;
- в) способностью вызывать отеки.

Может ли длительный прием извлечений из мяты вызывать недержание мочи:

- а) нет;
- б) да, но при приеме более 10 дней;
- в) может, ослабляя тонус гладкой мускулатуры.

Передозировка растений, содержащих дубящие и вяжущие вещества, вызывает следующие симптомы:

- а) запоры, рези в мочеиспускательном канале;
- б) рези в глазах, сухость слизистых оболочек;
- в) головные боли, тяжесть в правом подреберье.

При преимущественном поражении почечных канальцев у беременных противопоказаны растения:

- а) брусника, клюква, ревень, толокнянка;
- б) береза, сосна, хвощ;
- в) зверобой, календула, аир.

Положил начало изготовлению экстрактивных препаратов из лекарственных растений:

- а) диоскорид;
- б) теофраст;
- в) гален.

Витамины влияют:

- а) на репродуктивные процессы;
- б) обмен веществ, кроветворение, метаболизм, адаптацию, участвуют в окислительно-восстановительных процессах;
- в) процессы свертывания крови.

Стандарты измельчения:

- а) листья, цветки – не более 5 мм, стебли, кора, корни, корневища – не более 3 мм, плоды и семена – не более 0,5 мм;
- б) все частицы должны быть не более 0,5 мм;
- в) все частицы должны быть не менее 3 мм.

Большее содержание эфирного масла в водных вытяжках обеспечивает:

- а) отвар на водяной бане;
- б) настой с немедленным фильтрованием;
- в) настой в термосе в течение 3 ч с постепенным охлаждением.

Для максимального извлечения дубильных веществ целесообразно использовать:

- а) 15-минутное настаивание на водяной бане с 45-минутным

постепенным охлаждением;
б) отвар на кипящей водяной бане без последующего охлаждения при комнатной температуре;
в) настаивание в микроволновой печи (50%-й мощности) в течение 20 мин.

Соки растений получают:

а) из надземных частей растения;
б) плодов и листьев;
в) любых органов свежих растений путем измельчения сырья и последующим выжиманием.

Новогаленовые препараты – это:

а) максимально очищенные от балластных веществ водные и спиртовые извлечения;
б) таблетки, гранулы, чай;
в) химически стандартизованные спиртовые извлечения.

К растительным анаболикам гипогликемизирующего действия относят вещества:

а) ранозаживляющего действия;
б) инсулиноподобного действия;
в) с анаболическим эффектом, инсулиноподобным действием, лектины, горечи, пряности, растения, накапливающие витамины, аминокислоты, микроэлементы.

Растения иммуномодулирующего действия вызывают:

а) повышение уровня антител;
б) стимуляцию иммунитета;
в) нормализуют иммунитет независимо от направленности предшествующих сдвигов.

К растениям с резерпиноподобным действием относят:

а) все растительные ноотропы;
б) адаптогены и кофеинсодержащие;
в) раувольфию, барвинок, белокопытник, омелу, пустырник, шлемник и др.

При лечении ОРВИ и бронхитов отдают предпочтение сборам:

- а) для ингаляций;
- б) для приема внутрь;
- в) пригодным для ингаляций и приема внутрь.

При лечении ОРВИ и бронхитов отдают предпочтение сборам:

- а) для ингаляций;
- б) для приема внутрь;
- в) пригодным для ингаляций и приема внутрь.

Основные причины заболеваний печени:

- а) стрессы, травмы, алкоголь;
- б) инфекции, интоксикации, расстройства кровообращения, нарушения питания и обмена веществ;
- в) неправильное питание, применение химиопрепаратов, токсические вещества.

Лечение гепатитов только фитосредствами:

- а) возможно в случаях, не требующих гормональной терапии;
- б) невозможно;
- в) возможно только в комплексе с другими лекарственными средствами.

Способствуют выведению уратов следующие растения:

- а) тыква, баклажан, спорыш, подсолнечник;
- б) арбуз, брусника, земляника, петрушка, сельдерей, тыква;
- в) береза, хвоя сосны, тысячелистник, василек.

Инсулиноподобные вещества содержат растения:

- а) черника, галега, женьшень, аралия, элеутерококк, лук, бобовые (лектины);
- б) береза, боярышник, брусника, бузина черная, зверобой;
- в) заманиха, бархат амурский, тыква, черноголовник, барвинок малый, родиола розовая.

Для спринцеваний используют препараты из растений:

- а) крушины, пол-полы, сенны, чистотела;
- б) подорожника, березы, бадана, шалфея, ромашки;
- в) хмеля, синюхи, зюзника.

Способствуют снижению кожного зуда:

- а) можжевельник, чесночное масло, концентрированное укропное, гвоздичное, лавровое масло;
- б) все растения, отвечающие логике патогенетической терапии;
- в) все растения, обладающие иммуномодулирующим и успокаивающим действием.

При подагре нужно исключить из рациона:

- а) горох, фасоль, бобы, чечевицу, грибы;
- б) мясо, рыбу, фрукты;
- в) салат, редис, свеклу, картофель.

Фитотерапия онкобольных показана в случаях:

- а) когда уже есть опухоль, но еще нет метастазов;
- б) только после химиотерапии и лучевого лечения;
- в) всегда, в сочетании с другими методами.

Механизм бактерицидного действия эфирных масел:

- а) это клеточный яд;
- б) воздействуют на рецепторы, вызывающие апоптоз;
- в) вызывают деструкцию мембранных структур микробных клеток нарушения внутриклеточного метаболизма и гибель бактерий.

Аромат каких растений оказывает стимулирующий эффект на сердечно-сосудистую систему:

- а) сирени, боярышника, тополя, эвкалипта, лавра;
- б) сушицы, сосны, ели, тимьяна;
- в) можжевельника, чабреца, ромашки.

При преимущественном поражении почечных канальцев у беременных противопоказаны растения:

- а) брусника, клюква, ревень, толокнянка;
- б) береза, сосна, хвощ;
- в) зверобой, календула, аир.

Отравление багульником:

- а) возможно, вплоть до паралича;
- б) невозможно;
- в) возможно, но при очень высоких дозах.

Нежелательные побочные эффекты алоэ:

- а) усиление перистальтики кишечника, диарея;
- б) усиление менструальных кровотечений, аллергические реакции;
- в) повышение артериального давления, сердцебиение, головная боль.

Передозировка растений, содержащих дубящие и вяжущие вещества, вызывает следующие симптомы:

- а) запоры, рези в мочеиспускательном канале;
- б) рези в глазах, сухость слизистых оболочек;
- в) головные боли, тяжесть в правом подреберье.

Особенность работы фитотерапевта состоит в том, что он:

- а) применяет новые лекарственные средства;
- б) самостоятельно составляет лекарственную композицию, используя рекомендованные к применению растения;
- в) использует только стандартные фитосредства известных производителей.

Растения, богатые витамином С:

- а) лимоны, мандарины, антоновские яблоки, шиповник, черная смородина, хвоя сосны, крапива, первоцвет;
- б) корни аира, калгана, дягиля;
- в) цветки календулы, боярышника, пижмы.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev X.U, Allaeva M.J. Klinik farmatsiya. –Т.: «Tafakkur» nash.,2011. 56–65-b.
2. Клинические рекомендации и фармакологический справочник. Под ред. И.Н.Денисова. –М., 2005.
3. Кукес В.Т. Клиническая фармакология. –М., 2000.
4. Maxsumov M., Malikov M. Farmakolodiya. –Т.: «O‘zbekiston», 2006.
5. Maxsumov M.N., Xolmatov X.X. Fitoterapiya farmakologiya asoslari bilan. –Т.: «O‘zb. mil. entiklapediyasi» nashr., 2003.
6. Машковский М.Д. Лекарственные средства. 13 е. изд. 1-том. –Ташкент, 1998, 318–533 с.
7. Нуралиев Ю.Н. Лекарственной растения. –Душанбе: «Маориф», 1998. 110 с.
8. Самура Б.А., Малая Л.Т. и др. Фармакотерапия. –Харьков: 2000. 121–126 с.
9. Самура Б.А., Черных В.Ф. и др. Фитотерапия в клинике внутренних болезней. –Харьков, 2003. 34–134 с.
10. Соколов С.Я. Фитотерапия и фитофармакология. Руков. для врачей. –М.: Мед. инф. агентство, 2000, 85 с.
11. Соколов С.Я., Замотаев И.П. Справочник по лекарственным растениям. –М.: «Медицина», 1984г. 90–95 с.
12. Справочник Видал. Лекарственные препараты в Узбекистане. Изд. – 3е. –М., 2010.
13. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘.A. Farmakognoziya. –Т.: «O‘qituvchi», 2007. 350–372 b.
14. Xolmatov X.X., Pratorov O‘.B., Maxsumov M.N. Asoratsiz dori-darmonlar. –Т.: «O‘qituvchi», 2006. 13–149 b.
15. Юнусходжаев А.Н. и др. Справочник основных лекарственных средств Республики Узбекистана. Ташкент, 1998.
16. Sharipov O‘.B., Gaffarova F.K., Shodmonov U.I. Ichki kasalliklar. –Т.: Ibn Sino nomli nashr., 1994. 208–307 b.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
Fitoterapiya fani, vazifalari.....	5
Fitoterapiyaning qisqacha tarixi.....	7
Yangi dori vositalarining yaratilishi va ularni tibbiyot amaliyotiga kiritish.....	11
FITOTERAPIYANING UMUMIY MASALALARI.....	13
Dozalar. Oʻlchov birliklar.....	14
Dori vositalarining tanaga kiritish yoʻllari.....	17
Dori vositalarining taʼsir turlari.....	19
Dori vositalarini takror qoʻllashda boʻladigan oʻzgarishlar.....	20
Dori vositalarining nomosligi.....	27
Zaharli dorivor oʻsimliklar, fito va boshqa preparatlar bilan zaharlanishda koʻrsatiladigan yordam prinsplari.....	28
Fitopreparatlarning tasnifi.....	30
FITOTERAPIYANING XUSUSIY MASALALARI.....	33
I BOB. Markaziy nerv sistemasini (M.N.S) qoʻzgʻatuvchi dorivor oʻsimliklar va fitopreparatlar.....	33
II BOB. M.N.S. ragʻbatlantiruvchi va umumiy tonusni oshiruvchi dorivor oʻsimliklar va fitopreparatlar.....	39
III BOB. M.N.S.tormozlovchi dorivor oʻsimliklar va ularning fitopreparatlari.....	48
IV BOB. Asosan periferik nerv sistemaga (P.N.S.) taʼsir etuvchi dorivor oʻsimliklar va fitopreparatlar.....	56
V BOB. Ayrim yurak qon-tomir kasalliklarida ishlatiladigan dorivor oʻsimliklar va fitopreparatlar.....	79
VI BOB. Nafas aʼzolari kasalliklarida ishlatiladigan dorivor oʻsimliklar va ularning fitopreparatlari.....	121
VII BOB. Hazm qilish aʼzolari kasalliklarida ishlatiladigan dorivor oʻsimliklar va ularning fitopreparatlari.....	147
VIII BOB. Buyrak va peshob chiqarish yoʻllari kasalliklari fitoterapiyasi.....	181
IX BOB. Qon oqishini toʻxtatadigan dorivor oʻsimliklar va ularning fitopreparatlari.....	204
X BOB. Teri kasalliklar fitoterapiyasi.....	209
XI BOB. Stomatologik kasalliklar fitoterapiyasi.....	223
XII BOB. Vitamin yetishmovchiligining fitoterapiyasi.....	229
XIII BOB. Xalq tabobatida ishlatiladigan ayrim dorivor oʻsimliklar.....	244
Dorivor oʻsimliklarning oʻzbekcha, ruscha va lotincha nomlarining roʻyxati.....	248
Foydalanilgan adabiyotlar.....	333

FITOTERAPIYA

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013

Muharrir: Sh. Kuserbayeva
Tex. muharrir: M.Xolmuhamedov
Musavvir: B.Nasritdinov
Musahhiha: F.Ismoilova
Kompyuterda
sahifalovchi: Sh. Mirqosimova

**E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 12.11.2013.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times Uz» garniturasini. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 20,5. Nashr bosma tabog'i 21,0.
Tiraji 500. Buyurtma №166.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent shahri, Olmazor koʻchasi, 171-uy.**

TFAN VA 
TEKNOLOGIYALAR

ISBN 978-9943-10-972-8



9 789943 109728